ISBN 978-9910-8089-6-8

SOLIQ SIYOSATI

S.K.XUDOYQULOV, N.R.KUZIYEVA, SH.B.BABAYEV

S.K.XUDOYQULOV,
N.R.KUZIYEVA,
SH.B.BABAYEV



SOLIQ SIYOSATI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



S.K.XUDOYQULOV, N.R.KUZIYEVA, SH.B.BABAYEV

SOLIQ SIYOSATI

DARSLIK

60410200 — «Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT 2025

UO'K: 336.02(575.1)(075)

KBK: 65.261.4ya7

S.K.Xudoyqulov, N.R.Kuziyeva, Sh.B.Babayev. Soliq siyosati. (Darslik) – T.: OOO "DIADEMA NUR SERVIS", 2025. 392 b.

ISBN : 978-9910-8089-6-8

Ushbu «Soliq siyosati» nomli darslikda soliq siyosatining yuzaga kelish ijtimoiy-iqtisodiy evolyusiyasi, soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliq tizimi va soliq siyosati, soliq siyosatining shakllari, soliq siyosatining ishlab chiqilish jarayonlari, soliq siyosati strategiyasi mazmuni, soliq siyosati taktikalari mohiyati, soliq-byudjet siyosati tamoyillari, soliq siyosatining bosqichlari, soliq siyosatida soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish masalalari, soliq imtiyozlari va ulardan samarali foydalanish kabi masalalar o'z aksini topgan.

Darslik Davlat ta'lim standartlari talablari va «Soliq siyosati» fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, 60410200 — «Soliqlar va soliqqa tortish» (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Shuningdek ushbu darslik «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim yo'nalishi talabalari bilan birgalikda malaka oshirish markazlarining tinglovchilari, oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari bakalavrlari, magistrlari, moliya va soliq mutaxassislari, bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, ilmiy tadqiqotchilari hamda shu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K:336.02(575.1)(075)

KBK: 65.261.4ya7

Taqrizchilar:

S.E.Shirinov – TDIU "Soliq va soliqqa tortish" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

U.X.Normurzayev – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi Yirik soliq tolovchilari bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi Soliq solish bo'yicha maslahat shubasi Davlat soliq bosh inspektori.

ISBN : 978-9910-8089-6-8

© S.K.Xudoyqulov, N.R.Kuziyeva, Sh.B.Babayev, 2025

© OOO "DIADEMA NUR SERVIS", 2025

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni hamda ushbu me'yoriy hujjatning mantiqiy davomi sifatida 2019 yil 10 iyulda qabul qilingan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori, 2022 yil 4 avgustdagi "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-787-sonli qonuni asosida milliy soliq tizimida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"da mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan soliq islohotlariga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar borligi ta'kidlab o'tildi. Bular, soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish prinsiplari eskirganligi bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayatganligiga to'xtalib o'tildi. Shu bilan birgalikda xufiyona iqtisodiyot darajasini qiskartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emasligi, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilganligi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashdagi tizimli kamchiliklar mavjudligi ta'kidlangan.

Mazkur darslik 60410200 – "Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun va oliy ta'lim ta'lim muassasalarida soliq fanlari bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borayotgan pedagog xodimlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda davlatning muhim funksiyalaridan biri hisoblangan soliq siyosatini amalga oshirishning zarurligi, soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari, soliq siyosatining shakllari, uni amalga oshirish bosqichlari, soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda vakolatli organlarining roli va ishtiroki, soliq siyosatining o'zagini tashkil etuvchi soliq imtiyozlari, soliq stavkalarini qo'llash masalalari, davlatning byudjet siyosatini amalga oshirishda soliq siyosatining o'zaro bog'liqligini ta'minlash masalalari, "Soliq siyosati"

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli farmoni hamda ushbu me’yoriy hujjatning mantiqiy davomi sifatida 2019 yil 10 iyulda qabul qilingan “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-sonli qarori, 2022 yil 4 avgustdagi “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-787-sonli qonuni asosida milliy soliq tizimida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”da mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan soliq islohotlariga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar borligi ta’kidlab o‘tildi. Bular, soliq ma’muriyatchiligini tashkil etish prinsiplari eskirganligi bo‘lib, soliq to‘lovchilarga kompleks xizmatlar ko‘rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta’minlamayatganligiga to‘xtalib o‘tildi. Shu bilan birgalikda xufiyona iqtisodiyot darajasini qiskartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag‘batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emasligi, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta’minlashga to‘sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo‘lga qo‘yilganligi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashdagi tizimli kamchiliklar mavjudligi ta’kidlangan.

Mazkur darslik 60410200 – “Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun va oliy ta’lim ta’lim muassasalarida soliq fanlari bo‘yicha dars mashg‘ulotlari olib borayotgan pedagog xodimlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda davlatning muhim funksiyalaridan biri hisoblangan soliq siyosatini amalga oshirishning zarurligi, soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari, soliq siyosatining shakllari, uni amalga oshirish bosqichlari, soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda vakolatli organlarining roli va ishtiroki, soliq siyosatining o‘zagini tashkil etuvchi soliq imtiyozlari, soliq stavkalarini qo‘llash masalalari, davlatning byudjet siyosatini amalga oshirishda soliq siyosatining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash masalalari, "Soliq siyosati"

fanining rivojlanish taraqqiyoti oid ilmiy nazariyalar va qarashlarning qisqacha mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, soliqqa tortish amaliyoti uchun muhim sanalgan soliq elementlari va ularni qo‘llanilish xususiyatlari, soliq tamoyillari, soliq siyosati va tizimining tarkibi ularni tashkil etish asoslari hamda soliqlarning makroiqtisodiy jarayon bilan uzviy bog‘liqlik masalalari nazariy jihatdan yoritilgan.

Darslikda keltirilgan materiallar va ma’lumotlar bo‘lajak soliq mutaxassislarining o‘z kasbiy bilim va malakalarini oshirish uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

I-BOB. SOLIQ SIYOSATI FANINING PREDMETI VA MAQSADI

1.1. “Soliq siyosati” fanining predmeti va maqsadi

«Soliq siyosati» fanining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati, soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash, O‘zbekiston respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi, soliq munosabatlarining sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlari, soliq qonunchiligini soddalashtirish va davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, soliq majburiyatini bajarish soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlarini mazmun va mohiyati bilan yaqindan tanishtirib, soliq siyosati bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish, fan buyicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Ushbu fan soliq siyosatini takomillashtirishda soliqlarning asosiy prinstiplarini o‘rgatishda qo‘l keladi.

Shuningdek, «Soliq siyosati» fani mutaxassislik fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fanning vazifasi O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati, soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash, O‘zbekiston respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi, soliq munosabatlarining sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlari, soliq qonunchiligini soddalashtirish va davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, soliq majburiyatini bajarish soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlari, soliq siyosatini takomillashtirishda soliqlarning asosiy prinstiplari bo‘yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda amaliy tomondan o‘rgatish hamda soliq amaliyotida tadbiq etishdir.

Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati, soliqlarni

unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlarining soliq amaliyotidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish asosida qilingan xulosalarni iqtisodiyotimizga mos tomonlarini tadbiq etishdan iboratdir.

Mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayondan kelib chiqqan xolda soliq siyosatining maqsadlari belgilanadi. Shuningdek, soliq siyosatining maqsadlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mamlakat iqtisodiyotini strategik rivojlanish vazifalari, davlatning xalqaro moliyaviy majburiyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham davlatning soliq siyosati quyidagi maqsadlarni bajaradi:



1-rasm. Soliq siyosatining maqsadi.

Soliq siyosatining iqtisodiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, ish faolligini jonlantirish, xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratiladi.

Fiskal maqsadi davlat xokimiyati organlarining har birini iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydi.

Ijtimoiy maqsadi esa daromadlarni tartibga solishga qaratilgan davlat siyosatidan kelib chiqqan xolda aloxida guruxlar manfaatlari uchun milliy daromadni qayta taqsimlaydi va tengsizlikni bartaraf qilishni ta’minlashga qaratilgan.

Xalqaro maqsadi boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustaxkamlash uchun davlatning xalqaro majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi.

Soliq siyosatining amaldagi ifodasi soliq mexanizmi orqali namoyon bo‘ladi. Hozirgi paytda aynan soliq mexanizmi ko‘plab mamlakatlar

iqtisodiyotini tartibga solishdagi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Soliq mexanizmi mamlakat soliq tizimining tashkiliy jixatlari, huquqiy me’yorlari va boshqaruv usullarini o‘zida mujassam etadi. Soliq mexanizmining amal qilishi, iqtisodiyotni tartibga solishda soliq elementlarini o‘zida mujassam etgan soliq qonunchiligi asosida namoyon bo‘ladi. Davlatning soliq siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solishi soliq elementlari orqali amalga oshirilib, bunday soliq elementlariga soliq stavkasi, soliq imtiyozi, soliq bazasi, jarimalar va shu kabilar kiradi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda ushbu vositalardan bevosita va bilvosita foydalaniladi.

“Soliq siyosati” fanining predmeti bo‘lib, soliq to‘lovchi sub’ektlarga mos ravishda yuklatilgan soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarni davlat byudjeti, shuningdek, byudjetdan tashqari davlat jamg‘armalariga belgilangan muddatlarda to‘lash jarayonini qulaylashtirish xisoblanadi.

Davlat byudjeti bu – davlat moliyasining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, mamlakatning asosiy moliya rejasi hisoblanadi. Davlat byudjeti ikki qismdan ya’ni — daromadlar va xarajatlardan iborat.

Soliq siyosati fanining maqsadi — Soliq to‘lovchi sub’ektlarning moliya–xo‘jalik faoliyatiga keskin zarar yetkazmagan holda, soliq yukini pasaytirish orqali davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari davlat jamg‘armalarining daromad qismini o‘z vaqtida va to‘liqligicha shakllantirishga maksimal qulaylik yaratishdan iborat.

«Soliq siyosati» fani O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Soliq siyosati» fanining asosiy vazifasi yuqori malakali davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ularni ham nazariy, ham ilmiy, ham amaliy jihatidan o‘rganishlarini va bilimga ega bo‘lishlarini ta’minlashdan iboratdir.

1.2. Fanni o‘rganishdagi umumiy va alohida medotlari

«Soliq siyosati» fani barcha iqtisodiy fanlar kabi o‘zining predmetiga, ya’ni izlanish obyektiga ega. «Soliqqa kirish» fanining predmeti bo‘lib soliqlar va soliq munosabatlarini paydo bo‘lishi hamda soliqlarning harkati hisoblansa, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investistiyaviy jozibadorligini yaxshilash,soliq sohasidagi qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora tadbirlar «Soliq siyosati» fanining predmeti bo‘lib hisoblanadi.

«Soliq siyosati» fanini o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida

usullarga bo‘linadi.

Har bir fanning shakllanishi fanning predmetini shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan-bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan Soliq siyosatifanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa — bu induksiyadir. Avval boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu — deduksiyadir.

Shu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliq siyosati fani» fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta’siri e’tiborga olinmaydi.

Soliq siyosati fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil — bu o‘rganilayotgan butun obyektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo‘lsa, sintez esa o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fan o‘z predmetini o‘rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo‘shib olib borish muhim o‘rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o‘rganishda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar nuqtai-nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya’ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o‘rganiladi.

Shuningdek, fan o‘z predmetini o‘rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni

aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o‘zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta’sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

1.3. «Soliq siyosati» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi

«Soliq siyosati» fani soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investistiyaviy jozibadorligini yaxshilash, soliq sohasidagi qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora tadbirlarni chuqur o‘rganish asosida xulosa qilib olingan, takrorlanib turadigan soliqlarga oid munosabatlarni tartibga solib o‘rgatadi.

«Soliq siyosati» fani «Soliq huquqi» va «Soliqlar va soliqqa tortish» fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki soliqqa tortishda soliqlar soliq nazariyasi qonuniyatlari va soliqqa tortish tamoyillaridan chetga chiqib ketaolmaydi, ularga asoslanadi.

Bu fan «Moliya asoslari» fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki soliqqa tortishda soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun moliya ham, soliqqa tortishda soliqlar ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu ikkala fan uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin soliqqa tortishda soliqlar keyinchalik o‘ziga xos bo‘lgan pul munosabatlarini, ya’ni soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Shuningdek, «Soliq siyosati» fani bakalavriat ta’lim yo‘nalishidagi «Soliqqa kirish», «Soliq huquqi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Biznesni soliqqa tortish», «Soliqqa tortish tamoyillari», «Moliya asoslari», «Buxgalteriya hisobiga kirish», «Iqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Makroiqtisodiyot» va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Soliq siyosati fani iqtisodiy nazariya fani bilan chambarchas bog‘liqdir va uning maxsus bo‘limi, ya’ni chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq siyosatining qonuniyatlari umum-iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

Fan shuningdek, soliqlar va soliqqa tortish fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Soliq siyosati fani o‘z predmetini o‘rganar ekan, birinchi navbatda bugungi kundagi mamlakatimiz soliq tizimi bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Bunda amaldagi soliq mexanizmining nazariy masalalari ochib beriladi.

Soliq siyosati fani davlat byudjeti fani bilan ham o‘zaro bog‘liqdir.

Chunki soliqlar oxir oqibatida byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo‘lmasa byudjet munosabatlarining o‘zi bo‘lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, buxgalteriya hisobi, soliq huquqi fanlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

1.4. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliqlarning asosiy prinstiplari

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘zlariga soliq qonunchiligi xujjatlarida yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlarini o‘rganib qolmasdan, O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati, soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash, O‘zbekiston respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi, soliq munosabatlarining sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlari, soliq qonunchiligini soddalashtirish va davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, soliq majburiyatini bajarish soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlarini amaldagi holatini puxta egallagan bo‘lishi zarur. Buning uchun esa, «Soliq siyosati» fanini chuqur o‘rganishi kerak.

«Soliq siyosati» fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning mohiyati, O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati, soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash, O‘zbekiston respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi, soliq munosabatlarining sub’ektlarining huquqlari va majburiyatlari, soliq qonunchiligini soddalashtirish va davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, soliq majburiyatini bajarish soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarining huquqiy oqibatlariga oid boshqa harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarining oshkoraligi va soliq to‘lovchining haqligi prezumpstiyasi prinstiplariga asoslanadi.

Soliq solishning majburiyligi prinsipi – har bir shaxs soliq qonunchiligida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart.

Hech kimning zimmasiga soliq qonunchiligida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi prinsipi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar aniq bo‘lishi kerak. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to‘lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to‘lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo‘lishi kerak.

Soliq solishning adolatliligi prinsip – soliq solish umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinstiplariga mos bo‘lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi – soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan yagonadir.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsip – soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart. Barchaning e’tibori uchun rasmiy e’lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko‘rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sankstiyani qo‘llashga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to‘lovchining haqligi prezumpstiyasi prinsipi – soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq, davlat, byudjet, soliq to‘lovchilar, moliyaviy munosabatlar, dialektik usul, tahlil va sintez usuli, ilmiy abstraksiya usuli, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil, maqsad, fan predmeti.

Takrorlash uchun savollar

1. Fanni o‘rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering?
2. Fanni o‘rganishdagi alohida usullar haqida tushuncha bering?
3. Soliq siyosati fani o‘z predmetini o‘rganishda qaysi fanlar bilan aloqada bo‘ladi?
4. Soliq siyosati fanini o‘qitish nima uchun kerak?
5. Soliq siyosati fani nimani o‘rgatadi uning qanday vazifalari bor?
6. Soliq siyosati fanining mazmunida nimalarni o‘rgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?
7. Soliq siyosatini amalga oshirishda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarni ifodalashda «Soliq siyosati» fanining ahamiyati qanday?
8. Soliq siyosatini amalga oshirishda soliqlarning qanday asosiy prinstiplari mavjud?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq siyosati nima?

A) Fiskal siyosatning ajralmas va asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlarning amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir

B) Bu qarorlar qabul qilish va oqilona natijalarga erishish uchun ataylab ishlab chiqilgan ko‘rsatmalar tizimidir. Siyosat niyat bayonoti bo‘lib, protsedura yoki protokol sifatida amalga oshiriladi. Siyosat, odatda, tashkilot ichidagi boshqaruv organi tomonidan qabul qilinadi.

C) Hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo‘li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta’minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari

D) Iqtisodiyotni boshqarish, mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo‘nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo‘nalishi, tadbirlari tizimi.

2. Soliq siyosatining tarkibiy qismlari qaysi?

A. Soliq siyosati konsepsiyasi, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi.

B. Iqtisodiy siyosat, monetar siyosat, investitsiyalar siyosati.

C. Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozi.

D. Yuqoridagilarni barchasi to‘g‘ri javob.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qachon qabul qilingan?

A. 2018-yil 29-iyun

B. 2018-yil 30-aprel

C. 2020-yil 29-iyul

D. 2020-yil 30-aprel

4. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosati fanining dolzarb ahamiyatini ifodalaydi?

A. Soliq stavkalarini tasodifiy belgilashga imkon beradi

B. Soliq siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va baholashga yordam beradi

C. Faqat tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishlatiladi

D. Moliyaviy buxgalteriya hisobotlarini yuritadi

5.Fanni o‘rganishdagi umumiy usullar nimalarni o‘z ichiga oladi?

A. Faqat tajriba o‘tkazish va solishtirish

B. Kuzatish, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya

C. Faqat statistik ma'lumotlarni yig‘ish

D. Yagona qonunlarni izohlash

6.Fanni o‘rganishdagi alohida usullar deganda nima tushuniladi?

A) Har qanday fanlararo tahlil usuli

B) Faqat mantiqiy tahlil asoslari

C) Mazkur fan sohasiga xos bo‘lgan o‘ziga xos metodlar

D) Tabiiy fanlar metodlarini qo‘llash

II-BOB. SOLIQ SIYOSATINING YUZAGA KELISH IJTIMOIY-IQTISODIY EVOLYUSIYASI

2.1. Qadimgi davlatchilik davrlarida soliq siyosati

Soliqlar va uni undirish bilan bog‘liq soliq siyosatining paydo bo‘lishi va rivojlanishida Qadimgi Rim ham katta ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Rimda ham Gresiya singari soliqlarning rivoj topishi ko‘pincha ularning harbiy siyosatiga ham bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi Rimda soliqlarning rivojlanishi ikki davrni o‘z ichiga oladi. Birinchisi bu eramizdan avvalgi 167 yilgacha bo‘lgan(Isoning tug‘ilishi) davrlar bo‘lib, bunda aholidan deyari soliqlar olinmagan. Shaharlarni boshqarish xarajatlari unchalik katta bo‘lmasdan uning xarajatlari magistrlar (shahar hokimlarining nomlanishi) ining shaxsiy mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan.[1] Davlatning asosiy xarajatlari esa binolarni qurishga sarflangan bo‘lib, ularni moliyalashtirish davlatga qarashli bo‘lgan yerlardan olinadigan ijara to‘lovlari hisobiga qoplanib kelingan. Rimning qudratining oshishi va harbiy yurishlarni boshlashi soliqlar borasidagi davlat siyosatiga ta’sir qilgan. Dastlab aholining shaxsiy majburiyatlari sifatida yig‘imlar olingan bo‘lsa, keyinchalik urush xarajatlarini qoplash maqsadida favqulotda soliqlar (atributim civium) joriy qilingan. Bu soliqning xususiyati shundan iboratki, u qaytarib berish sharti bilan olingan, urushda qo‘lga kiritilgan mablag‘lar hisobi ular qaytarilgan bo‘lsa, keyinchalik u davlat qarzi sifatida ham atalib kelindi.[2] Rimning chetdagi olib borgan kurashlari va qo‘lga kiritgan o‘ljalarining oshib borishi bilan "atributim civium" deb ataluvchi yig‘imlar bekor qilinib, soliqlar umumiy tartibda mutanosib shaklda joriy etilad boshlandi, ya’ni uning to‘lovchilarining geografiyasi kengaydi. Soliqlarning hajmi har besh yilda saylab qo‘yiladigan amaldorlar-senzorlar tomonidan aniqlanib, Rim fuqarolari senzorlarga o‘z navbatida o‘zlarining mol-mulki va moliyaviy ahvoli haqida axborot berib turgan va keyinchalik esa deklaratsiya shakliga o‘tdi.

Rim bosib olgan mustamlaka joylarda kommunal(mahalliy) soliqlar va majburiyatlar joriy qilindi. Rimdan tashqari yashovchi va Rimliklar esa ham davlat ham mahalliy soliqlarni to‘lash tizimiga o‘tkazildi. Rim imperiyaga aylangandan so‘ng uning bosib olgan joylardagi fuqarolari Rimning fuqarosi sifatida huquqqa ega bo‘lmagan va ular kommunal (mahalliy) soliqlarni doim to‘lab borgan. Qadimgi Rimda soliqlarning keng

[1] http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp

[2] Учебник финансового права. Иловайский С.И. — Одесса, — 1904г. // Allpravo.Ru -2005. с. 96

rivojlanishida imperator Avgust Oktavian (eramizdan avalgi 63-14 yillar.) davrida roʻy berdi. A.Oktavian "victsimani hereditatum" deb nomlangan meros soligʻini joriy qildi, bu soliq faqat Rim fuqarolari uchun joriy qilingan boʻlib, "atributim civium" yigʻimi bekor qilingan soʻng Rim aholisi deyarli soliqlar toʻlamay kelayotgan edi. Rimning imperiya qudrati oshib borishi va uning hududi kengayib borishi soliqlarni undirishda malim bir shaxslarga soliqlarni undirish huquqi berilgan boʻlib, bunda soliqlarni undirish huquqini kiritish uchun davlatga maʻlim miqdorda haq toʻlangan va u haqning oʻrni undirilgan soliqlar hisobiga qoplangan. Ammo, soliqlarni undiruvchilar tomonidan adolatsizliklarga koʻp yoʻl qoʻyilishi imperator A.Oktavian tomonidan bunday tartibni keskin qisqartirishi va joylarda davlatning moliyasi shugʻullanuvchi davlat idoralarini tashkil qilishga olib keldi. Har bir yerlarning kadastrlarini aniqlash, har bir mol-mulk va yer egalarining deklaratsiyalr topshirish majburiyatlari joriy qilindi. Rimning soliq tizimi qaytadan isloh qilindi soliqlar va yigʻimlarning soni ortib bordi. Masalan, Rimning keyingi davrlarida sotuvdan soliq, meros soligʻi, qul saqlaganligi uchun soliq, poytaxtning mahsulot fondiga soliq, yer soligʻi, bodring uchun soliq, jon boshiga soliq, uy qurganlik uchun soliq, sovun soligʻi hamda bozorlarda nazoratni ta’minlash uchun yigʻim, portda mahsulotni ortganligi va tushurganligi uchun yigʻim, yoʻl toʻlovi, pulni almashtirganligi va maydalaganlik uchun yigʻim, eshaklarni roʻyxatdan oʻtkazganlik uchun yigʻim, chorva mollari uchun yigʻim, uy-joylar uchun yigʻim, qul sotganlik uchun yigʻim, izvoshchilardan olinadigan yigʻim, hammomchilardan olinadigan yigʻim, ma’naviy axloqsizlik faoliyati uchun yigʻim, soliq undiruvchilarni saqlash yigʻimi, manzara yigʻimi, muhtojlarga yordam yigʻimi, qarzdorlarni qamoqxonada saqlash yigʻimi, tuman boshligʻi uchun yigʻim, mamlakatga tovar olib kirganligi va olib chiqqanligi uchun yigʻim, darvozlardan kirganligi uchun toʻlov, davlat idoralarining ish yuritish qurollari uchun yigʻim va kabi koʻplab yigʻimlar undirildi, ahvol shu darajaga bordiki, Rimda undiriladigan soliqlar va yigʻimlar soni 46 taga yetib qoladi. Rim imperiyasining qudrati susayib borishi va uning hududida yuzaga kelgan feodalizmga asoslangan davlatlarning tashkil topishi Rimda amal qilgan soliqlarning aksariyati bekor qilindi va ularni undirish tartiblari ham oʻzgarib bordi.

2.2. Islom-Arab davlatlarida soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog‘liq siyosat

Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishi diniy tushunchalarning o‘rni katta ta’sir qilgan. Ayniqsa, bu islom dinining tarqali va uning shariy tartiblari asosida turmush tarzi kechirish g‘oyalarining yoyilishi vaqtida va undan keyingi davlat faoliyatini boshqarish tizimida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Muhammad payg‘ambar yirik islom davlatini shakllantirib, Madina shahar-davlati iqtisodiy tizimini shakllantirish harakatini boshlab berdi. Ilk davr soliq tizimida Madina hukmiga bo‘ysindirilgan qabilalarning mol-mulklari asosiy o‘rin tutdi. Lekin Payg‘ambar davrida (622-632) chorva-moldan davlat foydasiga olinadigan soliq mavhum – goho «sadaqa»(صدقة), goho «zakot»(زكاة) deb atalib, bu termin-atamalar ilk davrda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llanildi. Qur’onning tarixiy oyatlaridan qadimda yahudiy va nasroniy jamoalar uchun ham diniy soliqlar qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Demak, Arabiston yarim oroli, Vizantiya va Sosoniylar davlatlaridagi xristianlik va yahudiylik dinlariga e’tiqod qiluvchi aholi uchun islom paydo bo‘lishidan oldin bunday soliq turi ma‘lim bo‘lgan. Qadimda xristianlar o‘rtasidagi tabaqaviy tenglikni saqlash maqsadida boy va o‘rtahol xristianlik diniga e’tiqod qiluvchi aholi oylik daromadining o‘ndan birini (desyatina) soliq sifatida cherkovga olingan. Yahudiylarda esa diniy majburiyat sifatidagi soliq «solihlik» (sedaka) deb atalgan. Yahudiylar chorva-mollari, hosil, urushda orttirilgan o‘ljalar va mol-mulklarning o‘ndan birini har oyda sedaka solig‘i sifatida ibodatxonani ta’mirlashga ishlatganlar, ruhoniylar, kambag‘allar, beva va yetimlar orasida tarqatganlar.

Demak, bu soliqlar xristian va yahudiy dinlaridagi dindorlarning majburiyatlari sanalib, davlat ahamiyatiga molik bo‘lmagan. Islom dinida ham zakot solig‘i musulmonlarning boy tabaqalari uchun diniy farz sifatida joriy etildi. Xristianlik va yahudiylikdan farqli o‘laroq zakot solig‘i musulmonlardan yiliga bir marta yig‘ib olinadigan bo‘ldi. Avvaliga Muhammad payg‘ambar va xalifa Abu Bakr davrida (632-634) zakot solig‘i Qur’onda buyurilganidek, faqat faqirlar, miskinlar, sadaqa [zakot] yig‘uvchilar, ko‘ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar, qullarni ozod qilish uchun, qarzdorlar va musofirlarga tarqatildi. Muhammad payg‘ambar zakot solig‘idan tushgan mablag‘ning ma‘lim qismini musulmon bo‘lmagan arab qabilalarining shayxlari, e’tiborli kishilarga nafaqa sifatida berib turgan. Bundan asosiy maqsad ularning qabiladoshlari orasida islom diniga nisbatan hurmat hissini uyg‘otish edi. Qur’onda zikr etilgan mazkur yetti toifaning ichidagi ko‘ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar (لقلوبهم مؤلفة

– mu’allafatu liqulubihim)ga berish nafaqa Umar Ibn Al-Xattob davrida bekor qilindi. Yangi tashkil topayotgan davlatda soliq masalasida ilk davrga nisbatan tub o‘zgarishlar Umar Ibn Al-Xattob davriga kelib yuz bera boshladi. Islomdan avvalgi arablar amaliyotida biror hududni kuch bilan (عنوة – ‘anvatan) bosib olish davomida aholi punktlaridagi ekinzorlarni o‘zaro mulk qilib bo‘lib olish odat tusiga kirgan edi. Muhammad payg‘ambar ham shu odatga ergashgan holda Xaybarni zabt etish (628 yil) davomida egalari urushda halok bo‘lgan ekinzorlarni istiloda qatnashgan askarlarga bo‘lib bergan edi.

Davlat mustahkamlana borgach, bu amaliyotdan voz kechila boshlandi. Masalan, Umar Ibn Al-Xattob Sosoniylar va Vizantiya imperiyalari hududlaridagi podshohlar, ularning oilalari, amaldorlar hamda urushda o‘lganlar, qochib ketgan yer egalarining ekinzorlarini davlat mulki hisobiga o‘tkazdi. Bu yangi yerlar musodara qilinmaydigan as-savofiy (الصوافي) yerlar deb nom oldi. Ayniqsa as-Savod, Shom viloyatlari arab davlati tasarrufiga kiritilgach, as-savofiy ekinzorlar hajmi ortib ketdi. Ular davlat tasarrufiga kiritilib, ijaraga berila boshlandi. Umar davrida davlat amaliyotida eski amaliyotni ya’ni, bosib olingan yerlarni al-fay’ (الفيء – o‘lja) sifatida askarlarga bo‘lib berishini davom ettirmoqchi bo‘lgan qo‘mondonlarning hatti- harakatlari keskin to‘xtatildi. Bu bilan Umar Ibn Al-Xattob Muhammad payg‘ambar tomonidan ta’siz etilgan askarlarning al-fay ulushini bekor qilib, uning o‘rniga yangi institut xirojni joriy etdi. Markazlashib kelayotgan davlatning iqtisodiy rivojlanishida xiroj (erdan olinadigan mahsulot solig‘i) instituti muhim o‘rin tutadi.

Muhammad payg‘ambar va Abu Bakr davrida Arabiston yarim orolidagi dehqonchilik rivojlangan biror hudud (صلحا – sulhan) istilo etilganda, undagi dehqonlarning ekinzorlari o‘z egalarida qoldirilib, ularga juzya solig‘i o‘rniga xiroj solig‘i tayin etilgan. Bu holatni Muhammad payg‘ambarning Haybar aholisi bilan sulh tuzib, ularga xiroj tayin etishi misolida ko‘rish mumkin. Demak, xiroj solig‘ini birinchi bo‘lib arab davlatchiligi tarixida Muhammad payg‘ambar tatbiq etgan. Ammo, Umar Ibn Al-Xattob davriga kelib, davlatchilikning tezlik bilan rivojlanib borishi sharoitida anvatan yoki sulhan istilo etilgan yerlarning har ikkisiga ham ekinzorlar hosillaridan olinadigan xiroj solig‘i tayin etila boshlandi. Asta-sekin Arab xalifaligi amaliyotida xirojning uch turi shakllana boshladi: misoha, muqotama, muqosama. Birinchi turdagi soliq (مساحة – misoha) olish tartibi quyidagicha bo‘lgan: ishlov berilgan yer bir necha qismga bo‘linib, uning ma’tum bir qismida yetishtirilgan hosil davlatga to‘lig‘icha natural holda soliq qilib olingan. Ikkinchi turdagi soliq (مقاطعة – muqotama) esa

katta yerdan foydalanish uchun bir necha yil oldin, belgilangan pul miqdori bilan olingan. Uchinchi turdagi soliq (مقاسمة – muqosama) yerda yetishtirilgan umumiy hosilning bir qismi holida davlat foydasiga olingan. Arab-musulmon davlati byudjetining yuksalishidagi asosiy manba rolini ushr (عشر – arab tilidan so‘zma-so‘z: o‘ndan bir) solig‘i o‘ynadi. Ushr solig‘i yig‘ilgan hosilning (1/10) qismiga teng. Aksariyat manbalarda bu soliq alohida, ba’zan xiroj solig‘ining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ushr solig‘i xalifa Umar ibn Al-Xattob davrida o‘zining aniq ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Bu davrga kelib, markazlashgan islom davlatining soliq siyosatida boj va savdo ushri solig‘i paydo bo‘ldi. Bu soliq urush olib borilayotgan davlat (Balad Al-Harb)dan Madina davlati tasurrufidagi hududlarga tijorat uchun qatnaydigan kemalar va yakka savdogarlarning tovarlari hisobidan olingan. Shuningdek, boj ushrining foiz qiymati ham savdogarning diniy e’tiqodiga qarab belgilangan: musulmonlardan ushrning choragi (1/4), ya’ni 2,5 % yoki 5 dirham yoki yarim misqol oltin, zimmiylardan ushrning yarimi (1 /2), ya’ni 5 % yoki 10 dirham yoki bir misqol oltin, musulmonlar urush e’lon qilgan hududdan kelganlar (ahl balad al-harb yoki harbiy) uchun esa to‘liq, ya’ni 20 dirham yoki ikki misqol ushr olingan. Shuningdek, ushr solig‘ining hisobi 20 misqol tilla yoki 200 dirham etib belgilangan.

Bundan bu soliqqa ham zakotning hisobi asosiy mezon qilib belgilanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, islom davlati hududiga kirib kelayotgan bug‘doy va yog‘ mahsulotlariga musulmonlarda ehtiyojning kattaligi uchunyarim, mosh, no‘xat, yasmiq, loviyalarga esa – to‘liq ushr tayin etilgan. Zabt etilgan hududlarning yangi dinni qabul qilgan dehqonlari o‘z ekinzorlaridan xaroj solig‘i o‘rniga ushr solig‘i to‘laganlar. Lalmikor va ariqlardan sug‘oriladigan yerlardan to‘liq ushr, quduq, hovuz, meshlarda sug‘oriladigan yerlardan esa yarim ushr olingan. Bu misollardan Umar Ibn Al-Xattobning davlat hukmi doirasini yangi hududlarga kengaytirishda soliqlar siyosatidan unumli foydalana olganligini ko‘rish mumkin. Yangi shakllanayotgan soliq tizimida musulmon bo‘lmagan aholidan jon boshi hisobida olinadigan juzya solig‘i muhim o‘rin tutdi. Al-Jizya (الجزية) instituti Arab xalifaligi o‘tmishdoshlari – Sosoniylar (224-651) va Vizantiya imperiyalari davlat tizimida ham mavjud bo‘lgan. Bu imperiyalar hududida yashagan johiliya davri arablari mazkur jon solig‘ini "joliya" deb ataganlar. Davlat namoyondalari bu soliqni yiliga uch marta yig‘ib olganligi ma’lim. Shohan-shoh Xusrav Anushirvon (531-579) xristianlar, yahudiylarning ba’zi toifalariga bu soliqni joriy qilgan.

Ammo, boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar orasidan zodagon xonadonlar vakillari, voliylar, otliq askarlar, haram (ibodatxona) xizmatchilari, sudyalar, dehqonlarning raislari va devon kotiblari bu soliqdan ozod etilganlar. Muhammad payg‘ambar va Abu Bakr davrida soliqlar miqdori muayyan tarzda belgilanmagan edi. Bosib olingan hududlardan olinadigan soliqlarning miqdori Umar Ibn Al-Xattob hukumati tomonidan ishlab chiqila boshladi. Birinchi navbatda juzya solig‘i to‘lovchilar uch toifaga bo‘lindilar: 1) boylar – 48 dirham; 2) o‘rtahollar – 24 dirham; 3) kambag‘allar – 12 dirham. Birinchi toifani yuqori tushumga ega bo‘lgan sarroflar, gazlama sotuvchilar, yirik savdogarlar, katta yer egalari, tabiblar, ikkinchi toifani esa hunarmandlar, tikuvchilar, bo‘yoqchilar va kosiblar tashkil qildilar. Uchinchi toifani kam daromadli aholi tashkil etdi. Juzya solig‘i ishga yaroqsizlar, qariyalar, nogironlar, ko‘rlar, aqli ojizlar, rohiblar, ayollar va bolalardan olinmagan. Juzya aholidan har yilda bir marta yoki har oyda qisman to‘lab borish orqali yig‘ib olingan. Juzya institutini shakllantirishda Umar Ibn Al-Xattob istilo etilgan hududlardagi iqtisodiy ahvolni hisobga olgan. Shimoliy Arabiston aholisining Yaman aholisiga nisbatan iqtisodiy qudrati yuqoriligi bois Iroq va Suriyaning boy tabaqalari 48 dirham o‘rniga 50 dirhamdan juzya to‘laganlar. Yangi rivojlanib kelayotgan davlatning iqtisodiy tizimi shakllanishida «Bayt al-mol» (بيت المال – davlat g‘aznasi, pul va boshqa qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun ombor) ning tashkil topishi asosiy rol o‘ynadi. Bu muassasada daromad manbalari va ularni qaerlarga sarf etish borasidagi ma’lumotlar saqlangan. Bayt al-molga keladigan soliqlarning hammasi ham faqat pul shaklida bo‘lmay, balki natural soliqlar – don, qoramollar, matolar va qurol-aslaha turlari ham mavjud edi. Abu Bakr davrida Madina davlati tasarrufining kengaya boshlashi va ar-Ridda harakati orqali boshlangan arab yurishlari natijasida davlat g‘aznasiga kelib tushadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Avvaliga Abu Bakr davlat g‘aznasini o‘z uyida, keyinchalik Payg‘ambar masjidida saqladi. Markazlashgan Madina davlati boshqaruvi Umar Ibn Al-Xattob qo‘liga o‘tgach, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy shakli avvalgi holatini tubdan o‘zgartirdi. U zabt etilgan hududlarning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy tizimlarni islom davlati amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, Umar ibn Al-Xattob devonlar tizimini eroniylardan o‘zlashtirgach, bu devonlarni bir yerga birlashtirish maqsadida bayt al-mol muassasasini tashkil etdi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatdagi qurilishlar, davlatning harbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy ta’minot, iqtisodiy islohotlarni davlat o‘z tasarrufi doirasida ushlab turishi uchun qoplanadigan mablag‘lar va

hukumatning boshqa sarflari uchun ketadigan xarajatlar bayt al-moldan olina boshlandi. Bularning hammasi bayt al-molga Umar Ibn Al-Xattob davrida asos solinganligini koʻrsatadi. Davlatdagi tushumlarning oshishi bilan bir qatorda uning xarajatlari ham oshib bordi. Buni xalifa Umar ibn Al-Xattobning arab davlatchiligiga umuman yot boʻlgan hukumat ishchi-xodimlari, davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami va diniy arboblarga muayyan tarzda moashlar berish misolida koʻrish mumkin.

Xalifa Umar Ibn Al-Xattob aholiga moash va nafaqa tayinlashda aholining Muhammad paygʻambarga (qarindosh) yaqinligi va davlat oldidagi xizmatiga muhim ahamiyat berdi. Makka va Arabiston yarim orolida pul ishlab chiqarilmaganligi uchun arablar VII asrning 60-yillariga qadar asosan Vizantiya imperiyasining tilla va Sosoniylar davlati va Yamanning kumush tangalaridan, ba'zi hollarda esa Afrika va Yamandan keladigan oltin qumlaridan ham foydalanganlar. Ularni tortib olishda dinordan vazn birligi sifatida foydalanganlar. Islomdan oldingi davr arablari Tabariston, Xorazm va Bagʻlon davlatlarida zarb etilgan dirham tangalarni ishlatganlar. Vizantiyada ishlab chiqariladigan tilla (nomisma) tanganing ogʻirligi yaxlit 4,45 gramni tashkil etib, old qismida imperatorning surati zarb etilgan edi. Kumush tangalar pul muomalasida katta ahamiyatga ega emas edi. Bozorlarda kundalik savdoda asosan mis tangalar (fils) ishlatilardi. Arabiston yarim orolining katta qismi «dirham zonasi»da boʻlib, Yarim orolning shimoli-gʻarbi esa «tilla zonasi» hududiga kirar edi. Shu ikki zonaning kesishgan joyi Makka shahri edi. Makka bozorlarida dinor (nomusim) va dirham ishlatilardi. Vizantiyada zarb etilgan dirhamlarning juda yupqaligi va ishlatish jarayonida yeyilishning osonligi savdogarlarni dirhamlarni tortib olishga majbur etardi. Shuning uchun savdogarlar dona-dona ishlatiladigan paytlarda toʻliq dirhamlardan foydalanar edilar. Makkada dinor bilan dirham oʻrtasidagi farq 1 dinorga 10 dirhamni tashkil etgan. Xalifa Umar davriga kelib dinorning kursi 12 dirhamga koʻtarilgan.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan hududlardagi soliqlarni tayin etishda maydon oʻlchov birligi, vazn va sigʻim oʻlchov birliklaridan foydalanilar edi. Bosib olingan hududlardagi oʻlchov birliklari davlatning asosiy etalonini tashkil etdi. Masalan, Misr aholisi ishlatadigan girdob, qist, jarib va boshqa oʻlchov birliklari davlat miqyosida ishlatila boshlandi. Shuningdek, arablarda qadimdan boshoqli oʻsimliklar va sochiluvchan jismlarni oʻlchash uchun muzd, maxtum, qafiz vazn oʻlchov birliklari vasq, dirham, misqol, ratl, uqqa, uqiya, hoshimiy rub, qin-tor, maydon-yer oʻlchash uchun esa doniq, qiyrat, faddon, ziroat kabi oʻlchov birliklari ma'lum edi. Ilk arab-islom davlati rivojlanib borish jarayonida iqtisodiy

masalalarda diniylik va dunyoviylik unsurlari bir-biridan asta-sekin ajralib chiqa boshladi. Bunda yangi davlat iqtisodi va apparatini to‘liq tarzda shakllanishiga bevosita hissa qo‘shgan Umar ibn Al-Xattobning iqtisodiy va ijtimoiy islohotlari asosiy turtki bo‘ldi. Xalifa Umar Ibn Al-Xattob Muhammad payg‘ambar davridagi soliqlarning turlari va miqdoriga bir qator o‘zgartirishlar kiritdi. U ilk davrda musulmonlar uchun notanish bo‘lgan savdo va boj ushrini davlat soliq tizimida qo‘llay boshladi. Juzya va xiroj institutlarining aniq obyekti va hajmini muayyan darajaga keltirdi. Arabiston yarim oroli uchun noma’lum bo‘lgan Bayt al-mol muassasasi tashkil etilib, askarlar, davlat apparati xodimlari, ishchi-xizmatchilarga moashlar tayin etildi. Yangi shakllanayotgan davlat aholisini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida qariyalar, yetimlar va boshqa e’tiborli shaxslarga nafaqalar belgilandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Umar Ibn Al-Xattob davrida olib borilgan soliqlar siyosatidagi islohotlar natijasida davlatning iqtisodiy ravnaqi Muhammad payg‘ambar rahbarligi davri ko‘rinishidan tubdan farq qildi. Boshqaruv tizimining shakllanishida xalifa Umar Ibn Al-Xattob davrida devon (ديوان)larning joriy etilishi muhim rol o‘ynadi. Devon tizimi Sosoniylar davlati an’analaridan o‘zlashtirildi. Devon – fors tilida «ro‘yxat», «qayd qilish» yoki «daftar» ma’nolarini anglatadi. Unda bir necha bo‘limlar mavjud edi. Jumladan, Askarlar devoni (الجند ديوان) da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilandi. Xaroj devoni (الخراج ديوان)da «Bayt al-mol»ga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda devonning doimiy tarkibini o‘z ichiga oluvchi ro‘yxat tuzilgan bo‘lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo‘lgan kishilar ro‘yxati qayd etildi. Devon tizimi markaziy hokimiyat tarkibida joylashdi. Istilo qilingan yerlardagi kirim-chiqimni nazorat qilish esa bevosita voliylar zimmasida edi. Bu tizim vositasida Umar davlat xizmatchilariga, avvalo harbiy xizmatchilarga haq to‘lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo‘ldi. Soliq va xiroj devonlaridagi hisob-kitob ishlarni olib borish uchun tayinlangan xodimlar Iroq va Eronda fors tilida, Shomda Vizantiya (yunon) tilida, Misrda kopt (qibtiy) tilida olib borishgan. Askarlik va maoshlar devonida ish faqat arab tilida yuritilar edi. Voliylarning soliq va xaroj devonlari ishlaridan xabardor bo‘lib turishlari uchun arab va mahalliy tillarni biladigan tarjimonlar kerak bo‘lgan.

2.3. Yevropa va Osiyo davlatlari va Rossiyada soliqlar va soliq siyosatining tarixiy rivojlanish jarayonlari

Formatsiyalashuvning feodalizm shaklining paydo bo‘lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o‘tishi, moliya, sud, boshqaruv masalalari ham yer egalariga tegishli bo‘lib qolib, umumdavlat xarajatlari ancha qisqardi, davlatning asosiy daromad manbalari uning mulkidan, regaliyalar(mulkdan foydalanish va boshqa huquqlarni berganlik uchun yig‘imlar) hamd bojlardan tashkil topib bordi. Feodal tarqoqlikning kuchayib borishi esa davlatlarning uyushmlarini va unga muvofiq soliqlarning ham takomillashib borishiga asos bo‘ldi. Bu holat ayniqsa yer va savdo munosabatlari keyinchalik esa manifaktura rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Angliya va Germaniyada ancha shakllanib bordi. Fransiyada XV asrlarga kelib qirollik va feodal katta yer egalarining o‘rtasidagi qattiq ziddiyatlar oqibatida Fransiyada yirik markazlashgan davlat va uning o‘ziga xos moliyaviy tizimi shakllandi. Bu vaqtlarda Fransiyada xashslardan olinadigan to‘g‘ri soliq ("taille personanelle") va mol-mulkdan olinadigan ("taille reille") soliqlar asosiy soliq sifatida yuzaga keldi. XVII asrlarda soliqlar yanada keng rivoj oldi va uning soni ham ko‘payib bordi.

To‘g‘ri va egri soliqlar mamlakatning turli joylarida turlicha undirila boshlandi, soliqlarning noto‘g‘ri taqismlanishi, aristokratlarning soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashi, aholining zimmasiga soliq og‘irligini oshib borishi, soliqlarni davlatdan undirish huquqini qo‘lga kiritgan soliq undiruvchilarning soliq undirishdagi adolatsizligi, bir xil joylardan egri soliqlar undirilsa boshqa joylardan undirilmasligi provaardida esa Fransiyada yirik to‘ntarilishga sabab bo‘ldi. Revolyutsion hukumat esa avvalgi barcha soliqlarni bekor qilib, keyinchalik soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligidan kelib chiqib turli xil(asosan yer solig‘i, daromad solig‘i, mol-mulkdan soliq, jon boshiga soliq, yig‘imlar va sh.k.) soliqlarni yanada ko‘payirishga majbur bo‘ldi.

Yevropada soliqlarning rivojlanishi Angliyada ham o‘ziga xos ko‘rinishda rivoj topdi. Angiliyada ham boshqa davlatlar singari Rim imperiyasi davridagi boshqaruv tizimiga barham berilishi bilan birgalikda soliqlarni undirishda ham asosan qirollikka tegishli bo‘lgan yerlardan keladigan daromadlarga qaratildi. Dastlabki vaqtlarda soliqlar favqulotda holatlarda, ya’ni tashqi dushmanlarning hamlasiga uchrash xavfi yuzaga kelganda undirila boshlandi, tinchlik vaqtlarda esa alohida soliqlar undirilmadi. Bu vaqtlarda Angliya qirolligi asosiy xavf solib turgan Normaniya va Daniya qirolligi bo‘lib, favqulotda yig‘ilgan soliqlar shu

tufayli ham "Daniya pullari" degan nom oldi. Angliyada bu davrlarda soliqlarni joriy qilishda qirol va parlament o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra amal oshirila boshlandi. Soliqlarni joriy etish va uni undirishdagi qirol va parlament o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayib borishi keyinchalik Angliyada respublika shaklidagi davlat shaklining asos solinishi va uning oqibatida esa soliq tizimining ham xususiyatlari o‘zgardi. Angliyada respublika shaklidagi davlatning yuzaga kelishi bir qator og‘ir bo‘lgan soliqlar, jumladan aksiz solig‘i ham joriy etildi. XVIII asrdan boshlab Angliya tomonidan juda ko‘plab urush harakatlarining olib borilishi davlat xarajatlarini, o‘z navbatida esa soliqlarning ham ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa bu davrlarda egri soliqlar savdo(oborot) solig‘i, aksiz solig‘i va bojlarning oshishi ro‘y berib, to‘g‘ri soliqlar bu davrlarda davlat xarajatlarini qoplashda unchalik ahamiyatli emas edi. Ayniqsa Fransiya imperatori Napoleon bilan urushlar vaqtida soliq turlari, jumladan, daromaddan olinadigan soliqlar ham oshirildi. 1815 yildan boshlab esa Angliyada soliqlarning kamaytirilishi, soliqqa tortish tizimida esa soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblari kengaytirila boshlandi. 1840-1850 yillar oralig‘ida juda ko‘plab bojxona bojlari bekor qilindi. Keyinchalik aksizlarning soni, jumladan birinchi navbatda zarur bo‘ladigan mahsulotlardan undiriladigan aksiz soliqlari ham qisqarib boshladi. Angliyada soliqlarning shaklllanish jarayonida harbiy harakatlarning ta’siri juda kattaligi bilan xarakterlanadi. Bu holat birinchi va ikkinchi jahon urushlari vaqtida ham shunday ahamiyat kasb etdi.

Germaniyada ham feodalizm kurtaklari yoyilib, yer egalarining davlat turmush tarzidagi o‘rni oshib borgandan so‘ng bu yerda ham umumdavlat miqyosidagi soliqlarni joriy etish masalalari ancha kech amalga oshdi. Germaniyada ham imperator va uning fuqarolari(er egalari) o‘rtasida tabaqalashuv ancha davom etdi. Bu esa soliqlarni undirish jarayoniga ham ta’sir qildi. Soliqlar ko‘pincha imperatorga yordam, imperatorning so‘rovi, sifatida precaria, Bidden (bitten) nomi bilan atalib kelindi. ba’zi hollarda esa subsidiyalar deyarli majburiy xarakterga ega bo‘ldi. Masalan, davlatdan asirni sotib olish, ritsarlik maqomini uning o‘g‘liga berish, yoki ritsarning qizini turmushga berish kabi jarayonlardan majburiy to‘lovlar undirilgan. Germaniyada umumdavlat miqyosida soliqlarni joriy etish masalalari uzoq vaqt qiyinchiliklar bilan davom etdi. Shu bilan birgalikda bojxona to‘lovlarni undirishni yagona davlat tizimiga o‘tkazish ham ancha qiyin kechib bordi. Boj to‘lovlarini joriy etish masalalari imperatordan mahalliy hukmdorlarning vakolatiga o‘tib bordi. Imperator tomonidan tayinlangan "kurfyurstlar"(Kurfürst-nemischa so‘z bo‘lib, Kür — «tanlash, saylash»

i Fürst — «knyaz» so‘zlaridan olingan va imperator tayinlagan vakil degan ma’noni beradi) tomonidan mahalliy zodagonlardan boj to‘lovlari yig‘ib kelingan, ba’zi hollarda esa mahalliy zodagonlar esa bunday huquqni to‘liq o‘zlarida saqlab qolib, ma’lum bir qismini umumdavlat maqsadlariga yuborib turgan.

Germaniyada ritsarlarning vahshiylik harakatlari kuchaygandan so‘ng aksariyat aholi va zodagonlar imperatorga murojjat qilib, himoya qilishi va uning o‘rniga soliqlar to‘lab turishga majbur bo‘lganlar va shu tariqa umumdavlat miqyosida soliqlarni joriy etish jarayonlari kuchayib bordi, shaharlarda davlatga soliqlarni undirish bilan shug‘ullanadigan davlat idoralari tashkil etildi. Germaniyada ham asosiy davlat xarajatlarini harbiy xarajatlar tashkil qilgan. Urush bo‘lmagan vaqtlarda esa ichki tartib qo‘shinlari saqlanib, soliqlar kamaytirilgan. Ammo, doimiy armiyani saq-lash esa katta xarajatlarni talab qilgan va uni amalga oshirishga majbur-likdan esa soliqlarning ham doimiy undirilishiga olib keldi. XVII va XVIII asrlarda Germaniyada asosiy soliqlar sifatida aksizlar, domenlar (domen fransuzcha so‘z bo‘lib,"domaine"-viloyat, birlik, tarkib degan ma’nolarni anglatadi) davlatning moliya xo‘jaligida asosiy rol o‘ynay boshladi. Sanoat va savdo sotiq ishlarining rivojlanishi esa egri soliqlar birgalikda to‘g‘ri soliqlarning ham rivojlanib borishiga olib keldi.

Ma’lumki, Rossiyada umumlashgan davlat shakli X asrning oxirlarida shakllangan bo‘lib, unga qadar turli xil darajadagi knyazliklar mavjud bo‘lgan va ular o‘zlarining xarajatlarini turlicha uslubda qoplab kelgan. Umumlashgan davlatni shakllanishida uning soliq tizimi asosan o‘zaro urushlar davrida qo‘lgan kiritilgan o‘lponlar (dan) tashkil etgan. Knyazliklarning davlatga birlashishi soliqlarning ham shakli va undirish uslublarini o‘zgartirishga olib keldi va ular aholidan olinadigan majburiy to‘lovlarga aylandi. Soliqlarni undirish bilan bog‘liq maxsus bo‘linmalar va ruhoniylar shug‘ullanishgan. Mug‘ullar bosqini davrida qolgan "chiqish" boji keyinchalik boj to‘lovlariga aylantirildi. Egri soliqlar sifatida savdo va sud poshlinalari yuzaga keldi. Sud bojlari keyinchalik domenlar sifatida e’tirof etilgan. Davlat savdo qilganlik uchun to‘lovlar undirish bilan birga bunday huquqni berganlik uchun ham ayrim vaziyatlarda to‘lov joriy qilgan Sud bojlari esa turli xil nizolarni ko‘rishda davlatga to‘langan to‘lovlar bo‘lib, bunday to‘lovlar katta rol o‘ynagan. Mug‘ullardan meros bo‘lib qolgan "chiqish" solig‘i aholidan boshqacharoq tartibda, ya’ni har bir jon boshi va chorva mollaridan undirilgan. Keyinchalik "yam" degan to‘lovlar ham joriy qilinib, uning mohiyati pochta stansiyalarida aravaga qo‘shilgan otlarni almashtirganlik uchun undirilgan. Mug‘ullar Rossiya yerlarni bosib

olgan vaqtlarda Rossiya hududidan soliqlarni undirish huquqlarini Bog‘dod keluvchi arab savdogarlariga berilgan va ular knyazlar tomonidan yig‘ilgan soliqlarni olib ketish bilan shug‘ullangan. Bu juda ko‘plab noroziliklarga sabab bo‘lganligi sababli soliq undirishning boshqa shakllari shakllantirildi.

Oltin O‘rda davrida soliqlar "Buyuk Baskak"lar deb ataluvchi maxsus kishilarga berilgan.(Baskak mug‘ullar davridan qolgan bo‘lib, soliq undirish huquqi berilgan noibga nisbatan "baskak" so‘zi ishlatilgan) Oltin O‘rda vaqtida barcha yerlar, aholi va chorva mollari ro‘yxati tuzib chiqilgan va yerlarning kadastri ham alohida ishlab chiqilgan. Soliqlarni undirishda ikki xil boshqaruvlik, bir tomondan baskaklar tomonidan soliqlar undirilgan bo‘lsa, mahalliy knyazlar tomonidan ham soliqlar undirib borilgan. Keyinchalik baskaklar tomonidan asosiy soliqlar-savdo solig‘i, yer solig‘i, jon boshidan olinadigan soliq, ishlov berilmagan yerlardan olinadigan soliqlar, boj to‘lovlari hamda harbiy majburiyatdan ozod qilinganlik uchun soliqlar undirib borilgan. Rossiya Pyotr I hukmdorlik qilgan vaqtlarda harbiy harakatlar ko‘payishi ortiqcha mablag‘larni talab qilar va qo‘shimcha soliqlarni joriy etishga sabab bo‘ldi va davlat yig‘imlari, kirakashlik qiluvchilarldan yig‘imlar, karvonsaroylardan olinadigan yig‘im, pechlar uchun soliq va dala sudlari uchun maxsus soliqlar joriy qilindi. Shu bilan birgalikda "foyda keltiruvchilar" degan maxsus lavozim ham joriy qilindiki, ushbu lavozimdagilar davlat g‘aznasiga yangi daromad manbalarini izlash va shakllantirish bilan shug‘ullanishgan. Yekaterina II vaqtida esa soliq tizimi ancha rivojlantirildi. Bu davrda davlat moliyasi bilan doimiy shug‘ullanvchi maxsus ekspeditsiyalar shakllantirilib, ular 4 guruhga jaratilgan. 1-guruhdagilar davlat daromadlari bilan shug‘ullanishgan bo‘lsa, 2-guruh davlat xarajatlari bilan, keyingi guruh taftish va oxirgi guruh soliqlar bo‘yicha qarzdorlik masalalari bilan shug‘ullanishgan. XVIII asrning oxirlariga kelib davlat byudjetida to‘g‘ri va egri soliqlarning ulushi ortib bordi. Bu davrda hovlilardan olinadigan va hunarmandchilik faoliyati uchun olinadigan soliqlar katta o‘rin egalladi. Shuningdek, ko‘pgina tovarlarga (masalan, kerosin, tuz, tamaki, shakar,gugurt va shu kabilar) aksizlar joriy qilindi. Jon boshiga soliq 1863 yilda shaharlarni qurish solig‘i bilan almashtirildi, mahalliy soliqlar sifatida zavod, fabrika va savdo inshoatlari joylashgan yerlardan yig‘imlar joriy qilindi. XIX asrning 80-yillarida jon boshidan olinadigan soliqlar bekor qilinib, daromaddan olinadigan soliq, qimmatbaho qog‘ozlar hamda davlat uylari uchun soliqlar joriy qilindi. Bu davrga kelib Rossiyada asosiy hunardmanlichik solig‘ining roli ortib bordi va takomillashtirib, uning yangi shakllari joriy etilib borildi va uni undirish mexanizmlari ham takomillashtirildi. XIX asrning oxirlariga

kelib korxonalarni, ayniqsa aksionerlik shaklidagi korxonalarning foydasidan 3 foizlik yig‘im, keyinchalik ularga kapital solig‘i ham joriy qilindi. 1916 yilda daromadga ega bo‘lgan barcha(yuridik va jismoniy shaxslar)ga daromad solig‘i joriy qilindi.

O‘rta asrlarda soliqlarning rivojlanishi janubiy va sharqiy Osiyo davlatlarida ham o‘ziga xos tarzda rivojlanish tarixiga ega. XIII—XV asrlarda Hindistonda Dehli sultonligi davrida soliqlar boshqa davlatlar singari yerlar, sug‘orish inshoatlari, o‘rmonlar, maysazorlar davlatning mulkini tashkil etib undan soliqlar davlat manfaatlariga undirilish joriy etildi. Bu davrda sultonlarga yerlar "iqta" (iqta arabacha so‘z bo‘lib, إقطاع - ulush, chek yer degan ma’noni anglatadi, Rossiyada ham XVIII-XIX asrlarda ushbu shaklida yer berish amal qilgan bo‘lib, u "nadel" deb nomlangan) shaklida taqdim etilib, ushbu yerlardan soliqlar olish sultonlarning vakolatiga berilgan. Keyinchalik esa iqta egalari faqat soliqlardan ozod qilindi va undirilgan soliqlar esa davlat ixtiyoriga olib qo‘yildi. Shuningdek, Hindistonda yerlarning berilishining boshqa shakli ham mavjud bo‘lib u "in’om"-hadya degan ma’noni anglatgan. In’om yerdan tashqari pul, mahsulot, kiyim yoki qullar bilan mukofotlash tarzida ham berilgan. Ko‘pgina soliqlarning sultonlik tomonidan joriy qilinishi ham uning fuqarolarining buyuk sultonga taqdim qilingan in’omi tarzda ham atalib kelingan.

Soliqlarning Osiyodagi xususiyati o‘rta asrlarda Xitoyda ham ancha rivoj topdi. X-XII asrlarda Xitoyda hukmronlik qilgan Sun sulolasi davrida soliqlarni undirish tartiblari ancha takomillashtirildi. Yerlar imperator, katta amaldorlar va harbiylar o‘rtasida taqsimlab berilib, yerdan foydalanuvchi dehqonlar esa davlatga va yer egasiga renta to‘lab kelgan. Asosiy soliq turi "ikki martalik yig‘im" deb nomlangan yig‘im bo‘lib, ushbu yig‘im doim oshib borgan. Soliqlar bo‘yicha qarzdorligi oshib borgan dehqonlarning davlatga tobeligi ta’minlangan va shu orqali soliqlardan siyosiy maqsadda ham foydalanilgan. 1070- 1076 yillarda Xitoyda o‘sha paytda davlat boshlig‘i bo‘lgan Van Anshi tomonidan davlatda katta islohotlar o‘tkazib unda yerlarni o‘lchash va soliqlarni undirish tizimiga ham katta o‘zgartirishlar kiritildi. Bu uning tomonidan joriy qilingan "Yangi qonunlar" deb ataluvchi konsepsiyasidan o‘rin oladi. Ilgari soliqqa tortishning jismoniy mehnat bilan ishlab berish shaklidagi soliq undirish tartibi pul shaklida undirish shakliga o‘tkazildi. "Yangi qonunlar" da soliqlardan tashqari davlatning savdo va narxni tartiblash, pulni tartiblash hamda davlat tomonidan kreditlash mexanizmlari ham o‘rin olgan edi.

1200 yillarning boshlarida Xitoyning Mug‘ullar tomonidan bosib olinishi va unga qarshi kurash olib borgan Cheju Yuanchjana hukmdorligi vaqtida ham soliq tizimi ancha rivojlantirildi. Bu davrlarda bo‘z yerlarga ishlov bergan dehqonlarga soliq imtiyozlari joriy qilindi, ularga davlat tomonidan kreditlar ajratish tartiblari joriy qilindi yoki ilgarigi soliqlardan qarzlaridan voz kechildi. Bu vaqtlarda yer va jon boshiga soliqlar katta rol o‘ynadi. Soliq undirishni adolatli amalga oshirish maqsadida 1370 yildan boshlab yerlarning ro‘yxati tuzildi va ularning kadastrlari ishlab chiqildi va bu "Sariq reyestr" deb nomlandi. 1387 yilda esa butun Xitoyda yagona yerlarning reyestri yaratildi va xitoy tilida "ribicheysho‘ycha-togi" deb nomlandi. Ushbu hujjatda har bir yerga biriktirilgan dehqonlardan undiriladigan soliqlar aniq qilib belgilab qo‘yildi.

Feodal xo‘jalik davrida Osiyoda soliqlarning rivojlanishi Usmonlik imperiyasida ham ancha shakllantirildi. XV asrning oxiriga qadar Usmonlik imperiyasida yerlar davlatga qarashli bo‘lgan. Yerlarni yagona taqsimlovchi shaxs sultonning o‘zi bo‘lgan asosiy yerlardan undirilgan (ayniqsa bosib olingan Yevropa davlatlaridagi yerlardan) soliqlar shaxsan sultonning g‘aznasiga jalb qilingan. XV asrdan keyin esa yerlar sultonlik tomonidan ma’lum bir soliqlarni to‘lab turish sharti bilan katta yer egalariga bo‘lib berildi. Ya’ni, "tumor" solig‘i tufayli 3 ming aqchagacha (aqcha-bu pul birligi), "zaymat" solig‘i bo‘yicha esa 3 mingdan 10 minggacha sultonga soliq to‘lab turish tartibi joriy qilindi va ushbu soliqlardan olingan daromadlar asosan harbiy ishlarga maqsadli sarflangan. Usmonlik imperiyasi davrida solqi tizimining yevropa davlatlaridagi tizimga o‘xshash xususiyatlaridan bir bu soliqlarni undiruvchilarga soliqlarni undirish huquqining ma’lum bir to‘lovlar evaziga berilishi edi. Usmonlik imperiyasining amal qilgan vaqtlarida soliqlarni undirish tartiblari ham o‘zgarib bordi.

Qishloq xo‘jaligidan soliqlarni undirishda feodal rentani undirishning uchta shakli rivoj topdi. Bular ishlab berish, mahsulot hamda pul shaklida renta undirish edi. Bularning ichida mahsuot orqali renta solig‘ini to‘lash keng rivojlandi. Dehqonlar olingan hosilning o‘ndan bir qismi miqdorida (bacha hosil va chorva mollarning ham, hatto yem-xashaklardan) soliq to‘lash lozim bo‘lgan. Bundan tashqari aholi yer egalariga harbiy maqsadlar uchun alohida "avoriz" deb nomlanuvchi soliqlarni ham to‘lagan. Bundan tashqari Usmonlik imperiyaning boshqa davlatlar hududida urush olib borish siyosati avj olishi tufayli boshqa soliqlarni ham joriy qilinishiga olib keldi. Arablardan kirib kelgan "juzya" solig‘i imperiya davrida qayta joriy qilindi va har bir kishi boshiga 20-25 aqchagacha soliq undirilgan. Bu

soliqning stavkasi XVII asrlar boshlariga kelib 140 aqcha miqdorigacha belgilandi.

2.4. Mamlakatimizda qadimda va o‘rta asrlarda amal qilgan davlatchilik va chet el bosqinchiliklari davrida soliq siyosati[3]

Vatanimiz tarixchilarining ta’kidlashicha eramizdan avvalgi 1-ming yilliklar davrida yurtimizda temirga ishlov berish, tog‘ jinslariga ishlov berish qurollarini yaratish, to‘quvchilik, kulol-sozlik, zargarlik va kemasozlik sohasi rivoj topgan. Bular yurtimizda shaharsozlikning rivojlanishi va davlatchilikning shakllanishiga muhim asos bo‘lgan. Tarixchilarning ta’kidlashicha eramizdan avvalgi 1- ming yillikning birinchi yarmida dastlabki davlatchilik shakllangan. Boshqa qadimgi davlatlar singari sharqdagi davlatlarda ham davlat boshqaruvining asosiy manbalari sifatida o‘lponlar asosiy rol o‘ynagan. Tarixchi Gerodotning ta’kidlashicha[4] VI asrlarda Parfiya, Xorazm, So‘g‘diyona va Ariya davlatlari Ahamoniylar davlatiga yiliga 300 talant (1 talant 30,2 kg kumush tangaga teng bo‘lgan) soliq to‘lab turgan. Ammo Xorzam davlati bu davlatlar orasida iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan bo‘lib, ularning orasida mavqeini saqlab qolish va ularning tobeligini oshirish maqsadida So‘g‘diyona, Ariya va Parfiya davlatlari to‘laydigan soliqlarni ham ham o‘zi to‘lagan.

IV asrlarda Makedoniyaliklarning bosqinchiligi davrida soliqlarni undirish tizimiga ham ta’sir qildi. Miloddan avvaligi 170 yillarida Xorazm davlatida iqtisodiy rivojlanish taraqqiyot topib, o‘sha vaqtdayoq o‘zining pul birligini joriy qilinganligi haqida ma’lumotlar bor.[5] Shu bilan birgalikda esa katta miqdordagi(taxminan 120 ming) harbiy qo‘shin shakllantirilgan bo‘lib, albatta ularni saqlash xaarjatlari davlatga qo‘shimcha mablag‘larni talab qilgan. Bizning yurtimizda milodning boshlanishi davrlarida Xorazm davlatidan tashqari Baqtriya, Parfiya, Farg‘ona va Toxariston kabi qadimiy davlatlar bo‘lganligi haqida ham tarixiy manbalarda keltiriladi.[6] Ahamoniylar hukmronligi davrida boshqa davlatlar singari Baqtriya davlatiga ham yiliga soliq to‘lab turgan. Ayniqsa, Ahamoniylar davlati davrida Doro nomli shaxsning hukmronlik qilgan davrlarda unga tobe

[3]Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma’lumotlar va materiallarga asoslandi: Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. "Sharq" nashriyoti, T.: 2001, 368 b, История Узбекистана ва источниках, Вайнбер Б.И. Монеты Древного Хорезма. с. 12. Толстов С.П. Древний Хорезм, [3] O‘zbekiston yangi tarixi.(Tuzuvchilar: H.Sodiqov,R.Shamsitdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov). 1-qism. T.: "Sharq", 2000, 464 b, : Abdurahimov M.A. Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixidan lavhalar. T.: Fan. I va II jildlar, 1966, 1970, Mirzo Olim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. T., 1995, Nabiev R.N. Qo‘qon xonligi tarixidan. T.: Fan, 1973.

[4] История Узбекистана ва источниках, с.28.

[5] Вайнбер Б.И. Монеты Древного Хорезма. с. 12. Толстов С.П. Древний Хорезм, с.173-195.

[6] Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. "Sharq" nashriyoti, T.: 2001, 34-bet.

bo‘lgan katta miqdordagi soliqlar-talant to‘lab turish bilan birga katta sovg‘a-salomlar ham yuborib turishga majbur bo‘lgan. Tarixchi Gerodot ta’kidlashicha, forsiylar Doroni savdogor ham deb atashgan bo‘lib, buning asosiy sababi uning birinchilardan bo‘lib, o‘z davlati va tobe davlatlar hududida soliq tizimini joriy etganligidir.[7] Qadimgi Parfiya davlatida ham Baqtriya davlati singari savdo-sotiq ishlari, qishloq xo‘jaligi rivojlangan, qazilma boyliklarni ishlash(hatto manbalarga qaraganda nikel moddasidan foydalanish) ishlari rivojlangan, shuningdek, o‘zlarinig pul birliklarini ham joriy qilganlar. Baqtriya davlatida Ahamoniyliklar hukmronlik davrlarda davlat xazinasiga turli xil mahsulotlardan soliqlar undirish joriy qilingan. Yerlar bir necha tabaqalarga bo‘lingan bo‘lib, ulardan olinadigan soliqlar ham tabaqalashtirilgan holda undirilgan. Soliqlar asosan natura shaklida va qisman pul shaklida ham qabul qilingan. Mamlakat poytaxti bo‘lgan Niso shahriga (Ashxobod yaqinida bo‘lgan) dehqonlar tomonidan soliq to‘lovlari sifatida yirik hajmda vinolar yuborib turilgan va ushbu vinolarga uning navi, qachon va qaerda, qanday uzum turidan olinganligi hatto uning tarkibi haqidagi ma’lumotlar umumlashtirib borilgan.[8] Bundan ko‘rinadiki, Parfiya davlati davrida hisob-kitob ishlari va soliqlarni to‘lash ishlari ancha tartiblashgan holda amalga oshirilgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda qadimgi Farg‘ona davlati rivoj topdi. Bu yerda hunarmandchilik, kulolchilik, baliqchilik, temirga ishlov berish, dehqonchilik va tuqimachilik ishlari ham rivoj topib bordi. Miloddan avvalgi II-I asrlarda mintaqaning Baqtriya qismida Toxariston davlati yuzaga keladi. Tohariston davlatida haykaltoroshlik, quruvchilik, hunar-mandchilik, kulolchilik, dehqonchilik va tuqimachilik ishlari ham rivoj topgan. Mamlakatimiz davltachilik tarixi yangi milodiy ming yillikda Kushonlar davlati bilan bog‘liq. Kushon davlati milodiy I-IV asrlarda Turkistonning katta qismida siyosiy hukmronlik qilgan yirik siyosiy davlat sifatida e’tirof etiladi. Bu davlatda ham pul islohotlari o‘tkazilib, muomalaga oltin tangalarni kritish orqali tashqi savdo aloqalar rivjlantirilgan. Shunga asoslangan holda aholidan olinadigan va tashqi savdoni amalga oshirishdan olinadigan soliqlar ham natura ham pul shakllarda undirib kelingan. Kushon davlatida haykaltoroshlik, quruvchilik, hunarmandchilik, kulolchilik, dehqonchilik va tuqimachilik sohalari bilan bir qatorda shishasozlik, konchilik, sun’iy sug‘orish, zargarlik sohalari ham rivojlangan. Rimliklar va Xitoyliklar bilan savdo aloqalari rivojlangan. Davlat xazinasi daromadlarida esa aholidan olinadigan soliqlar bilan

[7] История Узбекистана ва источниках, с.28.

[8] Деьяконов М.М. История Древного Ирана. 1961, с. 194.

birgalikda boj undiruvlari ham katta rol o‘ynagan. Kushonlar davlatidan so‘ng ularning o‘rniga kelgan Eftalitlar davlati asosan V-VI asrlarda amal qilib, bu davlatchilik davrida ham yuqorida keltirib o‘tilgan sohalar rivojlangan bo‘lib, shuningdek, tashqi savdo ishlari ham ancha kengaydi. Ilgari asosan Xitoy, Eron va Rimliklar bilan savdo ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, VI asarning oxirlarida paydo bo‘lgan Ashinaliylar davlatida esa, Kaspiy dengizi orqali Shimoliy Kavkaz davlatlari, Hindiston va Vizantiya bilan ham savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yildi. Demakki, savdo ishlari uchun boj to‘lovlarining ham roli oshib borgan. Ushbu keltirib o‘tilgan davlatchilik shakllarida soliqlar tizimida o‘zaro o‘xshashlik mavjud bo‘lib, shu bilan birgalikda, ular o‘zlarining tobeligida saqlagan kichik o‘lkalar(boshqa davlatlar)dan katta hajmda o‘lponlar undirib turgan.

Har bir davlatda soliqlarni undirish tartiblari ham o‘ziga xos bo‘lgan. Masalan, Baqtriya va Parfiyada soliqlarni undirishda mahalliy boshliqlarga yuklatilgan bo‘lsa, Toxoriston, Eftalitlar davrida mahalliy hukmdorlar bilan birgalikda soliq undirish bo‘yicha maxsus noiblar biriktirilgan. Qadimgi Farg‘ona davlatida esa soliqlarni joriy qilish, ularni undirish, kimlarga soliqdan yengilliklar berish masalalarini davlat boshlig‘i bilan birgalikda Oqsoqollar kengashining roli katta bo‘lgan. Bu esa hozirgi sivilazatsiya sharoitida soliqlarni joriy qilishning parlament shaklining bundan bir necha ming yillar oldin bizning davlatchilik tajribasida joriy qilinganligini bildiradi. Mamlakatimizda amal qilgan davlatchilik shakllarida soliqlarning rivojlanish xususiyatlari VII asrning oxirlari va VIII asrning boshlarida arablar istilosi va islom dinining kirib kelishi bilan ancha o‘zgardi. Davlatchilikning keyingi davrlarida Farg‘ona, Iisfijob, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chog‘aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson va Sebiston kabi o‘lkalarni birlashtirgan yirik Somoniylar davlati yuzaga keldi. Bu davlatning shakllanishi miloddan keyingi 800-900 yillarga to‘g‘ri kelib, unda soliqlarni undirish tizimi ancha takomillashtirildi.

Davlat boshqaruvida 10 ga yaqin devonlar(vazirliklar) tashkil etilib, ularning orasida davlatning moliyaviy masalalari bilan shug‘ullanadigan Moliya ishlar devonligi tuzilib, unda davlat g‘aznasiga tushadigan barcha daromadlar, jumladan soliqlarning kelib tushishi va undan davlat manfaat-lari yo‘lida sarflanish masalalari nazorat qilingan. Viloyat va tumanlar (shaharlar)dan soliq yig‘uvchilar tomonidan undirililadigan soliqlarning hisob-kitob ishlari ushbu devonning zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, davlatda bosh vazirga bo‘ysunuvchi Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni ham bo‘lib, ushbu devonda davlatning boshqa faoliyatiga

tegishli boshqa hujjatlar singari soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog‘liq hujjatlar ham tayyorlangan.

Vaqflar devonida esa diniy muassasalarga tegishli mol-mulk, yer, suv va ulardan olinadigan soliqlarni hisoblash ishlari amalga oshirilgan. Viloyat hokimlari va raislar(shahar boshliqlari rais deb atalgan) soliqlarni undirishda soliq yig‘uvchilarga yordam bergan. Harbiy to‘qnashuvlar va davlat boshqaruvini kuchaytirish ehtiyojlari tufayli g‘aznaga tushgan har yilgi 45 mln. dinarlik soliq tushumlaridan kamida 20 mln. miqdori harbiy va davlat boshqaruvi maqsadlariga ishlatilgan. Bu davlatning moliyaviy ishlari doim takomillashtirilib borilishi natijasida xalqaro savdo sotiq ishlarini soddlashtirish maqsadida chek(chak deb atalgan)dan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa pul maydalash va almashtirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘linmalar(sarroflar) tomonidan amalga oshirilgan. Davlatning tashqi savdolarining kengayishi, mollarning(asosan zargarlik, kulolchilik, shisha buyumlar, turli xil tog‘ jinslari va qazilma boyliklardan tayyorlangan nodir mahsulotlar va shu kabilar) chetga eksport qilinishi hamda xalqaro sovdagarlarni ko‘proq jalb qilish maqsadida chekdan samarali foydalangan. Cheklar vazifasini ba’zi vaqtlarda ip gazlama mahsulotlari ham o‘tagan. Somoniylar davlatidan keyin amal qilgan Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Anushteginiylar davlatchiligida ham soliqlarning turlari, iqtisodiy holat (asosiy sohalar) va soliqlarni undirish tartiblari va ularni boshqarish jarayonlari deyarli bir-biriga o‘xshash bo‘lgan. Biroq, Saljuqiylar vaqtida soliq tizimi ancha rivojlantirildi. Mamlakatda Bosh vazirga (Devoni a’lo) bo‘ysunuvchi Istilo devonligi soliqlar va boshqa moliyaviy mablag‘larning kirim chiqimlarini olib borish bilan birga soliq yig‘uvchilarning hisobotlarini qabul qilib, Bosh vazirga bu haqda axborot tayyorlash bilan ham shug‘ullangan. Har bir soliq turlari bo‘yicha soliq to‘lovchilar va ularga tegishli bo‘lgan mol-mulk, yerlar va boshqa soliq ob’ektlarining ro‘yxatini tuzib chiqqan. Bundan tashqari Isrof devoni ham tuzilgan bo‘lib, unda barcha nazorat ishlari, jumladan soliqlarni undirishning holati, moliyaviy mablag‘larning maqsadli sarflanganligini, soliq yig‘uvchilarning bergan hisobotlarida ko‘rsatilgan va undirilgan soliq tushumlari bilan haqiqiy holatlar tahlil qilib borilgan. Bu esa Devonning viloyatlardagi bo‘linmalari tomonidan doimiy olib borilgan.

Ushbu davlatlarning barchasida davlatning g‘aznasining asosiy daromad manbaini yerlardan undiriladigan soliqlar, hunarmadlardan olinadigan soliqlar, boj va savdo yig‘imlari tashkil etgan. Shuningdek, favqulotda holatlarda aholidan harbiy xarjatlar uchun alohida soliqlar ham undirilgan. Yurtimizda XIII-asarning 20 yillaridan tortib to 1370 yillargacha

oʻz hukmronligini oʻrnatgan Chingizxon istilosi davrida mugʻullar tomonidan soliq tizimiga ancha oʻzgartirishlar kiritildi. Bu oʻzgartirishlar soliqlarning sonining ortishi va uning hajmining yuqoriligi bilan izohlanadi. bu davrda dehqonlardan undiriladigan "Kalon" soligʻi hosilning 1/10 qismi sifatida, chorvadorlardan undiriladigan "Koʻpchir" soligʻi esa har 100 bosh qoramoldan bittasi undiriladigan boʻldi. Shuningdek, aholidan "Shulsi" degan soliq undirilib, har bir otar qoʻydan bitta miqdorda va har 1000 otdan bitta miqdorda soliq joriy qilindi. Soliqlarning haddan ziyod oshib borishi oqibatida esa tez-tez boʻlib turadigan qoʻzgʻolonlarga sabab boʻldi. Bu qoʻzgʻolonlar Chingizxon tomonidan bostirib borilsada, keyinchalik soliqlarni ma’lum darajada yengillashtirishga majbur qildi.

Soliqlarni undirish tizimi Amir Temur va Temuriylar davrida oʻziga xos tartibda rivojlanish xususiyatiga ega boʻldi. A.Temurga qadar oʻzbek davlatchiligi 2100 yildan ziyod davrni oʻz ichiga olib, bu davrlarda amal qiligan davlatchilik shakllarining soliq tizimi borasidagi siyosatlar oʻziga xos boʻlganligini koʻrdik. A.Temur hukmronligi davrida davlatning boshqaruv tizimi ikki boʻgʻinga, ya’ni Dargoh va Devonlarga boʻlingan. Davlatning moliyaviy va soliqlarni undirish bilan bogʻliq ishlarni Mulkchi-lik va soliq ishlari vaziri hamda Moliya vaziri tomonidan tashkil etilgan. Mulkchilik va soliq ishlari vazirligi turli sabablarga koʻra egasiz qolgan mol-mulklarni roʻyxatga olish, ularni taqsimlash, savdogarlardna zakot va boj toʻlovlarni olish, joriy qilingan soliqlarning hisobini yuritish va uni undirish ishlarini tashkil etish, mamlakat chorvalari yaylovzor va mayzazor yerlarni boshqarish, ulardan tushadigan daromadlarni hisobga olish, mulkchilik boʻyicha merosxoʻrlik maqomlarini belgilash masalalari bilan shugʻullanishgan.

Moliya ishlari vazirligi esa davlat gʻaznasiga kelib tushgan daromadlarning sarflash hamda uni nazorat qilish, daromadlarni koʻpaytirish yoʻllarini aniqlash ishlari bilan shugʻullanishgan. Shuningdek, mamlakatga tegishli boshqa hududlarda moliyaviy ishlarni yoʻlga qoʻyish, mahalliy hokimlik va bekliklar tomonidan soliq undirish va berilgan mablagʻlardan qanday foydalanayotliklarini nazorat qilish maqsadida boshqa vazirlik darajasidagi boʻlinmalar ham faoliyat yuritgan. Temur davlatchiligi davrida mamlakat hayotida katta hissa qoʻshgan va yirik olim-u fuzolalarga ma’lum bir yerlar suyurgʻol (tortiq) qilinib, bu yerlardan undirilgan soliqlarning bir qismi suyurgʻilga ega boʻlganlarning ixtiyoriga qoldirilgan. Har bir suyurgʻol qilingan yerlarga ikkitadan vazir alohida biriktirib qoʻyilgan. Bu vazirlar bu yerlarda soliqlarni undirish va uni

taqsimlash ishlarini nazorat qilib borgan. Temur davlati davrida soliqlarni undirish tartiblari uning "Temur tuzuklari"da ham keltirib o‘tilgan.

Ta’kidlash joizki, A.Temur davlat boshqaruvi davrida soliqlarni undirish masalasini doim o‘zining nazoratida olib borgan, sabab soliqlarning oshishi raiyatning noroziligi va uning zaiflashuviga olib keladi va o‘z navbatida davlatning kuch-qudratiga salbiy ta’sir etadi deb hisoblagan. Bu davrda xiroj, molu-jixot, sovrin, qo‘nalg‘a, boj, shulon puli singari soliqlar amal qilgan. jarimalari olingan. Soliq va jarimani yig‘ish va xarj (sarf) kilishga alohida e’tibor berilgan. Temur o‘zining "Tuzuklari"da quyidagilarni keltirib o‘tgan: "Har o‘lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Biri raiyat uchun (bo‘lib) bo‘lib, undan yig‘iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to‘lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig‘ilgan mablag‘ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqarsin. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar(sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo‘l bilan yig‘ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulkini, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin.… sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan birining dehqonchilik qilishiga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin»[9]. Yer solig‘ini undirishda esa tabaqalashtirilgan yondashuv amal qilgan.

Agar, soliq to‘lovchi-yer egasi biron sahroni obod qilsa yoki koriz (er osti inshooti) qursa, biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud bironta harob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech qanday o‘lpon olinmagan. Ikkinchi yili raiyat uz roziligi bilan bergan mablaglar soliq sifatida hisobga o‘tavergan. Faqat faoliyatning uchinchi yilidan soliq qonun-qoidasiga muvofiq ulardan xiroj yig‘ilgan. Xiroj soliqlari ekindan olingan hosil va yerlarning unumdorligidan kelib chiqqan holda olingan. Agar yerlar lalmikor yerlar toifasiga kirgan bo‘lsa, unda hosilning 1/4 qismi miqdorda soliq undirilgan. Soliqlar pishib yetilmaguncha soliq olish ta’kiqlangan, agar soliq to‘lovchi o‘zi soliqlarni hisoblab g‘aznaga to‘lasa, u holda soliq to‘lovchilar yuborilmagan. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning qat’iy amal qilishi esa bozorlarda mahsulotlar narxining kamayishiga va pulning qadrining oshishiga olib kelgan. Shuningdek, madrasadagi talabalarni

[9] Temur tuzuklari. T.: "Cho‘lpon", 1991 y. 78-98 betlar.

moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa madrasalarga ajratilgan vaqf yerlardan soliq undirishni A.Temurning o‘zi qat’iy ma’n qilgan va bir chaqa ham soliq davlat g‘aznasiga kelib tushmasin degan buyruq bergan. Bulardan ko‘rinadiki, A.Temur soliq siyosatining adolatli undirilishi tarafdori bo‘lgan va uning amal qilinishini qat’iy nazorat qilib borgan. Soliq siyosatining bunday o‘rnatilishi esa soliqlarning davlatning muhim moliyaviy tayanchi sifatidagi rolini oshirgan.

2.5. Amirlik va xonliklar davridagi soliq siyosati[10]

Tarixiy manbalarga ko‘ra ilgari A.Temur saltanati va temuriylar davlat hukmronligining yemirilib borishi, oxir-oqibatda uchta xonlik Buxoro(keyinchalik Amirlik deb nom olgan), Qo‘qon va Xiva xonliklarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi[11]. Buxoro xonligi tasarrufiga XIX asrning birinchi yarmida Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, shuningdek hozirgi Tojikiston davlatining bir qancha hududlari kirgan. Buxoro amirligi davrida esa 40 viloyat va tumanliklarga (bekliklarga) bo‘lingan, ularni amir tayinlaydigan hokimlar boshqargan. Amirlikning davlat muassasalari ma’muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo‘lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir – *qushbegi* (vaziri buzruk) boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan, oliy hukmdor Arkida yashagan.

Amirlikda davlatning moliya-xazina ishlarini, shuningdek, soliqlar undirilishi ustidan nazoratni devonbegilar tomonidan olib borgan. Amirga tegishli mol-mulk va kelib tushgan soliq tushumlarning hisobini "Mushrif" lavozimidagi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Mamlakatdagi barcha yerlar xon (amir)ga tegishli bo‘lgan. Buxoroda yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi bo‘lgan, ya’ni, davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); mulk yerlari (xususiy); va vaqf yerlari. Davlat yerlarining bir qismi dehqonlarga foydalanish uchun berilgan, bir qismi yirik yer egalariga, hukmron sulola a’zolariga, yirik davlat mansabdorlariga suyurg‘ol sifatida berilgan. Mulk yerlarining bir qismi davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan

[10] Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma’lumotlar va materiallarga asoslandi: Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. "Sharq" nashriyoti, T.: 2001, 368 b, История Узбекистана ва источниках, Вайнбер Б.И. Монеты Древного Хорезма. с. 12. Толстов С.П. Древний Хорезм,[10] O‘zbekiston yangi tarixi. (Tuzuvchilar: H.Sodiqov, R.Shamsitdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov). 1-qism. T.: "Sharq", 2000, 464 b, : Abdurahimov M.A. Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixidan lavhalar. T.: Fan. I va II jildlar, 1966, 1970, Mirzo Olim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. T., 1995, Nabiev R.N. Qo‘qon xonligi tarixidan. T.: Fan, 1973.

[11] O‘zbekiston yangi tarixi.(Tuzuvchilar: H.Sodiqov,R.Shamsitdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov). 1-qism. T.: "Sharq", 2000, 27 bet.

shaxslarga, ikkinchi qismi davlat xizmati bilan bog‘liq (masalan, jasorat ko‘rsatganlarga) shaxslarga tegishli bo‘lgan.

Amirlikda soliqlarning manbalari asosan yerlar olinadigan soliqlar, hunarmadlardan olinadigan soliqlar, savdo sotiq ishlaridan hamda turli xil bojlar va maxsus yig‘imlar tashkil etgan. Soliqlar tez-tez oshirib turilgan va ular g‘alayonlarga sabab bo‘lib borgan. Masalan, Shayboniylar davridagi soliqlarning soni 20 turdan ortiq bo‘lgan. Soliqlar ichida eng katta ulushni xiroj solig‘i(erlardan undiriladigan) tashkil etgan. Xiroj solig‘i olingan hosilning 30-40 foizini amirlik xazinasiga olgan. Davlatda harbiy maqsadlari uchun maxsus ixrojov solig‘i joriy qilingan. Yasoq solig‘i esa aholiga solingan bo‘lib, uning mazmunini aholining suv inshootlari, yo‘l-ko‘priklar qurish, yem-hashak yig‘ishda majburiy ravishda ishlab berish tashkil etgan. Buxoroda Ashtarxoniylar va mang‘itlar hukmronlik qilgan davrlarda aholidan foydalangan har bir tanob yeridan bir tillodan hisoblanadigan tanobona solig‘i, uni to‘lashni istamaganlardan hosilning uchdan bir qismini topshirilishini talab qiluvchi xiroj soliqlarni to‘lash ayniqsa og‘ir bo‘lgan, hashar ishlarida qatnashishdan iborat begar majburiyati, zakot to‘lash solig‘i ham amal qilgan. Hokim va uning xizmatidagilarga maosh davlat xazinasidan berilmagan va ular o‘zlarining kunlik xarajatlarini mahalliy aholidan turli xil yig‘imlarni olish hisobiga qoplagan.

Xiva xonligi hududiga XIX asrning birinchi yarmida hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston hamda Turkmaniston davlatining shimoliy yerlari kirgan. Xiva xonligining ma’muriy boshqaruvi ko‘p jihatdan Buxoro amirligidagi tizimga o‘xshash bo‘lgan. Xon hokimiyati cheksiz bo‘lib, u eng yirik mulk egasi hisoblangan. Davlatda harbiy ishlarni yuritish, xonning barcha farmonlarining bajarilishini ta’minlash bilan birga soliqlarni undirilish jarayonlarini nazorat qilish ishlari Vaziri a’zam (qushbegi) tomonidan amalga oshirilgan. Xiva xonligida ham ish yuritish tartiblari, boshqaruv mexanizmlari va yerlargaegalik turlari ham Buxoro amirligidagi jarayonlarga o‘xshash bo‘lgan, shu bilan birgalkida ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega bo‘lgan. Xiva xonligida ham yer asosiy boylik hisoblangan. Buxoro amirligidagi kabi ular egalik shakliga ko‘ra uch guruhga bo‘lingan: davlat yerlari (amlok), shaxsiy mulk (xususiy yerlar), vaqf yerlari. Biroq, yer egaligi Buxoro xonligidagi bir qancha farq qilardi: xon va uning qarindoshlari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat va xususiy yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan.

Dehqonlar olgan hosilning yarmini ijaraga to‘laganlar va shu sababdan ularni “yarimchilar” deb ham atashgan. Mayda yer egalari xonavayron bo‘lib borganlar va oxir-oqibatda yerlaridan mahrum bo‘lganlar. Xiva xonligida amal qilgan soliq turlari Buxoro amirligidagi mavjud soliqlardan ancha ko‘proq bo‘lgan. Bu davrlarda Xiva xonligida yerlardan -salg‘ut solig‘i, bir yo‘la undiriladigan alg‘ut solig‘i, qurol-aslaha uchun maxsus "miliq puli" yig‘imi, aholi aravalarini davlat ishlari uchun safarbar etishni nazardu tutuvchi "arava oluv" deb nomlangan soliq, uloq tutuv – aholining tuya va otlarini safarbar qilishga qaratilgan uloq tutuv solig‘i kabi soliqlar bilan bir qatorda soliqlarga o‘xshagan majburiyatlar, masalan "qo‘nalg‘a" deb ataluvchi elchi va maldorlarga ko‘chib o‘tish uchun joy berish majburiyati, mahalliy hukmdorga haq to‘lash hamda begar, qazu, ichki va obxo‘ra qazu, hachi, otlanuv deb nomlangan bir qator moddiy majburiyatlar ham joriy qilingan. Xiva xonligidagi soliqlar va boshqa majburiyat xarakterdagi to‘lovlar soni 20 ga yaqin atrofida bo‘lgan. Xiva xonligida xonlik qilgan Muhammad Rahim I davrida xonlikda o‘zaro urushlar biroz pasayib, xonlikning iqtisodiyotida, jumladan soliq tizimida islohotlar o‘tkazildi. Bojxona tizimi shakllantirildi, oltin pullar joriy qilina boshlandi. Qo‘qon xonligi tarixida Xudoyorxon hukmronligi vaqtida soliqlarning hadda ziyod ko‘payib ketganligi, soliq undirililadigan ob’ektlarning soni ham shiddat bilan oshib borgan va iqtisodiyotga salbiy ta’sir qilgan.

Qo‘qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida hozirgi Namangan, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon hududlari, Toshkent, Xo‘jand hududlari, Qirg‘iziston va Janubiy Qozog‘iston hududlarini o‘z ichiga olgan. Qo‘qon xonligidagi hokimiyatni boshqaruv tartiblari Buxoro va Xiva xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Qo‘qon xonligida ham yerga egalik shakli uch turda: amlok, xususiy, vaqf yerlari shaklida bo‘lgan. Yerlarning asosiy qismi davlatga qarashli bo‘lgan- amlok yerlarni xonning shaxsan o‘zi tasarruf etgan. Amlok yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerning bir qismiga esa xususiy kishilar egalik qilgan. Mulklarning ko‘pchiligi 30-60 sotixgacha bo‘lgan. Xususiy yer egalarining olgan hosilining birdan beshdan bir qismini soliq sifatida undirilgan. Bu yerda ham hunarmandlardan, savdo-sotiq ishlari, mamlakatga mol olib kirganlik uchun yig‘imlar bilan birgalikda Xonning farmoniga ko‘ra davlat maqsadlari uchun favqulotdagi yig‘imlar ham undirib turilgan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi soliq tizimining umumiy xususiyatlari shundan iboratki, ularda iqtisodiy rivojlanish jarayonlari kamayib, o‘zaro harbiy harakatlarni avj oldirish, tashqi iqtisodiy aloqalar kamayib borish hisobiga

davlatning xarajatlarini asosan aholiga zimmasiga koʻproq yuklanganligi-dadir.

2.6. Chor Rossiyasi va Sobiq ittifoq davrida soliq tizimi[12]

XIX asrning 50 yillaridan keyin Oʻrta Osiyoga Chor Rossiyasining bosqinchilik harakatlari kuchayib bordi va 70 yillardan boshlab ularning toʻla hukmronligining boshlanishi boshqa sohalar singari Amirlik va Xonliklar davrida amalda boʻlib kelgan soliqlar tizimi deyarli tubdan oʻzgartirildi, bunda soliqlarning soni ortishi, ayrimlarining bekor qilinishi bilan birga soliq stavkalarining miqdori ham ortib borishi hisobiga roʻy berdi. 1986 yilda Turkiston oʻlkasini boshqarishning tartiblarini oʻz ichiga olgan va qonun kuchiga ega boʻlgan "Nizom"ni joriy etib, unda barcha iqtisodiy tartiblar koʻzda tutilgan edi. Unga koʻra, barcha yerlar davlat yerlari deb e'lon qilindi. Mahalliy xalqning gʻazabini jilovlash maqsadida ularga yerlar meros tartibida berish amaliyotlari joriy qilindi, ammo buning zamirida yerlardan katta soliqlar olish hisobiga mahalliy xalqni tutqunlikda ushba turish siyosati turgan edi. Yerga egalik qiluvchilar sonini oshirishni amalga oshirgandan soʻng Chor Rossiyasining dehqonlarga yer ajratishining asl mohiyati, oʻtroq mahalliy aholiga ajratib berilgan yerlarni jamoa va qishloqlarga biriktirish orqali soliq toʻlashning "doiraviy shakli" degan tartib joriy qilindiki, unga koʻra soliq birligi qilib ilgaridek, alohida olingan xoʻjalik, hovli emas, balki jamoa va qishloq belgilash orqali yerlardan undiriladigan soliqlarga javobgarlikni jamoalashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan edi. Yer soligʻi boʻyicha qarzdorlarning ma'suliyatini boshqa boy kishilarga oʻtkazilish amalga oshirildi. Tartib belgilab qoʻyildiki, soliq undiruvchilar tomonidan soliq qarzini oʻzlari toʻlashga ruxsat qilindi, bu orqali bir tomondan keyingi holatlarda toʻlangan soliqlar hisobiga qoʻshimcha ravishda mablagʻ undirish(sudxoʻrlikka oʻxshagan) hamda yer egalarining tobeligi oshirib borildi.

Yer solig'ini undirishda asta sekin uning stavkasini oshirish siyosati amalga oshirildi.1870-1890 yillarda yer solig'i ikki martaga oshirilgan bo'lsa, 1890 yillarning oxirida yer solig'idan tushgan tushum 4 mln. so'm bo'lgan holda, u 1916 yilga kelib qariyib 40 mln. so'mni tashkil etgan, ya'ni soliq yuki deyarli 10 martaga oshirilgan. 1869-1896 yillar davomida Chor

[12] Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar va materiallarga asoslandi: Oʻzbekiston yangi tarixi.(Tuzuvchilar: H.Sodiqov, R.Shamsitdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov). 1-qism. T.: "Sharq", 2000.,Учебник финансового права. Иловайский С.И. — Одесса, — 1904г. // Allpravo.Ru -2005., Поляк Г.Б, Маркова А.Н. Всемирная история. Учебник. М.: ЮНИТИ. 2000.-496 с, Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложение. М.: 2004,-226 с, http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp ва бошқа маълумотлар.

Rossiyasi xazinasi uchun o‘lkadan olingan umumiy daromadlar 160 mln.so‘mdan oshgan. 1905-1910 yillar oralig‘ida xo‘jalik va oilalarni ro‘yxatga olish natijasida soliq stavkasi 70 foizdan 6 marta darajagacha oshirildi. Soliq tushumlarining hajmini oshirish maqsadida Turkiston Hisob palatasi tomonidan soliq to‘lovchilar soni va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida aholining mol-mulki, yer uchastkalari ham aholi soni ro‘yxatdan o‘tkazilib, ular bo‘yicha kadastr ishlab chiqilgan. Chunki, Chor hukumati Turkiston guebenatorligi oldiga boshqa masalalar qatori yillik soliq tushumlarini ko‘paytirish va olingan daromadlarni Chor hukumati ixtiyoriga yuborib turish vazifasini ham qo‘ygan edi. Bunday vazifani amalga oshirishda ma’muriy usullarni oshirib, Turkiston gubernatorligi tomonidan soliqlarni oshirish va uning turlari, soliqlar nimalarga va kimlarga qanday tartibda solinishi mumkinligi haqida Chor hukumatiga tez-tez takliflar kiritib turgan. Mustamlakachilik davrida yangi soliqlarni joriy qilish odat tusiga kirib bordi. 1915 yilda maxsus harbiy soliq joriy etildi. Ushbu soliq paxtakorlarning gardaniga tushib, ular har bir topshirgan 1 pud paxtadan 2 rubl 50 tiyindan soliq to‘lashga to‘g‘ri kelgan.

Rossiyada oktyabr revolyusiyasidan keyin "harbiy kommunizm" davri deb atalgan 1917-1922 yillarda ilgari amal qilib kelingan soliq tizimi tubdan o‘zgartirildi. Avvaligi soliqlarning o‘rniga mol-mulk solig‘i, kapitalning o‘sishi solig‘i, nufuzli tovarlarga iste’mol solig‘i joriy qilindi. 1917 yil 24 dekabrda "To‘g‘ri soliqlarni undirish to‘g‘risida" dekret qabul qilindi. Xususiy mulkning bekor qilishini bilan uy-joylardan olinadigan soliqlar, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i bekor qilindi va ayrim kichik shaharlarda saqlanib qolindi. Asosiy soliqlar sifatida daromad solig‘i va hunarmandchilik solig‘i saqlanib qolindi. Shu bilan birgalikda ayrim mahalliy soliqlar, masalan qunduzdan mo‘ynasidan tayyorlangan ko‘ylak va bosh kiyimlar, grammofonlar, otlar, va bo‘ydoqlik uchun maxsus soliqlar ham kiritildi. 1918 yilda savdo faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar uchun aylanmadan 5 foizlik yig‘im, xususiy korxonalar uchun esa harbiy salohiyat uchun yig‘im va bolalar ta’minoti fondi uchun yig‘imlari joriy qilindi. Avval mavjud bo‘lgan ko‘pgina aksizlar bekor qilindi. Fuqarolik urushi vaqtida davlatning xarajatlari oshishi sababli qishloq joylardan natural soliqlar undirila boshladi va unda mahsulotlar turlari bo‘yicha soliq to‘lash belgilab qo‘yildi. "Yangi iqtisodiy siyosat" davrini qmarab olgan 1922-1929 yillarda ham soliq tizimiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritib borildi. Ayniqsa, bu vaqtda qishloq xo‘jaligidan undiriladigan soliqlar qayta takomillashtirildi. 1921 yilda natural soliqlar bo‘yicha 2 ta yirik dekret qabul qilindi va qishloq xo‘jaligi uchun kartoshka, non va yog‘ mahsulotlariga

alohida natura solig‘i kiritildi. Shu bilan birgalikda ham natura, ham rul shaklida undiriladigan yagona yer solig‘i ham joriy qilingan. 1923 yilda hunarmandchilik solig‘ini takomillashtirish bilan bog‘liq yangi dekret qabul qilinib, hunarmandchilik solig‘i mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha turdagi sanoat va savdo korxonalari uchun joriy qilindi, faqatgina faoliyati foyda olishga qaratilmagan davlat korxonalari bu soliqdan ozod qilindi. Bu davrda yangidan tashkil etiladigan korxonalarga "tenglashtirish" deb nomlanadigan uchun alohida yig‘im joriy qilindi. Ushbu yig‘im korxonalar tomonidan har bir faoliyati uchun alohida to‘lanar edi. Korxonalar har olti oyda o‘zlarining faoliyati bo‘yicha hisobotlar taqdim qilganda ular aylanma hajmidan kelib chiqib 6 foiz miqdorda to‘lovni amalga oshirar edi. Daromaddan olinadigan soliqni undirish mexanizmi takomillashtirildi va shedulyar shaklda tabaqalashtirilgan holda undiriladigan bo‘ldi. U ikki qismga: asosiy va qo‘shimcha daromadlarga ajratildi. Birinchi bosiqchda asosiy daromad(ish haqi) manbai soliqqa tortilsa, keyingi qismida boshqa faoliyatdan olingan qo‘shimcha daromadlar soliq bazasiga kiritiladigan bo‘ldi.

Boshqa soliqlar singari egri soliqlarni joriy etish ham kuchaytirib borildi. Masalan, 1921 yilda aksiz solig‘i joriy qilinib, spirtli mahsulotlar, choy, kerosin, kofe, shakar, yorituvchi moslamalar, tuz va boshqa bir qator ximiyaviy mahsulotlarga aksizlar belgilandi. Sobiq ittifoq davrida soliqlar va yig‘imlar soni yildan yilga oshib bordi va 1930 yillarning boshlariga kelib, barcha soliqlar va yig‘imlarnining umumiy soni 60 taga yaqinlashib qoldi va ular korxonalarning rivojlanishiga to‘siq bo‘la boshladi. Shundan kelib chiqib ayrim soliqlar va yig‘imlarni unifikatsiyalashtirildi. Davlat korxonalari oborot solig‘i va foydadan byudjetga ajratmalar kabi to‘lovlarni amalga oshirish belgilangan bo‘lsa, kooperativ shaklidagi korxonalar esa oborot solig‘i va daromad solig‘ini to‘laydigan bo‘ldi. Oborot solig‘i ilgari belgilangan aksizlarni ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, mahsulot realizatsiya qilingan vaqtda to‘lash mexanizmlari joriy qilinib, mahsulot iste’moli davridagi oraliq iste’mol, ya’ni qayta ishlashag mo‘ljallangan mahsulotlar soliqqa tortilmaydigan bo‘ldi.

Davlat korxonalari olingan foydaning deyarli barcha qismini byudjetga o‘tkazilishi, yana soliqlarning ishlab chiqarishga to‘sqinlik qilishini kuchaytirdi, korxonalarda mehnat unumdorligi pasaya bordi, shundan kelib chiqib, agar, korxona belgilangan rejani oshig‘i bilan bajargan holdagina olingan foydaning 50 foizi maqsadli sarflash sharti bilan qoldirila boshlandi. Ammo, kooperativ shaklidagi korxonalardan har kvartalda olingan balans daromadning 17 foizini byudjetga o‘tkazlishi

mexanizmi o‘zgarishsiz qoldi. 1941 yilda ikkinchi jahon urushining boshlanishi va harbiy mudofaa uchun qo‘shimcha mablag‘larning talab etilishi soliqlarning yanada oshirilishiga olib keldi. Bu davrda davlat byudjeti mablag‘larining 75 foizi korxonalar tomonidan to‘lanadigan soliqlar, qolgan 25 foizi esa aholi to‘laydigan soliqlar hisobiga shakllanar edi. Soliq tizimidagi o‘zgarishlar oborot solig‘i stavkalari kamaytirilib, foydadan byudjetga ajratmalar miqdori oshirildi, shuningdek, kooperativ va qishloq xo‘jalik korxonalri to‘laydigan daromad solig‘ining ham miqdorlari oshirilib borildi. Bir qator birinchi navbatda iste’mol qilinadigan mahsulotlarning narxi sun’iy ravishda oshirildi. 1942 yilda harbiy xarajatlarni qo‘shimcha qoplash maqsadida maxsus harbiy soliq joriy etildi, shuningdek, chin yetim qolgan bolalarni himoya qilish maxsus fondi tuzilib, bo‘ydoqlik va kam bolali(bolasiz) oilalar uchun maxsus soliqlar joriy etilib, ushbu fondga yo‘naltirildi. Shuningdek, mahalliy soliqlar tizimi ham takomillashtirildi, ularning aniq ro‘yxati tuzilib, oshirilgan stavkalarda qat’iy undirilish mexanizmlari amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat iqtisodiyotni tiklash davlat byudjetiga qo‘shimcha mablag‘larni talab qilsada, korxonalardan moliyaviy natijalardan manfaatdorlik mexanizmlarining yo‘qligi moliyaviy munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. 1979 yilda esa korxonalarda foydani aniqlash, soliqlarni to‘lash ham qolgan foyda hajmini taqsimlash mexanizmlari qayta ko‘rib chiqilib, unga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. 1987 yildan boshlab korxonalarda moliyaviy natijalarni shakllantirish va mabalag‘larni taqsimlash hamd o‘z-o‘zini moliyalashtirish mexanizmlarining kuchaytirilishi foydani taqsimlash tartiblarini ham o‘zgartirishga olib keldi.

Korxonalar olgan foydasidan byudjetga ajratmalar qilish, fondlar uchun to‘lovlar hamda yuqori turuvchi organlarni saqlash to‘lovlarini amalga oshirila boshlandi. korxonalar ixtiyorida qoladigan foyda esa moddiy rag‘batlantirish fondi, sotsial rivojlantirish fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga normativlar asosida taqsimlanadigan bo‘ldi. 1990 yilda soliq tizimining og‘irlashib qolganligini anglagan hukumat soliq tizimini isloh qilish borasida bir qator qonunlarni qabul qildi va mavjudlari takomillashtirildi. "Korxonalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida"gi, "Fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i" kabi qonunlar qabul qilindi.Ilgari foydadan byudjetga ajratmalar sifatid undirib kelingan to‘lovlar o‘rniga korxonalardan olinadigan foyda solig‘i joriy qilindi. 1991 yilda korxonalarda ish haqi fondidan qilinadigan xarajatlarni tartiblash maqsadida maxsus iste’mol solig‘i kiritildi. Bunda korxona o‘tgan yilgi ish haqi fondiga nisbatan 4 foizlik farqqa ega bo‘lsa, qo‘shimcha hisoblangan

har bir rubl ish haqi uchun alohida to‘lovlarni amalga oshiriladigan bo‘ldi. Shuningdek, shu yili sotuvdan soliq ham joriy qilindi. Ammo, soliq tizimi qonunchiligidagi bu o‘zgarishlar soliq yukining kamayishiga emas, balki uning og‘irlashuviga olib keldi. Masalan, korxonalarning foydasini soliqqa tortishda(byudjetga ajratmalarni amalga oshirishda) tarmoq bo‘yicha o‘rtacha belgilangan rentabellik darajasidan yuqori ko‘rsatkich darajasidan 10 punktga oshgan hajmdagi foydaning 80 foizigacha, 10 punktdan oshgan foyda hajmining esa 90 foizini byudjetga o‘tkazishga tartibi joriy qilindi. Korxonalar foyda hajmini oshirishga manfaatdor bo‘lmasdan, monopol mavqeiga ega bo‘lgan korxonalar esa natural shaklda ayirboshlash tizimini rivojlantirib yubordi va to‘lov tizimiga ham salbiy ta’sir qildi. Chet el ishtirokidagai korxonalarga nisbatan alohida, kooperativ shakldagi korxonalarga alohida(35-45 foizlik) foydadan solig‘i stavkalari belgilandi. Tovar(xizmat, ish)larni realizatsiya qiluvchi korxonalar aylanma hajmidan kelib chiqib tovarlarga belgilangan foizlar va aniq qat’iy summada oborot solig‘ini to‘lay boshladi. Import va eksport operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar uchun import-eksport solig‘ini to‘lash belgilab qo‘yildi.

1991 yilda kiritilgan sotuvdan soliq barcha turdagi korxonalarning aylanmalaridan 5 foizlik miqdorda undirish belgilangan edi, ammo, sal o‘tib, u qo‘shilgan qiymat solig‘iga almashtirildi. 1991 yildan boshlab korxonalarning foydasi solinadigan soliqlarning maksimal chegarasi 35 foiz qilib belgilangan bo‘lib, ushbu soliqdan tushadigan soliq tushumlarining 17 foizlik stavkada hajmida ittifoq byudjetiga va 18 foizlik stavkadagisi esa respublikalarning byudjetiga qoldiriladigan bo‘ldi. Shuningdek, korxonalar tomonidan ish haqi fondi hajmidan kelib chiqib 26 foizlik miqdorda Pensiya fondiga, Bandlik fondiga 1 foiz miqdorda sotsial to‘lovlarni amalga oshirish belgilandi. Bundan tashqari ish haqiga ega bo‘lgan aholining ish haqidan 5,4 foiz miqdorda sotsila sug‘urta Fondiga, 1 foiz Pensiya fondiga va 1 foiz Bandlik fondiga ajratmalar belgilab qo‘yildi. Ammo, o‘tgan asrning 90 yillarida soliq tizimidagi amalga oshirilgan islohotlar amalda deyarli o‘z ifodasini topmadi, sobiq ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida uning tarkibidagi respublikalarning mustaqillikka erishishi ularning har birining o‘ziga xos mustaqil soliq tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. 70 yil davomida hukmronlik qilgan sovet tuzumining asoschilari o‘z asarlarida soliqlar eksplatuatsiya quroli sifatida ta’riflab, soliqlar kapitalizm tuzumga xos jarayon va munosabatlar degan qarashlarni ilgari surgan bo‘lsada, ammo unda soliq tizimi o‘zining progressiv xususiyatiga ega bo‘lgan holda

amal qildi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchilik funksiyasidan amalda foydalanilmadi.

Soliqlarni o‘zgartirishga qaratilgan va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan o‘tgan asrning 90 yillarida o‘tkazilgan soliq tizimi ham totalitar-rejali tizimga asoslangan sovetlarning iqtisodiy tizimini saqlab qola olmadi. Aslida bu tuzumning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishining zamiri puch edi.

Tayanch so‘z va iboralar

Xiroj, molu-jihot, qo‘nalg‘a, boj, shulon puli, qushbegi, ixrojov solig‘i, alg‘ut solig‘i, qurol-aslaha uchun maxsus "miliq puli" yig‘imi, assavofiy yerlar, "joliya", talant puli, “yarimchilar”, natura solig‘i, kurfyurstlar, baskaklar, devon, vaqflar, sarroflar, isrof, kalon, ko‘pchir, juz’ya, amlok, yarimchilar, qo‘nalg‘a, begar, qazu, hachi, yangi iqtisodiy siyosat.

Takrorlash uchun savollar

1. Soliqlarning paydo bo‘lishi va uning amal qilishi davlatning paydo bo‘lishiga bog‘liqligining asoslarini izohlab bering.
2. Soliqlar Qadimgi Rimdagi nomlanishi va ularning joriy qilinish tartibini izohlang
3. Dastlabki soliqlarning qanaqa turlari bo‘lgan? Ularni sanab bering.
4. Feodal tarqoqlik davrida soliqlarning rivojlanish jarayonini tushuntirib bering.
5. Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishi va ularni undirilish xususiyatlarini yoritib bering.
6. A.Temurning soliq siyosatining mazmuni nimadan iborat?
7. Qadimgi davlatlarda soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlarini izohlab bering.
8. Yevropa va Osiyo davlatlari va Rossiyada soliqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlari qanaqa xususiyatlarga ega?
9. Vatanimizda qadimda va o‘rta asrlarda amal qilgan davlatchilik va chet davlatlar bosqinchiliklari davrida qanaqa soliqlar amal qilgan?
10. Chor Rossiyasi bosqinchiligi davrida Respublikamizda qanaqa soliqlar amal qilgan?
11. Sobiq ittifoq davrida soliq tizimining xususiyatlari nimalardan iborat edi?
12. Qadimgi Xitoy, Hindiston, Gresiya davlatlarida soliqlar qanday joriy qilingan va undirilgan?

13. Soliqlarning o‘lpon va kontributsiya shakllarining farqi nimada?
14. Soliqlarning o‘rta asrlardagi xususiyatlari nimalarda edi?
15. Nima uchun sobiq sovetlar soliqlarni eksplatuatsiya sifatida talqin qilsada, totalitar iqtisodiy tizimida soliqlardan keng foydalandi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq siyosati konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari qaysilar?

A) Soliq yukini pasaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash, soliq qonunchiligini soddalashtirish, qonun hujjatlaridagi bir-biriga zid holatlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiya va investorlar uchun qulay muhit yaratish, soliq nazorati shakllari va mexanizmlarini soddalashtirish.

B) Soliq stavkalarini barqarorlashtirish, QQS stavkasini tushirish, yangi soliq kodeksi qabul qilish, soliq siyosatini soddalashtirish, soliq tizimini jahon standartlariga yetkazish, soliq tekshiruvlarini qisqartirish.

C) Soliq hisobini takomillashtirish, chet mamlakatlari soliq siyosati unsurlaridan keng foydalanish, soliq bazasini kengaytirish, soliq yukini barqarorlashtirish, xususiy soliq imtiyozlariga ustunlik berish, soliq stavkalarini progressivlashtirish.

D) Soliq yukini pasaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash, soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq bazasini kengaytirish, soliq yukini barqarorlashtirish, xususiy soliq imtiyozlariga ustunlik berish, soliq stavkalarini progressivlashtirish.

2. Soliq siyosati strategiyasi nima?

A) Muayyan muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodasi.

B) Belgilangan soliq siyosati ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlar.

C) Soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.

D) Soliq siyosati konsepsiyasi

3. Soliq siyosati strategiyasiga ta’sir etuvchi omillar qaysi qatorda ko‘rsatib berilgan?

A) Milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, xalqaro miqyosda o‘zaro siyosiy-iqtisodiy munosabatlarning yo‘nalishi, iqtisodiy islohotlar va maxsus iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi

B) Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq yuki, soliq taktikasi.

C) Soliq tizimidagi o‘zgarishlar, bank tizimidagi o‘zgarishlar, inflyatsiya darajasi va narxlar siyosati.

D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Soliq siyosatining elementlari nima?

A) Soliq siyosatining subyektlari, soliq siyosatini shakllantirish tamoyillari, soliq siyosatining maqsadlari, soliq siyosatining vazifalari, soliq siyosatining usullari, soliq siyosatining instrumentlari

B) Soliq konsepsiyasi, soliq strategiyasi, soliq taktikasi.

C) Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

D) Soliq mexanizmi, soliq qonunlari, soliq kodeksi, ikkiyoqlama soliqqa tortish shartnomalari.

5. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir?

A) Narxlar nazoratini kuchaytirish

B) Pul emissiyasini ko‘paytirish

C) Davlat byudjetini daromad bilan ta’minlash

D) Savdo balansini kamaytirish

6. Soliq siyosatining boshlang‘ich bosqichlarida qanday tizim ustuvor bo‘lgan?

A) Progressiv soliq stavkalari tizimi

B) Natural soliqlar tizimi

C) Ijtimoiy nafaqa tizimi

D) Subsidiyalar tizimi

7. Tarixda birinchi bor rasmiy hujjat asosida soliqqa tortish tizimi qayerda joriy etilgan?

A) Qadimgi Rimda

B) Boburiylar imperiyasida

C) Misrda

D) Qadimgi Xitoyda

III-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATI

3.1.Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy asoslari

2023 yil 30 aprel kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shartligi, soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitustiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerakligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi soliq va byudjet siyosati amalga oshirilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, soliqlarni joriy qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga tegishli ekanligi belgilangan.

Shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 63-moddasida Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitustiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak, 93-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish, 115-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va byudjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo‘lishi vakolatlarni amalga oshirishi, 149-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga tegishliligi qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konstepstiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni asosan soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investistiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari,iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investistiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini

ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatildi, xususan:

birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini jalb qiladigan, shuningdek, iste’mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o‘rtasidagi kooperastiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan majburiy to‘lovlarning mavjudligi;

uchinchidan, soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

*to‘rtinchidan,*imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha ta’sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog‘lom raqobatni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar hisobiga qo‘llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

oltinchidan, o‘tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to‘sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo‘qligi;

ettinchidan, mahalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi etarli emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va yer uchastkalarini to‘liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomil-lashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng

jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib:

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konstepstiyasining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operastion xarajatlarni minimallashtirish;
- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;
- soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;
- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan Soliq Kodeksida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;
- xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;
- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob’ektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operastiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

O‘zbekistonda 2025-yildan boshlab Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar kuchga kirdi. Asosiy soliq stavkalari saqlanib qoldi, biroq bir qator mahsulotlar uchun aksiz solig‘i va qat’iy belgilangan soliq stavkalari o‘zgardi. Ayrim soliq imtiyozlari bekor qilindi.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 24-dekabr kuni 2025−2027-yillarga mo‘ljallangan soliq siyosatining asosiy

yo‘nalishlari to‘g‘risidagi 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1014-son qonun-ni bilan 2025-yil uchun amaldagi asosiy soliq stavkalari saqlanib qolindi. 2025-yil uchun belgilangan soliq siyosatida asosiy soliq stavkalari qo‘shilgan qiymat solig‘i – 12 foiz, foyda solig‘ining bazaviy stavkasi – 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi – 1,5 foiz, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘i – 0,95 foiz, qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish *(o‘stirish)* uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 1 kub. metrga – 100 so‘m, ijtimoiy soliq – 12 foiz *(byudjet tashkilotlari – 25%)*, aylanmadan olinadigan soliq – 4 foiz miqdorida o‘zgarishsiz qoldirilmoqda[13].

Qonun loyihasi SKning amaldagi 37 ta moddasiga va Byudjet kodeksining 1 ta moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritishni nazarda tutuvchi 5 ta moddadan iborat.

1. SKning 133 va 261-moddalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali tovarlar (xizmatlar) eksportida qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish uchun bojxona organlarining eksportni tasdiqlovchi elektron ma’lumoti asos bo‘lishi belgilanmoqda.

Amalda tadbirkorlar chegaradagi bojxona organlari muhri qo‘yilgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi talabi mavjud.

2. SKning 243 va 256-moddalarga o‘zgartirishlar kiritish orqali 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

a) qo‘shilgan qiymat zanjiri uzluksizligini ta’minlash maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagi soliq imtiyozlari bekor qilinmoqda:

– yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

– yo‘lovchilarni yagona tariflar bo‘yicha tashish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha aylanma.

b) davlat mulkini**,** shu jumladan**,** mulk huquqi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish belgilanmoqda.

3. 2025-yil 1-yanvardan mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i *(10 foiz)* bekor qilinmoqda**.** Shundan kelib chiqib, SKning 283, 284, 285 va 286-moddalariga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

[13] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1014-son

4. Jahon savdo tashkilotining respublikada ishlab chiqariladigan va import qilingan tovarlarga aksiz solig‘i stavkasining bir xil bo‘lishi lozimligi talabidan kelib chiqib, SKning 289/1 va 289/2 - moddalariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda:

1) tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘i stavkalari tenglashtirilmoqda. Xususan, filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaretalar), hidi, kretek uchun aksiz solig‘i stavkasining advalor qismi (10%) bekor qilinmoqda hamda 1 000 donasi uchun:

a) 2025-yil 1-yanvardan:

– respublikada ishlab chiqariladigan sigaretalarga 300 ming so‘m;

– import qilinganlarga 330 ming so‘m miqdorida;

b) 2025-yil 1-iyuldan esa respublikada ishlab chiqariladigan va import qilinganga aksiz solig‘i stavkasini tenglashtirgan holda aksiz solig‘i stavkasini 340 ming so‘m miqdorida belgilash ko‘zda tutilmoqda.

Boshqa tamaki mahsulotlariga (chilim uchun tamaki, chekiladigan, o‘rama tamaki, tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik va boshqalar) aksiz solig‘i stavkalari ham oshirilmoqda.

2) 2025-yil 1-yanvardan boshlab respublikada ishlab chiqariladigan va import qilingan etil spirti uchun aksiz solig‘i stavkasi tenglashtirilib, 1 litri uchun 15 ming so‘m etib belgilanmoqda;

– don distillyatiga nisbatan etil spirtiga belgilangan stavkada aksiz solig‘iga tortish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, texnik etil spirtini ishlab chiqarishda foydalanilgan etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasiga aksiz solig‘i qo‘llamaslik ko‘zda tutilmoqda.

3) aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig‘i stavkalari respublikada ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotlariga indeksatsiya qilinib, import qilinganga pasaytirilmoqda. Jumladan:a) 2025-yil 1-yanvardan:

– respublikada ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotlarga aksiz solig‘i stavkasini 10 foizga indeksatsiya qilib, 1 litr uchun 44 ming so‘m;

– import qilingan alkogol mahsulotlari uchun soliq stavkasi pasaytirilib, 1 litr uchun 76 ming so‘m (*amalda 101,5 ming so‘m*) miqdorida belgilanmoqda;

b) respublikada ishlab chiqariladigan va import qilingan tabiiy vino, boshqa vinolar, shu jumladan, vermut, pivolarga aksiz solig‘i stavkalari ham ishlab chiqarishda oshirish va import qilinganga pasaytirish orqali bosqichma-bosqich tenglashtirish nazarda tutilmoqda.

5. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari o‘zgartirilishi munosabati bilan SKning 289`3-

moddasiga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilmoqda:

a) 2025-yil 1-apreldan boshlab neft mahsulotlariga (*benzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, motor moyi*), shuningdek, benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishda aksiz solig‘i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda;

b) respublikada qazib olingan tabiiy gazni realizatsiya qilishdagi qo‘llaniladigan aksiz solig‘i stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha pasaytirilgan holda import qilingan tabiiy gazni iste’molchiga realizatsiya qilishda xuddi shu kabi 12 foizlik aksiz solig‘i stavkasini o‘rnatish nazarda tutilmoqda;

v) 2025-yil 1-apreldan boshlab:

– tarkibida shakar mavjud bo‘lgan gazlanmagan salqin choylar, meva sharbatlari, sanoat usulida ishlab chiqarilgan kompotlarning va boshqa gazlanmagan shakarli ichimliklarning 1 litri uchun ham 500 so‘m miqdorida aksiz solig‘i joriy etilmoqda;

bunda meva va sabzavotlardan tayyorlangan, tabiiy shirin *(tarkibida fruktoza, glyukoza bo‘lgan)* bo‘lgan va qo‘shimcha shakar qo‘shilmagan **sharbatlar** *uchun aksiz solig‘i qo‘llanilmaydi.*

– tarkibida shakar mavjud bo‘lmagan**,** shirinlashtiruvchi yoki xushbo‘ylashtiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan gazlangan ichimliklarning 1 litri uchun aksiz solig‘i stavkasi 500 so‘mdan 300 so‘mgacha pasaytirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, gazlanmagan xuddi shunday ichimliklarga ham 1 litri uchun 300 so‘m miqdorida aksiz solig‘i stavkasi joriy etilmoqda.

6. SKning 337 va 467-moddalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali 2025-yil 1-yanvardan:

a) Jahon savdo tashkiloti talablaridan kelib chiqib, tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlarga foyda solig‘i bo‘yicha nol darajali stavka va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq bazasiga kiritilmaslik normalari bekor qilinmoqda;

b) elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlarga foyda solig‘i stavkasi 10 foiz (amalda 7,5 foiz) va aylanmadan olinadigan soliq – 3 foiz (*amalda 2 foiz*) miqdorida belgilanmoqda.

7. SKning 383, 385 va 408-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali yakka tadbirkorlar uchun 2025-yil 1-yanvardan boshlab**:**

a) yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda hamda faoliyat turi va joylashgan hududiga qarab eng kam va eng yuqori stavkalari *(diapazon)* belgilanmoqda;

bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga (amalda tuman (shahar) Kengashlari koeffitsiyent belgilashi mumkin) stavkalarni hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha belgilash vakolati berilmoqda.

b) jami yillik daromadi 100 mln so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlari uchun umumiy tartibdagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(12%)* yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakka tartibdagi tadbirkor uchun o‘rnatilgan qat’iy belgilangan stavkasining 50 foizi miqdorida soliq to‘lash *(ixtiyoriy tarzda)* huquqi berilmoqda.

v) bozor va savdo komplekslarida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlari uchun ijtimoiy soliqning stavkasi yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravaridan (2,2 million so‘m) bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha (375 ming so‘m) pasaytirilmoqda.

8. Mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida (375 ming so‘m) ijtimoiy soliq to‘lovchi shaxslar *(o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, dehqon xo‘jaligining a’zolari, “Usta-shogird” maktablari o‘quvchilari va boshqalar)* uchun ushbu soliqni to‘lashning so‘nggi muddati hisobot yilining 1-dekabridan 31-dekabriga o‘tkazilmoqda. Shundan kelib chiqib, SKning 408-moddasiga o‘zgartirish kiritilmoqda.

9. SKning 266, 269, 343, 470 va 470^1-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali 2025-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqning qat’iy belgilangan stavkalari tovar aylanmasi 500 million so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlar uchun yiliga 30 million so‘m**,** 500 million so‘mdan yuqori bo‘lganda – 40 million so‘m miqdorida belgilanmoqda. Bunda ushbu soliq rejimining amal qilish muddati 2026-yil 1-yanvar qilib belgilanmoqda.

10. SKining 266, 269, 343, 470 va 470^1-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali 2025-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqning qat’iy belgilangan stavkalari tovar aylanmasi 500 million so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlar uchun yiliga 30 million so‘m, 500 million so‘mdan yuqori bo‘lganda – 40 million so‘m miqdorida belgilanmoqda. Bunda ushbu soliq rejimining amal qilish muddati 2026-yil 1-yanvar qilib belgilanmoqda.

Toshkent shahri uchun – 3,3 million so‘m *(amalda 3 million so‘m)*, Nukus shahri va viloyat markazlari uchun – 2,2 million so‘m *(amalda 2*

million so‘m), boshqa joylar uchun – 1,3 million so‘m *(amalda 1,2 million so‘m)*.

Shundan kelib chiqib, SKning 412-moddasiga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

11. SKning 415-moddasiga o‘zgarishlar kiritish orqali yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 0,6 foiz miqdoridagi pasaytirilgan stavkasi 10 foizga indeksatsiya qilingan holda 0,65 foiz etib belgilanmoqda.

Soliqning pasaytirilgan stavkasi umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar, konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko‘chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari uchun qo‘llaniladi.

12. SKning 422-moddasiga o‘zgartirishlar kiritish orqali jismoniy shaxslarning turar joy obyektlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilingan holda quyidagicha belgilanmoqda:

a) respublika bo‘yicha joylashgan, umumiy maydoni 200 kv metrgacha bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari uchun – 0,34 foiz**;**

b) shaharlarda joylashgan, uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari uchun:

– 200 kv m dan ortiq va 500 kv m gacha bo‘lganlar uchun – 0,45 foiz;

– 500 kv m dan ortiq bo‘lganlar uchun – 0,6 foiz.

v) boshqa aholi punktlarida joylashgan**,** umumiy maydoni 200 kv metrdan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dalahovli imoratlari uchun – 0,45 foiz etib belgilanmoqda.

13. SKning 428-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish orqali 2025-yil 1-yanvardan boshlab yangi barpo etilgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozni bekor qilgan holda soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish tarzida imtiyoz berilmoqda.

Bunda, imtiyozli muddat 5 yil sifatida saqlab qolinadi va vakolatli organ tomonidan iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli deb topilgan bog‘, tokzorlarga nisbatan yer solig‘i 3 baravarga oshirilgan holda hisoblanadi.

14. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini va byudjetning umumiy daromadlarida yer solig‘i ulushini saqlab qolish maqsadida SKning

429 va 437-moddalariga o‘zgartirish kiritish orqali yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari o‘rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlashga mo‘ljallangan bino va inshootlar joylashgan yerlarga nisbatan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash noqishloq yerlar uchun belgilangan stavkaga 0,2 koeffitsiyent qo‘llagan holda amalga oshirilishi belgilanmoqda.

15. Suv resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun suv solig‘i yuki oshib ketishining oldini olish hamda ushbu soliq tushumlari to‘liq mahalliy byudjet daromadlariga yo‘naltirilishini inobatga olib, SKning 445-moddasiga quyidagi o‘zgarishlar kiritilmoqda:

– sanoat korxonalari, elektr stansiyalari hamda alkogolsiz va alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun o‘rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda;

– boshqa tarmoqlardagi korxonalar uchun suv solig‘i stavkalari sanoat korxonalariga belgilangan stavkaga tenglashtirilib, 1 kub metr uchun yer usti – 700 so‘m *(amalda 345 so‘m)* va yer osti – 850 so‘m *(415 so‘m)* etib belgilanmoqda;

– suvni tejab ishlatishni rag‘batlantirish, xususan, suvni isrof qilishni kamaytirish maqsadida avtomobillarni yuvishda foydalaniladigan suvning 1 kub metri *(1 000 litr)* uchun soliq 15 ming so‘m *(1 litr uchun 15 so‘m)* etib belgilanmoqda;

– suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda mazkur texnologiyalarning bittasi joriy etilganda esa 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanishi nazarda tutilmoqda;

– suvni tejaydigan texnologiyalar umuman joriy qilinmaganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 1,1 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanishi ko‘zda tutilgan.

– baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanishi belgilanmoqda;

Shuningdek, tumanlar (shaharlar) mahalliy kengashlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash *(qishloq xo‘jaligi,*

elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilar bundan mustasno) vakolati berilmoqda.

16. Noruda qurilish materiallarining yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yuzasidan SKning 452-moddasiga quyidagi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda:

a) soliqning 5 foizlik advalor stavkasini saqlab qolgan holda 1 kub metr uchun quyidagicha stavkalar oʻrnatilmoqda:

– marmar uchun – 20 000 soʻm;

– granit uchun – 30 000 soʻm;

– tabiiy bezaktosh uchun – 30 000 soʻm;

b) qum shagʻal aralashmasi *(shu jumladan, qurilish qumi va qumtoshlar)* uchun 5 foizlik advalor stavkani bekor qilgan holda qat'iy belgilangan soliq stavkasi 1 kub metri uchun 5 000 soʻm etib belgilanmoqda**.**

Bundan tashqari**,** kon-kimyo xomashyosi hamda qolgan noruda qurilish materiallari guruhdagi foydali qazilmalar uchun belgilangan qat'iy belgilangan stavkalar ga indeksatsiya qilinmoqda.

Bunda, xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun *(sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktosh tashqari)* qat'iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash vakolati berilmoqda.

17. Aholiga qoʻshimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash boʻyicha SKning 483-moddasiga quyidagilarni nazarda tutuvchi qoʻshimchalar kiritilmoqda:

a) 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar ishga qabul qilingan kambagʻal oilalar a'zolari *(ish haqi kamida 1,7 million soʻmni tashkil qilganda)* uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanmoqda;

b) 2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-sentabrga qadar maktab, kollej va texnikum oʻquvchilariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida toʻlanishi belgilanmoqda;

v) 2028-yil 1-yanvarga qadar magistral yoʻllar boʻyida koʻchma savdoni tashkil qilgan yoshlar *(30 yoshgacha)* faoliyatining dastlabki 6 oyi davomida soliqlarni toʻlashdan ozod etilmoqda;

g) nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlari hisobot (soliq) davri yakunlari boʻyicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan soliq toʻlovchilar 2025-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvarga qadar boʻlgan

davrda mazkur faoliyat turi bo‘yicha foyda solig‘ini (bundan foizlar tarzidagi daromadlar mustasno) to‘lashdan ozod etilmoqda.

d) IT-park rezidentlariga QQS va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari barcha soliqlarni to‘lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar 2040-yil 1-yanvarga qadar *(amalda 2028-yil 1-yanvargacha)* uzaytirilmoqda;

mazkur imtiyoz eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo‘lgan hamda 18 yoshdan oshgan bitiruvchilarining 50 foizdan ortiq qismi eksportchi korxonalarga ishga joylashgan IT ta’lim xizmatini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

e) 2025-yil 1-fevraldan 2040-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo‘lgan IT-park rezidentlarining ta’sischilariga dividend solig‘i 5 foiz *(amalda 10 foiz)* etib belgilanmoqda;

f) 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi yiliga 10 million AQSh dollaridan oshgan IT-park rezidentlariga xizmat ko‘rsatgan norezidentlar foyda solig‘idan ozod etilmoqda.

18. 2025-yil 1-yanvardan boshlab yil davomida soliq va bojxona imtiyozlarini berish va bekor qilish yoki boshqa ajratmalar stavkalarini kamaytirish va oshirishni nazarda tutuvchi normalarni keyingi yildan boshlab amalga kiritish tartibi o‘rnatilmoqda. Shundan kelib chiqib, Byudjet kodeksining 143-moddasiga qo‘shimcha kiritilmoqda.

Soliq siyosati davlatning iqtisodiy-moliyaviy siyosatining ajralmas tarkibiy bo‘g‘ini hisoblanib, soliq siyosati moliyaviy siyosatga bog‘liq holda amalga oshiriladi.Chunki soliqlarga oid munosabatlar moliyaviy munosabatlardan kelib chiqib tashkil etiladi.

Soliq siyosati davlatning soliq islohatlarni rejalashtirish, soliq sohasidagi qonunlar, farmonlar va qarorlar ijrosini ta’minlash va uni tashkil qilishdagi belgilangan chora tadbirlarni amalga oshirishdir.

Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi soliq va byudjet siyosati amalga oshirilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, soliqlarni joriy qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga tegishli ekanligi belgilangan.

3.2.Soliq siyosatini amalga oshirishda davlatning o‘rni va soliq siyosatini takomillashtirish

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy moliyaviy manbailaridan bo‘lganligidan soliq siyosatini ishlab chiqishning ijodkori va tashkil etuvchisi davlat hisoblanadi. Soliq siyosatini ishlab

chiqishning ijodkori va tashkil etuvchisiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat Soliq Qo‘mitasi kiradi.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiquvchi va uni soliq amaliyotiga tadbiq qilishning tashkil etuvchisi va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy islohatlarni muvvafaqiyatli amalga oshirish va soliq siyosatiga oid munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vostasidir. Davlat tomonidan soliq siyosatining strategiyasi va soliq siyosatining taktikasi ishlab chiqilgan bo‘lishi zarur.

Soliq siyosatining strategiyasi uzoq muddatlarga mo‘ljallangan soliq islohatlari va soliqlarga oid munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha chora-tadbirlarni aks ettiruvchi uzoq muddatli dasturiy rejadir.

Soliq siyosatining taktikasida soliq siyosatining strategiyasining ma’lum davr, yil, chorak, oylarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan,aniq soliq islohatlari va soliqlarga oid munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rsatiladigan qisqa muddatli dasturiy rejadir.

Soliq siyosatining taktikasi soliq siyosatining strategiyasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Soliq siyosatining strategiyasi uzoq muddatlarga mo‘ljallangan soliq islohatlari va soliqlarga oid munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari yig‘indisidir. Soliq siyosatining strategiyasi 10-15 yillarga mo‘ljallab tuzilgan konstepstiyalardan tashkil topadi va soliq siyosatining strategiyasi uzoq va muddatlar o‘zgarmaydi.

Soliq siyosatining taktikasi davlatning soliq siyosatining strategiyasining ma’lum davr, yil, chorak, oylarda soliq amaliyotida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirdir.

Soliq siyosatining taktikasida odatda soliqlarga oid munosabatlar bo‘yicha soliq sohasidagi qonunlar, farmonlar va qarorlarni ishlab chiqish va ularga lozim bo‘lgan o‘zgartirishlar kiritishdan iborat. Soliq siyosatining taktikasi mamlakat iqtisodiy moliyaviy rivojlanish istiqbollariga qarab o‘zgarib turishi mumkin.

Soliq siyosatining konstepstiyasi bu uzoq muddatlarga mo‘ljallangan soliq islohatlari va soliqlarga oid munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari belgilab olishdan iborat. Soliq siyosatining konstepstiyasi 10-15 yillarga mo‘ljallab tuzilgan bo‘ladi. Soliq siyosatining konstepstiyalari asosida soliq siyosatining strategiyasi ya’ni soliq siyosatining butun yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan yagona strategiya ishlab chiqiladi.

3.3. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida amalga oshirilgan soliq islohatlarini bosqichlari

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida amalga oshirilgan soliq islohatlarini besh bosqichda aks ettirishimiz mumkin.

Birinchi bosqich, 1991-1994 yillarda soliq siyosatida amalga oshirilgan soliq islohatlari asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimiga asos solindi va tashkil etildi.

Mamlakatimizda davlat soliq xizmati organlari faoliyati 1992 yil 8 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi[14] qabul qilinganidan so‘ng faollasha boshladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qaroriga asosan 1991 yil 14 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq idoralari to‘g‘risidagi nizom» va O‘zbekiston Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustdagi “O‘zbekiston Davlat Soliq organlari haqida”gi 217-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining1992 yil 20 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq organlarini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 483-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 28 dekabrdagi 595-son qarori asosan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibidagi maxsus nazorat boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom» va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma’lumotlarni ishlash bo‘yicha yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 26 apreldagi “Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibida valyuta tushumlarini nazorat qilish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar tashkil etish to‘g‘risida”gi 191-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi « O‘zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-744-son farmoni,[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 4 mart «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida»gi 114-son qarori qabul qilinganidan so‘ng davlat soliq nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatidagi davlat soliq xizmati organlarining shakllanishi hamda faoliyat yuritishga asos solindi.

[14]«Xalq so‘zi» gazetasi, 1992 yil 15 dekabr, 243 (494)-son

[15]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 1-son, 40-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.01.2019 y., 06/19/5620/2501-son

O‘zbekiston Respublikasining KONSTITUTSIYASIning 122-123-moddalarida O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga egaligi va O‘zbekistonning Davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat ekanligi belgilanib, O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi belgilab quyildi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991yil 14 iyundagi qaroriga muvofiq "O‘zbekiston davlat soliq organlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash xaqida" va O‘zbekiston Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustdagi “O‘zbekiston Davlat Soliq organlari haqida”gi 217-son qarori asosan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liqligi, to‘g‘riligi va o‘z vaqtida kiritilishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat tizimini takomillashtirish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, vazirlik va idoralar, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, kooperativlar, kichik korxonalar, bank va boshqa muassasalarning mas’uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soliq majburiyatlarini bajarish uchun O‘zbekiston SSR moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliya-soliq bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston SSR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq organlarini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 483-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi markaziy apparati tarkibida Maxsus nazorat boshqarmasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat soliq bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tarkibida tegishli boshqarmalar tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 28 dekabrdagi 595-son qaroridagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibidagi maxsus nazorat boshqarmasi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom» ga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibidagi Maxsus nazorat boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasining davlat soliqlari va boshqa majburiyatlarning byudjetga to‘liq tushishi bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi va uning joylardagi bo‘linmalarining vazifalari, funkstiyalari, vakolatlari belgilandi. Maxsus nazorat

boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibida, viloyatlarning va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari tarkibida maxsus nazorat bo‘limlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma’lumotlarni ishlash bo‘yicha yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik va boshqa ko‘rinishdagi faoliyatdan, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq muomalalardan daromad ko‘ruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘lari harakati ustidan davlat nazorati tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, soliq to‘lovchilarga soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqishda, ularning o‘z vaqtida va to‘la miqdorda to‘lanishida yordam ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma’lumotlarni uzatish va ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish dasturi va ushbu dasturni amalga oshirishning reja-grafigi tasdiqlandi 1993-1994 yillarda zamonaviy elektron hisoblash mashinalari, soliq to‘lovchilarni sonli indentifikastiya kodi bo‘yicha hisobga olishni tashkil etish asosida soliq tushumlarini hisobga olish tizimini yaratish bo‘yicha pilot loyihasini ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 26 apreldagi “Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibida valyuta tushumlarini nazorat qilish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar tashkil etish to‘g‘risida”gi 191-son qarori asosan «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq va respublika valyuta jamg‘armasini shakllantirishning barqarorligini ta’minlash, xorijiy valyutada olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boj to‘lovlarini hisoblash, to‘lashning to‘g‘riligini, ularning o‘z vaqtida to‘langanligini va to‘liqligini nazorat qilishni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarkibida Valyuta tushumlarini nazorat qilish bo‘yicha maxsus boshqarma va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarida tegishli bo‘linmalar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-744-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq va nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, yagona davlat soliq siyosatini o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 4 mart «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida»gi 114-son qarori va «O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida» 1994 yil 18 yanvardagi Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliq va boj siyosatini amalga oshirishni, shuningdek, davlatning iqtisodiy manfaatlarini va mulkiy huquqlarini himoya qilishni ta’minlovchi davlat nazorati organi hisoblanishi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida qabul qilgan qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, mulkchilik shaklidan va ular kimga bo‘ysunishidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi belgilandi.

Ikkinchi bosqich 1995-1997 yillari davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq siyosatining yangi bosqichiga to‘g‘ri kelib, ushbu jarayonda mamlakatimizning soliq qonunchiligiga asos solindi va soliq nazoratining huquqiy bazasi mustahkamlandi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida soliq nazoratining huquqiy asoslarini belgilab olish maqsadida 1997 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.[16]

1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasi soliqlar tizimida huquqiy asos sifatida O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi 396-I-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi tasdiqlandi[17]

1997 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadlarida tuzilganligi ko‘rsatilib, soliq nazorati soliq to‘lovchilarni, soliq solish ob’ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat ekanligi, soliq

[16]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,21.04.2021y.,03/21/683/0375-son 12.03.2022y., 03/22/758/0207-son
[17]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 yil, 1-2-son 18-modda, 5-son 90-modda;

nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarni, soliq solish ob’ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshirilishi belgilab olindi.

1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksida O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanishi va bekor qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi hududida: umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig‘imlar amal qilishi, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki u vakolat bergan davlat organi tomonidan berilishi belgilandi.

Uchinchi bosqich 1998-2007 yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqichda davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq siyosati rivojlantirilda va takomillashtirildi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish,davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan muassasalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirish maqsadida 1998 yil 24 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida” gi 717-I-son qonuni qabul qilindi.

1998 yil 24 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi 717-I-son qonuniga asosan soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan amalga oshirilishi, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi va u chiqargan qarorlarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tekshirishga doir qismi nazorat qiluvchi organlar uchun majburiy hisoblanishi belgilandi.

1997 yil 29 avgustdagi «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan ularga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlash maqsadida davlat soliq xizmati organlari uchastka soliq inspektorlari lavozimi joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvarda «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari

to‘g‘risida» gi 14-son qarori qabul qilindi.Soliq intizomini mustahkamlash, soliq qonun hujjatlariga qat’iy amal qilish, soliq to‘lovlarining byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash, soliq haqidagi huquq buzilishlarining aniqlanishi, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish ustidan davlat nazoratni kuchaytirish, shuningdek soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 13 martdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi 87-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida» 2000 yil 13 martdagi 87-son qarorini bajarish yuzasidan va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 mayda “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 180-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida» 2000 yil 13 martdagi 87-son qarorini bajarish yuzasidan va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 mayda “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 180-son qarorida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Rejim va kadrlar bosh boshqarmasi to‘g‘risida Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Rejim va kadrlar bosh boshqarmasi ning vazifalari, funkstiyalari, huquqi va javobgarligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to‘g‘risida Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bosh Nazorat-taftish boshqarmasi faoliyatiga tegishli bo‘lgan vazifalarni, funkstiyalarni, huquq va mas’uliyati, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida Nizomda O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida xizmatga qabul qilish tartibini va mansabdor shaxslar tomonidan davlat xizmatini o‘tash shart-sharoitlarini, ularning mas’uliyatini, shuningdek, ularga maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum qilish tartibini belgilandi.

2006 yil 21 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-55-son “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi[18]. 2006 yil 21 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi soliq maslahati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyati tasdiqlandi.

To‘rtinchi bosqich 2008-2017 yillarda Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilindi, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikastiya tizimi faoliyati samaradorligini oshirildi hamda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi tasdiqlanib amalga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘RQ-136-son qonunida O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 2008 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kirishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2008 va 2009 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligi muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta’minlanishi, zarur bo‘lgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining ayrim normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni belgilangan tartibda kiritilishi ko‘rsatildi.[19]

2007 yil 25 dekabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksini 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksidan eng asosiy farqi 2007 yil 25 dekabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, ya’ni har bir soliqni hisoblash va to‘lash tartiblarini turli huquqiy me’yoriy hujjatlar,yo‘riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri Soliq Kodeksida aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1257-son Qarorida mustaqillik yillarida mamlakatda bozor tamoyillariga javob beradigan soliq tizimi shakllandi, O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq Kodeksi qabul qilindi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq

[18]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
[19] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 52 (I)-son

organlarining yaxlit tizimi yaratilganligi, mamlakatimizda to‘plangan va chet el tajribasining tanqidiy tahlili respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilishning zarurligi,soliq organlarining funkstiya-lari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, eng avvalo, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, Davlat byudjetining daromad qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida hali etakchi o‘rinni egallagani yo‘qligi,ilg‘or axborot-kommunikastiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada foydalanilmayapti, soliq qonunchiligi buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha axborot-tahliliy ishlar sust olib borilayotganligi qayd etildi.

Shuningdek, mamlakatimizda to‘plangan va chet el tajribasini hisobga olgan holda soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilish, nazorat qiluvchi organlar funkstiyalaridagi bir-birini takrorlashlarni bartaraf etish, respublika fiskal-moliya organlari tuzilmasida soliq organlarining, eng avvalo, qabul qilingan soliq qonunchiligini va Davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish bo‘yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish masalalaridagi vakolatlarini kengaytirish va rolini oshirish maqsadida bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to‘xtash joylari, shuningdek, ular hududida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tekshirish huquqi faqat davlat soliq xizmati organlariga berilishi belgilandi. [20]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 98-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010 yil 8 yanvardagi PQ-1257-son qarorini bajarish yuzasidan hamda davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomil-lashtirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida” Nizom tasdiqlandi.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida” Nizomda «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010 yil 8 yanvardagi

[20] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021 y., 06/21/6176/0156-son

PQ-1257-son qaroriga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi maqomi, vazifalari, funkstiyalari, vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy asoslari, davlat soliq qo‘mitasi soliq qonunchiligiga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanishi belgilandi.[21]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikastiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1843-son Qarori muvofiq soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to‘lovchilar uchun ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo‘naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikastiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Axborot-kommunikastiya texnologiyalari va innovastiyalarni joriy qilish boshqarmasining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari hisoblanishi, soliq to‘lovchilar, soliqqa tortish ob’ektlari, hisoblangan va to‘langan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek ular bo‘yicha imtiyozlar to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash, soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va tahlilning avtomatlashtirilgan ilg‘or usullarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarning soliq va moliya hisobotlari hamda soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi boshqa axborotlarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish, soliq ma’muriyatchiligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanish,O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasida soliqqa tortish masalalarida, jumladan, aloqa kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish, soliq to‘lovchilarga real vaqt rejimida keng ko‘lamli interfaol xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish va soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq to‘lovchilarga butunlay kontaktsiz elektron xizmat ko‘rsatishni, jumladan, davlat interfaol xizmatlari ko‘rsatuvchi Yagona portal orqali ta’minlash,axborot xavfsizligini ta’minlash hamda

[21]O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 й., 18-son, 325-modda

mavjud ma’lumotlarni himoya qilish choralarini ko‘rish, soliq idoralarining yagona integrastiyalashtirilgan axborot resurs bazasini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi birinchi bosqich 2013 yil 1 yanvargacha barcha hududiy davlat soliq inspekstiyalarining axborot bazasini markaziy ma’lumotlar bazasiga integrastiyalashtirish, ikkinchi bosqich 2015 yil 1 yanvargacha soliq to‘lovchilar majburiyatlarining paydo bo‘lishi (to‘xtatilishi) bo‘yicha vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar yagona axborot bazasiga integrastiyalashtirish belgilandi.[22]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-son Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma’muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari hisoblanishi soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub’ektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish, soliq solish ob’ektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, makroiqtisodiy ko‘rsatkich-lar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob’ektlarini to‘liq qamrab olishni ta’minlash va soliq solinadi-gan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har

[22]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son

tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish, 2018 yil 1 yanvardan soliq organlari va halol soliq to‘lovchilar o‘rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli soliq monitoringi joriy etilishi belgilandi [23]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-son Qarori asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 1 avgustdagi PQ-3168-son qarorini bajarish yuzasidan va davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida 2017-2021 yillarda davlat soliq xizmati organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.[24]

O‘zbekiston respublikasi davlat soliq qo‘mitasining 2017 yil 15 avgustdagi “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2017-41-son qarori muvofiq “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-sonli «Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish tartibi belgilandi.[25]

[23]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.01.2019 y., 06/19/5620/2501-son
[24]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021 y., 09/21/87/0134-son
[25]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021 y., 09/21/87/0134-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 oktyabrdagi «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar yig‘ilishini amalga oshirish uchun soliq inspektorlarini to‘lov terminallari bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi 832-son Qarori muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmonini bajarish yuzasidan Soliq inspektorlari o‘zlariga biriktirilgan uchastkada mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajarishlari hamda ularning tegishli soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashini nazorat qilishi,O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq to‘lovlari hisobiga mablag‘lar elektron platformada ishlashga moslashtirilgan ko‘p funkstiyali maxsus to‘lov dasturlari yoxud to‘lov terminallari orqali bevosita bank plastik kartochkalari va naqd pul shaklida undirilishi tartibi, tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga 2017 yil 1 noyabrga qadar uchastka soliq inspektorlari uchun zamonaviy ko‘p funkstiyali to‘lov terminallari ajratishlari, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlaridan to‘lov terminallari ajratish to‘g‘risidagi murojaati kelib tushgan davrdan boshlab yetti ish kuni davomida ularni tegishli dasturiy ta’minotli zamonaviy ko‘p funkstiyali to‘lov terminallari bilan ta’minlasinlar, shuningdek ularni uchastka soliq inspektorlari tomonidan qo‘llash tartibi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borilishi, elektron platformada ishlashga moslashtirilgan ko‘p funkstiyali maxsus to‘lov dasturlari yoxud to‘lov terminallari orqali to‘langan pul mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlar bo‘yicha tegishli g‘azna hisobvaraqlariga keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan holda o‘tkazilishini ta’minlanishi,O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulk va yer soliqlarining to‘lov terminallari orqali bank plastik kartochkalaridan davlat soliq xizmati organlariga va tijorat banklariga kelmasdan to‘lash imkoniyati mavjudligini aholi o‘rtasida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini ta’minlanishi belgilandi[26]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq

[26]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020 y., 09/20/806/1662-son

va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-son farmoniga asosan mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlash-tirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalash-tirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash, muhandislik-kommuni-kastiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘nalti-rilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas’uliyatini oshirishni ta’minlash maqsadida 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari rahbarlariga javobgarlik va rag‘batlantirish choralari ko‘rilishi, moliya va soliq organlari rahbarlarini mukofotlash hamda javobgarlik choralarini qo‘llash moliya vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, tumanlar (shaharlar) hokimlarining tavsiyalariga ko‘ra amalga oshirilishi belgilandi.[27]

Mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini tashkil etish sharoitida soliq nazoratini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish sharoitida soliq nazoratini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

2016 yildan buyon mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va soliq qonunchiligida tarkibiy o‘zgarishlar, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismini barqaror shakllanti-rish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq nazoratini sifatli amalga oshirish va samaradorligini ta’minlash, soliq qonunchiligini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish, soliq huquqini qo‘llashda ortiqcha va murakkab huquqiy xujjatlarni bartaraf etish, shuningdek soliq qonunchiligi barqarorligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Soliq nazoratini amalga oshirish vazifasi vaklotli davlat organlari uchun soliq qonunchiligi sohasidagi eng asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

[27]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2017 y., 06/17/5283/0407-son

Ushbu vazifalarni bajarish va soliq qonunchiligi sohasida soliq nazorati islohatlarini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyulda “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-son Farmoni qabul qilindi va ushbu Farmonga muvofiq davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq ma’muriyatchiligining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi[28].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmoni bo‘yicha 2018 yil 1 yanvardan soliq organlari va halol soliq to‘lovchilar o‘rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli soliq monitoringi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma’muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari belgilandi:

-soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub’ektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

-soliq solish ob’ektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish;

-soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy

[28]O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 29-son, 684-modda;

madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

-makroiqtisodiy koʻrsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obʼektlarini toʻliq qamrab olishni taʼminlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish boʻyicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-faoliyat koʻrsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama koʻmaklashish, past rentabelli va zarar koʻrib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sogʻlomlashtirish, oʻzaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yoʻl qoʻymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

-soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qoʻshimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

-kadrlarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish, soliq organlarini maʼnaviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan toʻldirish boʻyicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar oʻrtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini taʼminlash va ular uchun xizmatni oʻtashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyati va soliq maʼmuriyatchiligining samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarni oʻz vaqtida va samarali amalga oshirish hamda soliq maʼmuriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish, xorij mamlakatlarining soliq qonunchiligi va maʼmuriyatchiligi sohasidagi sinalgan ilgʻor yutuqlarini implementastiya qilish ishlari, soliq organlari faoliyatini, jumladan, ularning soliq toʻlovchilar va davlat organlari bilan oʻzaro hamkorlik qilish, soliq qarzlarini oʻz vaqtida va toʻliq undirish, soliq maʼmuriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning toʻliq yigʻiluvchanligi va byudjetga oʻz vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil13 fevraldagi “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi F-5214-son farmoyishi qabul qilingan boʻlib, mazkur

farmoyishda soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish bo‘yicha faoliyatini yanada takomillashtirish nazarda tutildi.[29]

Beshinchi bosqich 2018 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini va 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyat-chiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlari davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati — insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish, eksterritoriallik prinsipi asosida soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasining oshishini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupstiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralarini qo‘llash, soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta’minlash, ma’muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma’lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlaydigan zamonaviy, ilg‘or axborot-kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish, davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivastiyasi tizimini joriy etish hisoblanishi ko‘rsatib o‘tildi.

Shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholashning quyidagi asosiy mezonlari davlat soliq xizmati organlari

[29]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldagi “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5214-son farmoyishi "Xalq so‘zi", 2018 yil 14 fevral

ishining sifatini qoniqarli baholaydigan soliq to‘lovchilar, ularning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarning soni,kameral nazorat natijasi bo‘yicha undirilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning umumiy summasi, xronometraj va ko‘zdan kechirish natijalari bo‘yicha aniqlangan davlat byudjeti daromadlarini oshirish zaxiralari summasi va ularni undirish darajasi,pasportlari tuzilgan soliq to‘lovchilarning soni, hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar undirilishining to‘liqligi va soliq qarzdorligining pasayish darajasi,davlat soliq xizmati organlari bilan o‘zaro munosabatlarda «shaxsiy kabinet»dan foydalanish darajasi,elektron hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish bo‘yicha dasturiy mahsulotlarni qo‘llayotgan soliq to‘lovchilarning qamrab olinishi belgilandi.[30]

O‘ZBekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘ZBekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konstepstiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni muvofiq 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyat-chiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuning-dek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operastion xarajatlarni minimallashtirish, makroiqtiso-diy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash, soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish,soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O‘zbekiston Respublikasi SK normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan

[30]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2022 y., 06/22/101/0288-son; 08.07.2022 y., 06/22/167/0619-son

SKda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash,xorijiy investorlar va investistiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob’ektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiya-larini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operastiyalarga soliq solish tartibini joriy etish O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konstep-stiyasining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi.[31]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 704-son Qaroriga asosan Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining zamonaviy ta’lim jarayoni talablariga javob beradigan qayta tayyorlash va malakasini oshirish kompleks tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3802-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Soliq akademiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi etib qayta tashkil qilindi.[32]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrdagi “Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommuni-kastiya texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risi-da”gi 807-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikastiyalarini rivojlantirish vazirligining Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hududida 2018 yil 15 oktyabrdan boshlab barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan elektron hisobvaraq-fakturalarni majburiy tartibda rasmiylashtirishni joriy etish bo‘yicha eksperiment o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi[33]

[31]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2020 y., 06/20/ 5968/ 0331-son
[32]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,05.09.2018 y.,09/18/704/1828-son;11.04.2019 y., 09/19/296/2922-son
[33]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.10.2018 y., 09/18/807/2016-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 9 oktyabrda 811-son Qarori muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi to‘g‘risida nizom tasdiqlanib, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilandi.[34]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 9 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 812-son Qarori asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi to‘g‘risidagi Nizomda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilandi.[35]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 noyabrda “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan mavzuga oid va ekspress-o‘rganishlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 965-son Qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat

[34]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2022 y., 09/22/255/0412-son
[35]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2022 y., 09/22/255/0412-son

byudjeti tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlashga qaratilgan soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida mavzuga oid va ekspress-o‘rganishlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan mavzuga oid va ekspress-o‘rganishlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda kameral nazorat natijasi bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan axborotning ishonchliligini hamda soliq to‘lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llashning qonuniyligini tasdiqlash uchun davlat soliq xizmati organlari tomonidan joyiga borgan holda mavzuga oid va ekspress-o‘rganishlarni amalga oshirish tartibini belgilandi.[36]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom, “Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi to‘g‘risida”gi nizom, “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomda «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizastiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010 yil 8 yanvardagi PQ-1257-son va «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funkstiyalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish tartibi va hisobotini, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari rahbarlarining funkstional majburiyatlari va javobgarliklarini, “Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq

[36]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2018 y., 09/18/965/2253-son

inspekstiyasi to‘g‘risida”gi Nizomda yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi Nizomda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga mansabdor shaxslarni xizmatga qabul qilish va ularni bo‘shatish, ular tomonidan xizmatni o‘tash, maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum qilish, ularni rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibini belgilandi.[37]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-son Qarori asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qaroriga muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan elektron hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining «Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 6 oktyabrdagi 807-son qarorining ijrosi yuzasidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan hisobvaraq-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish tizimini joriy etish bo‘yicha Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hududida tajriba o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinib,respublika hududida 2019 yil 1 iyuldan boshlab ixtiyoriy ravishda, 2020 yil 1 yanvardan boshlab barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun hisobvaraq-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimini majburiy tartibda joriy etish, “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanib, “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda elektron hisobvaraq-faktura aylanish tizimida tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, rouming operatori, operatorlar va vakolatli davlat organlarining elektron hisobvaraq-fakturalarni taqdim etish, qabul qilish, saqlash va ulardan foydalanish doirasidagi o‘zaro munosabatlari tartibini belgilandi.[38]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

[37]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2022 y., 09/22/255/0412-son
[38]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son

to‘g‘risida”gi PQ-4389-son Qarori asosan soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konstepstiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik sub’ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorini olgan kundan e’tiboran o‘n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to‘lasa, tadbirkorlik sub’ektlarining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma’muriy javobgarlikdan ozod etishi, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» ma’qullandi.[39]

2019 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-599-son Qonuni muvofiq O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan O‘RQ-136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansib, 2020 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kirishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 va 2021 yillar davomida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi normalarining amaliy ta’siri va samaradorligi doimiy ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta’minlanishi,zarur bo‘lgan taqdirda Soliq Kodeksining alohida normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni belgilangan tartibda kiritilishi, hukumat qarorlarini Soliq Kodeksiga muvofiqlashtirilishi, davlat boshqaruvi organlari Soliq Kodeksiga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlanishi belgilandi.[40]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 5 iyundagi “Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 359-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va

[39]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 07/19/4389/3409-son

[40]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,31.12.2019 y.,03/19/599/4255-son;31.12.2020 y., 03/20/659/1681-son

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, axborot-kommunikastiya texnologiyalarini modernizatsiya qilish orqali soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining axborot-kommunikastiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining axborot-kommunikastiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi tasdiqlanib, davlat soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro aloqani masofaviy tarzga o'tkazish, barcha ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali to'liq avtomatlashtirish va interaktiv davlat xizmatlari sonini kengaytirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar axborot tizimlari bilan elektron hamkorlik orqali axborot almashinuvini samarali tashkil etish hamda bu borada mavjud muammolarni bartaraf qilish,katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, «Onlayn nazorat kassa mashinalari», «Elektron hisobvaraq-fakturalar» va boshqa markazlashgan tizimlarni keng joriy etish, iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirish hamda tadbirkorlik uchun teng raqobat muhitini yaratish maqsadida soliq organlari faoliyatiga axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etish, zamonaviy axborot - kommunikastiya texnologiyalari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda soliq sohasida ilg'or va innovastion texnologiyalarni egallash hamda ularni amaliyotda samarali tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini joriy qilish,soliq nazorati tizimini soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida «inson omili»ni hamda korrupstiya holatlarni kamaytirish imkonini beruvchi masofaviy tahlil ishlari asosida tashkil etish strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.[41]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 sentyabrdagi «Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4846-son Qarori asosan Davlat tomonidan tartibga solish, soliq maslahatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ular kasbining huquqiy maqomi va nufuzini mustahkamlash, soliq to'lovchilar huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi bilan soliq maslahatchilari tashkilotlariga davlat soliq va bojxona xizmati organlari bilan

[41]Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,06.06.2020 y.,09/20/359/0726-son;30.04.2021 y., 09/21/258/0400-son

munosabatlarda soliq to‘lovchining manfaatlarini ifodalash, soliq hisobotini soliq to‘lovchi nomidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etish, davlat soliq xizmati organlarining talabnomalarida ko‘rsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida xulosalarni soliq to‘lovchi nomidan davlat soliq xizmati organiga taqdim etish bo‘yicha qo‘shimcha huquqlar berildi.[42]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzurida fiskal institutni tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4879-son Qarori asosan moliya va soliq sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5953-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi negizida Davlat soliq qo‘mitasi huzurida Fiskal institut tashkil etildi.[43]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 noyabrdagi “Soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 736-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining SKga muvofiq soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlikning zamonaviy raqamli shaklini joriy etish, soliqlar va yig‘imlarni undirishda (to‘lashda) soliq organi va bank tizimi o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvini takomillashtirish hamda nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo‘llanilishini yanada takomillashtirish, shuningdek, davlat boji va boshqa yig‘imlarni undirishning yagona tartibini belgilash maqsadida “Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “Soliq to‘lovchining bank hisobvaraqlari bilan bog‘liq operastiyalar bo‘yicha soliq organi va bank tizimi o‘rtasida elektron ma’lumot almashish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan undirilgan davlat boji va boshqa yig‘imlarning byudjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanib, “Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom soliq organlari tomonidan oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra kamida o‘n milliard so‘mni tashkil etgan yuridik shaxslarda soliq monitoringini o‘tkazish tartibi, “Soliq to‘lovchining bank

[42]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2020 y., 07/20/4846/1344-son
[43]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.11.2020 y., 07/20/4879/1467-son

hisobvaraqlari bilan bog‘liq operastiyalar bo‘yicha coliq organi va bank tizimi o‘rtasida elektron ma’lumot almashish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom soliq to‘lovchining soliq qarzdorligini undirishda (to‘lashda) hamda bank hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turishda (to‘xtatib turishni bekor qilishda) soliq organi va bank tizimi o‘rtasida elektron shaklda ma’lumotlar almashish tartibi, “Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan undirilgan davlat boji va boshqa yig‘imlarning byudjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq davlat organlari va tashkilotlari tomonidan undirilgan davlat boji va boshqa yig‘imlarning byudjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibini belgilandi.[44]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 776-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq, shuningdek, soliq to‘lovchilar uchun soliq to‘lovlarini amalga oshirishda qulaylik yaratish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizom tasdiq-lanib,“Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilar-ning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibini belgilandi.[45]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvar-dagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodi-yotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son Farmoniga muvofiq “Soliq xavfini boshqarish va yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchilarni (soliq

[44]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2020 y., 09/20/736/1529-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son

[45]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2020 y., 09/20/776/1614-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son

agentlarini) aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom va «Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanib, “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda soliq organlarida soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi, “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilandi.[46]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentyabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 595-son qarori asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida» 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, intizomli soliq to‘lovchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, inson omilining ta’sirini cheklash orqali qo‘shilgan qiymat solig‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq xavfi yuqori darajada bo‘lgan kontragentlar bilan operastiyalarni (bitimlarni) amalga oshirishni cheklash bo‘yicha profilaktika choralarini ko‘rish maqsadida Vazirlar Mahkamasining «Uchinchi shaxslarga soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish chora-tadbirlari haqida» 2021 yil 19 avgustdagi 529-son qaroriga muvofiq, soliq sirini tashkil etmaydigan ma’lumotlar va hisob ma’lumotlarni yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etish tizimi joriy etilishi belgilanganligi, “Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini soliq organlarida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom , inson omili ishtirokini minimallashtirish bilan intizomli soliq to‘lovchilarga qulay sharoitlar yaratish va ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar” rejasi tasdiqlanib, “Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus

[46]Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.01.2020 y., 03/20/601/0025-son

roʻyxatdan oʻtkazish tartibi va “Qoʻshilgan qiymat soligʻi maʼmuriyatchiligini takomillashtirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar” rejasi belgilandi.[47]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 noyabrdagi “Mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan soliqlarni toʻlashni kechiktirish mexanizmlarini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-5274-son Qaroriga asosan Respublikamizda investitsion muhitni yanada yaxshilash, mahalliy va xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita oʻrganish hamda tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilab olish boʻyicha 2021 yil 20 avgust kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan masalalar ijrosini taʼminlash maqsadida 2022 yil 1 yanvardan boshlab tadbirkorlik subʼektlariga umumiy maydoni 1000 kvadrat metrdan ortiq boʻlgan yer uchastkalariga va bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini qoʻlga kiritganda mol-mulk soligʻi va yer soligʻi boʻyicha hisoblangan soliqlarni toʻlashni olti oy muddatga kechiktirish huquqi berildi va bunda, kechiktirilgan soliqlar summasi davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan yer uchastkalari, bino va inshootlar qiymatidan kelib chiqib hisoblangan soliqlar miqdorida belgilandi.[48]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 martdagi «Jahon banki ishtirokidagi «soliq maʼmuriyatchiligini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-178-son Qaroriga asosan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PF-6098-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, respublikada amalga oshirilayotgan soliq islohotlarini yanada qoʻllab-quvvatlash hamda soliq maʼmuriyatchiligi samaradorligini oshirish maqsadida «Soliq maʼmuriyatchiligini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banki Direktorlar kengashi 2021 yil 16 iyunda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasiga 30 yil muddatga, shu jumladan 5 yil imtiyozli davr bilan 60 million AQSh dollari miqdorida qarz ajratilishini maʼqulanib, loyihani amalga oshirish davri besh yil 2022-2027 yillar etib belgilandi.[49]

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 apreldagi «Soliq toʻlovchilarni hisobga qoʻyish sohasidagi ayrim davlat

[47]Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 22.09.2021y.,09/21/595/0900-son,15.04.2022y., 09/22/191/0315-son
[48]Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi,03.11.2021 y., 07/21/5274/1015-son
[49]Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 25.03.2022 y., 07/22/178/0236-son

xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 150-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son Farmoniga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo‘yicha tizimlashtirish, yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjati shakliga o‘tkazish orqali ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, tarqoq hujjatlarni tizimlashtirish orqali tartibga solish yukini kamaytirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar belgilandi.[50]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 apreldagi «Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-208-son Qarori muvofiq O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti barqarorligini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, shuningdek, tadbirkorlik muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda avtomobilsozlik sanoatida raqobat muhitini shakllantirish maqsadida 2022 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga yo‘naltirilishi nazarda tutilgan mablag‘larning 40 foizi O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetida qoldirilishi, 2022 yil 1 maydan boshlab davlat organlari va tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalaridan Davlat xizmatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratmalar qilish to‘xtatilishi belgilandi.[51]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 iyundagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmoniga asosan soliq qonunchiligi talablarini engillashtirish hamda soliq ma’muriyatchiligining yangi vositalarini samarali joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali tadbirkorlik sub’ektlarining soliq yukini kamaytirish va biznes yuritishni soddalashtirish maqsadida 2022 yil 1 iyuldan bo‘sh turgan

[50]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022 y., 09/22/150/0264-son
[51]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022 y., 07/22/208/0311-son

binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish ob’ektlariga (foydalanilmayotgan ob’ektlar) hamda ushbu ob’ektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo‘llash, soliq imtiyozlari va preferenstiyalarning amal qilishini to‘xtatish tartibi (ta’sirchan soliq mexanizmi) bekor qilindi.

2023 yil 1 martga qadar hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo‘lmagan identifikastiya kodlarini aks ettirganlik uchun moliyaviy jarima solinmasligi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslarni hisobga olish (sotib olish (qurish), ishga tushirish, qayta baholash, tasarruf etish) hamda o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish va kamaytirish bilan bog‘liq barcha operastiyalarni soliq organlarining «E-aktiv» axborot tizimida aks ettirish ixtiyoriyligi belgilandi.[52]

Soliq siyosatini yanada takomillashtirishda axborot-kommunikastiya texnologiyalari o‘rni muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari davlat soliq xizmati organlarining soliq nazoratini amalga oshirishda va soliq to‘lovchilarning davlat soliq xizmati organlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil etishda va soliq nazorati samaradorligini oshirishda asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

3.4.Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq mexanizmini yo‘nalishlari

Soliq mexanizmi davlat byudjeti mexanizmining tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliq mexanizmi tushunchasi soliqlarga oid munosabatlarda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplari, soliq solish usullari va soliq solish elementlari yig‘indisidan iborat.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- soliq solish obyekti.
- soliq bazasi.
- soliq stavkasi.
- soliq davri.
- soliqni hisoblab chiqarish tartibi.

[52]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2022 y., 06/22/162/0569-son

- ❖ soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
- ❖ soliqni to‘lash tartibi.

Soliq mexanizmi soliqqa tortish tizimini soliq amaliyotiga tadbiq etilishini ifodalaydi.

Soliq mexanizmining asosiy yo‘nalishlari davlat tomonidan ishlab chiqilgan soliq siyosatining strategiyasi va soliq siyosatining taktikasidan kelib chiqadi. Soliq siyosati o‘zgarsa soliq mexanizmining soliq islohatlari natijasida keraksiz soliq elementlari va usullari chiqarib tashlanadi va yangi zamonaviy ilg‘or soliq elementlari va usullari kiritiladi.

Soliq mexanizmiga soliq islohatlari natijasida o‘zgarishlar kiritilib, takomillashtirilib boriladi. Soliq mexanizmining o‘zgarishiga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ularga soliq sohasidagi islohatlar va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilash jarayonida yangi ustuvor yo‘nalishlar va boshqa ilg‘or yangiliklar kiradi.

Soliq mexanizmi subyektiv tushuncha bo‘lib o‘z ichiga soliqlarga oid munosabatlarda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpstiyasi prinstiplari, soliq solish usullari va soliq solish elementlari, soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibi bo‘yicha soliq siyosatini amalga oshirishni bildiradi.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq siyosati, soliq tizimi, soliq strategiyasi, soliq taktikasini, byudjet daromadlari, soliq mexanizmi, soliq yuki, fiskal siyosat, davlat byudjeti, soliq islohotlari

Takrorlash uchun savollar

1.Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy asoslari nimalardan iborat?

2. Soliq siyosatini amalga oshirishda davlatning o‘rni va soliq siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlarini tushuntirib bering ?

3. Soliq siyosatining strategiyasi nima?

4. Soliq siyosatining taktikasini ahamiyati qanday?

5.O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida amalga oshirilgan soliq islohatlarini qanday bosqichlari mavjud?

6.Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq mexanizmini yo‘nalishlari nimalardan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq siyosatining asosiy vazifalari nimada?

A) Davlatni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, iqtisodiyotni umumiy tartibga solish shart-sharoitlarini yaratish, aholi daromadlari darajasida yuzaga keladigan tengsizlikni tartiblash

B) Soliq yukini nazorat qilish, soliq stavkalarini oshib ketmasligini ta’minlash, iqtisodiy siyosatni muvozanatda ushlab turish va makroiqtisodiy siyosatni tartibga solish

C) Soliq qonunchiligini doimiy takomillashtirib borish, soliq organlari faoliyatini nazorat qilish, soliq huquqbuzarliklariga doir choralar ko‘rish va soliq bazasini kengaytirish.

D) Soliqlar tushumini ta’minlash, soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, soliq tekshiruvlarini qat’iy tartibda olib borish va davlat byudjetini ta’minlash.

2. Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?

A) Fiskal, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, nazorat, xalqaro maqsadlar.

B) Fiskal, makroiqtisodiy, umumbashariy, siyosiy, diniy maqsadlar

C) Ijtimoiy kelib chiqish, milliylik, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro maqsadlar.

D) Diniy, ijtimoiy, monetar, rag‘batlantirish, tartibga solish, axborot berish maqsadlar.

3. 1998-2008 yillar respublikamizda olib borilgan soliq siyosatini tom ma’noda qanday atash mumkin?

A) Iqtisodiy rivojlantirish siyosati

B) Maksimal soliq siyosati

C) Minimal soliq siyosati

D) Optimal soliq siyosati

4. Soliq siyosatining instrumentlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozi.

B) Soliq yuki, soliq nazorati, soliq stavkasi.

C) Soliq qonunchiligi, soliqqa oid qarorlar, soliq tizimi.

D) Soliq bazasi, soliq qonunchiligi, soliq turlari.

5. Soliqlarni unifikatsiya qilishdan maqsad nima?

A) Soliq yukini kamaytirish, soliq bazasini kengaytirish, xufiyona iqtisodiyotni bartaraf etish, soliq tizimini oddiyroq va samaraliroq qilish, ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish, moliyaviy hisobotlarni soddalashtirish.

B) Davlatni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, iqtisodiyotni umumiy tartibga soliq shart-sharoitlarini yaratish, aholi daromadlari darajasida yuzaga keladigan tengsizlikni tartiblash.

C) Soliq yukini nazorat qilish, soliq stavkalarini oshib ketmasligini ta’minlash, iqtisodiy siyosatni muvozanatda ushlab turish va makroiqtisodiy siyosatni tartibga solish

D) Soliq qonunchiligini doimiy takomillashtirib borish, soliq organlari faoliyatini nazorat qilish, soliq huquqbuzarliklariga doir choralar ko‘rish va soliq bazasini kengaytirish.

6. Davlat ro‘yxatidan yangi o‘tgan YaTTlar qachondan boshlab soliq to‘laydi?

A) Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran

B) Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan

C) Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning 15-sanasidan keyin

D) Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan 3 kun o‘tgach

7. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan taqdirda ular qanday soliq to‘laydi?

A) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda AOS

B) QQS va foyda solig‘i

C) BXMSning bir barobari

D) Qat’iy belgilangan tartibda

8. Davlatning soliq siyosatidagi asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Soliq to‘lovchilarga soliqlarni kamaytirish haqida xat yuborish

B) Soliq siyosatini shakllantirish va uni samarali boshqarish

C) Faqat soliq yig‘uvchilarni nazorat qilish

D) Soliq tizimini yopish

9. Soliq siyosatining strategiyasi deganda nimani tushunasiz?

A) Soliq tizimida tasodifiy qarorlar qabul qilish yo‘li

B) Soliq organlari sonini oshirish rejasi

C) Uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqiladigan umumiy yo‘nalish va chora-tadbirlar tizimi

D) Soliq stavkalarini har oyda o‘zgartirish

IV-BOB. O‘ZBEKISTON SOLIQ SIYOSATINING BOSQICHLARI

4.1. Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq tizimi xususiyatlari (birinchi bosqich)

Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin mustaqil moliya-kredit tizimini shakllantirish, uni bozor tamoyillariga mos holda rivojlantirish davlatimiz oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. Ma’lumki, totalitar rejali iqtisodiyotga asoslangan tizimda davlat moliyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan byudjetning daromadlarini shakllantirish asosan korxona va tashkilotlardan byudjetga majburiy ajratmalar hamda bir necha soliq turlaridan kelib tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshirib kelingan, vaholanki, davlatning bunday shakldagi byudjet-soliq siyosati korxonalarning iqtisodiy faoliyatidan manfaatdor-ligini ta’minlamagan holda mahsulot(xizmat)lar sifatini yaxshilashda qiziqishlarini yuzaga chiqarmagan, provardida esa faqat reja topshiriqlarni to‘la bajarish iqtisodiy faoliyatning asosiy masalasiga aylanib qolgan edi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimni shakllantirishga o‘tish byudjet-soliq siyosatini tubdan o‘zgartirishni taqozo etdi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligi kiritigan vaqtdan boshlab moliya-kredit sohasidagi iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida mustaqil soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan soliq siyosatining yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganishni uni ma’lum bir bosqichlarga bo‘lib o‘rganish soliq siyosatining xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uning yo‘nalishlari shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich.

Bu bosqich 1991-1995 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda soliq siyosatining asosiy xususiyatlari mustaqil soliq tizimini yuzaga keltirish borasida soliqlarning huquqiy bazasini shakllantirish, moliya tizimi tarkibidan soliqlarni undirish bilan shug‘ullanuvchi davlat boshqaruv organini tuzish, joriy qilingan soliqlarni undirishning mexanizmlarini barpo etish, milliy iqtisodiyot holatiga mos soliq siyosati strategiyasi va uning taktikalarini ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar bilan birgalikda soliqlardan samarali foydalanishni amalga oshirish, progressiv soliqqa tortish va kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan holda aholining turmush darajasini pasayishini oldini olish va shu kabilar bilan xarakterlanadi.

Qonunchilik bazasi yaratish borasi va respublika miqyosida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish borasida dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991 yil 15-fevralda ikkita qonun «Korxonalar, birlashmalar va tashkilot-lardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonun, 1993 yil 6-mayda esa soliqlarga oid bir yo‘la yana ikkita qonun-“Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi va “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida »gi 1991 yil 15-fevralda qabul qilingan bo‘lsada, uning kuchga kiritilishi 1991 yilning 1-yanvaridan qilib belgilandi. Bu qonun qabul qilingan vaqtda O‘zbekiston hali sobiq ittifoq tarkibida bo‘lib, uning moliya tizimidagi mexanizmlardan hali xalos bo‘linmagan edi.

Shu jihatdan ham mazkur qonunga ko‘ra foydadan olinadigan soliq stavkasini qo‘llayotganda hisobga olinadigan rentabellik eng yuqori darajasi uning tarmoqdagi o‘rtacha darajasiga nisbatan ikki hissa ortiq holda qabul qilinadigan bo‘lindi(chunki, sobiq ittifoq qonunida shunday tartib mavjud edi), yangi ulgurji, xarid, chakana va smeta narxlarini va tariflarni hisobga olgan holda xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha rentabellik va uning o‘rtacha hajmini hisoblash tartibi belgilandi, soliq solinadigan foyda hisoblab chiqilayotgan mehnatga haq to‘lash uchun qilinadigan xarajatlarning norma belgilanadigan me’yori korxonalar tomonidan ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) hajmining o‘sishiga yoki faoliyatining boshqa ko‘rsatkichlariga qarab aniqlana boshlandi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari va sanoat (asosiy faoliyat turlari) bo‘yicha mehnatga haq to‘lash uchun qilinadigan xarajatlarning o‘sish koeffitsientlaridan foydalanish joriy etildi. O‘zbekistonda mustaqil soliq tizimiga kiruvchi korxonalar daromadiga solinadigan soliq, qo‘shilgan qiymat uchun soliq, aksiz solig‘i, korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari joriy qilindi. shu bilan birgalikda iste’molga qaratilgan mablag‘lar xarajatini tartibga soluvchi soliq bekor qilindi.

1993 yilga kelib “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonunga asosan quyidagi: jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig‘i, kurort mintaqasida ishlab chiqarish ob’ektlarini qurishga solinadigan soliq, reklama solig‘i, avtomobil vositalari, murakkab hisoblash va ro‘zg‘or texnikasini qayta sotganlik uchun solinadigan soliq, transport vositalari egalaridan olinadigan soliqlar va quyidagi: kurort yig‘imi, savdo-

sotiq qilish huquqini beruvchi yig‘im, vino-aroq mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig‘imi, mahalliy kimoshdi savdolari va lotereyalar o‘tkazish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig‘imi, t adbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni ro‘yxatga o‘tkazganlik uchun olinadigan yig‘im, avtotransportlar saqlanadigan joydan foydalanganlik uchun yig‘im, otchoparlarda poygada qatnashganlik uchun yig‘im, otchoparlarda o‘tkazilgan poygadagi yutuq uchun yig‘im, birjalardagi oldi-sotdi bitimlaridan undiriladigan yig‘imlar, kino va telesuratga olishlarni o‘tkazish huquqini beruvchi yig‘imlar, aholi manzilgohlari hududini supurib-sidirish uchun yig‘imlar joriy qilindi. Bu turdagi soliqlarni undirishda ayrim tarmoqlar korxonalarining xo‘jalik birlashmalari yil davomida byudjet bilan hisob-kitoblarni hukumatning ruxsati bilan markazlashtirilgan tarzda amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lgan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tashqarisida natura tarzida olgan daromadlari ham soliqqa tortish amalga kiritildi. Bu bosqichdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaria asosan fiskallikka(ko‘proq soliq undirish) asoslangan edi.

Bu obyektiv iqtisodiy zarurat bo‘lib, uning bir necha sabablari mavjud edi. Birinchidan, iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida iqtisodiyotda aksariyat korxonalar monopol mavqega ega bo‘lib, ularning faoliyatini yuqori soliqqa tortish mexanizmi orqali subyektiv omillar (narxlarning keskin o‘sishi, mahsulotga bo‘lgan talabning yuqoriligi, boshqa o‘rinbosar tovarlarning yo‘qligi) evaziga olgan daromadlarini byudjetga ko‘proq undirishni taqozo etardi, vaholanki, iqtisodiy holatning bunday sharoitida bu eng maqbul yo‘l hisoblanishi jahon amaliyotidan ham ma’lum; ikkinchidan, davlat kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirayotgan bir davrda, shuningdek, bozor infratuzilmasini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish zarurati yuzasidan ko‘plab qo‘shimcha vakolatli organlar tizimini shakllantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish uchun davlat investitsiya dasturlari orqali yangi korxonalarni barpo etish byudjetga ko‘proq mablag‘larni jalb etilishini zarurat qilib qo‘ygan edi; uchinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasidan ma’lumki, iqtisodiy tanazzul davrlarida soliq yukini haddan ziyod kamaytirish o‘zini oqlamagan, qolaversa, davlat ichki imkoniyatdan ko‘proq soliq undirish orqali bo‘lsa ham maksimal foydalanmasdan, davlatning tashqi qarzlari evaziga muammoni hal etish hozirda og‘ir ahvolga tushib qolgan bir qator, hatto ayrim qo‘shni davlatlarning holatiga tushib qolish ehtimoldan holi emas edi.

Bu bosqichdagi asosiy jarayonlardan biri shu bilan birgalikda parallel ravishda moliya organlari tarkibida joriy qilingan soliqlarni undirishni amalga oshiruvchi alohida organ-soliq xizmati organlari tashkil etildi. Bu borada dastlab Moliya vazirligi qoshida soliqlarni undirish bilan shug‘ullanuvchi alohida boshqarma shakllantirilgan bo‘lsa, 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18-yanvardagi "O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq Bosh boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida"gi PF-744-sonli Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi negizida 1994 1 martidan boshlab Davlat Soliq Qo‘mitasiga aylantirildi.

4.2. Soliq siyosatning ikkinchi bosqichi yo‘nalishlari

Bu bosqich davriyligi jihatdan 1995-1998 yillar oralig‘ida soliq siyosatining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Bu bosqichda soliq siyosatidagi tub burilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 30-noyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning rag‘batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida"gi PF-1014-son Farmoni katta ahamiyat kasb etdi. Bu farmonga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan soliq miqdorini kamaytirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini ko‘paytirishga, tadbirkorlik faoliyatini va investitsiya faolligini kengaytirishga, mablag‘lar aylanishini jadallashtirishga va foydani oshirishga soliqlarning rag‘batlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish, tabiiy resurslar va mol-mulkdan olinadigan soliqlar ulushini oshirish hisobiga daromadlar tarkibini takomillashtirish resurs hamda ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligiga ularning ta’sirini kuchaytirish, mahalliy byudjetlarning daromad negizini mustahkamlash hamda respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasida soliqlarni chegaralab qo‘yish hisobiga respublikaning davlat byudjetida mahalliy byudjetlarning salmog‘ini jiddiy ravishda oshirish, soliq solish mexanizmini mumkin qadar soddalashtirish va soliq tizimining barqarorligini ta’minlash kabi soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. 1995 yildan boshlab esa qo‘shimcha qiymat solig‘ining miqdori 20 foizdan 18 foizgacha pasaytirildi, korxonalarning daromad solig‘i o‘rniga foydadan olinadigan soliq joriy etilib, uning eng yuqori miqdori 38 foiz qilib belgilandi, dehqon (fermer) xo‘jaliklari, xususiy korxonalar, savdo korxonalari, xorijiy investitsiyalarga asoslangan korxonalar uchun amaldagi daromad solig‘i tartibi va soliq imtiyozlari saqlab qolindi.

Shuningdek, foydadan soliq undirib olish chog‘ida mahsulot ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmi o‘sishining har bir foizi uchun belgilangan soliq miqdoriga nisbatan 0,3 foizli punkt miqdorida pasaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilishi, balans foydasining 30 foizdan 50 foizgacha qismidan ishlab chiqarishni rivojlantirishda, uni qayta qurish va texnika bilan qayta qurollantirishda foydalanilgan taqdirda 5 foizli punkt miqdorida, balans foydasining 50 foizdan ko‘proq qismidan shu maqsadlarda foydalanilgan taqdirda esa 10 foizli punkt mikdorida pasaytiruvchi koeffitsientdan foydalanish belgilandi va yangi barpo etilgan korxonalar uchun soliqdan ozod qilish, shuningdek imtiyozlar berishning amaldagi tartibi saqlab qolingan holda mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, korxona va tashkilotlar foydadan uy-joy va ijtimoiy-madaniy qurilishga sarflayotgan mablag‘larning 50 foizi soliq to‘lashdan ozod qilinadigan bo‘ldi. Monopoliyachi korxonalar esa ularga belgilangan rentabellik darajasi oshirilishining har bir foiziga foydadan olinadigan belgilangan soliq miqdoriga nisbatan 0,5 foizli punkt miqdorida oshiriluvchi koeffitsiyent joriy etildi.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketiladigan xom ashyo resurslari va mahsulotdan olinadigan soliq, fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risidagi qonunni jamoa xo‘jaliklarining a’zolariga nisbatan joriy etib, ularning mehnat haqi fondidan olinadigan soliq, o‘rmon xo‘jaligidan tushadigan daromadni olib qo‘yish tartibi bekor qilindi hamda amortizatsiya ajratmalarining jami hajmi korxonalarning tasarrufida qoladigan bo‘ldi. 1995 yildan boshlab esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati va Davlat byudjetining asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash huquqi berildi. Soliq siyosatida tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida ulardan olinadigan soliqlarning yangi stavkalarini belgilash, soliq sohasidagi imtiyozlarni tartibga solish, daromadlarni mahalliy byudjetlar foydasiga qaytadan taqsimlash va hududlarning rivojlanish darajasiga qarab umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning tabaqalashtirilgan me’yorlarini belgilash, soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun jarima to‘lash choralarini qo‘llanish tartibiga o‘zgartishlar kiritish masalalariga asosiy e’tibor qaratildi.

Respublikamiz soliq tizimida fiskallikka asoslangan soliq siyosatida asta sekin soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantiruvchi mexanizmga asoslangan yo‘nalishlar kuchayib bordi. Bu borada Yurtboshimizning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” nomli asarida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi yakunlari xususida keltirgan

xulosalari mamlakatimiz iqtisodiyotida barqarorlikning ta’minlanganligidan dalolat berib, bu shakllanayotgan soliq tizimimizda va soliq siyosatida qo‘llanilayotgan taktik yo‘nalishlarga keskin o‘zgarishlar qilinishiga turtki bo‘ldi, natijada esa, aksariyat korxonalarimiz (banklar, shou-biznes korxonalaridan tashqari) daromad solig‘i o‘rniga foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishdi, bu esa o‘z navbatida korxonalar tomonidan byudjetga to‘lanayotgan soliq summalarining bir qismi ularning ixtiyoriga qolishini ta’minladi va ularning moliyaviy holatining bir muncha yaxshilanishiga imkon yaratdi. Real sektorni bozor munosabatlariga o‘tkazilishi ularga mos soliq tizimini taqozo etadi, bu soliq islohotlari natijasida yuzaga keladi. Yangi tizim bo‘sh yerda paydo bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib ilgari mavjud bo‘lgan va bozor munosabatlariga mos kelmaydigan oborot solig‘i o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i joriy etildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida soliq islohotlari asosan quyidagi asosiy yo‘nalishlarda borganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

- soliqlarga oid yangi qonunlar qabul qilinishi orqali soliqqa tortish huquqiy asosga ko‘chirildi;
- yangi soliq institutlari shakllantirildi;
- eski soliqlar bosqichma bosqich yangi soliqlar bilan almashtirildi;
- bozor talabiga javob beruvchi soliq imtiyozlari kiritildi;
- soliqlar nisbati o‘zgartirildi, soliq yuki qaytadan taqsimlandi;
- soliqqa tortishning yangi tartiblari joriy etildi;
- soliq-byudjet siyosati o‘rtasidagi yaxlitlik ta’minlandi.

Bu bosqichdagi soliq siyosatining eng muhim jihatlari bu mavjud soliq qonunchiligi iqtisodiyotdagi yuz berayotgan tarkibiy va sifat o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda takomillashtirilib, mavjud 4 ta soliqlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 24 apreldagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda 1997 yil 27 avgustda qabul qilgan davlat soliq xizmati organlarining faoliyatining asoslarini belgilab beruvchi "O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to‘g‘risida"gi qonunning qabul qilinishi bo‘ldi.

4.3. Soliq siyosatining uchinchi bosqichning o‘ziga xos yo‘nalishlari

Uchinchi bosqich 1998-2008 yillargacha muddatni o‘z ichiga olib, uning asosiy xususiyati ikkinchi bosqichda boshlangan soliqlarning rag‘balantiruvchilik rolining oshirilishi, soliqqa tortish tartiblarining soddalashtirilishi hamda soliq qonunchiligining takomillashtirilib borilishi bilan tavsiflanadi. Respublikamiz soliq tizimining rivojlanib borishidagi

yana bir muhim jihatlaridan biri sifatida soliq turlari sonini kamaytirib borish hamda bir xil yoki o‘xshash soliq ob’ektiga ega soliqlarni unifikatsiyalash (birxillashtirish) jarayonini alohida ko‘rsatish joiz. Bir xil soliq ob’ektiga ega soliq turlari unifikatsiya qilinib borilmoqda. Mahalliy byudjetlarga biriktirilgan obodonlashtirish uchun yig‘im va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i birxillashtirildi, ya’ni ular obodonlash-tirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘iga birlashtirildi. Keyinchalik obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i birxillashtirilib uning o‘rniga foyda solig‘i joriy qilingan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan tarnsport solig‘i mol-mulk solig‘i ob’ektiga kiritildi, keyinchalik esa jismoniy shaxslarning transportidan olinadigan mol-mulk solig‘idan transport vositalari soliq ob’ektidan chiqarilib, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bilan birxillashtirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “...amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz-soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-qo‘vvatlash maqsadida qo‘shimcha choralar ko‘rilganidir”.[53]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998 yildan boshlab kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan ilgari mavjud bo‘lgan 20 ga yaqin soliq turlari 11 ta soliqqa, 15dan ortiq turli xil yig‘im va to‘lovlar 9 taga birlashtirildi va yana o‘ziga xos bo‘lgan ham soliqni ham yig‘imlarni o‘zida aks ettirgan-yagona soliq to‘loviga ular unifikatsiya qilindi va ixchamlashtirildi. Bu davrda soliq siyosatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri bu kichik biznes sub’ektlariga nisbatan alohida tartibdagi rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish tartiblarining qo‘llanishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1998 yil 9 apreldagi PF–1987-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o‘tgan kichik korxonalarga soliq solish tartibi to‘g‘risida"gi 159-son qaroriga[54] asosan kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llash

[53] Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ I.A.Karimov.-toshkent.: “O‘zbekiston”, 2010. 41-bet.

[54] Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrdagi 244-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan bekor qilingan.

tartibi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lashni nazarda tutadi.

Bu davrdaga soliq siyosatining muhim yo‘nalishlarida soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yuki va soliq stavkalarining bosqichma-bosqich kamaytirilib borildi. Agar, 1995 yilda soliq yuki darajasi 42,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda 39,5 foiz, 2005 yilda 22,6 foizni, 2011 yilda 21,9 foizni va 2014 yilda esa 20,0 foizni tashkil etdi va oxirgi 10 yil davomida uning darajasi 2 martadan ortiq kamaytirildi. Shuningdek, soliq turlari bo‘yicha soliq stavkalarining ham kamaytirilib borishi amalga oshirildi. Agar foyda solig‘i stavkasi 1995 yilda 37,0 foizni tashikl etgan bo‘lsa, uning darajasi yillar davomida kamaytirib borildi va 2015 yilda 7,5 foiz qilib belgilangan(qariyib 5 marta kamaytirildi), xozirda obodonlash-tirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i birxillashtirilib uning o‘rniga foyda solig‘i amalda bo‘lib 15 foiz stavkada, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i shkalalari ixchamlashtirilib borildi, agar ushbu soliq stavkasining eng yuqori shkalasi 60 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilga kelib 23 foizgacha tushirildi(2,6 martaga pasaydi), kichik biznes uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari dastlabki vaqtlarda 33 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda propatsional (xamma uchun bir xil) 12 foizga tushirildi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ham dastlab 30 foiz qilib belgilanib, keyinchalik uning stavkasi 20 foiz miqdoridan, 15 foiz, 2024 yidan 12 foizga tushirilib 2025 yilda 12 foiz stavka saqlab qolindi. Shuningdek, yagona ijtimoiy to‘lovning stavkasi 40 foizdan 25 foizga tushirilib, xozirda uning o‘rniga ijtimoiy soliq amalda bo‘lib davlat byudjeti tashkilotlari uchun 25 foiz, xususiy sektor uchun 15 foizgacha tushirildi.

Bu davrda soliq siyosatining muhim taktikalaridan biri sifatida soliqqa oid tekshiruvlarning erkinlashtirilishi va qisqartilishiga ustuvorlik berila boshlandi. Bu yillarda respublikamizda tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklash, ularning faoliyat yuritishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu o‘rinda tadbirkorlik sub’ektlarida o‘tkaziladigan tekshirishlar tizimini yanada takomillashtirish (soddalashtirish va qisqartish)da O‘zbekiston Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik sub’ekt-larini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik

sub’ektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sohada Respublikamiz Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-son, «Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3665-son hamda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi PF-4058-sonli farmonlari, «Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5087-sonli qarorlari ijtimoiy-siyosiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq, tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan bir qator huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash faqat sud orqali amalga oshirilishi, tekshirish (taftish qilish) vakolatiga ega bo‘lgan nazorat organlarining aniq ro‘yxati hamda rejali tekshirishlar davriyligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

4.4. O‘zbekiston soliq siyosatining to‘rtinchi bosqichi asosiy yo‘nalishlari

Soliq siyosatining keyingi davrlardagi yo‘nalishlarini aks ettiruvchi to‘rtinchi bosqich 2008 yildan 2017 yilga qadar davrlarni o‘z ichiga olib, uning xususiyatlari ikkinchi bosqichdan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini oshirib borishga qaratilgan taktikalar kuchaytirilishi va ularning takomillashtirilib borilishi, soliq preferensiyalarining oshirilishi, milliy iqtisodiyotda alohida olingan soliqqa tortish rejimlari (maxsus iqtisodiy zonalar) ni kuchaytirilishi, xorijiy investitsiyalarini jalb qilish, banklarning investitsion va kapitallashuvni oshirishda soliqlarning ta’sirini imtiyozlar orqali oshirish, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishda soliqlarning rolini oshirish, Mahalliylashtirish Dasturlari va alohida olingan sohalarni rivojlantirishda soliq imtiyozlarining kuchaytirilishi hamda soliq ma’murchiligini soddalashtirish (takomillashtirish)ni kuchaytirish va shu kabi yo‘nalishlarda ko‘rinadi. Buning asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yilda qabul qilingan "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida"gi va “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlariga asosan Jahon moliya-iqtisodiy krizisining salbiy

oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o‘sishi barqaror sur’atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi hamda barqaror ishlashini ta’minlash, aholi bandligiga ko‘maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo‘llab-quvvatlash maqsadida keng soliq imtiyozlari belgilandi.

Mahalliylashtirish Davlat dasturiga kiritilgan korxonalarni, shuningdek, ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi 1048-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mahalliylashtirishning davlat Dasturi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi yengil va oziq-ovqat sanoatining iste’mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun keng ko‘lamli qo‘shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi “Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1731-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli “To‘g‘ri-dan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni2014 yil 7 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4609-sonli Farmonlarida soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari va preferensiyalar joriy qilindi.

Bundan tashqari bu bosqichda soliq siyosati taktikalarida xorijiy investisyalarni jalb qilinishini soliqlar orqali rag‘batlantirishga yo‘nalishlari kuchaytirilib borildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar, imtiyozlar va afzalliklar tizimi ko‘lami yanada kengaytirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmonida ko‘zda tutilgan soliq imtiyozlari avvallari 8 ta tarmoq faoliyatiga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, ushbu Farmon bilan 2012 yilning II-choragidan boshlab, xorijiy investitsiyalar uchun imtiyozlar 20 ta yo‘nalishdagi iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlanti-rishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra

xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l hamda Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashning mazkur korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasida amal qilgan me’yorlari va qoidalarini qo‘llashga haqli ekanliklari belgilab berildi.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvi korxonalarning eksport salohiyatini yanada oshirishni rag‘batlantirish ko‘lami yanada oshirildi. Shu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi “Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1731-son Qarori qabul qilinib, ushbu qarorga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalarga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatsiyadan o‘tkazish, shuningdek laboratoriya testlari va sinovlarini o‘tkazish komplekslarini xarid qilishga yo‘naltiriladigan mablag‘larga yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to‘lovi bo‘yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish huquqi berildi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-qo‘vvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ularning faoliyatiga soliq va boshqa sohadagi tekshiruvlarni qisqartirish hamda ular tomonidan soliq va boshqa tusdagi hisobotlarni topshirish tartib taomillari soddalash-tirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4453-sonli va 2012 yil 18 iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4455-sonli Farmonlari bilan soliq hisobotlarining soni qisqatirildi, ularni topshirish davriyligi uzaytirildi hamda turli xil yig‘imlar bekor qilindi yoki kamayti-rilganligidir. 2012 yilning 1 avgustidan litsenziyalanadigan faoliyat turlari-ning 15 tasi (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz), shu jumladan, ularni bekor qilish va birlashtirish yo‘li bilan qisqartirildi. Xususan, qimmatbaho metall va toshlardan zargarlik buyumlarini tayyorlash,

audiovizual asarlarni, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar uchun moddiy jismlarni ishlab chiqarish, ichki va xalqaro havo yo‘nalishlarida yo‘lovchilar va yuk tashishni amalga oshirish va boshqa faoliyat turlarini litsenziyalash bekor qilindi. Shu bilan birga ayrim faoliyat turlari yagona litsenziyalanadigan faoliyat turiga birlashtirildi. Shuningdek, 2012 yilning 1 avgustidan boshlab 80 turdagi ruxsat berish tartib-taomillari (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz) bekor qilindi.

Soliq siyosatida xizmat ko‘rsatish sohasidagi va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini rag‘batlantirishga keng e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi “2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1754-sonli qaroriga muvofiq, moliya-bank, maishiy va boshqa xizmat turlarini ko‘rsatuvchi mikrofirma va kichik korxonalar 2017 yil 1 yanvarigacha foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod qilindi. Shuningdek, 2012 yilning II choragidan boshlab agar imtiyozlar berilgan xizmat turlarini ko‘rsatishdan tushgan tushum umumiy tushum hajmida 80 va undan yuqori foizni tashkil etsa, foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlar mikrofirma va kichik korxonalarning barcha daromadlariga tatbiq etildi. Oilaviy biznesni yuritishga keng yo‘l ochib berish maqsadida oilaviy korxonalar o‘zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashdan 2014 yil 1 yanvargacha ozod qilindi.

Soliq siyosatining oxirgi yillardagi asosiy yo‘nalishlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq stavkalarining kamaytirilishi, tabiiy resurslar (er, suv va qazilma boyliklar) va iste’molni tartibga solish yo‘nalishlarida davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan belgilab berilgan Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning beshta tamoyiliga asoslangan holda mustaqil soliq tizimini shakllantirish borasida mustaqillikning ilk kunlaridanoq uning huquqiy asoslari yaratildi. 1991 yil 2-fevralida qabul qilingan “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi, 1993 yil 6-mayda qabul qilingan “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi, “Er solig‘i to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi, ularni amalda hayotga tadbiq etib borilib takomillashtirilib borildi, 1997 yil 24-fevralda qabul qilinib, 1998 yilda kuchga kirgan Soliq kodeksida ushbu qonunlarning barchasi o‘z ifodasini

topdi, natijada esa soliq tizimining huquqiy negizi yagona qonun hujjatida aks ettirildi.

Ma’lumki, har qanday iqtisodiy siyosatning tarkibini siyosat strategiyasi va taktikasi tashkil etadi. Respublikamiz soliq siyosatining bosh strategiyasi bu-soliq to‘lovchilar va byudjet manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashdan iborat bo‘lsa, joriy yilga mo‘ljallangan soliq siyosatining strategiyasi har moliya yilining boshida Respublika Prezidenti tomonidan aniq va asosli holda belgilab berilishi va uning izchil amalga oshirib kelinishi natijasida hatto moliyaviy bo‘hron sharoitida ham byudjet profitsiti(byudjet daromadlarining xarajatlaridan ortiqligi)ga erishgan yagona davlatlardan biri sifatida namoyon bo‘lishi ta’minlandi. Qayd etish joizki, har qaysi davlatning soliq siyosati o‘zgaruvchan bo‘ladi, ya’ni, soliq siyosatini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda mamalakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati e’tiborga olinadi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida mustaqil soliq siyosatimizning mazmunini yangi soliqlar va majburiy to‘lovlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmini shakllantirish, iqtisodiy tanazzul ro‘y berayotgan bir sharoitda uni jilovlash va barqarorlikka erishishga qaratilgan chora tadbirlar tashkil etgan bo‘lsa, bu davrlarda asosan fiskallikka(ko‘proq soliq undirish) asoslangan soliq tizimi amal qildi. Buning obyektiv iqtisodiy zarurat bo‘lib, uning bir necha sabablari mavjud edi. Birinchidan, iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida iqtisodiyotda aksariyat korxonalar monopol mavqega ega bo‘lib, ularning faoliyatini yuqori soliqqa tortish mexanizmi orqali subyektiv omillar(narxlarning keskin o‘sishi, mahsulotga bo‘lgan talabning yuqoriligi, boshqa o‘rinbosar tovarlarning yo‘qligi) evaziga olgan daromadlarini byudjetga ko‘proq undirishni taqozo etardi, vaholanki, iqtisodiy holatning bunday sharoitida bu eng maqbul yo‘l hisoblanishi jahon amaliyotidan ham ma’lum; ikkinchidan, davlat kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirayotgan bir davrda, shuningdek, bozor infratuzilmasini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish zarurati yuzasidan ko‘plab qo‘shimcha vakolatli organlar tizimini shakllantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish uchun davlat investitsiya dasturlari orqali yangi korxonalarni barpo etish byudjetga ko‘proq mablag‘larni jalb etilishini zarurat qilib qo‘ygan edi; uchinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasidan ma’lumki, iqtisodiy tanazzul davrlarida soliq yukini haddan ziyod kamaytirish o‘zini oqlamagan, qolaversa, davlat ichki imkoniyatdan ko‘proq soliq undirish orqali bo‘lsa ham maksimal foydalanmasdan, davlatning tashqi qarzlari evaziga muammoni hal etish hozirda og‘ir

ahvolga tushib qolgan bir qator, hatto ayrim qo‘shni davlatlarning holatiga tushib qolish ehtimoldan holi emas edi.

Respublikamiz soliq tizimida fiskallikka asoslangan soliqqa tortish tizimi asta sekin soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantiruvchi mexanizmga asoslangan soliq tizimiga aylanib bordi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” nomli asarida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi yakunlari xususida keltirgan xulosalari mamlakatimiz iqtisodiyotida barqarorlikning ta’minlanganligidan dalolat berib, bu shakllanayotgan soliq tizimimizda va soliq siyosatida qo‘llanilayotgan taktik yo‘nalishlarga keskin o‘zgarishlar qilinishiga turtki bo‘ldi, natijada esa, aksariyat korxonalarimiz (banklar, shou-biznes korxonalaridan tashqari) daromad solig‘i o‘rniga foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishdi, bu esa o‘z navbatida korxonalar tomonidan byudjetga to‘lanayotgan soliq summalarining bir qismi ularning ixtiyoriga qolishini ta’minladi va ularning moliyaviy holatining bir muncha yaxshilanishiga imkon yaratdi.

Real sektorni bozor munosabatlariga o‘tkazilishi ularga mos soliq tizimini taqozo etadi, bu soliq islohotlari natijasida yuzaga keladi. Yangi tizim bo‘sh yerda paydo bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib ilgari mavjud bo‘lgan va bozor munosabatlariga mos kelmaydigan oborot solig‘i o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i joriy etildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida soliq islohotlari asosan quyidagi asosiy yo‘nalishlarda borganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

- soliqlarga oid yangi qonunlar qabul qilinishi orqali soliqqa tortish huquqiy asosga ko‘chirildi;
- yangi soliq institutlari shakllantirildi;
- eski soliqlar bosqichma bosqich yangi soliqlar bilan almashtirildi;
- bozor talabiga javob beruvchi soliq imtiyozlari kiritildi;
- soliqlar nisbati o‘zgartiriladi, soliqlar yuki qaytadan taqsimlandi;
- soliqqa tortishning yangi tartiblari joriy etildi;
- soliq-byudjet siyosati o‘rtasidagi yaxlitlik ta’minlandi.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishilgan va uning suratlari yil sayin oshirib borilishini ta’minlash bilan bir qatorda soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolining ham oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin, albatta, bu hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotni boshqarishning eng samarali usullarining qo‘llab borilayotganligining isbotidir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, iqtisodiy tanazzul vaqtida yuqori

soliqqa tortish tamoyillariga asoslanish, iqtisodiy o‘sish ta’minlangan sharoitda esa soliq imtiyozlariga ko‘proq urg‘u berish va soliq yukini kamaytirib borish o‘zining katta samarasini berayotganligining guvohi bo‘lib turibmizki, bunday yondashuv soliq tizimi sohasida islohotlar olib borishning “O‘zbek modeli”iga xos xususiyatlardir.

Agar keyingi mustaqil soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishning yo‘nalishlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, hozirgi vaqtda soliqlarning tartiblovchilik funksiyasiga nisbatan rag‘batlantiruvchilik rolining oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolining ustuvorligi quyidagilarda ko‘rinadi:

Soliq yukining bosqichma-bosqich kamayib borishi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki vaqtlarida soliq yuki o‘rtacha 50 foizdan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda uning darajasi 21 foizga yaqinni tashkil etmoqda. Ayniqsa soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamayitirib borilishi 2000 yildan keyin ancha jadallashdi, 2000 yilda soliq yuki darajasi 37 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2009 yilga kelib 22.6 foizgacha tushirildi. Hozirgi kunga kelib tadbirkorlarga bir qancha engilliklar berilib soliq yuki yanash tushirilmoqda Jahon amaliyotda soliq yukining o‘rtacha darajasi 30-40 foiz bo‘lishlik normal holat deb baholanadi. Ta’kidlash o‘rinliki, hozir ham aksariyat rivojlangan davlatlarda soliq yuki darajasi O‘zbekistondagi o‘rtacha darajadan ancha yuqori bo‘lib bunday davlatlar qatoriga AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya, Gollandiya, Kanada, shuningdek, Osiyoning bir rivojlangan davlatlari ham shular jumlasiga kiradi. Shu o‘rinda bir haqli savol tug‘iladi. Mamlakatda soliq yuki darajasi uning mustaqillikni qo‘lga kiritgan yili va erkin iqtisodiy siyosatni yuritishni boshlash davri bilan bog‘liqmi yoki davlatning oqilona iqtisodiy siyosatni yuritishga bog‘liqmi? Bu savolga Respublikamizda erishilgan yutuqlarga asoslanib soliq yukining qanday o‘rnatilishi va darajasi davlatning izchil va oqilona soliq siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq deb javob berish asoslidir. Shu o‘rinda aytish joizki, Respublikamiz soliq siyosati strategiyasida soliq yukini yanada bosqichma-bosqich kamaytirib borish ko‘zda tutilgan.

Soliq stavkalarining kamaytirilishi va soliq turlari bo‘yicha uning darajasini muvofiqlashtirilib borilishi.

Soliq tizimidagi islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bu soliq stavkalarining darajasini maqbullashtirish va uning soliq to‘lovchilar iqtisodiy faollligiga salbiy ta’sir etmaslik mexanizmini joriy etilishidir. Soliq tizimining rag‘batlantiruvchilik rolining oshib borayotganligini soliq stavkalarining kamayib borayotganligida ham ko‘rish mumkin. Agar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy faoliyatiga bevosita daxldor

soliq turlari, jumladan foyda solig‘ini oladigan bo‘lsak, ushbu soliq turining stavkasi 1998 yilda 38 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yilda uning darajasi 9 foizni tashkil etadi, ya’ni 4 martadan ortiq darajada kamaytirilgan, kichik korxonalar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovi stavkasi esa 1998 yilda 15 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ushbu soliq turi stavkasin 2 martadan ko‘proqqa kamaytirildi, ya’ni joriy yildan boshlab 7 foiz qilib belgilandi. Korxona va tashkilotlar tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovning umumiy stavkasi ham dastlabki vaqtlarda 40 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib 25 foizni tashkil etmoqda. Soliq to‘lovchi korxona va firmalarning moliyaviy faoliyatiga keskin ta’sir etuvchi soliq turlaridan biri bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi dastlab 30 foiz bo‘lgan bo‘lib, hozirgi vaqtda uning stavkasi 20 foiz qilib belgilangan holda ushbu stavka bir necha yillardan beri o‘zgarmay kelinmoqda. Bu borada soliq stakalarining pasaytirilishi orqali jismoniy shaxslarning real pul daromadlarining oshirib borilayotganligini e’tirof etish joizdir. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq stavkasi dastlab uning eng yuqori shkala stavkasi 45 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yida uning eng yuqori darajasi 21 foiz qilib belgilangan, ya’ni ushbu soliq turi stavkasi ham o‘rtacha 2.5 martaga qisqartirildi.

Soliq turlarini qisqartirib borish va ularni unifikatsiya qilinib borilishi.

Respublikamiz soliq tizimining rivojlanib borishidagi yana bir muhim jihatlaridan biri sifatida soliq turlari sonini kamaytirib borish hamda bir xil yoki o‘xshash soliq ob’ektiga ega soliqlarni unifikatsiyalash (birxillashtirish) jarayonini alohida ko‘rsatish joiz. Keyingi o‘n yillarda ilgari amal qilgan bir qator soliq turlari bekor qilindiki, bular jumlasiga ekologiya solig‘i, reklama solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan transport solig‘i, Qimmatli qog‘ozlar operatsiyasi solig‘i, obodonlashtirish uchun yig‘im va shu kabilarni kiritish mumkin. Bir xil soliq ob’ektiga ega soliq turlari unifikatsiya qilinib borilmoqda. Mahalliy byudjetlarga biriktirilgan obodonlashtirish uchun yig‘im va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i birxillashtirildi, ya’ni ular obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘iga birlashtirildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan tarnsport solig‘i mol-mulk solig‘i ob’ektiga kiritildi, keyinchalik esa jismoniy shaxslarning transportidan olinadigan mol-mulk solig‘idan transport vositalari soliq ob’ektidan chiqarilib, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bilan birxillashtirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek, “...amalga oshirgan yana bir muhim tadbirimiz-soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini

soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-qo‘vvatlash maqsadida qo‘shimcha choralar ko‘rilganidir”.[55]

Soliqqa oid tekshiruvlarning erkinlashtirilishi va qisqartilishi. Keyingi yillarda respublikamizda tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklash, ularning faoliyat yuritishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib borilmoqda. Shu o‘rinda tadbirkorlik sub’ektlarida o‘tkaziladigan tekshirishlar tizimini yanada takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomil-lashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Ma’lumki, respublika Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik sub’ektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovining «Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-son, «Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3665-son hamda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi PF-4058-sonli farmonlari ijtimoiy-siyosiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq, tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan bir qator huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash faqat sud orqali amalga oshirilishi, tekshirish (taftish qilish) vakolatiga ega bo‘lgan nazorat organlarining aniq ro‘yxati hamda rejali tekshirishlar davriyligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamiz soliq tizimi o‘ziga xos shaklda va mazmunda shakllanib rivojlanib bormoqda, yangi soliq tizimini yaratish milliy iqtisodiyotning talabi hisoblanadi, bu tizim birdan emas, balki izchil amalga oshiriladigan soliq islohatlari natijasida yuzaga keladi. Bu tizimning elementlari ketma ket shakllanadi va yaxlitlikda amal qiladi. Islohotlar

[55] Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ I.A.Karimov.-Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2010. 41-bet.

bozor iqtisodiyotiga xos soliq tizimiga asos soladi, ammo bu bilan u bir yerda to‘xtab qolmaydi, iqtisodiyotning rivojlanishiga qarab takomillashib boradi.

4.5. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida soliq siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 2017 yil 07-fevral PF-4947-sonli[56] va "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi 2022 yil 28-yanvar PF-60-sonli[57] Farmonilari asosida belgilangan soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan bo‘lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.

Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganidek[58], soliq siyosatining avvalgi yillaridagi holatining tanqidiy tahlili mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligi zaruriy darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni mavjudligini ko‘rsatdi.

[56] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

[57] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

[58] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 20 dekabr kuni yangi qabul qilingan soliq siyosati konsepsiyasini amaliyotga to‘liq tatbiq qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi.



2-rasm. O‘zbekistonda yangi soliq konsepsiyasini joriy qilinishining asosiy omillari[59]

[59] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2018 yillarda byudjet-soliq tizimiga oid qabul qilingan farmon va qarorlarning mazmuniga asoslangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi, xususan:

birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini jalb qiladigan, shuningdek, iste’mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o‘rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan majburiy to‘lovlarning mavjudligi;

uchinchidan, soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

to‘rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha ta’sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog‘lom raqobatni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar hisobiga qo‘llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

oltinchidan, o‘tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va insofli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to‘sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo‘qligi;

yettinchidan, mahalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi

yetarli emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va yer uchastkalarini to‘liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomil-lashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi:

Ushbu konsepsiyada belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo‘yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirishni so‘zsiz ta’minlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishi va mas’uliyatini oshirish maqsadida mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalar etib quyidagilar: soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning aniq turlarini ularga biriktirib qo‘yish orqali mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash; viloyatlar, shahar va tuman byudjetlarini subvensiyadan chiqarish, ularning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga bo‘lgan qaramligini bosqichma-bosqich qisqartirish, buning asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari erkinligi va mas’uliyatini oshirish;



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari[60].

mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish uchun tizimli asosda qo‘shimcha rezervlarni aniqlab borish; deputatlik va jamoat nazoratini keng jalb qilgan holda, mahalliy byudjetlarni shakllantirishning shaffofligini va uning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash; mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash hamda xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o‘z vaqtida, maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha

[60] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi farmoni mazmuniga asoslangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

ob’ektlari va infratuzilmani yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlab turishni ta’minlash ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish kabilarning belgilanishi va ularning ijrosining ta’minlanib borilishi hisobiga 2024-yilda mamlakat byudjetiga soliq tushumlari 20 foizga oshdi. O‘tgan yili davlat byudjetiga 199,1 trillion so‘m soliq undirilgan. Mazkur miqdor 2023-yildagidan 33,1 trillion so‘mga (20 foiz) ko‘p.

Soliq va byudjet siyosatidagi o‘zgarishlar, jumladan, tushumlarni oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, 2023-yilning 4-choragida va 2024-yilning o‘tgan davri mobaynida qabul qilingan dastur va tadbirlar uchun qo‘shimcha xarajatlarning kelib chiqishi, shuningdek xarajatlarni optimallashtirish choralari natijasida 2024-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonun bilan tasdiqlangan 2024-2025-yillar uchun byudjet ko‘rsatkichlari taqchillikning tasdiqlangan prognozi doirasida qayta ko‘rib chiqildi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq siyosati bosqichlari, soliq tizimining fiskalligi, oqilona soliq siyosati, soliq tizimi, soliqlarning funksiyalari, soliqlarning vazifalari, harakatlar strategiyasi, insofli soliq to‘lovchi, soliq qarzdorligi, soliqdan qochish, soliq tizimi muammolari, davlat byudjeti manfaatlari, soliq ma’murchiligi, yirik soliq to‘lovchilar, yillik tovar aylanmasi, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq tizimining xususiyatlari nimalardan iborat edi?
2. Mustaqillikning dastlabki yillarida nima uchun progressiv soliq siyosati qo‘llanildi?
3. Soliq siyosatining ikkinchi bosqichi xususiyatlarini izohlab bering.
4. Soliq siyosatining uchinchi bosqichi xususiyatlarini izohlab bering.
5. Soliq siyosatining to‘rtinchi bosqichi xususiyatlarini izohlab bering.
6. O‘zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasida soliq tizimini rivojlantirish masalasi qanday belgilangan?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident PQ-39-sonli qarori qachon qabul qilindi?

A) 2024 yil 23-yanvar
B) 2023 yil 5-fevral
C) 2022 yil 6-mart
D) 2021 yil 8-dekabr

2. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig‘indisi nimani tashkil etadi?

A) Soliq tizimini
B) Soliq siyosatini
C) Soliq tartibini
D) Soliq taktikasini

3. Soliq tizimining tarkibiy tuzilmasi nimaga bog‘liq?

A) Davlatning tuzilishiga
B) Davlatning joylashuviga
C) Davlatning mentalitetiga
D) Davlatning diniga

4. Unitar davlatlar soliq tizimi necha pog‘onali bo‘ladi?

A) 2
B) 3
C) 4
D) 5

5. O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida soliq tizimini rivojlantirish bo‘yicha qanday yo‘nalish belgilangan?

A) Soliq tizimini murakkablashtirish va soliqlar sonini ko‘paytirish
B) Soliq tizimida faqat katta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash
C) Soliq tizimini soddalashtirish, adolatli soliqqa tortish va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish
D) Soliq organlarini faqat nazorat qilish vakolatlari bilan cheklash

V-BOB. SOLIQ SIYOSATINING MAZMUNI VA SHAKLLARI

5.1. Soliq siyosati yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari

Har qanday iqtisodiy tizim sharoitida ham davlatning muhim va bosh funksiyalaridan biri bu jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi o‘zaro tenglikni(proporsiyani) ta’minlash hisoblanadi. Bu orqali esa davlat iqtisodiyotning bir maromda borishini ta’minlashga, provardida esa sotsial-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishga erishadi. Aslida moliyaviy va soliq munosabatlarining vujudga kelishi ham ushbu jarayonni tashkil etilishidan kelib chiqadi. Davlat markazlashtirilgan pul fondlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish sohasidagi yaratilgan milliy daromadni uning yaratuvchilari va davlat o‘rtasida qayta taqsimlaydi. Bu qayta taqsimlashdan asosiy maqsad esa davlatning o‘z funksiyalarini moliyalashtirishni ta’minlash, jamiyatga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va shu orqali sohalar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdan iborat bo‘lib, bunda soliqlar asosiy vositachi bo‘lib yuzaga chiqadi.

Bunday munosabatlarni ta’minlash iqtisodiy, sotsial, huquqiy, hatto siyosiy munosabatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Markazlashgan pul fondlarini tashkil etish va uning daromad manbalarini shakllantirish soliqlarning vujudga kelishining zaruratini keltirib chiqaradi. Soliqlar esa bu yerda milliy daromadni qayta taqsimlaydi. Markazlashgan pul fondlarini, ayniqsa uning eng muhim ko‘rinishlaridan biri sanalgan byudjetni shakllantirish davlatning keng qamrovli chora-tadbirlarni belgilashi va uni amalga oshirish zarurligini keltirib chiqaradi. Markazlashgan pul fondi shaklidagi byudjet va uning turli xil zvenolarini shakllantirish va undagi mablag‘larini davlatning funksiya va vazifalarini bajarish yo‘lida sarflashni amalga oshirish murakkab jarayon hisoblanib, bu yerda turli munosabatlarni shakllantirish, ularning bir-biriga bog‘liq holda amal qilishini ta’minlash, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi munosabatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Ushbu jarayonlarni shakllantirish, ularni muvofiqlashtirish va ularning yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash ma’lum bir muddatlarga mo‘ljallangan rejalarni ishlab chiqish borasidagi yangi vazifalarni keltirib chiqaradi. Davlat yuqorida ta’kidlab o‘tilgan funksiyalarini to‘g‘ri bajarishligi va uning samaradorligini ta’minlash maqsadida sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirib boradi. Bu esa davlatning iqtisodiyotga “barometr” sifatidagi aralashuvining zarurligidan kelib

chiqadi. Jamiyatda sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirish, uni real voqelik va holatlar bilan solishtirish orqali davlatning faoliyatining samaradorligi, uning funksiyalari va vazifalarining bajarilishining tendensiyalari aniqlanadi, provardida esa bosh maqsad-nisbat munosabatlarining darajasiga baho beriladi. Davlat bu boradagi funksiyalari bajarilishini ta'minlashda o'zining faoliyatini ma'lum bir yo'nalishlar bo'yicha guruhlagan holda amalga oshiradi. Bu esa uning turli yo'nalishlardagi siyosatining o'zagini tashkil etadi. Davlatning ushbu siyosatlari asosan ikki: ichki va tashqi yo'nalishlarda kechadi.

5.2. Soliq siyosatining iqtisodiy mohiyati

Ta'kidlash lozimki, davlatning ichki siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liqdir. Davlatning har qanday sohadagi faoliyatining yo'nalishi maqsadga qaratilgan bo'ladi. Shu jihatdan olganda maqsadga erishish esa ma'lum bir chora-tadbirlar va faoliyatning uyg'ulashuvini talab qiladi. Bunday chora-tadbirlar va faoliyatning uyg'un holda mavjud bo'lishligini esa davlat siyosati deb izohlanadi. Siyosat so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "πολιτική-davlat faoliyati, ko'pchilikning manfaati, ko'p tomonlama hamkorlik "(πόλις (polis)-ko'p tomonlama hamkorlik, τική (tiki)-belgilanish, πολι (poli)-ko'pchilik, τόκος (tokos)-manfaat) kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, siyosat zamirida ko'pchilikning manfaatlariga asoslangan davlat faoliyati turadi. Davlatning bunday faoliyatining soliqlarga oid qismi esa o'z navbatida soliq siyosatining o'zagi tashkil etadi. Soliq siyosatining o'zagi esa ta'kdlanganidek, taqsimot munosabatlariga borib taqaladi. Milliy daromadni taqsimlash, uning uchun majburiy to'lovlar vositalarini (soliq-larni) joriy etish, uni undirish va bu jarayonning borishini tartibga solib turish hamda uni doim takomillashtirib borish kabi munosabatlarni taqozo qiladi. Bu munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash esa davlatning faoliyatida ma'lum bir yo'nalishdagi jarayonni-soliq siyosatini talab qiladi.

Har qanday siyosat o'z chegarasi bo'lganligi sababli soliq siyosati ham ma'lum bir chegaralariga ega bo'ladi. Ammo, soliq siyosatida iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, psixologik, madaniy hatto tashqi munosabatlarni qamarab oladiki, bu soliq siyosatining boshqa ichki va tashqi siyosatlarining o'zaro chambarchas tarzda mavjud bo'lishini ko'rsatadi. Soliq siyosatining sotsial siyosat bilan bog'liqligi shundaki, aholining kam ta'minlangan va kam daromadga ega bo'lgan qatlamini

ijtimoiy himoya qilish, ularga soliq imtiyozlarini qo‘llash, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar narxiga soliq stavkalari orqali ta’sir qilish(qo‘shilgan qiymat solig‘ida nollik stavkaning qo‘llanilishini eslang), nogironlar va yosh mutaxassislar(kollej o‘quvchilarini)ni ishga qabul qilishda imtiyozlarni qo‘llash, ish o‘rinlarni yaratish va shu kabi jarayonlar sotsial siyosatning mazmunini tashkil etib, bunda soliq tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat o‘z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham o‘z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o‘rinda soliq siyosatining mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati — bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

«Soliq siyosatining vazifasi — bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta’minlashdan, ikkinchidan, korxona-larni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat»[61] deb O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov alohida ta’kidlab o‘tgan.

Har qanday siyosat ma’lum tarkibiy qismlarga ega bo‘ladi. Soliq siyosati ham davlatning iqtisodiy(moliyaviy) siyosatining bo‘g‘ini sifatida uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi. Ya’ni, soliqlarni joriy etish, uni undirish va uni takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdan iborat bo‘ladi. Soliq siyosatining mohiyatini anglashda uni tor va keng ma’noda tushunish

[61] Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O‘zbekiston», 1998. 52-b

mumkin. Tor ma’noda soliq siyosati deganda soliqlar joriy etish va uni undirishga qaratilgan davlatning faoliyati tushuniladi. Chunki, siyosatning o‘zi davlatning faoliyatini bildiradi. *Soliq siyosati keng ma’noda esa milliy daromadni daromadni qayta taqsimlash maqsadida soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish hamda joriy etilgan soliqlarni undirish jarayonlarini takomillashtirib borishga qaratilgan davlatning maqsadli o‘zaro bog‘liq chora tadbirlarini qamrab olgan faoliyati tushuniladi.*

5.3. Soliq siyosati-soliq tizimining tarkibiy bo‘g‘ini

Iqtisodiyotda amal qiladigan har qanday munosabat tizim shaklida amal qiladi. Tizim bu munosabatlar ichki elmentlarining o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldirgan shaklda amal qilishini bildiradi. Tizimi bu grek tilidan olingan bo‘lib, " σύστημα — butunlik, qismlardan iborat, birlashish " degan ma’noni beradi. Tizimning asosiy sharti bu uning elementlarining ikki va undan ko‘p bo‘lishi va ularning o‘zaro bog‘liq holda tizimning faoliyatini ta’minlashdan iborat. Shuning uchun ham tizim bosh kategoriya va munosabat sifatida mavjud bo‘lib, uning elementlarining har birining o‘zi ham tizimi sifatida amal qiladi. Masalan, soliq tizimining elementi hisoblangan soliq siyosati strategiya, taktikalar va konsepsiya kabi elementlarni qamrab olgan bo‘lib, soliq siyosatining o‘zi ham uning elementlari ham tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Soliq siyosatining elementi bo‘lgan strategiya ishlab chiqilish, amalga oshirilish, takomillashtirish kabi elementlardan tashkil topadi. Demak, biron bir jarayonni tizim sifatida o‘rganish birinchidan o‘sha tizimining mohiyatini dialektik tushunishga yordam bersa, ikkinchidan uning turli qirralarining o‘zaro bog‘liqligining darajasi aniqlanadi va har bir elementning tizimni shakllantirish va uning amal qilishidagi roli ochib beriladi, tizimning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan jarayonlarni aniqlashga imkoniyat tug‘diradi, uchinchidan esa, tizimiy asosda tadqiq qilish(o‘rganish) tadqiqotning turli xil metodlarini qo‘llash orqali obyektiv natijalar olishga sharoit tug‘diradi.

Soliq kategoriyasining keng munosabatlarni qamrab olishi uning tizim shaklida amal qilishining murakkabligini bildiradi. Tizim tushunchasi munosabatlarni izohlashda bosh kategoriya sifatida uyg‘unlashtiruvchi vazifani o‘taydi va shu tufayli ham tizim tarkibiga kiruvchi barcha elementlarni bitta joyga to‘playdi. Soliq tizimining mohiyatini to‘laroq anglash uchun avvalo uning tarkibiy tuzilishini aniqlab olish lozim bo‘ladi va u quyidagi tarkib(elementlar)ga ega bo‘ladi.

Soliq tizimi asosan yirik to‘rt elementlar: soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar; soliq mexanizmi; soliq siyosati; soliq menejmenti kabilardan tashkil topadi. O‘z navbatida har bir yirik elementlarning o‘zi ham yana elementlarga bo‘lingan holda tizimlashish jarayoni davom etadi. Shuningdek, ushbu elmentlar o‘zaro bir-biriga bog‘langan bo‘ladi. Masalan, soliqlar va yig‘imlar mavjud bo‘lmasa, soliq tizimining boshqa elementlarining mohiyati yo‘qoladi va ular amal qilmaydi, o‘z navbatida soliq siyosati elementi bo‘lmasa, soliqlarni joriy etish amalga oshirilmaydi va soliq menejmentiga ham hojat qolmaydi, agar soliqlar joriy qilinmasa ularning undirishga xizmat qiluvchi soliq elementlari va soliqlarni undirish usullarining obyekti yo‘qoladi.

Shu jihatdan olganda soliq tizimining elementlari o‘zaro bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldirib turadi. Ushbularga asoslananib soliq tizimiga ta’rif beriladigan bo‘lsak, soliq tizimi soliqlarning jamiyatda amal qilishi bilan bog‘liq barcha munosabatlarni o‘zida aks ettiruvchi elementlarning o‘zaro bog‘liq holda bir-birini to‘ldirish tartibida amal qilish jarayonidir. Avvalgi boblarda qayd qilinganidek, har qanday jarayon va hodisa ma’lum bir tamoyillar asosida amal qiladi. Soliqlar va soliqqa tortish tamoyillari bu soliqlarni joriy etish va uni undirish borasidagi umumiy yo‘llarni ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda soliq tizimining tamoyili mavjud bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi: O‘zaro bog‘liqlik tamoyili. Soliq tizimining bu tamoyili uning barcha elementlarining bir-biriga bog‘liq holda rivojlanishini va birining ta’siri albatta ta’sir kuchiga egaligi bildiradi. Masalan, soliq menejmentida soliq ma’murchiligi jiddiylashsa soliq mexanizmi va boshqa elementlariga tez ta’sir qiladi.

Keyingi tamoyili bu bir-birini to‘ldirish tamoyili bo‘lib, buning birinchi tamoyildan farqi shundaki, soliq tizimining bir elementining susayishi(susaytirilishi, kamaytirilishi) yoki oshirilishi boshqa elementlar orqali muvofiqlashtiriladi. Olaylik soliq mexanizmida soliq undirish usullari takomillashtirilib, soliq to‘lovchilardan soliqlarni undirishning yangi metodlari qo‘llanilsa, u soliq ma’murchiligi orqali to‘ldiriladi, yoki yangi turdagi soliq va boshqa majburiy to‘lovlar joriy qilinsa, uni undirish tartibi esa soliq mexanizmi bilan to‘ldiriladi. Agar, soliqlarni undirish mexanizmlarida depsinish sezilsa, bunday jarayon soliq siyosati va soliq boshqaruvini takomillashtirish orqali hal qilinadi. Bu yerda ko‘rinadiki, soliq tizimining bir elementidagi bo‘liq boshqa elementlari orqali to‘ldiriladi yoki bartaraf etiladi. Soliq tizimi shuningdek, moslashuvchanlik tamoyiliga ham amal qiladi. Buning mohiyati shundaki, soliq tizimining elementlari dogmatik tarzda bo‘lmaydi va ular jamiyat va uning iqtisodiy

jabhasidagi jarayonlarga moslashib boradi. Agar, iqtisodiyotda depsinish, pasayish va inqirozlar kuzatilsa, u holda soliq siyosati va soliq menejmentida o‘zgaruvchanlik kuchayishi talab etilib, soliq tizimining ushbu elementlari iqtisodiy holatga moslashgan holda amal qilishi talab etiladi, o‘z navbatida bunday moslashuvchanlik boshqa elementlarga ham ma’lum darajada ta’sir qiladi. Soliq tizimining yana muhim tamoyillari qatoriga nisbiy ustunlik tamoyilini ham kiradi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, soliq tizimining elementlari ichida soliq siyosati boshqa elementlarning faoliyatini va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda birmuncha ustunlikka ega bo‘ladi. Ya’ni, soliq siyosati asosiy ta’sir kuchiga ega tarzda mavjud bo‘ladi. Bu yerda nisbiy ustunlik soliq siyosatiga nisbatan qo‘llaniladi. Agar, soliq siyosati asosiy element sifatida amal qilmasa, boshqa elementlarning faoliyatining samarasi tushib ketadi. Shu boisdan ham soliq tizimining yaxlit holda amal qilishi soliq siyosati elementining nisbiy usutunligiga asoslanishini taqozo etadi. Qayd qilinganlardan ko‘rinadiki, soliq tizimining o‘ziga xos tamoyillari uning ichki mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi.

Soliqlarning joriy qilinishi davlat tomonidan amalga oshirilsada ularning yo‘nalishlarida iqtisodiy qonunlar ham o‘z ta’siriga ega, shu boisdan soliq tizimida bunday qonunlar tashkiliy ahamiyatga ham ega bo‘ladi. Iqtisodiy qonunlar soliqlarning amal qilishi jarayoniga ta’sir qilib, soliq tizimining elementlarida o‘rtasidagi aloqalarni o‘zgartirib turadi.

Agar, davlat soliqlarni erkinlashtirsa(soliqlar orqali iqtisodiyotga ta’sirini susaytirsa) iqtisodiy qonunlar iqtisodiyotdagi talab va taklif, iste’mol va jamg‘arilish, narx va bozor muvozanati, egri va to‘g‘ri soliqlar o‘rtasidagi nisbatlarni stixiyalashuviga olib keladi, natijada esa soliq tizimining elementlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka putur yetib, ularning tashkiliy asoslarida o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu esa yuqorida soliq tizimining soliq siyosati elementining nisbiy ustunlik tamoyilining afzalliklarini tasdiqlaydi. Soliq tizimini takshiliy asoslarida davlat iqtisodiy qonunlarning salbiy ta’sirini muvofiqlashtirilib turishini taqozo etadi. Albatta, soliq tizimining tashkiliy jihatlarida tashqi omillarning ham ahamiyati bor. Tashqi omillar deganda mamlakatdagi siyosiy tuzum, iqtisodiy tizimning shakli(totalitar, aralash, an’anaviy), mulkchilik munosabatlari, milliy iqtisodiyotda tabiiy resurslarga bog‘liqlik darajasi(masalan, arab davlatlari bilan Yaponiya davlatining soliq tizimidagi tashkiliy asoslarning farqlanishida ushbu omil asosiy rol o‘ynaydi), tabiiy iqlim sharoiti va shu kabilar kiradi. Dunyo amaliyotida asosiy daromadi turizmdan shakllanadigan hududlar va davlat byudjetida

uglevodlar(yoqilg‘ilar)dan tushumlar katta ulushni egallaydigan hududlar-dagi soliq tizimining tashkiliy mexanizmlarida turlicha farq yuzaga kelishi tabiiy. Bunday hollarda davlat tuzilishi, iqtisodiy tizim va iqtisodiy qonunlar qanday amal qilishidan qat’iy nazar tashqi omillarning roli katta bo‘ladi. Demak, har bir davlatning soliq tizimi o‘ziga xos tarzda shakllana-di. Soliq tizimining elementlari esa aksariyat davlatlarda bir xil shaklda shakllansada, ammo, ularning amal qilishi va tashkiliy asoslarining xususiyatlari farqlanadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sharoitida barcha davlatlarda soliq tizimida yuqorida qayd qilingan 4 ta element(soliqlar va majburiy to‘lovlar, soliq siyosati, soliq mexanizmi va soliq menejmenti) mavjud bo‘lib, ularning holati va qo‘llanilishi albatta yuqorida ta’kidlab o‘tilgan holat va jarayonlarga bog‘liq bo‘ladi.

Soliq tizimi va soliq solish tizimlarini shakllantirish borasidagi ishlarini tashkil qilish ham soliq siyosati doirasida olib boriladi. Soliq siyosati qabul qilinganligi va uni amalda samarali tashkil etish soliq to‘lovchi xo‘jalik sub’ektlarining miqdorini tubdan oshirdi. Shuni aytish kerakki, soliq siyosati davlat byudjetini to‘liqligini ta’minlashdagi xususiyatlarini, uni moliya siyosatining tarkibiy qismi sifatida unga bog‘liq holda barkamol rivojlanishiga huquqiy asos yaratildi. Soliq siyosati moliya siyosatiga xizmat qilishi shak-shubhasiz soliq siyosatiga zamonaviy ta’rif berish va shu ta’rif doirasida uni rivojlantirish mumkin bo‘ldi. Shunday qilib soliq siyosati deganda davlatning soliq munosabatlari doirasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyatlarining tub yig‘indisi tushiniladi. Bunday ta’rif faqat har tomonlama mustaqil munosabatlarni va barkororlashtirish yo‘lida shakllanadi va rivojlanadi.Shunday qilib soliq siyosatini ishlab chiqish moliya munosabatlaridan kelib chiqadi va unga xizmat qiladi. Qolaversa u iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirishga, moliya munosabatlarini boshqarishga ta’sir ko‘rsatadi.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etishda manba vazifasini bajarishi bois davlat soliq siyosati orqali soliq munosabatlarini tartibga keltirib turadi shu tariqa davlat soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. Davlat o‘z moliyaviy idoralar faoliyatini soliq siyosatini ishlab chiqishga va amalyotda qo‘llanishiga jalb etadi. Davlat Moliya Vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi va boshqalar faoliyatini soliq siyosatini ilmiy asoslangan holda muvoffaqiyatli ishlab chiqishga qaratar ekan, uni boshqa iqtisodiy va moliyaviy siyosatlar bilan uzviy bog‘lanishini ham ta’minlaydi. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda soliq munosabatlari doirasidagi yutuqlar va kamchiliklarni

e’tiborga olish, ularni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqish orqali soliq hisobi, to‘lovi va amal qiluvchi soliq elementlarini o‘zgarishini e’tiborga olishi zarur.

Shuningdek turli soha faoliyat sub’ektlardagi mutahassislar fikrini o‘rganish orqali soliq undiruvchi va soliq to‘lovchilar o‘rtasida yuzaga keladigan manfaatlar muvofiqligini o‘rganish va tahlil etilishi ham zarur. Demak soliq siyosatini tayyorlovchi uni to‘liq xayotga tadbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchisidir. Davlatning soliq siyosatini faol yuritishdagi roli bozor iqtisodiyoti munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

Soliqlarni undirish jarayonida soliq to‘lovchilarning soliqlarning obyektiv zarurligini to‘liq anglab yetishi, ularning soliqlardan qochishi yoki to‘lashdan bo‘yin tovlashining o‘zining taqdiriga salbiy ta’sir qilishini, soliqlar davlat ravnaqining moliyaviy asoslaridan biri ekanligi, soliqlarga farz sifatida qarash kabi holatlarning o‘rni katta bo‘lib, bu bevosita soliq to‘lovchilarning psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u esa soliq madaniyatining darajasini bildiradi. Demak, soliq siyosati madaniy va psixologik munosabatlarni ham qamrab oladi. Aholi va korxonalarning iqtisodiy madaniyati bu ularning daromad topishi va iste’molni tanlash hamda xarajatlarni sarflashi bilan birgalikda, asosiysi davlat oldidagi ijtimoiy qarzlari bilan birga soliqlar borasidagi qarzlarining muhimligini anglab yetishi ularning iqtisodiy madaniyatining darajasini belgilovchi asosiy mezoni hisoblanadi. Soliqlarni to‘lamaslik, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatda turmaslik va boshqa shu kabi soliq huquqbuzarlik hamda soliqqa oid jinoyatlar esa soliqlarning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda bo‘lishini bildiradi.

Keltirilgan rasmdan ko‘rinadiki, moliya siyosati iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida o‘zida soliq, byudjet, fiskal va byudjet-soliq siyosatini mujassamlashtirib, ushbu siyosat shakllari ham o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Jahon amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama munosabatlarda soliqlar asosiy siyosiy instrument sifatida yuzaga chiqadi(masalan AQSh va Eron, Venesuela davlatlari o‘rtasidagi, Hindiston va Pokiston davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar). Soliq siyosati davlatning boshqa sohadagi siyosatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsada, iqtisodiy siyosatning tarkibi qismida sifatida unga mazmunan juda yaqin bo‘lgan iqtisodiy siyosat turlari bilan o‘zaro farqli jihatlarini va ulardagi o‘rni bilish aniqlash soliq siyosatining mazmunini yanada ochishga xizmat qiladi. Aslini olganda soliq

siyosati moliya siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib, moliya siyosati esa bu boradagi siyosatlarning asosini tashkil etadi.



4-rasm. Moliya va soliq siyosatining tarkibiy tuzilishi.

Moliya siyosatining tarkibiga kiruvchi siyosat turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular o‘ziga xos chegara va farqlarga ega(1-jadval)

Soliq siyosati moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan juda bog‘liq holda mavjud bo‘ladi. Soliq siyosati byudjet siyosati bilan birgalikda ko‘pincha byudjet-soliq siyosati ham deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda soliq siyosati fiskal siyosat bilan o‘zaro farqli xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Soliq siyosati bundan tashqari monetar siyosat bilan ham o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Chunki, soliq siyosati ishlab chiqilayotganda inflyatsiya darajasi, pul agregatlarining hajmi va harakatiga soliqlarning ta’siri, korxonalarning investitsion siyosatini qo‘llab-qo‘vvatlashda kredit resurslaridan foydalanish kabi masalalar albatta soliq siyosati bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

1-jadval.

Moliya siyosati va uning tarkibining mazmuniga konseptual yondashuv[62].

1.	Moliya siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash, ushbu fondlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartiblash, markazlashgan pul fondlari bilan bog‘liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni hamda markazlashmagan pul fondlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
2.	Soliq siyosati bu:	Milliy daromadni daromadni qayta taqsimlash maqsadida soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish hamda joriy etilgan soliqlarni undirish jarayonlarini takomillashtirib borishga qaratilgan davlatning maqsadli o‘zaro bog‘liq chora tadbirlarini qamrab olgan faoliyati
3.	Byudjet siyosati bu:	Byudjetni shakllantirish, uning mablag‘larini taqsimlash, taqsimlangan mablag‘larni maqsadli, samarali va manzilligini ta’minlanganligini moliyaviy nazorat qilish, byudjetlararo munosabatlarni hamda davlat byudjeti bilan bog‘liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
4.	Fiskal siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarini shakllantirish, ularning manbalarini aniqlash hamda ularni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash hamda ushbu jarayonlarni tartibga solish va muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
5.	Byudjet-soliq siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarining manbalarini joriy etish, ularni undirish mexanizmini yaratish, amalga oshirish, daromadlarni taqsimlash, nazorat qilish, ushbu fondlar o‘rtasidagi, ular bilan bog‘liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirishga hamda ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan (ilmiy tadqiqot) jarayonlarni tashkil etishga oid davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

[62] Muallif yondoshuvi.

5.4. Soliq siyosatining shakllari

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomonidan uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy xolatga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat o‘z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham o‘z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularning yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o‘rinda soliq siyosatining moxiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, soliq siyosati – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq soxasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzdaolib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baxo siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy soxalariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog‘langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi. Aslida soliq siyosatining yadrosini jamiyatda ishlab chiqilgan yalpi milliy(ichki) mahsulotning va yangidan yaratilgan qiymat-milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari yo‘lida markazlashtirilgan pul fondlari(asosan davlat byudjeti)ga jalb qilish masalasini hal etish yotadi. Mana shu masalaning hal etilishiga qarab fiskal va byudjet siyosatining yo‘nalishlari aniqlanadi. Agar, davlat milliy daromadni qayta taqsimlashda iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini haddan tashqari kamaytirsa, u holda davlat byudjet siyosatini ham shunga moslashtirish zarur bo‘ladi. O‘z navbatida byudjet daromad manbalarini bilash shug‘ullanuvchi fiskal siyosatning mazmuni ham shunga bog‘liq bo‘ladi.

Real sektorga soliq yukining oshirilishi ularda kredit resurslariga bo‘lgan talabni oshirish va inflyatsiyaning oshishiga ta’sir qilsa, bunday sharoitda davlat hisobidan investitsion xarajatlarni ham oshirishga imkoniyat tug‘iladi. Soliq siyosatining turli xil xarakterli jihatlari uning shakllari va turlarining rivojlanishiga olib keladi. Davlatning soliq siyosati uning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha vaqtdan buyon uning turli xil ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Davlatning soliqlar borasidagi soliq siyosati ma’lum bir tizginga solingan tartibda o‘tkazilgan holatlar(Qadimgi Rim, Qadimgi Gresiya, Qadimgi Xitoy, Hindiston, Rossiyada Pyotr I, Yekaterina II hukmronlik qilgan davrlardagi) bo‘yicha avvalgi boblarda keltirib o‘tilgan. Hozirgi kunda soliq siyosatining quyidagi shakllari ko‘proq e’tirof etiladi:

- Maksimal darajada soliqqa tortishga asoslangan soliq siyosati
- Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan soliq siyosati
- Oqilona soliq siyosati



5-rasm. Soliq siyosatining shakllari.

Agar davlat milliy daromadning byudjetga jalb qilinadigan qismini oshiradigan bo‘lsa, u ishlab chiqarish sohasidagi takror ishlab chiqarish jarayonining holatiga, u yerdagi investitsion jarayonga ta’siri qilishi bilan birgalikda monetar, fiskal va byudjet siyosatiga ham ta’sir qiladi. Soliq siyosati haqida so‘z yuritar ekanmiz, biz uning nihoyatda ko‘p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta’kidlashimiz kerak. Hozirgi kunga qadar soliq siyosati tushunchasi borasida yagona fikr mavjud emas. Masalan, g‘arb iqtisodchilari S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzilarning fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar.

Fiskal siyosat esa davlatning o‘z daromadlari va xarajatlari bo‘yicha qaror qabul qilishi bo‘lib hisoblanadi[63], — deb ta’kidlashadi.

Rus huquqshunosi A.Brizgalin esa “Soliqlar va soliq huquqi” kitobida soliq siyosatiga quyidagicha ta’rif beradi: “Davlat soliq siyosati — bu davlatning soliq sohasida amalga oshiradigan hamda jamiyat oldida turgan u yoki bu vazifalarni bajarish uchun yo‘naltiriladigan chora tadbirlar tizimidir[64]”.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan professor Q.Yaheyov soliq siyosatiga ta’rif berar ekan, quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Soliq siyosati davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir[65]”.

Professor J.Zaynalovning fikricha, “Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlari doirasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyat-larining tub yig‘indisidir[66]”. Soliq siyosati haqida fikr yuritganimizda, uning turlariga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim bo‘ladi. Hozirgi kunda soliq siyosati turlarini quyidagicha guruhlash mumkin:



6-rasm. Soliq siyosati turlari[67].

Soliq siyosatining yuqorida keltirib o‘tilgan turlari milliy daromad hajmini va aholi bandligi darajasini oshirishga, davlat xarajatlari tizimini nazorat qilish, soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solish, soliq-byudjet siyosati yaxlitligini ta’minlash va eng asosiysi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish manbaalarini ta’minlashga xizmat qiladi.

[63] Jo‘raev A., Safarov G‘. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. 48-bet
[64] Брызгалин А. Налоги и налоговое право. –М.: Аналитика пресс, 1998. С. 50
[65] Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T. 2003. 28-bet
[66] Zaynalov J. Soliqlar va soliqqa tortish. Samarqand. 2002. 32-bet
[67] Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012. С. 118

5.5 . Diskritsiyali va nodiskresiyali soliq siyosati

Soliq siyosatining amalga oshirilishi jihatidan ular ikki turga: diskritsiyali (lotincha discretio, inglizcha. discretion-davlat organlarining o‘z vakotalari doirasida qaror qabul qilishi degan ma’noni anglatadi) va nodiskresiyali (o‘z-o‘zidan barqarolashuvchi) soliq siyosatlariga bo‘linadi. Diskritsiyali (diskritsion) soliq siyosatida davlatning iqtisodiyotga soliqlar vositasida ta’sir qilishi jarayoni oshadi va bunday turdagi soliq siyosatida iqtisodiyotdagi ishsizlik va inflyatsiyaga ta’sir etish (kamaytirish)maqsadid a davlat o‘zining xarajatlarining o‘zgarishidan kelib chiqqan holda yondoshiladi. Bunday soliq siyosati deyarli har bir davlatning soliq siyosatida uchraydi. O‘z navbatida diskritsiyali soliq siyosati ham ikki xil shaklda amalga oshiriladi.

Birinchisi, bu fiskal ekspansiyaga ("expansio"-lotincha so‘z bo‘lib, kengayish, tarqalish degan ma’noni beradi) asoslanagan soliq siyosati shaklida bo‘lib, bunda yalpi talab va davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirishga urg‘u berilib, unda soliqlarning rag‘batlantiruv-chilik roli oshirilib, iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish sikllarida yuqori tebranishlarning oldi olinadi. Ammo, bunday soliq siyosatini amalga oshirish oqibatida davlat byudjeti taqchilligi va inflyatsiya darajasi oshadi. Ikkinchisi esa fiskal restriksiyali ("restnctio" lotincha so‘z bo‘lib — "cheklash" degan ma’noni beradi) soliq siyosati bo‘lib, bunda davlat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirish orqali ishlab chiqarish sur’atini pasaytirish orali inflyatsiyani kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Biroq, bunday soliq siyosati ishsizlikni keltirib chiqaradi va uning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birgalikda soliq siyosati ko‘lamiga ko‘ra xalqaro darajadagi, milliy iqtisodiyot darajasidagi va alohida olingan hududlarga oid soliq siyosatlariga bo‘linadi. Davlat xalqaro darajada soliq siyosatida milliy iqtisodiyotga tovar (xizmat)larning oqimini oshirish yoki uni cheklash (protesion soliq siyosati) siyosatga asoslanishi mumkin, shuningdek, xalqaro soliq siyosatida preferensiyalarni qo‘llash asosida tashqi kapital, tovarlarning kirib kelishini rag‘batlantirishni amalga oshiradi. Bunda ko‘pincha proteksion-preferensiyali soliq siyosati shaklida yuzaga chiqadi. Bunday soliq siyosatining mazmuni shundan iboratki, davlat ba’zi sohalarda ichki bozorni himoyalash siyosatini olib borsa, boshqa sohalarda esa preferensiyalarga asoslangan (ya’ni yon bosish, imtiyozlar berish, kvotalarni cheklashni kamaytirish yoki bekor qilish, boj to‘lovlarini bekor qilish (kamaytirish), soliqqa tortishning imtiyozli alohida normalarini qo‘llash va sh.k.) soliq siyosatini yuritadi.

Bunday soliq siyosati O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida ham ko‘rinadi. Milliy iqtisodiyot doirasidagi soliq siyosati mamlakatning barcha hududlari uchun bir xil tartib va qoidalarga asoslangan tartibda qo‘llaniladi. Hududiy soliq siyosati esa davlat o‘zining iqtisodiy siyosatining strategiyasidan kelib chiqib, alohida olingan hududni maqsadli dasturlarni amalga oshirish jarayonida maxsus soliq siyosatini yuritishi mumkin. Hududni erkin iqtisodiy zona deb e’lon qilishi va u yerga alohida soliq rejimlarinini joriy qilishi mumkin. Buni O‘zbekiston soliq siyosatida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, "Angren" maxsus industrial zonasi va "Jizzax" maxsus industrial zonalarini tashkil etilishi va ularga alohida soliq rejimlarining qo‘llanilishida ko‘rish mumkin.

Soliq siyosati davriylik amal qilishi jihatidan joriy(asosan bir yillik) o‘rta muddatli (1 yildan uch yilgacha) va strategik (5-10 yillik) soliq siyosatlariga ham bo‘linadi. Soliq siyosatining bunday turlari davlatning byudjet tuzilishi va uni rejalashtirish shakllariga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan Rossiyada o‘rta muddatli (asosan uch yillik) byudjetni rejalashtirish amal qilib, soliq siyosati ham asosan o‘rta muddatli xarakterda bo‘ladi. Shu bilan birgalikda har yilgi davlatning byudjet-soliq siyosati ham ishlab chiqilib, mavjud holatdan kelib chiqib, o‘rta muddatli byudjet va soliq siyosatiga o‘zgartirishlar kiritib boriladi.

Soliq siyosati yo‘nalishi va boshqaruv tizimidagi roliga ko‘ra fiskallashgan, tartiblovchi, rag‘batlantiruvchi va kombinalashgan (muvozanatlashgan) soliq siyosati turlariga bo‘linadi. Fiskallashgan soliq siyosati aslida soliqlarning mohiyati va uning asosiy funksiyasi bo‘lgan fiskal funksiyasiga asoslansada, ammo, bu soliq siyosati soliqlarni ko‘proq undirishga qaratilgan bo‘ladi. Davlat bunday soliq siyosatini o‘rinli qo‘llash samara berishi mumkin. Bunday soliq siyosati agar, iqtisodiyotda qayta takror ishlab chiqarish jarayoni davom etib, unda o‘sish darajalari saqlanib turgan sharoitda ichki investitsiya (korxonalarning reinvestitsiyalashuvi) darajasi pasayib, iste’mol qilish darajasi oshgan bir sharoitda qo‘llanilishi, davlat real sektordan mablag‘larni markazlashtirgan pul fondlariga ko‘proq jalb qilgan holda iqtisodiyotga investitsiya kiritishda davlatning ulushini oshirish orqali iqtisodiyotda asosiy kapitalning sifat va miqdor jihatdan o‘sishini ta’minlashga erishadi. Tartiblovchi soliq siyosati mazmunan soliqlarning iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini oshirishga qaratilgan siyosatni tashkil etib, bunda egri soliqlar bo‘yicha soliqlarning iste’mol, narx, ishlab chiqarish jarayoniga tez ta’sir etuvchi soliq instrumentlarni kuchaytirishga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, soliq siyosatining bu shaklida soliq imtiyozlarini kamaytirish, ba’zilarini bekor

qilish, import va eksportga soliqlar va boj to‘lovlari stavkalarini oshirish kabilar ham ustunlik kasb etadi. Bunday soliq siyosati uzoq vaqt davomida qo‘llanishilishi iqtisodiyotga salbiy ta’sir qiladi. Davlat bunday soliq siyosatidan doim foydalanishi uning darajalarini iqtisodiyotning boshqa siyosati bilan birga qo‘llashi va ularga yordam berishi nuqtai nazardan yondashishi yaxshi samara berishi isbotlangan.

Soliq siyosatining yuqori soliqlar shaklida davlat ko‘plab soliq turlarini va yuqori soliq stavkalarini joriy etadi, soliq imtiyozlarini esa imkon darajasida qisqartiradi. Bunday soliq siyosati natijasida soliq to‘lovchilarda amalda jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hech qanday ishonch qoldirmaydi. Shuning uchun ham soliq siyosatining ushbu shakli ko‘pgina davlatning rivojlanishi shuni taqozo etgan paytlarda, ya’ni urush, iqtisodiy tanglik sharoitlarida qo‘llaniladi.

Soliq siyosatining yana bir shakli iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan soliqlar bo‘lib, davlat bunday soliq siyosati orqali soliqlarning nafaqat fiskalligini, shu bilan birgalikda soliq to‘lovchilarning manfaatlarini ham hisobga oladi. Bunday sharoitda davlat birinchi navbatda o‘z xarajatlarini, ayniqsa ijtimoiy xarajatlarni qisqartiradi. Bunday siyosatdan ko‘zlangan asosiy maqsad, ushbu soliq siyosati shaklida ifodalanganidek, qulay soliq muhitini yaratish orqali investitsion faollik rag‘batlantiriladi va kapital jamg‘arish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bunday soliq siyosati XX asrning 80-yillarida AQShda samarali joriy etildi va “reyganomika” nomini oldi.

Soliq siyosatining uchinchi shakli oqiloni soliqlar hisoblanib, birinchi va ikkinchi shakllar o‘rtasidagi shakl hisoblanadi. Ushbu soliq siyosatining moxiyati shundan iboratki, yuridik va jismoniy shaxslarga yuqori soliqlar o‘rnatilishi bilan bir vaqtda fuqarolarning ijtimoiy ximoyasi ham kengaytiriladi, davlatning ijtimoiy dasturlari oshiriladi.

5.6. Rag‘batlantiruvchi soliq siyosati

Rag‘batlantiruvchi soliq siyosatida soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasining realizatsiyasi ta’minlanadi. Bunda soliqlar bo‘yicha imtiyozlar va preferensiyalarning qo‘llanishiga ustuvorlik kasb etadi. Asosan bunda to‘g‘ri soliqlar orqali ishlab chiqarishga maqsadli soliq imtiyozlarini berish orqali ishlab chiqarish va mahsulot(xizmat)larning diversifikatsiyasini oshirish, investitsiya jarayonini kengaytirish, soliq to‘lovchilarning daromadlarini kamroq soliqqa tortish, alohida soliq rejimlari(soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi), soliq ma’murchiligini soddalashtirish jarayonlariga asoslanadi. Bunday soliq siyosati uzoq vaqt va zuluksiz qo‘llanilishi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Ya’ni, soliq to‘lovchilarda boqimandalik ruhiyati shakllanib qolishi, ishlab chiqarishni ko‘paytirishga harakatlanish jarayoni susayishi, davlat byudjetidan soliq imtiyozlari hisobiga yo‘qotilgan mablag‘larning o‘rni qoplanmay qolishi kabilar yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan ham ushbu soliq siyosatining turi tartiblovchilik soliq siyosatining samarali instrumentlari bilan birgalikda qo‘llash samara berishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining keyingi yillardagi soliq siyosatida rag‘batlantiruvchi soliq siyosatining ustuvorligiga va tartiblovchilik soliq siyosatining instrumentlaridan foydalangan holda qo‘lllanishi yaxshi samara berayotganligini ko‘rish mumkin. Jahon amaliyotida soliq siyosatining eng samarali turlaridan biri sifatida kombinalashgan (muvozanatlashgan) soliq siyosati ancha keng qo‘llanilib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotda raqobat muhitining chuqurlashuvi, davlatning tadbirkorlik sifatda namoyon bo‘lishining ortishi, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni oshib, xalqaro integratsiyalashuv darajasining kengayib borishi davlatlarning soliq siyosatida kombinalashgan soliq siyosatidan ham keng foydlanishni taqozo etadi. Bunday soliq siyosatining o‘ziga xosligi shundaki, unda soliq siyosatining boshqa turlarining asosiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu soliq siyosatini ishlab chiqishning qulayligi shundaki, mavjud soliq siyosatlarining u yoki bu jihatlariga qurilsada, ammo murakkabligi shundaki, fiskal, tartiblovchi, rag‘batlantiruvchi soliq siyosatlarining qaysi biriga ustuvorlik berishini tanlash masalasidir. Shu jihatdan olganda kombinalashgan soliq siyosati moslashuvchan xarakterda bo‘lishi taqozo etiladi. Soliq siyosatining fiskallik turiga ko‘proq e’tibor berilishidagi yuzaga kelib qolgan salbiy oqibatlarni boshqa qaysi soliq siyosatidan foydalanish orqali bartaraf etishni hal etish bu soliq turining moslashuvchan tarzda mavjud bo‘lishligini talab etadi. Demak, kombinalashgan soliq siyosati doim o‘zgaruvchan, vaziyatga moslashuvchan xarakterdagi barcha soliq siyosatlarining mazmunini o‘zida aks ettiruvchi soliq siyosati bo‘lib, uning ishlab chiqilishi va amalga oshirilish jarayoni ham davlatning boshqa iqtisodiy sohadagi siyosatlariga ham moslashgan bo‘ladi.

*Bulardan tashqari soliq tizimida shunday holatlar ham uchraydiki, ba’*zi *davrlarda soliqlar bo‘yicha qarz so‘mmalarining ortib borishi, faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiyot sub’ektlarining soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan turishi va soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashi, soliqqa oid ma’lumotlarni soxtalashtirishi, majburiy tartibdagi buxgalteriya hisobini yuritmasligi holatlari ham uchraydiki, agar bunday holatlar doimiy tus olib va ortib borish xarakteriga ega bo‘lsa, bunday holat (jarayon)ni*

muvofiqlashtirishga qaratilgan nazorat-muvofiqlashtiruvchi soliq siyosati ham mavjud bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Iqtisodiy siyosat, soliq siyosati, moliya siyosati, soliq siyosati shakllari,soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, rag‘batlantiruvchi soliq siyosati, soliq siyosatining maqsadi, soliq va byudjet siyosati.

Takrorlash uchun savollar:

1. Soliq siyosati deganda nima tushuniladi?
2. Soliq va byudjet siyosati o‘rtasidagi bog‘liqni izohlang
3. Diskritsiyali soliq siyosati nima?
4. Nodiskresiyali soliq siyosati deganda nimani tushunasiz?
5. Rag‘batlantiruvchi soliq siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.
6. Soliq siyosatining fiskallik xususiyatini izohlab bering.
7. Soliq siyosatining rag‘batlantiruvchilik xususiyatini izohlab bering.
8. iborat?
9. Soliq siyosatining mu’tadillik xususiyatini izohlab bering.
10. Soliq siyosatining tartiblovchilik instrumentlari deganda nimani tushunasiz?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq munosabatlarining subyektlari kim?

A) Soliq to‘lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar
B) Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar va YaTTlar
C) Soliq organlari, MIB va Adliya vazirligi
D) FVV, IIV va Soliq qo‘mitasi

2. Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar kim?

A) Soliq agentlari
B) Soliq to‘lovchilar
C) Soliq organlari
D) Soliq to‘lovchining vakillari

3. Soliq to‘lovchining vakillari

A) Soliq to‘lovchilar

B) Soliq organlari
C) Soliq to‘lovchining vakillari
D) Soliq agentlari

4. Kimlar soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘la olmaydi?

A) Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslar
B) Yuridik va jismoniy shaxslar
C) Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhlari
D) Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi

5. Vakolatli organlar qaysi?

A) Soliq organlari, bojxona organlari, yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.
B) Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslar
C) Yuridik va jismoniy shaxslar
D) Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhlari

6. O‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish kimlarning huquqi hisoblanadi?

A) Soliq to‘lovchilarning
B) Soliq organlarining
C) Soliq organlari xodimlarining
D) Jismoniy shaxslar

7. Rag‘batlantiruvchi soliq siyosatining asosiy maqsadi nima?

A) Faqat yirik korxonalarni soliqlardan ozod qilish
B) Byudjet daromadlarini kamaytirish
C) Iqtisodiyotni jonlantirish, investitsiyalarni va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash
D) Soliq organlarining huquqlarini kengaytirish

8. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosatining tartiblovchilik instrumentlariga kiradi?

A) Ijtimoiy tarmoqlar orqali soliq yig‘ish
B) Soliq stavkalari, imtiyozlar, sanksiyalar va nazorat mexanizmlari
C) Soliq to‘lovchilarni jazolash
D) Faqat soliqlarni kamaytirish to‘g‘risidagi qarorlar

VI-BOB. SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASI VA TAKTIKASI

6.1. Soliq siyosati strategiyasi mazmuni

Har qaysi davlat siyosati tarkibiy jihatdan strategik va taktik yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Siyosatning strategiyasi va taktikasining mazmuni avvalo faoliyat(jarayon)ning xarakteri va davlat tuzilishiga asoslangan holda uni boshqaruv mexanizmlarining xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Agar, davlat federativ davlat bo‘ladigan bo‘lsa, soliqlarni joriy etish va undirish siyosatiga ham shunga muvofiq bo‘ladi, o‘z navbatida unitar davlatlarda esa byudjet va soliq tizimi o‘ziga xos bo‘ladi. Shuningdek, soliq siyosati soliqlarning xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Soliqlar tabiatan o‘zgaruvchan va moslashuvchan xarakterda amal qilishi uning strategiyasi va taktikasining o‘zgaruvchan bo‘lishiga ham ta’sir qiladi. Shu bilan birgalikda soliq strategiyasi ichki tuzilishi va mohiyatiga ko‘ra doimiy va o‘zgaruvchan shakllarda bo‘ladi. Soliq strategiyasi o‘zi nima? Strategiya g rekcha so‘z bo‘lib, "στρατηγία — qo‘mondonlik, boshqarish, harbiy san’ati" degan ma’noni berib, u dastlab, harbiy sohaga qo‘llanilib, keyinchalik davlat boshqaruvida va uning siyosatida qo‘llanila boshlagan. Siyosatda qo‘llanilishi esa ko‘pincha unga davriylik jihatdan yondoshiladi. Shu jihatdan olganda strategiya davlatning ma’lum bir soha(yo‘nalish)dagi faoliyatini tizimli boshqarishning uzoq muddatli davrga tegishli jarayonlarini aniqlash va uning yo‘nalishlarini belgilab olinishidir. Bu holat soliqlarga oid siyosatda ham mavjud bo‘ladi.

Soliq siyosati strategiyasining belgilanishi esa davlatning majburiy to‘lovlar borasidagi faoliyatining uzoq davrlarga oid xususiyatlarini aks ettiradi. Demak, soliq siyosati strategiyasi deganda davlatning jamiyat a’zolaridan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar borasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan faoliyatining umumiy yo‘nalishlari va xususiyat-larini aks ettiruvchi jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston soliq tizimida ham soliq siyosati strategik va taktik yo‘nalishlari asosida amal qiladi. Ta’kidlanganidek, soliq siyosati strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining mazmunidan kelib chiqib, doimiy va o‘zgaruvchan strategiyaga ega bo‘ladi. O‘zbekiston soliq qonunchiligida soliq siyosatining strategiyasi tushunchasi va uning mazmuni keltirilmagan. Biroq, bu masalaga javob O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida aks etgan. Ushbu asarlarda soliq, byudjet va moliya sohasidagi Prezidentimizning bildirgan fikr va mulohazalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston soliq siyosatining

bosh(doimiy) strategiyasi-davlat byudjeti va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarning uyg‘unlashuvi va muvozanatlashuvini ta’minlashdan iborat ekanligini anglash mumkin. O‘zbekiston soliq siyosatining bosh(doimiy) strategiyasi sifatida davlat byudjeti va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi manfaatlarning uyg‘unlashuvi oqilona soliq siyosati orqali ta’minlanadi va u uzoq vaqtni qamrab olib doimiy xarakterda bo‘ladi. Bir tomondan davlat tomonidan oqilona soliq siyosatining tashkil etilishi, bu hali bunday manfaatlarni uyg‘unlantira olmaydi, buning uchun soliq to‘lovchilarda yuqori darajadagi soliq madaniyati shakllanishi lozim bo‘ladi. Soliq siyosatida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni ko‘paytirish bilan birga soliq to‘lovchilar tomonidan bunday imtiyoz va preferensiyalardan o‘rinli foydalangandagina bunday yengilliklar samara beradi, aks holda esa byudjet manfaatlariga putur yetadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq to‘lovchilarga o‘ziga xos egoizm xususiyatlarining saqlanib qolishi, soliqlardan qarzdorlik, soliqlardan qochish holatlari uchrab turadi va bu ham byudjet manfaatlariga zid keladi. Demak, soliq to‘lovchilar va byudjet manfaatlarining to‘g‘ri kesishuvi bu soliq qarzdorligi deyarli yo‘qotilganligi, soliq to‘lovchilarning soliq madaniyati yuqoriligi, byudjetdan berilayotgan subsidiyalarning samarasi yuqoriligini bildiradi, bu jarayon esa uzoq vaqt davomida erishiladi. Ushbulardan kelib chiqqan holda soliq siyosatining o‘zgaruvchan strategiyasini aniqlash mumkin. Bunga ko‘ra O‘zbekitson soliq siyosatining o‘zgaruvchan soliq strategiyasi byudjet daromadlarining bir maromda shakllanishi, tadbirkorlik sub’ektlariga soliq imtiyozlari va prefrensiyalarni oshirish va ularning samaradorligini ta’minlash, soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga erishish hamda soliqlarning ishlab chiqarish jarayonini jonlantirishga ta’sirini yanada oshirishdan iboratdir.

Soliq siyosati strategiyasining o‘zgarib turilishiga albatta davlatning iqtisodiy siyosati bilan birgalikda boshqa omillar ham ta’sir qiladi(7-rasm).



7-rasm. Soliq siyosati strategiyasiga ta’sir etuvchi omillar.

Albatta har bir davlatning soliq siyosati strategiyasi umumiy omillar bilan birgalikda milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning belgilanishi va o‘zagtirishiga ta’sir etuvchi omillar ham mavjud bo‘ladi. Xalqaro miqyosda o‘zaro siyosiy-iqtisodiy munosabatlarning yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar yo‘nalishi va mazmuni hamda mamlakat miqyosida maxsus iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi kabi omillar davlatning soliq siyosati strategiyasining o‘zgarishiga ta’sir etadi. Jahon amaliyotida soliq siyosati strategiyasining o‘zgarishiga siyosiy holatlar, masalan, hukumat yoki parlamentda ko‘pchilik ovozga ega bo‘lgan partiyaning iqtisodiy plotformasidagi ustuvor yo‘nalishlar soliq siyosatining strategiyasining asosi qilib olinishi mumkin.

6.2. Soliq siyosati taktikalari mohiyati

Soliq siyosatining tuzilishi va yo‘nalishi jihatdan muhim tarkibini soliq taktikalari tashkil etadi. Taktika ham kategoriya sifatida xuddi strategiya kabi grek tilidan olingan bo‘lib, "τακτικός - qo‘shinning tuzilishi, τάξις-tuzilish va joylashish" degan ma’nolarni berib, harbiy sohaga tegishli termin sifatida, keyinchalik esa davlatning har qanday siyosatining tuzilishi va yo‘nalishini ifodalashda qo‘llanila boshlangan. Soliq siyosatining taktikasi deganda esa soliq siyosati va uning strategiyasida maqsad qilib belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaniladigan usul va vositalarning

yig‘indisidir. Sodda qilib aytganda soliq siyosati strategiyasida belgilab qo‘yilgan maqsadga oson va qulay erishishning yo‘llaridir. Bundan ko‘rinadiki soliq siyosatining taktikalari[68] usullar va vositalardan tashkil topganligi tufayli har bir davlat soliq siyosatida ularning eng qulay va samarali shakllarini qo‘llashi davlatning soliq siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Soliq siyosati taktikalari amaliyotda qo‘llanilishi ularning samarali yoki samarasiz ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda taktik usullar yoki vositalar tuzilishi va mazmunan samarali bo‘lsada, ammo uni qo‘llashdagi xatoliklar, garchi usul yoki vositalar mazmunan ijobiy bo‘lsada, natija samarasiz ham bo‘lishi mumkin. Bu esa soliq siyosatining taktikalarini nazariy va amaliy jihatdan farqlashni ko‘rsatadi. Ma’lum davlat yoki hududda samara bergan taktik usullar boshqa bir joyda samara bermasligi ham mumkin, demak, soliq siyosati taktikalari iqtisodiyotning holati va davriyligini(qaysi darvda qo‘llanilganligini) ham e’tiborga olishni talab etadi. Alohida olingan milliy iqtisodiyotda islohotlarning dastlabki davrida qo‘llanilgan taktik yo‘nalishlar, ma’lum bir muddatda samarasiz bo‘lib qolishi, yoki aksincha, ma’lum bir muddatda qo‘llanilib, keyinchalik voz kechilgan usullar, rivojlanishning keyingi davrlarida yanada talab etilishi yoki samarali usulga aylanishi mumkin. Bunday usullar(taktik yo‘nalishlar) qatoriga progressiv soliqqa tortish usulini misol qilib keltirish mumkin. Progressiv soliqqa tortish iqtisodiyotda tushkunlik (tanazzul) kuzatilayotgan vaqtda samara berishi jahon amaliyotida (Keyns-ning soliqqa tortish nazariyasining AQSh iqtisodiyotidagi krizisdan qutulishdagi ahamiyatni eslang) isbotlangan. Shuningdek, iqtisodiyot rivojlanib, unda jamg‘arishning kuchayib, investitsiyaga aylanishining sekinlashishi orqali iqtisodiyotga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida progressiv soliqqa tortish taktikasi yana samara beradi. Shu jihatdan olganda soliq siyosatining taktikalarining samara berishi ularning davriylik va iqtisodiyotning holati jihatdan qo‘llanishiga bog‘liqligini bildiradi. Soliq strategiyasi singari soliq siyosati taktikalarining o‘zgartirilishiga ma’lum bir omillar ta’sir etib boradi.

[68] Soliq siyosati taktikasini izohlashda ushbu terminni doim ko‘plik ma’nosida ishlatish maqsadga muvofiq, siyosatda bitta taktika bo‘lishi uning mazmunini yo‘qotadi.



8-rasm. Soliq siyosati taktikalariga ta’sir etuvchi omillar.

Keltirilgan rasmdan ko‘rish mumkinki, soliq siyosati taktikalariga umuminsoniy va umummilliy qadriyatlar, jahon bozori konyukturasining nobarqarorligi va turli xil inqirozlar, milliy qonunchilikning o‘zgarishi va yangi qonunlarning yuzaga kelishi, kelgusi (joriy) yil uchun ustuvor vazifalarning mazmuni, milliy iqtisodiyotning rivojlanish holati, ichki bozordagi tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va iste’mol qilinish holatini muvofiqlashtirish zarurligi hamda turli xil “fors-major” holatlar kabi omillar ta’sir qiladi. Bu yerda umuminsoniy va umummilliy qadriyat-lar sifatida keksa yoshdagi aholi, tug‘ma nogironlar, tarixiy obidalar, millatlar o‘rtasidagi milliy qadriyatlar(an’analar), balog‘at yoshiga yetmaganlar, insonparvalik yordamlari va shu kabilar nazarda tutilib, ularning yuzaga kelishi albatta barcha davlatlarning soliq siyosati taktikalariga ta’sir qiladi, o‘z navbatida ichki bozordagi tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va iste’mol qilinish holatini muvofiqlashtirish zarurligi esa yalpi ichki mahsulot va uning iste’molida inson sog‘ligi uchun zararli bo‘lgan mahsulotlar(masalan, alkogolli, tamaki mahsulotlar)ni ulushi ortishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining ortishi va uning ist’emol darajasining pasayib ketishi va aksincha holatlarning yuz berishi soliq siyosati taktikalarini o‘zgartirishga olib keladi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida Respublikamiz soliq siyosatining taktikalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini iqtisodiy rivojlanishning darajasiga monand holda bosqichma-bosqich kamaytirib borish.

- Soliq qonunchiligini ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda takomillashtirib borilish;
- mavjud soliq turlarini qisqartirish, ularni unifikatsiyalashtirish va asosiy soliq turlari bo‘ycha soliq stavkalarini qisqartirib borilishi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini soliq tizimi orqali muntazam qo‘llab-quvvatlanishi;
- real sektor korxonalarini, shuningdek, eksportyor korxonalar faoliyatini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirilishi;
- banklarning kapitallashuvini oshirish va ularning investitsion faoliyatida soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolining kuchaytirilishi;
- soliq ma’murchiligining soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari va preferensiyalarini oshirib borilishi;
- turli nazorat organlarininng tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga aralashuvi va soliq tekshiruvlarining qisqartirilib borilishi;
- importni tartiblash va eksportni rag‘batlantirish jarayonining oshirib borilishi;
- soliqlarning sotsiallashuvining kuchaytirilishi;
- silliy iqtisodiyotda reinvestitsiyalashuvning va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolining oshirib borilishi va shu kabilar.

O‘zbekistonning soliq siyosatining taktik yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq holda va bir-birini to‘ldirib borish xususiyatlariga ega. Ushbu soliq siyosatining taktikalarining umumiy yo‘nalishi va ularning natijaviyligi milliy iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy o‘sish barqarorligini oshirib borish hamda soliq to‘lovchilar zimmasida qulay soliq yuki darajasida davlat byudjetini zaruriy mablag‘lar bilan ta’minlashga qaratilgandir.

Soliq siyosatida uning strategiyasi va taktikalariga xizmat qiluvchi konsepsiyasiga ham ega bo‘lishi mumkin. Konsepsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotin tilidan olingan bo‘lib, "conceptio —tushunish, anglash, fahmlash, tizim", "concipere-fikrlash, mulohaza qilish" degan ma’nolarni anglatadi. Konsepsiya jarayonlarni o‘rganishda ikki xil tartibda qo‘llaniladi. Birinchisi bu o‘rganilayotgan jarayonning rivojlanishini tizimi sifatida tushunilsa, keyingisi jarayonni rivojlantirish va uning yo‘nalishlarining ma’lum bir jihatlarini tizim shaklida ifodalash tushuniladi. Soliq

siyosatining konsepsiyasi esa uning strategiyasining mazmunidan kelib chiqqan holda uning ayrim olinganlar o‘zaro bog‘liq taktik yo‘nalishlarini ilmiy asoslangan holda o‘zida aks ettiradi. Shu jihatdan ham u oraliq taktikalar ham deb yuritiladi. Bundan tashqari soliq siyosatining konsepsiyasi soliq siyosatiga oid turli xil bir necha yo‘nalishlarning ketma-ketligini ifodalaydigan ilmiy qarashlar sifatida ham tavsiflanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti va Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning asarlarida O‘zbekistonning soliq siyosatining konsepsiyalari sifatida bir qator taktik yo‘nalishlarini keltirib o‘tilgan. Xususan, soliq yuki, soliq preferensiyalari, soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq ma’murchilikni qo‘llash borasidagi Prezidentimizning soliq konsepsiyalari hayotda o‘z samarasini bermoqda.

6.3. Soliq siyosatining samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar

Har qanday soliq siyosatining qo‘llanilishi va uning natijalariga qarab uning samaradorligini izohlovchi ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilish soliq siyosatining strategiyasi, konsepsiya va taktikalarining qanchalik puxta ishlanganligi va uning amalga oshirilganligini bildiradi. Soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga soliq yukining pasaytirilishiga muvofiq byudjet daromadlarining ko‘payishi(yoki kamayishi), ishlab chiqarish hajmlarining oshishi(yoki kamayishi), investitsiyalarning samarasi, aholining real pul d aromadlarining oshishi (kamayishi), ist’emolning ortishi (qisqarishi), nar-xlar darajasi va shu kabi ko‘rsatkichlar kirib, bu kabi ko‘rsatkichlar amalga oshirilgan (oshiralayotgan) soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi umumiy xulosalarni beradi. Ikkinchi guruhga kiruvchi ko‘rsatkichlar esa b evosita soliq siyosatining ichki mexanizmlarining samaradorligini tavsif-laydi. Ular jumlasiga esa quyidagilar kiradi:

Soliq to‘lovchilarning miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi. Bu ko‘rsatkich muayan vaqt(bir yil)davomida jami yangidan tashkil etilgan va tugatilgan yuridik shaxslarning o‘rtasidagi nisbat bilan, jami soliq to‘lovchilar tarkibidagi miqdor va sifat o‘zgarishlarning nisbatini solishtirish orqali aniqlanadi. Soliq to‘lovchilarning miqdori va sifat o‘zgarish ko‘rsatkichlari soliq to‘lovchilar faoliyatining soliq to‘lash borasidagi samaradorligini ko‘rsatadi. Agar, soliq to‘lovchilarning soni oshgan sharoitda byudjetga soliq tushumlari va ishlab chiqarish darajasi o‘smaydigan bo‘lsa, demak, soliq siyosatining taktikalarining qaysi birlarining qo‘llanishi samara bermayotganligini ko‘rsatadi va aksincha.

Soliq yukining normal(xalqaro mezon darajada:30-35foiz) darajada saqlanishi. Soliq yukining darajasining umumiy mezonlar darajasida saqlangan holatining ishlab chiqarishning o‘sishi va soliq tushumlarining darajasiga ta’sirini baholash soliq siyosatining qanday samara berayotganligini tavsiflaydi. Yuqori soliq yuki darajasi saqlangan sharoitda ham byudjetga soliq tushumlari darajasining kamayib ketishi holati yuz berishi bu boradagi soliq siyosatining samarasizligini ko‘rsatadi.

Davlat byudjetining bajarilishi holati. Bunda davlat byudjetining bajarilishi taqchillik yoki profitsit ko‘rsatkichlari bilan amalga oshirilganligiga asoslanadi. Bunda ham davlat byudjetining bajarilishi taqchillik ko‘rsatkichlari umumiy daraja(xalqaro miqyosda normal holat deb qabul qilingan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz atrofida)daligi yoki undan baland ko‘rsatkichga egaligi soliq siyosatining yetarlicha samara bermayotganligini ko‘rsatadi. Byudjetning bajarilishi taqchillikning me’yordaligi yoki profitsit ko‘rsatkichlariga egaligi esa soliq siyosatining samaradorligini tavsiflaydi.

Soliq imtiyozlarining berilishi va ularning samara berish darajasi. Bunda soliq imtiyozlarining nima maqsadda berilganligi va ushbu maqsadga erishilganligini aniqlanadi. Bunda soliq qonunchiligi va boshqa hukumat darajasidagi qaror va farmonlarga ko‘ra berilgan soliq imtiyozlari so‘mmalarining byudjetga qaytishi, korxonalarning saqlanib qolinganligi, ish o‘rinlarining yaratilganligi, mahsulot tannarxining oshganligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshganligi, aholi ral pul daromadlarining ortganligi, investitsiya hajmining ortishi, soliq to‘lovchilar sonining oshishi, yangi tashkil etilgan korxonalarning bozorda "yashab qolishi" va raqobat muhitiga moslashib ketish darajasi va shu kabi ko‘rsatkichlar soliq imtiyozining nima maqsadda berilishiga qarab ularning samaradorligi aniqlanadi. Bu kabi ko‘rsatkichlardagi ijobiy tendensiyalar soliq imtiyozlari borasidagi davlat siyosatining samaradorligini bildiradi.

Soliq qarzdorligining darajasi. Soliq turlari va soliq to‘lovchilar guruhi(tarmoqlar, aholi tabaqalari) bo‘yicha soliq qarzdorligining darajasi ham soliq siyosatining samardorligini tavsiflaydi. Uning darajasining kamayib borishi bu boradagi soliq siyosati taktikalarining samara berayotganligini bildiradi, aksincha darajasi esa soliq siyosatining yetarlicha samara bermayotganligi ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash va thlil qilishda shuningdek, soliq qarzdorligining oshishiga ta’sir etuvchi omillarning tahliliga ham e’tibor berish bu boradagi soliq taktikalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Import va eksport operatsiyalarining umumiy hajmining darajasi. Muayan vaqt davomida import va eksport operatsiyalarning o‘sish va kamayish darajalari ham soliq siyosatining samaradorligini xarakterlaydi. Bunda boj to‘lovlarining oshishi bilangina emas, balki, import va eksport operatsiyalarida ijobiy(eksportning importdan ortiqligi) yoki salbiy farq(importning eksportdan ortiqligi)ning oshishi yoki kamayish holatlariga, milliy iqtisodiyotda yetishmayotgan mahsulotlarning ta’minlanishida import samarasi va eksport operatsiyalari bo‘yicha valyuta zahiralarining ortishi kabi ko‘rsatkichlar ham asos qilib olinadi. Bunda shuningdek, eksport mahsulotlarining diversifikatsiyalashuvi va uning tarkibiy o‘zgarish darajalari ham muhim ko‘rsatkichlardan sanaladi.

Davlat miqyosida boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro shartnomalarning soni va ularning amal qilish darajasi. Boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro shartnomalarning soni va ularning ishlashi davlatning xalqaro darajadagi soliq siyosatining samaradorligini izohlaydi. Imzolangan shartnomalarning amaliy realizatsiyasi xalqaro darajada soliqqa tortish borasidagi ishlarning ijobiy jihatlarini ko‘rsatadi. Xalqaro darajada imzolangan shartnomalarning yetarli darajada ishlamasligi xalqaro soliqqa tortish borasidagi soliq siyosatining taktikalariga o‘zgartirish kiritishni ko‘rsatadi.

Soliq tizimida maxsus soliq rejimlarining qo‘llanilishi va ularning samarasi. Soliq siyosatining samaradorligida milliy iqtisodiyot darajasida maxsus soliq rejimlari va soliqqa tortish tartiblarining qo‘llanishi oqibatida iqtisodiyotdagi ijobiy o‘zgarishlar ham soliq siyosatining samaradorligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Boshqa ko‘rsatkichlar. Soliq siyosatining samaradorligini boshqa ko‘rsatkichlar jumlasiga soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatining oshganligi, soliq xizmati organlari xodimlarining xizmat madaniyati darajasi, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq hisobotlarining o‘z vaqtida topshirilish darajasi, soliq to‘lovchilarga qo‘llanilgan jarimalarning darajasi va uning holati, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni undirish bilan shug‘ullanuvchi organlarning faoliyatidan qoniqish darajasi, xo‘jalik sudlarida soliqqa oid bahsli ishlarning ko‘rilish darajasi va shu kabi ko‘rsatkichlar kiradi ushbu ko‘rsatkichlarning darajasi ularning mazmunidan kelib chiqib, soliq siyosatining samaradorligini tavsiflaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq siyosati yo‘nalishlari, soliq siyosatini baholovchi ko‘rsatkichlar, soliq siyosatining yo‘nalishlari, soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari, soliq siyosatining aks ta’siri, soliq siyosati va boshqa siyosat shakllarining uzviy bog‘liqligi, soliq siyosati bosqichlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Soliq qarzdorligining darajasi deganda nima tushuniladi?
2. Soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillarini izohlab bering.
3. Soliq siyosati strategiyasining mohiyatini tushuntirib bering va unga ta’sir etuvchi omillarni sanab bering.
4. Soliq siyosati taktikasi nima? U qanday amalga oshiriladi?
5. Soliq siyosati konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
6. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategik va taktik yo‘nalishlarini izohlab bering.
7. Soliq to‘lovchilarning miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi deganda nima tushuniladi?
8. Soliq to‘lovchilarning miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishini tushuntirib bering.

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq siyosati strategiyasi nima?

A) Muayyan muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosa-batlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodasi.

B) Belgilangan soliq siyosati ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlar.

C) Soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.

D) Soliq siyosati konsepsiyasi

2. Soliq siyosati strategiyasiga ta’sir etuvchi omillar qaysi qatorda ko’rsatib berilgan?

A) Milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, xalqaro miqyosda o‘zaro siyosiy-iqtisodiy munosabatlarning yo‘nalishi, iqtisodiy islohotlar va maxsus iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi

B) Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq yuki, soliq taktikasi.

C) Soliq tizimidagi o’zgarishlar, bank tizimidagi o’zgarishlar, inflyatsiya darajasi va narxlar siyosati.

D) Barcha javoblar to’g’ri.

3. Soliq siyosatining elementlari nima?

A) Soliq siyosatining subyektlari, soliq siyosatini shakllantirish tamoyillari, soliq siyosatining maqsadlari, soliq siyosatining vazifalari, soliq siyosatining usullari, soliq siyosatining instrumentlari

B) Soliq konsepsiyasi, soliq strategiyasi, soliq taktikasi.

C) Soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

D) Soliq mexanizmi, soliq qonunlari, soliq kodeksi, ikkiyoqlama soliqqa tortish shartnomalari.

4. Soliq qarzdorligining darajasi deganda nimani tushunasiz?

A) Soliq to‘lovchilarning foydasi

B) Davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlari

C) Soliq to‘lovchilarning belgilangan muddatda to‘lamagan soliqlari summasi

D) Soliqlarning kamaytirilgan foiz stavkasi

5. Soliq siyosati strategiyasining mohiyati nimadan iborat va unga ta’sir etuvchi omillar qaysilar?

A) Faqat soliqlarni oshirish rejasi

B) Uzoq muddatli maqsadlar uchun yo‘nalish belgilash; iqtisodiy, siyosiy, demografik omillar ta’sir qiladi

C) Soliq yig‘ish bo‘yicha joriy rejalarni belgilash

D) Soliq xodimlarining oyliklarini ko‘paytirish

6. Soliq siyosati konsepsiyasining mohiyati nimadan iborat?

A) Soliq to‘lovchilar sonini kamaytirish

B) Soliqlarni bekor qilishga doir g‘oyalar majmuasi

C) Soliq siyosatini shakllantirishga oid asosiy g‘oyaviy yondashuvlar tizimi

D) Soliq qonunlarini e’tiborsiz qoldirish

7. Soliq to‘lovchilarning miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi deganda nima tushuniladi?

A) Soliq to‘lovchilarning geografik joylashuvi

B) Soliq to‘lovchilarning soni va iqtisodiy holatidagi o‘zgarishlar

C) Ularning ish haqi miqdori

D) Faqat yirik tadbirkorlar sonining oshishi

8. Soliq to‘lovchilarning sifat jihatdan o‘zgarishi nimani anglatadi?

A) Faqat soliq to‘lovchilarning kamroq soliqlar to‘lashi

B) Soliq to‘lovchilarning iqtisodiy salohiyati, barqarorligi va faoliyat yo‘nalishidagi o‘zgarishlar

C) Ularning doimiy yashash joyi o‘zgarishi

D) Soliq qarzlarini kamaytirish

VII-BOB. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI TAMOYILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH

7.1. Davlatning byudjet siyosati

Byudjet siyosati **–** byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta’minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat byudjeti orqali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlari yig‘indisidir.

Byudjet siyosatining asosiy maqsadi – jamiyatda yaratilgan boylik va ne’matlarning jamiyat a’zolari o‘rtasida maksimal darajada adolatli taqsimlanishini ta’minlashdan iborat

Byudjet siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjetining barqaror daromad bazalarini mustahkamlash;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini rag‘batlantirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuviga ta’sir ko‘rsatish;
- mamlakatda ijtimoiy tengsizlikka yo‘l qo‘ymaslik;
- rivojlanish istiqboli past bo‘lgan hududlarning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish;
- bu hududlardagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va shu yo‘llar bilan siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish;
- davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning sifatli va aholi ijtimoiy muhofazasining manzilli bo‘lishini ta’minlash;
- byudjet siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi maqbul byudjet mexanizmini ishlab chiqish va uning samarali ishlashini ta’minlash.

Moliyaning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan "byudjet" kategoriyasining lug‘aviy ma’nosi eski normand tilidan "bougette"-sumka, hamyon, teridan ishlangan sumka, pul saqlangan sumka kabi ma’nolarni anglatgan bo‘lsa, keyinchalik bu so‘z ingliz tiliga ham aynan "bud-get"-sumka, hamyon, portfel tushunchalarni ifodalashga va hozirgi zamonda esa davlatning daromad va xarajatlari balansi sifatida ham ishlatiladi. Byudjetning lug‘aviy ma’nosining bunday kelib chiqishi asosan XVI—XVII asrlarda Angliyada obshinlar palatasi(parlament)da qirolga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini tasdiqlash hamda davlatning daromad va xarajatlari aks ettirilgan hujjatni oshkor qilishda moliya vaziri tomonidan ushbu hujjatlarni sumka(portfel)da olib kelib uni palataga taqdim qilinishi bilan bog‘liqdir. Ya’ni, davlat daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi sumka ochilishi nazarda tutilgan

holda ingliz tilida ushbu jarayonni aks ettirish holati "bud-get"-sumka, hamyon, portfel kabi ma’nolarga ega bo‘lib qoldi. Ta’kidlash kerakki byudjet bu davlatchilikning barcha bosqichlarida mavjud bo‘lmagan. Ba’zi hollarda(ayniqcha davlatchilikning dastlabki vaqtlarida) davlat daromadlari bilan davlat boshlig‘ining daromadlari umumiy bo‘lgan, keyinchalik davlat xo‘jaligining takomillashib, davlat moliyasining manbalari sifatida soliqlar asosiy rol o‘ynay oshishi bilan davlatning o‘z funksiyalarini bajarishga qaratilgan mablag‘larni aks ettiruvchi alohida fondlar shakllantirila boshlandi. Ammo, ushbu fondlarni rejalashtirish va tasdiqlash jarayoni asosan tor doirada amal qilar edi.

Davlat moliyasini shakllantirilishi va rivojlanishida byudjet katta ahamiyat kasb eta bordi. Byudjetning yuzaga kelishining dastlabki davrlarida uni tuzishda xarajatlar va daromadlarning bo‘rttirib ko‘rsatish hollari ko‘p uchrashi, byudjetga undirilgan soliqlar va boshqa daromadlar haqida ma’lumotlar va ularni undirish bilan bog‘liq xarajatlar byudjetda aks ettirilmas edi, bunday holatlarning oldini olishi maqsadida yalpi byudjet yoki britt-byudjetni shakllantirila boshlandi. Brutto-byudjet asosan 1818 yilda Fransiyada, 1858 yilda Angliyada va Rossiyada 1863 yildan boshlab tuzila boshlandi. Brutto-byudjet o‘zida barcha daromadlar va xarajatlarni ro‘yxatga olinishi bilan avvalgi byudjetdan ajralib turadi. Unda qancha soliqlar to‘langanligi va ularning qanchasi davlat byudjetiga kelib tushayotganligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Davlat moliyasi tizimida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish jarayonining takomillashuvi keyinchalik, ya’ni XX asrda uning konsolidatsiyalashgan (jamlangan) shakli yuzaga kela boshladi, ayniqsa bu sobiq sovet ittifoqi davridagi byudjet tuzilishida o‘z aksini topdi. Konsolidatsiyalashgan yoki jamlangan byudjet bu mamlakatning barcha hududlari bo‘yicha turli darajadagi byudjetlarni hamda davlat maqsadli pul fondlarini o‘zida aks ettiradi. Konsolidatsiyalashgan byudjetning tarkibi har bir davlatning moliya siyosatidan kelib chiqib belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimida ham konsolidatsiyalashgan byudjetni tuzish va uni ijro etish amaliyotidan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (45-moddasi)ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiya-lashgan byudjeti o‘z tarkibiga Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini birlashtiradi.

Har qaysi darajadagi byudjet o‘ziga xos bir qator belgilar va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Davlat byudjetining birinchi belgisi bu uning davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ifodalashidir. Har qaysi davlatning

byudjet tizimi ushbu davlatning o‘tgan, joriy va yaqin(3-5) yillardagi iqtisodiy va sotsial sohadagi siyosatini ko‘rsatib beradi. Davlat byudjetining daromadlari uning soliq va fiskal siyosatining xususiyatlarini ko‘rsatib bersa, uning xarajatlari davlat funksiyalarining mazmunini aks ettiradi. Agar, byudjet xarajatlarida boshqaruv va mudofaa xarajatlari katta ulushni egallasa, bu davlatning ma’muriylashgan funksiyalarining kuchayganligini ko‘rsatadi, agar, ijtimoiy sohaga xarajatlarning oshishi kuzatilsa, davlatning faoliyatining ijtimoiylashuvi va uning ichki siyosatining mu’tadilligini xarakterlaydi. Shu jihatdan olganda byudjet tizimi davlat siyosatini ko‘rsatuvchi va aniqlovchi iqtisodiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat byudjetining keyingi belgisi bu rejaligidir. Har qaysi byudjet o‘zida davlatning moliyaviy faoliyatining rejasini aks ettiradi. Byudjetni rejalashtirish uning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Davlat byudjetini rejalashtirish o‘zida davlatning ijtimoiy xizmatlarining darajasini belgilab beradi, shu bilan birgalikda jamiyat miqyosida yaratilgan milliy daromadni uni yaratuvchilar va davlat o‘rtasida taqsimlanish chegarasini ham aniqlashga xizmat qiladi. Davlatning ijtimoiy xizmatlarining darajasining rejalashtirilishi unga teng(yoki boshqacha miqdorda) ravishda milliy daromadning davlat ixtiyoriga olinishini taqozo qiladi. Byudjetni rejalashtirish esa keng qamrovli jarayonlarni: soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni prognoz qilish, soliq salohiyatini aniqlash, moliyaviy potensialni aniqlash, xarajatlarning minimal miqdorini aniqlash va asoslash kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Bu esa o‘z navbatida davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshiruvchi bir qator vakolatli organlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Davlat byudjetining yana bir muhim belgisi u o‘zida davlat boshqaruvining demokratlashuvini ifodalaydi. Dunyoning aksariyat davlatlarida davlat byudjetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilishda xalq hokimiyati(parlament) hamda jamoat nazoratiga asoslanadi. Xalq vakillik organlari davlat byudjetini tasdiqlab va uning ijrosini bo‘yicha ijroiya hokimiyatlarining hisobotini tasdiqlash tartibi bu davlat boshqaruvining demokratlashuvini ko‘rsatadi. Boshqa jarayonlar(masalan, pul kredit siyosati, investitsiya siyosati va sh.k.)dan farqli o‘laroq davlat byudjeti davlat boshqaruvining demokratlashuvini o‘zida ko‘proq aks ettiradi. Davlat byudjetining yana bir muhim xususiyatlari(belgilari)dan biri shuki, u orqali davlatga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lovchilarning to‘lagan majburiy to‘lovlarining qaerga va nima maqsadda sarflanganligi ko‘rsatib berishligidir. Soliq to‘lovchilar o‘zlari to‘lagan soliqlaridan nafligi darajasini bilishi ularning soliq siyosatining mazmunini

tushunib yetishi va ularda soliq madaniyatining oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan 19-asrning oxirlaridan to hozirgi davrda ham davlat byudjetining ochiqligi tamoiyili amal qilib keladi. Davlat byudjeti mazmunan balansli bo‘lishi taqozo etiladi va bu uning muhim belgisi hisoblanadi. Ammo, davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi ehtimollikka va mavhumlikka asoslanganligi sababli jahon amaliyotida uni taqchillik bilan rejalashtirish amalga oshiriladi hamda ushbu taqchillikni qoplashning moliyaviy manbalari ham rejalashtiriladi. Davlat byudjetining xarajatlari aniq bo‘ladi, uning miqdorini oshirish qiyin emas, ammo daromadlarning aniq kelib tushishi(ba’zan xarajatlarga nisbatan ko‘proq kelib tushishi ham mumkin) aniq bo‘lmaydi, shu boisdan amaliyotda davlat byudjetining ijrosida balansli jarayon yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Davlat byudjetining balansligi belgisi shuni izohlaydiki, xarajatlar va daromadlar bir biriga daromadlarning ehtimolligini e’tiborga olgan moslashtirilishi ta’minlanadi va o‘z navbatida byudjet taqchilligini rejalashtirish va uni boshqarish (moliyaviy manbasini aniqlash)ni taqozo etadi.

Davlat byudjeti milliy daromadning bir qismini o‘zida jamlab, uni yana milliy iqtisodiyotga turlicha tarzda taqsimlab beradi. Bunda ko‘proq noishlab chiqarish sohasiga mablag‘larni yo‘naltiradi. Noishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirilgan mablag‘lar esa o‘z navbatida ishlab chiqarish sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita o‘tadi. Bu esa davlat byudjetining sohalar o‘rtasidagi nisbat(proporsiya)ni ta’minlash funksiyasini bajarishligini ko‘rsatadi. Davlat byudjetining keyingi funksiyasi milliy daromadning bir qismini qayta taqsimlash orqali ijtimoiy muvozanatni ta’minlash hisoblanadi. Davlat byudjeti orqali daromadlar qayta taqsimlanib, turli qatlamlar o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanadi, ijtimoiy himoya amalga oshiriladi, kam ta’minlangan qatlam aholi hamda iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan sohalar moliyaviy jihatdan ko‘llab-quvvatlanadi, provardida ham iqtisodiyotda, ham ijtimoiy sohada muozanatlar ta’minlanadi. Davlat byudjetining muhim funksiyalari qatoriga uning daromadlarni muvofiqlashtirish va kapitallar oqimini boshqarishdir. Davlat o‘zining moliyaviy siyosatida daromadlar va kapitalllar oqimini boshqarish (muvofiqlashtirish) orqali jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta’minlashga va iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishiga harakat qiladi. Buni esa davlat byudjeti orqali amalga oshiradi. Davlat byudjeti orqali iqtisodiy sektordan mablag‘lar ko‘proq yoki kamroq olinishi ulardagi kapitallarning harakatini hamda dav lat ixtiyoriga kelib tushgan mablag‘larning harakati boshqariladi (muvofiqlashtiriladi) Agar, iqtisodiyotda ko‘proq qoldirilgan mablag‘lar (haddan tashqari soliq yukining kamaytirilishi)da investitsiyadan ko‘ra ko‘proq

jamg‘arilishga moyillik kuchaysa, u holda davlat iqtisodiyotdan mablag‘larni ko‘proq byudjetga jalb qilish orqali ularni iqtisodiyotga qayta taqsimlashga harakat qiladi va shu orqali kapitalning qotib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, albatta bu jarayonda doimo davlat byudjeti qatnashadi. Shuningdek, davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida moliyaga tegishli bo‘lgan taqsimlash, nazorat, rag‘batlantirish hamda tartiblash funksiyalarni ham amalga oshiradi.

7.2. Soliq-byudjet siyosati usullari

Soliq-byudjet siyosati iqtisodiy siyosatning “yadrosi” hisoblanadi hamda o‘zida jamiyat institutlari va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yaqqol ifodalaydi. Aytish mumkinki, soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning bosh omilidir. Soliq-byudjet siyosatini yuritishda ikki dastak mavjud. Bular davlat daromadlari bilan xarajatlari bo‘lib, ularni bilvosita va bevosita usullar deb atash mumkin. Buni quyidagi rasm orqali ham ifodalash mumkin:



9-rasm. Soliq-byudjet siyosatini yuritish dastaklari[69]

Soliq-byudjet siyosatining bilvosita usullari bo‘lib, soliqlar va soliqsiz to‘lovlar orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish kabi tadbirlar hisoblanadi. Soliq stavkalarining o‘zgarishi, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar taqdim etish yoxud ularni bekor qilish, turli xil to‘lovlarni joriy qilish kabi bilvosita usullar orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatish mumkin, bunda soliq to‘lovchilarning moddiy qiziqishlari soliq siyosatidagi hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Soliq-byudjet siyosatining bevosita usullariga esa byudjetning xarajatlar qismi orqali ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatish kiradi. Tarmoqlarni moliyalashtirish xarajatlari miqdorini o‘zgartirish, nochor korxonalarga dotatsiyalar ajratish, subvensiyalar berish, byudjet ssudalarini

[69] Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. 112-bet

ajratish, ular bo‘yicha imtiyozlar joriy qilish, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun kafolatlar berish kabi tadbirlar soliq-byudjet siyosatining to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullari hisoblanadi. Soliq siyosati davlatning byudjet daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini oqilona sarflash uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi. Ayni paytda, soliq siyosati ishlab chiqarishni o‘stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta’minlash va kelib tushgan pul mablag‘larini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyatsiyaning past darajasini, aholining maqbul bandligini ta’minlashi zarur.

Soliq siyosati tor ma’noda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy o‘sish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini ta’minlash va ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabat-lardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ijtimoiy himoyalangan, erkin bozor iqtisodiyotini boshqarishga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi, bozor iqtisodiyotining zaruriy qismidir. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak. Buning uchun soliq munosabatlari chuqur o‘rganilib, undan ilmiy xulosalar chiqarishimiz lozim.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo‘nalishlariga katta e’tibor beriladi:

1. har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo‘jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni har tomonlama bozor munosabatlariga kirib borishiga yordamlashish;
2. Umumdavlat ijtimoiy zaruriy vazifalarni bajarish uchun davlatni zarur bo‘lgan moliyaviy manbalar, mablag‘lar bilan ta’minlash;
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlikni bartaraf etish, ishsizlarni ish bilan ta’minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish.
4. Aholi turmush darajasini zaruriy me’yorda saqlab turish imkonini izlash va ta’minlash.

Soliqlardan kompleks foydalanish xalq xo‘jaligi tarmoqlarini qayta qurishga, ishlab chiqarish infrastrukturasini yaratishga, xo‘jaliklar va aholini tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulning qadrsizlanish jarayonini (inflyatsiyasini) jilovlab turishga imkon beradi. Pulning qadrsizlanishiga qarshi choralar ko‘rish kam sarflab, topilgan daromadlarga soliq progressiyasini oshirish bilan ham amalga oshiriladi.

7.3. Soliq-byudjet siyosati tamoyillari

Soliq siyosatini amaliyotda amalga oshirish nuqtai nazaridan birlamchi vazifalar o‘rtasida to‘g‘ri muvofiqlikni aniqlash muhim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, soliq siyosati doirasida umumiy strategiyani ishlab chiqish bilan bir qatorda navbatdagi amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlarga faqat to‘g‘ri urg‘u berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bozor munosabatlariga o‘tishning muayyan bosqichi vazifalariga mos ravishda soliq-byudjet siyosati dastaklari ham o‘zgarib boradi. Milliy iqtisodiyotimizni isloh qilishning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri davlat byudjeti daromad va xarajatlari muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan.

Davlat soliq-byudjet siyosatining strategik vazifasi davlat xarajatlarini tuzilmaviy qayta qurishni, daromadlarning yangi manbalarini izlab topishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta’minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatishni yo‘naltirishdan iborat. Bunda soliq-byudjet siyosati davlatning byudjet daromadlarini byudjet xarajatlari tarkibiy tuzilishining o‘zgarishiga qarab shakllantirish, daromadlarni oqilona sarflash mexanizmini ishlab chiqish sohasidagi siyosat tushuniladi. Davlat soliq-byudjet siyosati davlat daromadlari va xarajatlarini ratsional shakllantirish, byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda mahalliy byudjetlar manfaatlarini muvofiqlashtirib turishni ta’minlashi lozim[70]. Ayni paytda, soliq-byudjet siyosati ishlab chiqarishni o‘stirishga hamda uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq siyosatining asosiy vazifasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish darajasining pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun soliq siyosati

[70] Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2005. 115-bet

sohasida soliq stavkalarini pasaytirish, yangi investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini berish, tezlashtirilgan amortizatsiyani qo‘llash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

O‘zbekistondagi soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- hukumat ijtimoiy-iqtisodiy va soliq-byudjet siyosatining o‘zaro bog‘langanligi va bir-birini to‘ldirishi;
- soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishini rag‘batlantirishga erishish hamda uni mustahkamlashga yo‘naltirilganligi;
- soliq yig‘imini oqilona usulda tashkil etish va soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini ta’minlash;
- byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilganligi.

Bir butun olgan mamlakat hukumati tomonidan o‘tkazilayotgan soliq siyosati davlat xazinasi bilan soliqlarning rag‘batlantiruvchi roli va byudjet xarajatlarining eng maqbul tuzilmasi o‘rtasidagi o‘zaro nisbatning samaradorligiga erishish imkonini yaratdi. O‘z navbatida, daromadlar bo‘yicha byudjetning barqaror va to‘laqonli ijrosi byudjetda belgilangan barcha tadbirlarni o‘z vaqtida va to‘la moliyalashtirishni ta’minlaydi. Makroiqtisodiy jihatdan esa davlatning samarali byudjet-soliq siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish va aholining real daromadlari o‘sishiga imkon beradi.

Soliq siyosati asosiga byudjetga soliq tushumlari hajmlarini soliq stavkalarini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarishni tegishli tarmoqlarini va mahsulotning ustuvor turlarini rag‘batlantirish vositasida soliq solish bazasini ko‘paytirishga imkon yaratadigan choralar hisobiga oshirish zarurligiga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliqlarning ustqurma tartibining subyektiv hodisasi sifatidagi ahamiyati davlat faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu ahamiyat doimiy harakatda bo‘lib, butun xalq xo‘jaligining manfaatlari va maqsadlarini jamlama ko‘rinishda aks ettirilgan holda davlat siyosatini o‘zgarishiga bog‘liqdir.

Soliq siyosati samarasini pasaytiradigan omillardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- narxlarning o‘sishi (haqiqatda iqtisodiyotni rag‘batlantirishga doir chora-tadbirlar nafaqat real YaMM ko‘payishiga, balki inflyatsiyaga ham olib kelishi mumkin);

- siqib chiqarish effekti: soliq stavkalarini kamaytirish milliy jamg‘armalarni qisqartiradi va investitsiyalar hajmini kamaytiradi;
- sof eksport effekti: soliqlarni qisqartirish milliy jamg‘armalar miqdorini kamaytiradi, ichki foiz stavkasini oshiradi, xorijiy sarmoyalarning qo‘shimcha oqib kelishiga olib keladi: natijada mamlakat valyutasining kursi oshadi va sof eksport miqdori qisqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, byudjet daromadlarini ko‘paytirishdagi soliq siyosatining yechimi soliq tizimi va soliq siyosati bilan bog‘liqdir.

Byudjet soliq siyosati davlatning iqtisodiy siyosatining o‘zagini tashkil etadi. Chunki, byudjet-soliq siyosati orqali davlatning sotsial, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy hatto tashqi siyosatiga ham ta’sir etiladi, ba’zi holatlarda qayd etilgan siyosatning strategik yo‘nalishlarini belgilashda ham byudjet-soliq siyosatining mazmuniga bog‘liq bo‘lib qoladi. Byudjet-soliq siyosati nima? Uning ildizi qaerga borib taqaladi?

Ta’kidlash lozimki, byudjet-soliq siyosati taqsimot munosabatlariga borib taqaladi. Sababi davlat ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga bo‘linib qolgan jamiyatni bir maromda ushlab turish uchun bu ikki soha o‘rtasida proporsiya(tenglik)ni ta’minlashi lozim bo‘ladi, aslini olganda davlatning jamiyatda sinfiy siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omili ham aynan sohalar o‘rtasidagi proporsiyani ta’minlash zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu zarurlik esa davlat tomonidan markazlashtirilgan pul fondlarini yuzaga keltirish, uning daromad manbalarini shakllantirish hamda ushbu daromadlarni noishlab chiqarish sohasi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash jarayonlarini vujudga keltiradi. Bu yerdan ko‘rinadiki, byudjet-soliq siyosatining o‘zagi milliy daromadni sohalar o‘rtasida taqsimlashning zaruriyatiga borib taqaladi.

Xulosa chiqadiki, byudjet-soliq siyosati davlat tomonidan milliy daromadni uni ishlab chiqaruvchilar va jamiyatga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davlatning vakolatli organlari o‘rtasida taqsimlash munosabatlarini qamrab oladi. Ushbu munosabatlar iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, ijtimoiy, huquqiy, psixologik munosabatlarni ham qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda byudjet siyosati deganda milliy daromadni qayta taqsimlash jarayonida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash, ushbu fondlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish(tartiblash), shuningdek, mazkur fondlarning boshqa iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq jarayonlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning maqsadli keng qamrovli chora-tadbirlari yig‘indisi tushuniladi.

Soliq siyosati deganda esa bizningcha soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini yaratish(shakllantirish) hamda ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish yuzasidan davlatning maqsadli keng qamrovli chora tadbirlari tushuniladi. Albatta, byudjet-soliq siyosatining samaradorligi uni amalga oshirishning usullari va mexanizmlari bilan bir qatorda uni ishlab chiqish tamoyillarining aniqligiga ham bog‘liq bo‘lishini ta’kidlash lozim. Ta’kidlash o‘rinliki, byudjet tizimining tamoyillari bilan byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari bir-biridan farqlanadi. Byudjet tizimi tamoyillari byudjetning tuzilishi, uni ijro etish va uni tartiblash masalalarining umumiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bersa, byudjet-soliq siyosati tamoyilari esa muayan davrga mo‘ljallangan byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish jarayonida qaysi omillarni e’tiborga olishning asosiy yo‘nalishlarini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha Respublikamizda byudjet-soliq siyosatini shakllantirishda va uni ijro etishda quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

- Iqtisodiy siyosatning ustuvorligi(soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiyalash, soliq stavkalarini bosqichma- bosqich kamaytirib borish, eksportni rag‘batlantirish, importni tartiblash, tardbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirish, milliy boylikni tejash va shu kabilar) tamoyili;
- Iqtisodiyotning holati darajasi tamoyili;
- milliy xususiyat tamoyili;
- xalqaro kelishuvlar tamoyili;
- ilmiy takliflar va soliq to‘lovchilar ruhiyati tamoyili;
- moliyaviy resurslarga ehtiyojlar tamoyili;
- milliy dasturlarni amalga oshirish tamoyili;
- hududlar rivojlanishida o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash tamoyili;
- ijtimoiy xizmatlarni minimal moliyalashtirish zarurligi tamoyili;
- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari tamoyili;
- soliq to‘lovchilarning soliq potensiali va byudjetni rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili va sh.k.

Ma’lumki, har yili navbatdagi kalendar yili uchun byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish jarayoni shakllantiriladi. Bu jarayonda eng birinchi masala hukumatimiz tomonidan milliy iqtisodiyotni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarining mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantirilish lozim. Albatta byudjet-soliq siyosatining diqqat markazida iqtisodiyotning holati darajasi ham muhim ahamiyat kasb etishi kerak.

Chunki, iqtisodiyotning umumiy darajasi soliq yukini belgilashda muhim e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan omillardan biridir.

O‘z navbatida soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq imtiyozlarini belgilashda ham iqtisodiyotning umumiy holatini e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Shu bilan birgalikda byudjet-soliq siyosatining mazmuni milliy xususiyat bilan bog‘lanishi maqsadga muvofiqdir. Milliy mintaletitni hisobga olmasdan ham byudjet-soliq siyosatini yuritish uning ijrosiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Byudjet-soliq siyosatida xalqaro kelishuvlar doirasida tuzilgan bitimlarning mazmunini ham e’tiborga olish talab etiladi, byudjet-soliq siyosatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining asoslangan natijalari hamda bevosita byudjetdan mablag‘ oluvchi va soliq to‘lovchilarning byudjet-soliq siyosati borasidagi taklif va tavsiyalarini maqbul variantlarini ham chetda qoldirmaslik o‘z mohiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari ichida moliyaviy resurslarga ehtiyojlar va soliq to‘lovchilarning soliq potensiali va byudjetni rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi tamoyillariga asoslanish uning samaradorligi yuqori bo‘lishini ta’minlashi muqarrardir. Chunki, davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan minimal ehtiyojini ta’minlanmaslik davlat tomonidan jamiyatga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning ham miqdor ham sifat jihatdan kamayib ketishiga, provardida esa, jamiyat zarar ko‘rishi mumkin, o‘z navbatida esa byudjetga soliq tushumlarini rejalashtirish, ya’ni byudjetning daromadlarining parametrlarini belgilashda soliq to‘lovchilarning soliq potensialini e’tiborga olmaslik, rejalashtirilgan byudjet daromadlarining ta’minlanmasligi oqibatda esa yuqoridagi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishishda avvalo uni ishlab chiqishning tamoyillarini to‘g‘ri belgilab olish va ushbu tamoyillarga asoslangan holda uning ijrosini amalga oshirish byudjet-soliq siyosatining samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan sanaladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Davlat byudjet siyosati, davlat byudjeti, konsolidatsiyalashgan byudjet, davlat byudjetining funksiyalari, soliq-byudjet siyosatini yuritish dastaklari, soliq-byudjet siyosatini yuritishning bilvosita usullari, soliq-byudjet siyosatini yuritishning bevosita usullari, soliq-byudjet siyosati tamoyillari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Davlat byudjet siyosati deganda nima tushuniladi?
2. Soliq-byudjet siyosati tamoyillarini izohlab bering.
3. Soliq-byudjet siyosati yuritish dastaklarini izohlab bering.
4. Soliq-byudjet siyosatini yuritishning bilvosita usullari deganda nima tushuniladi?
5. Soliq-byudjet siyosatini yuritishning belvosita usullari deganda nima tushuniladi?
6. Davlat byudjetining funksiyalariga nimalar kiradi?
7. Soliq-byudjet siyosati samaradorligini izohlab bering.
8. Soliq-byudjet siyosatini muvofiqlashtirish deganda nima tushuniladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Bir xil mohiyatga ega bo‘lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi – bu ... deyiladi.

A) Soliq siyosati;
B) Soliq tizimi;
C) Soliq strategiyasi;
D) Soliq taktikasi.

2. Soliqlar sub’ektiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;
C) Egri va to‘g‘ri soliq;
D) Mahalliy va umumdavlat soliq.

3. Soliqlar byudjetga tushishiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Egri va to‘g‘ri soliq;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;
C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;
D) Mahalliy va umumdavlat soliqlari.

4. Soliqlarni soliqqa tortish ob’ektiga ko‘ra guruhlang.

A) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliqlar;
C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar;
D) Egri va to‘g‘ri soliqlar.

5. Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab ...larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;

B) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;
C) Egri va to‘g‘ri soliq;
D) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq.

6. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?

A) 2007 yil 24 dekabr;
B) 1997 yil 24 aprel;
C) 2019 yil 30 dekabr;
D) 1997 yil 30 dekabr

7. Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab ...larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;
B) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;
C) Egri va to‘g‘ri soliq;
D) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq.

8.Quyidagilardan qaysi biri davlat byudjet siyosatining mazmunini to‘g‘ri ifodalaydi?

A) Faqat soliqlarni yig‘ish siyosati
B) Davlat tomonidan daromadlar va xarajatlarni boshqarish siyosati
C) Markaziy bankning pul-kredit siyosati
D) Soliq imtiyozlarini bekor qilish

9. Soliq-byudjet siyosatini yuritishning bilvosita usullari deganda nima tushuniladi?

A) To‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar orqali daromad yig‘ish
B) Davlat xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solish
C) Valyuta kursi o‘zgarishini nazorat qilish
D) Soliq qonunlarini kuchaytirish

VIII-BOB. SOLIQ SIYOSATINING ISHLAB CHIQILISHI VA UNDA HOKIMIYAT ORGANLARINING ISHTIROKI

8.1. Soliq siyosatining ishlab chiqilish jarayonlari

Har qaysi faoliyat, jarayon va siyosatning amal qilishining dastlabki shartlaridan biri uning tamoyillarining aniqlanishidir. Yuqoridagi paragarf-larda tamoiyllarning mohiyati va ularning jarayonlarning rivojlanishi va kechishidagi roli va ahamiyatni yoritgan edik. Soliq siyosati ham boshqa siyosat singari o‘ziga xos tamoyillarga ega bo‘lishi talab etiladi. Har qanday siyosat maqsaddan kelib, chiqsada uning boshlanishi siyosatni ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Shunga ko‘ra har qaysi siyosat, jumladan, soliq siyosati ham ma’lum bir tizimga asoslanadi.



10-rasm. Soliq siyosatining ishlab chiqilish jarayonlari.

Keltirilgan rasmdan anglash mumkinki, har qaysi siyosat avvalo davlat faoliyatida aniqlangan maqsaddan kelib chiqadi, maqsadga erishishning vositalari, usul va tamoyillarini birlashtirishgan faoliyat-siyosatni amalga oshirishni taqozo etadi. Davlatning soliq siyosatidan ko‘zlangan maqsad esa qayd etilganidek, sohalar o‘rtasida taqsimot munosabatlarini muvozanatlashtirishni ta’minlash maqsadida markazlash-tirilgan pul fondlarini shakllantirish va ularni daromad manbalari bilan ta’minlash hamda jamiyat hayotini tartiblash va muvofiqlashtirishda soliqlardan samarali foydalanishdan iboratdir. Davlatning bunday maqsadiga erishish esa soliq siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Soliq siyosati esa avvalo ishlab chiqilishi lozim.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda esa ma’lum bir tamoyillarga asoslanish zarur bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonunchiliklarda soliq siyosatining tamoyillari belgilab berilmagan(Soliq kodeksidagi soliqqa tortish tamoyillari bilan soliq siyosati tamoiyllari o‘rtasida farq mavjud). O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 7-moddasida byudjet tizimi prinsiplari va Soliq kodeksidagi

soliqqa tortish prinsiplari soliq siyosatining ishlab chiqilishidan keyingi jarayonlar bo‘lib, ular o‘zlarida byudjet-soliq siyosatining tamoyillarini qisman aks ettiradi. Demak, soliq siyosatining ishlab chiqilish va amalga oshirilish tamoyillarini ilmiy yondoshuvlarga asoslangan holda izohlaymiz.

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari[71]

№	Soliq siyosati tamoyillari	Xususiyatlari
1.	Iqtisodiy siyosatning ustuvorligi	Iqtisodiy siyosatda ustuvorlik kasb etayotgan soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiyalash, soliq stavkalarini bosqichma - bosqich kamaytirib borish, eksportni rag‘batlantirish, importni tartiblash, tardbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirish, milliy boylikni tejash, soliq ma’murchiligini soddalashtirish va soliq preferensiyalarini oshirish va shu kabilar. Ya’ni soliq siyosati iqtisodiy siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlarga mos bo‘lishi lozim.
2.	Iqtisodiyotning holati darajasiga asoslanishi	Soliq siyosati iqtisodiyotning holati (sikliligi)dan kelib chiqishi lozim, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi soliqlarning rag‘batlantiruvchilik yoki tartiblovchilikni qo‘llashning yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi.
3.	Milliy xususiyatning e’tiborga olishi	Har qanday siyosat albatta mamlakatning etnik o‘zagini tashkil etadigan xalqning milliy xususiyatlarini e’tiborga olishi talab etiladi, soliq siyosati milliy mentalitetga zid kelmasligini bildiradi.
4.	Xalqaro kelishuvlarga asoslanishi	Soliq siyosati umume’tirof etilgan qadriyatlar va xalqaro normalarga moslangan va ularni e’tiborga olingan holda bo‘lishi zarur.
5.	Ilmiy takliflar va soliq to‘lovchilar ruhiyatiga asoslanishi	Soliq siyosati ishlab chiqilayotganda jamiyat a’zolari tomonidan turli darajadagi ilmiy asosga ega bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanishi va soliq to‘lovchilarning ruhiyatini singdirishi lozim.

[71] Muallif yondoshuvi.

6.	Davlatning moliyaviy resurslarga ehtiyojini ta’minlashi	Soliq siyosatining asosiy o‘zagi sifatida davlatlaning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash bosh masala sifatida qaralib, ammo, bunday ehtiyojlar cheksizligini e’tiborga olgan holda minimal ta’minlash va uni iqtisodiyot darajasidan kelib chiqib oshirib borishga asoslanish lozim.
7.	Milliy dasturlarni amalga oshirishni e’tiborga olishi	Davlat faoliyatida jamiyatning turli sohalarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus Dasturlarni amalga oshirishni ustuvor sifatida qaralib, ularni moliyaviy ta’minlash va soliq imtiyozlari hamda preferensiyalarni kuchaytirishni taqozo etadi.
8.	Hududlar rivojlanishida o‘zaro muvofiqlikni ta’minlashi	Soliq siyosati o‘zida hududlarning rivojlanishida o‘zaro tenglik va muvofiqlikni ta’minlanish lozimligi e’tiborga olishi zarur.
9.	Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlariga asoslanishi	Soliq siyosati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini izchil amalga oshirilishiga ko‘maklashishi va uning lokomotivi sifatida bo‘lishi lozim
10.	Soliq to‘lovchilarning soliq potensiali va byudjetni rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi	Soliq siyosatining byudjetni rejalashtirishga ta’sirini baholashda va byudjetni rejalashtirish jarayonida soliq to‘lovchilarning soliq potensialiga asoslanishi zarur.

Keltirilgan ushbu soliq siyosati tamoyillari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining mazmunidan kelib chiqqan bo‘lib, shu bilan birgalikda soliq to‘lovchilarning soliq potensiali va byudjetni rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi tamoyilini ham e’tiborga olish talab etiladi. Mazkur keltirilgan soliq siyosati tamoyillari albatta o‘zgaruvchan xususiyatga ham ega bo‘lib, ularning har birini vaziyatlan kelib chiqib qo‘llash soliq siyosatining puxtaligi va uni amalga oshirish yaxshi samara berishi hamda davlatning oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda muhim qadam bo‘ladi. Har bir davlatning soliq siyosati davlatning umumiy rivojlanish yo‘nalishlariga bog‘liq holda kechadi. Ba’zi davlatlarda esa davlat boshqaruvini vaqtinchalik qo‘lga kiritgan siyosiy partiyalarning o‘z dasturlaridan kelib chiqib davlatning soliq siyosatini shakllantirishi va uning mamlakat parlamenti tomonidan rad etilishi oqibatida qayta-qayta

o‘zgartirishlar kiritish asosida amalga oshirilishi mamlakatlarning iqtisodiyotga salbiy ta’sir etish holatlari ham mavjud. Bu boradagi O‘zbekiston tajribasi esa aksariyat davlatlar tomonidan eng barqaror byudjet-soliq siyosati deb tan olinmoqda.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida unda mamlakatda joriy qilingan hokimiyat shakllari va uning bo‘g‘inlarining ishtirokini aniqlash ham katta ahamiyatga ega. Chunki, soliq siyosati bu faqatgina tegishli qonun va me’yoriy hujjatlar(dasturlar)ni ishlab chiqishgina emas, balki, aniq maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Bunday faoliyat esa hokimiyat shakllari va boshqa zvenolarning vakolatlari va majburiyatlari doirasida yuzaga chiqadi. O‘zbekistonda soliq siyosatini ishlab chiqishda Davlat hokimiyati va jamoatchilikning roli quyidagichadir:

8.2. O‘zbekiston soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasining vakolatlari (ishtiroki)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘i sifatidagi Konstitutsiyaning 93-moddasida belgilangan vakolatlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, bunda davlat soliq siyosatining strategiyasi va taktik yo‘nalishlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan takliflarini kiritishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonun tashabbuskorligi huquqidan foydalangan holda soliqqa oid qonunlar yuzasidan yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish yuzasidan Qonunchilik palatasiga takliflar kiritish huquqiga ega. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari singari soliqqa oid qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi, agar ushbu qonunlarga nisbatan e’tirozlari mavjud bo‘lsa, qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqlidir. Bulardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti soliq siyosatining konsepsiyalarini taqdim etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi ishtiroki.

Oliy hokimiyat organ hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o‘z vakolati bo‘yicha respublikada soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida belgilangan fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburiyligi normalaridan kelib chiqib,

soliqlar majburiy tartibda joriy etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq(93-modda) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish, boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish kabi vakolatlari belgilangan bo‘lib, vakolatlari belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida"gi qonunda esa uning soliq va byudjet siyosatiga oid vakolatlari va ularni amalga oshirish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan. Bunga ko‘ra soliq siyosatining boshlanishi Oliy Majlisning faoliyatidan boshlanib, shu bilan birgalikda ular joriy qilingan soliqlarning undirilish jarayonlarini ham o‘zlarining vakolatlari doirasida nazorat qiladi.

Oliy Majlis tarafidan soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi roli bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari bilan birgalikda har yilgi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va Davlat byudjeti loyihasini, unda soliq turlari va yig‘imlari bo‘yicha soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqib tasdiqlash tartibida ham amalga oshiriladi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay Qonunchilik palatasiga kiritiladigan navbatdagi moliya yili uchun Davlat byudjeti loyihasining Parlament reglamentiga asoslangan holda muhokamalaridan o‘tkazilib tasdiqlanadi. Agar, soliq siyosati(jumladan byudjet siyosati)ga oid boshqa qonunchilik loyihalarida davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko‘paytirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti (bundan buyon matnda Davlat byudjeti deb yuritiladi) moddalari bo‘yicha o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari bo‘lsa u holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi taqdim qilinishi lozim bo‘ladi. Davlat byudjetining loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti esa mazkur byudjet qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida ko‘rib chiqish uchun Senatga yuboriladi.

Agar, davlat byudjetiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan belgilangan tartibda o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishi lozim bo‘lsa, bu masala, agar bu hol byudjetni

tartibga solishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, Qonunchilik palatasining majlisida birinchi navbatda ko‘rib chiqiladi. Oliy Majlisning soliq siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroki uning parlament eshituvi va nazorati tartibidagi vakolatlari doirasidagi faoliyatida ko‘rish mumkin. Bunday vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va har yilligi belgilab beriladigan byudjet-soliq siyosatining ustuvor vazifalarining qanday bajarilayotganligi, davlat byudjeti ijrosining qanday amalga oshirilayotganligi va shu kabi masalalar tegishli (Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Bojxona qo‘mitasi va shu kabi) davlat organlarining hisobotlarini eshitish, parlament ishchi guruhlari va tegishli qo‘mita va fraksiyalari tomonidan bu masalalarni joylarda o‘rganish, vakolatlari doirasida asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so‘rovi yuborish tartibida ham amalga oshiriladi. Shu maqsadda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida soliq, byudjet, bojxona, bank hamda moliya masalalari bilan alohida shug‘ullanuvchi qo‘mita faoliyat ko‘rsatadi. Bu qo‘mitalar esa Oliy Majlisning moliya-soliq sohasiga doir siyosatini muvofiqlashtirib boradi.

8.3. O‘zbekiston Respublikasida ijro hokimiyatining soliq siyosatidagi roli

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning eng yuqori zvenosi sifatida Respublikaning boshqa sohalari kabi soliq sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida qonun tashabbuskori sifatida soliq siyosatining mazmuniga daxldor qonunlarni Oliy Majlisga taqdim etish doirasida soliq siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasining bu boradagi faoliyatining keyingi bosqichi reglamentga ko‘ra soliqqa oid qonunlarga asoslangan holda boshqa qonunosti hujjatlari(Yo‘riqnoma, Nizom, Tartiblar, Qoidalar)ni ishlab chiqishni tashkil qiladi va ularni joriy qiladi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (98-moddasiga) ko‘ra samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi hamda O‘zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi, yagona narx siyosatini o‘tkazish, mehnatga haq to‘lash miqdorining belgilangan kafolatlarini

hamda ijtimoiy ta’minot darajasini ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Shuningdek, davlat byudjetini, shuningdek, O‘zbekistonni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko‘rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi. "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi qonuniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, O‘zbekiston Respublikasi byudjetining asosiy ko‘rsatkichlarini va unga kiritiladigan o‘zgarishlarni ishlab chiqadi hamda Oliy Majlisning tasdig‘iga taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo‘mitalarining O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijalari haqida hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo‘mitalariga kelishilgan muddatda ma’lum qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi soliq siyosatiga doir o‘z vakolati doirasidagi muhim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Iqtisodiyot, jumladan soliq siyosatiga oid muhim va ustuvor masalalari bo‘yicha Hukumat qarorlari loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, ko‘rib chiqish va imzolash tartibi to‘g‘risida» 2005 yil 4 fevraldagi F-2118-son farmoyishida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan majburiy ravishda kelishib olinadi.

Soliq siyosatiga daxldor Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari loyihalari soliq siyosatini amalga oshirishga ma’sul vazirliklar, davlat qo‘mitalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq yoxud tashabbus ko‘rsatish tartibida ishlab chiqiladi. Hujjatlar loyihalarini tayyorlash manfaatdor idoralar va tuzilmalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan loyihalar belgilangan tartibda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamda majburiy tartibda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishiladi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ushbu hujjatlarda boshqa muddatlar

belgilanmagan bo‘lsa, imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasining soliq siyosatiga tegishli normativ xususiyatga ega bo‘lgan qarorlari, agar ushbu hujjatlarda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, ular rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va soliq qo‘mitasining soliq siyosatidagi roli

Davlat soliq qo‘mitasi soliq qonunchiligiga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi sifatida davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasidagi roli quyidagilarda ko‘rinadi:

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi, soliqqa oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini qisqartirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va erkinlashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini rag‘batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo‘yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo‘yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqish, to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

soliq qonunchiligi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plamlarini nashr qiladi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘radi;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan soliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va uning tarkibiga kiruvchi davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha soliq to‘lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Davlat soliq xizmati organlari o‘zlariga soliq siyosatini amalga

oshirishga oid vazifalarini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlati hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish, statistika va moliya organlari, banklar hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradilar. Davlat Soliq qo‘mitasining soliq siyosati borasidagi boshqa organlar bilan hamkorligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan soliqqa tortishning umumiy masalalari, Moliya vazirligi bilan soliqqa tortishning barcha yo‘nalishlari va davlat byudjeti yuzasidan, Davlat statistika Qo‘mitasi bilan soliq to‘lovchilarni hisobga olish, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va Bojxona Qo‘mitasi bilan import-eksport operatsiyalarini soliqqa tortish, Markaziy bank bilan soliq tushumlarini hisobga olish, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi bilan birgalikda yer solig‘i, O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi yer osti boyliklarini soliqqa tortishga oid qonunosti hujjatlarni ishlab chiqadi va kelishilgan holda tasdiqlab ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Mazkur ishlab chiqilgan me’yoriy tusdagi hujjatlarni esa Adliya vazirligidan ekspertiza va ro‘yxatdan o‘tkazadi. Adliya vazirligi soliq siyosatiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ularning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan ekspertizadan o‘tkazadi, qonunlar loyihalarini ularning mamlakatda o‘tkazilayotgan islohotlar maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi, shuningdek tadbirkorlik sub’ektlari uchun ortiqcha ma’muriy va boshqa cheklashlarni kirituvchi hamda tadbirkorlik sub’ektlarining asoslanmagan xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalarni aniqlash yuzasidan tahlil qiladi va belgilangan tartibda ro‘yxatga oladi.

O‘zbekiston Moliya vazirligining soliq siyosatini ishlab chiqishdagi ishtiroki Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda har yilgi byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, Davlat byudjetini tuzish va unda soliqlik daromadlarning tushumini prognozlashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga oid normativ-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ayrim turdagi soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq stavkalari va imtiyozlarni belgilash va shu kabi holatlarda amalga oshadi. Shu bilan birgalikda Moliya vazirligi o‘z Nizomiga ko‘ra, soliq solish va soliq maslahati bo‘yicha faoliyat sohasida qonunchilik va me’yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashadi va bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi, byudjetni muvozanatlashtirish zaruratidan kelib chiqib, soliqlar

tizimini respublikadagi boshqa daromadlarni takomillashtirish, davlat moliya mablag‘larini mustahkamlash, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati hamda fuqarolarning tadbirkorlik ishlari uchun eng maqbul moliyaviy sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, soliq maslahatchisi tizimining amal qilish mexanizmlarini ta’minlaydi.

8.5. Soliq siyosatida mahalliy davlat hokimiyati, sud-huquq tizimi va jamoatchilikning ishtiroki

Mahalliy davlat hokimiyatlari ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (115-moddasi)ga muvofiq samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va byudjet siyosati amalga oshirilish, barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi qonuniga asosan Xalq deputatlari Kengashi tomonidan o‘z hududida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash, Soliq kodeksiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni berishi mumkin.

Shuningdek, Xalq deputatlari Kengashi viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda qabul qilishi, mahalliy byudjetlarning tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda tasdiqlashni amalga oshiradi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda sud-huquq tizimi organlarining ishtiroki. Soliq siyosatida sud-huquqi organlarining ishtiroki avvalo ularning soliqlarga oid qonun hujjatlarining huquqiy norma va qoidalarga muvofiq kelishini tahlil va ekspertiza qilishda ishtirok etib ularni takomillashtirish, soliq qonunchiligiga rioya qilinishining nazoratini amalga oshirish, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o‘rtasidagi, soliqlar sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish, soliq qonunchiligining buzilishining holatlari yuzasidan javobgarlik choralarini belgilash va shu kabilar tarzda amalga oshiriladi.

Shuningdek, ularning soliq siyosatidagi ishtiroki soliqqa oid qonunchilikning mazmunini oydinlashtiruvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab

chiqadi va uni qo‘llaydi. Masalan, sud amaliyotida soliq qonunchiligiga oid bahsli masalalar vujudga kelayotganligi munosabati bilan hamda xo‘jalik sudlari tomonidan ishlarni ko‘rishda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi umumiy qismini to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi 210-sonli qarori asosan Soliq kodeksini sud amaliyotida qo‘llashni aniqlashtiruchi qaror qabul qilingan bo‘lib, bunda soliq qonunchiligini to‘g‘ri qo‘llashning yo‘nalishlari aniqlashtirilgan.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda jamoatchilikning roli. Jahon amaliyotida jumladan, O‘zbekistonda soliqqa oid qonunlarni qabul qilish jarayonida uning muhokamasida jamiyatning har bir a’zosi ishtirok etib, o‘z fikr va tavsiyalarini bildirishi, soliq qonunchiligini takomillashtirish va soliqqa tortish amaliyotiga oid jarayonlarga oid o‘z qarashlari va takliflarini Parlamentga(Oliy Majlis) siyosiy partiyalar yoki shaxsan o‘zlari bildirishi(ma’ruza tezisi shaklida), bevosita davlat vakolatli organlarga yozma yoki og‘zaki shaklda fikrlarini bildirishi, soliq amaliyotidagi mavjud to‘siqlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ma’lumotlar(mulohazalar) bildirishi mumkin. Bundan tashqari ommaviy axborot vositlarida chiqish qilish orqali ham ishtirok etishi ta’minlanadi.

Umumiy qilib aytganda soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va takomillashtirish davlat hokimiyati organlari va jamiyatning boshqa sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq siyosatida har bir vakolatli organlarning ishtiroki ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha zvenolarning faoliyatining uyg‘unlashuvi soliq siyosatining samaradorligini ta’minlaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq siyosatini ishlab chiqish, soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari, vakolatli organlar, soliq siyosatini amalga oshirish, funksiya, vazifa, strategik tamoyil, taktik tamoiyl, muvofiqlashtirish, davlat hokimiyati organlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Soliq siyosatini ishlab chiqish deganda nima tushuniladi?
2. Soliq siyosatini ishlab chiqishda vakolatli organlarga qaysi organlar kiradi?
3. Soliq siyosatini ishlab chiqishda Vazirlar Mahkamasining roli nimalarda ko‘rinadi?

4. Soliq siyosatini ishlab chiqishda Moliya vazirligining ishtirokini izohlab bering.

5. Soliq siyosatini ishlab chiqishda soliq qo‘mitasining rolini tushuntirib bering.

6. Soliq siyosatini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari nimanlardan iborat?.

7. Oliy Majlisning soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi rolini izohlab bering.

8. Soliq siyosatini ishlab chiqishda vakolatli organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish qanday amalga oshiriladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni ta'minlash kimning vazifasiga kiradi?

A) Soliq xizmati organlarining
B) Soliq to‘lovchilarning
C) Soliq agentlarining
D) Soliq maslahatchilarining

2. Soliq xizmati organlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlatning qaysi bo‘g‘imlari bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradilar?

A) Barcha javoblar asosli
B) Davlat hokimiyati mahalliy organlari
C) Davlat hokimiyati mahalliy organlari
D) Huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar

3. O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasining raisi kim tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod qilinadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi
C) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
D) O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi

4. O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari boshliqlari kim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi

C) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

D) O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi

5. O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari kim tomonidan tayinlanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi raisi

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

C) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

6. Soliq majburiyati bo‘yicha da'vo qilish muddati qancha muddatdan iborat?

A) 3 yil

B) 5 yil

C) 7 yil

D) 10 yil

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining soliq siyosatidagi vakolatlari nimadan iborat?

A) Soliq qarzdorlarini jazolash

B) Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash va islohotlarni tashabbus qilish

C) Mahalliy soliqlarni belgilash

D) Soliq tekshiruvlarini olib borish

8. Soliq siyosatini ishlab chiqish deganda nima tushuniladi?

A) Soliq tekshiruvlarini olib borish

B) Soliqlarni yashirish strategiyasini ishlab chiqish

C) Davlatning soliqlar orqali iqtisodiy-ijtimoiy maqsadlariga erishish siyosatini shakllantirish

D) Soliq organlarining jazolovchi mexanizmlarini kuchaytirish

IX-BOB. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI BO‘YICHA SOLIQ TO‘LOVCHILARGA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

9.1.Maxsus soliq rejimlari

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- aylanmadan olinadigan soliq;
- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi;
- O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonunchilikda yoki investistiya bitimlarida nazarda tutilgan investistiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

9.2.Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;
- soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

-O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

-akstiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

-yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

-benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizastiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

-lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

-oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha;

-bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shasxlarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

-markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan ob’ektlarni (joriy va kapital ta’mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga;

-alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo‘yicha turg‘un savdo shaxobchalariga;

-bozorlarga va savdo komplekslariga;

-soliq maslahatchilarining tashkilotlariga;

-auditorlik tashkilotlariga;

-notijorat tashkilotlariga, shu jumladan byudjet tashkilotlariga.

9.3.Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq to‘lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o‘tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga

o‘tish uchun soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshganda soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tadi.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so‘mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma besh kundan kechiktirmay taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar jami daromadi ko‘rsatilgan

miqdorga etgan kundan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromad summasi ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo‘lingan va ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo‘lgan kunlar soniga ko‘paytirilganda bir milliard so‘mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro‘yxatdan o‘tilgan yildan keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar, shu jumladan telekommunikastiyalar operatorlari va provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadni realizastiya qilish bo‘yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob’ektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa chiqarilgan oydan keyingi oyning sanasidan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qurilishi tugallanmagan ob’ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo‘lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida xulosa berishga vakolati bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan ob’ektlar qurilishini bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qaysi sana oldinroq kelishiga qarab import shartnomasi tuzilgan yoki tovarlar olib kirilgan (import qilingan) sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari

mavjud bo‘lgan taqdirda, ular ko‘rsatilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni yoki ushbu yer uchastkasining maydoni o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs bo‘lgan oddiy shirkat ishtirokchisi oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha oddiy sheriklik shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Bozorlar va savdo komplekslari, notijorat tashkilotlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran, byudjet tashkilotlari esa tashkil topgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik xizmatlari ko‘rsatish uchun shartnoma tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Soliqni to‘lash soliq to‘lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

❖ zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

❖ hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

9.4. Aylanmadan olinadigan soliq solish obyekti

Soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad soliq solish obyektidir.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizastiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

- mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;
- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;
- tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog‘lomlashtirish hamda xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

Soliq solish obyekti bo‘lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

✓ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

✓yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan akstiyadordan ushbu emitent chiqargan akstiyalar qaytarib sotib olinganda akstiyadorga berish;

✓yuridik shaxs tugatilganda akstiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to‘lash hisobidan yoki dividend to‘lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

4) ko‘p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo‘lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda etkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizastiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilish deb e’tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadlar jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e’tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan

ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

9.5. Aylanmadan olinadigan soliq bazasi

Hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e’tirof etiladi.

- O‘zbekiston Respublikasining davlat obligastiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligastiyalari bo‘yicha daromadlar;
- soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;
- qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;
- amortizastiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo‘shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonunchilikka muvofiq soliqlar bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;
- tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizastiya qilishdan olingan daromadlar.

Soliq solinadigan baza chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

-brokerlik tashkilotlari uchun bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

-komissiya shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga realizastiya qilingan tovar ulushida;

-turizm faoliyati sub’ektlari uchun turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga.

-tadbirkorlik sub’ektlari uchun tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadlarining 0,5 foizidan oshmagan miqdorda o‘z xodimlariga va ularning yaqin qarindoshlariga ommaviy-madaniy hamda

konstert-tomosha tadbirlariga borishi uchun chiptalar xarid qilishga doir xarajatlar summasiga;

9.6. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo‘lib hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda o‘zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o‘zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko‘rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko‘paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e’tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o‘zgarganda;
- narxlar o’zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;
- ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda ko‘rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatlarni) sotuvchi tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga bitim shartlari o’zgargan hollarda tuzatish kiritish ko’rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to’lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to’lashga o’tgan hollarda ham amalga oshiriladi.

9.7. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi[72]:

3- jadval

T/r	Soliq to‘lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to‘lovchilar, bundan 2 - 6-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar	
2.1.	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
2.2.	joylashgan joyidan qat’i nazar, tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo‘yicha	4
3.	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
4.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar	tovar aylanmasining 4 yoki yalpi daromadning 25
5.	Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar (ushbu Kodeks 337-moddasining beshinchi qismida belgilangan qoidalarni inobatga olgan holda)	3
6.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg‘armasi va “O‘zbekiston Chernobilchilari” assotsiatsiyasi bo‘lgan, umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillardagi mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo‘lmagan va nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillardagi mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilar	0

[72] O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.(yangi tahriri).

Soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashni tanlashga haqli.

Soliqni qat’iy belgilangan summada to‘lovchi soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

4- jadval[73]

T/r	Soliq to‘lovchilar	Bir yillik soliq stavkalari (mln so’mda)
1.	Jami daromadi besh yuz million so’mdan oshmagan soliq to’lovchilar	30
2.	Jami daromadi besh yuz million so’mdan yuqori bo’lgan soliq to’lovchilar	40

Turli soliq solish ob’ektlari va soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliqni to‘lashi shart.

Chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo‘lmagan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo nuqtalariga ega soliq to‘lovchilarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

9.8. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va to‘lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir. Bir oy hisobot davridir.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

❖ hisobot davri yakunlari bo‘yicha hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

❖ soliq davri yakunlari bo‘yicha soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

[73] O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.(yangi tahriri).

9.9. Qat’iy belgilangan summadagi soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashga o‘tish to‘g‘risida o‘zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda keyingi oy boshlanguniga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yangi tashkil etilgan soliq to‘lovchilar davlat ro‘yxatidan o‘tish chog‘ida qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashni tanlashga haqli.

Qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashga soliq davri mobaynida o‘tilgan taqdirda, soliq miqdori qat’iy belgilangan summani o‘n ikkiga bo‘lish va olingan natijani joriy soliq davrining yakuniga qadar qolgan oylar soniga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Agar soliq davri davomida qat’iy belgilangan summadagi soliq to‘lovchining jami daromadi besh yuz million so‘mdan oshsa, u holda qat’iy belgilangan summadagi soliq summasi bunday oshish ro‘y bergan oydan boshlab joriy soliq davrining oxiriga qadar jami daromadi besh yuz million so‘mdan ortiq bo‘lgan soliq to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda qayta hisoblab chiqiladi.

Soliq davri davomida qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishda qat’iy belgilangan summadagi soliq summasi ushbu soliqlarni to‘lashga o‘tish amalga oshirilgan oxirgi kalendar oy hisobga olingan holda to‘lanadi.

Soliq to‘lovchilar navbatdagi soliq davridan boshlab qat’iy belgilangan summada soliq to‘lashni rad etishga va o‘zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qilgan holda, aylanmadan olinadigan soliq stavkalari bo‘yicha to‘lashga o‘tishga haqli.

Qat’iy belgilangan summadagi soliqning soliq to‘lovchisidan dividendlar tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinmaydi.

Qat’iy belgilangan summadagi soliqning soliq to‘lovchisi mazkur soliq bo‘yicha va dividendlar tarzidagi daromadlarga taalluqli qism bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyatidan ozod qilinadi.

Qat’iy belgilangan summadagi soliqning soliq to‘lovchisi qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishda tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari hamda uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini hisobga olishni amalga oshirmaydi.

Qat’iy belgilangan summadagi soliqning soliq to‘lovchilari soliqni kalendar oyidan keyingi oyning o‘n beshinchi sanasidan kechiktirmay har oyda teng ulushlarda to‘laydi.

9.10. Jismoniy shaxslarning qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari

Soliqni qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘lovchi soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

5- jadval[74]

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)			
		Toshkent shahri	**Nukus shahri va viloyat markazlari** bo**‘lgan shaharlar**	**boshqa shaharlar**	**boshqa aholi punktlari**
1.	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	700 000 — 1 000 000	265 000 — 800 000		
	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	230 000 — 330 000	65 000 — 200 000		
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	230 000 — 330 000	65 000 — 200 000		
2.	Maishiy xizmatlar	230 000 — 330 000	65 000 — 200 000		
3.	Boshqa faoliyat turlari	230 000 — 330 000	65 000 — 200 000		
4.	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	200 000			
	3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	300 000			

Soliq to‘lovchi:

[74]O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1014-son

✓ bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullanganida, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘laydi, faoliyat bilan ikki va undan ortiq aholi punktlarida shug‘ullanganida esa, ushbu aholi punktlari uchun o‘rnatilgan yuqori stavkada soliq to‘lanadi;

✓ tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalarda va binoda amalga oshirgan taqdirda, yashash joyidagi soliq organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnoma (axborot) taqdim etishga majbur;

✓ I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘laydi;

✓ «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizastiya qilishni amalga oshirganida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashdan ozod etiladi;

✓ bolalar o‘yin avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatsa, har bir jihozlangan joy (birlik) uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘laydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo’yicha soliq solinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligi qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffistientlar belgilashga haqli.

Tayanch so‘z va iboralar:

Maxsus soliq rejimlari, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar, Yakka tartibdagi tadbirkor, Soliq hisoboti, soliq imtiyozlari, soliq nazorati, soliq inspeksiyasi, elektron hisob-kitob tizimi, soliq qonunchiligi.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida maxsus soliq rejimlari qachon joriy etilgan?
2. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
3. Aylanmadan olinadigan soliq nimani ifodalaydi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari qanday aniqlanadi?

6. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va to‘lash tartibi qanday?
7. Qat’iy belgilangan summadagi soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?
8. Jismoniy shaxslarning qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari qanday aniqlanadi?
9. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?
10. Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Qaysi yildan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining progressiv stavkasidan voz kechildi?

A) 2019-yildan B) 2020-yildan C) 2018-yildan D) 2022-yildan

2. Bugungi kunda mahalliy budjetlarning daromadlarini oshirish, barqarorligini ta’minlash maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining prognozdan orttirib bajarilgan qismining necha foizi mahalliy budjetlarda qoldirilmoqda?

A) prognozdan orttirib bajarilgan qismi to‘liq B) 20% C) 35% D)50 %

3. Shakllanish manbaiga ko‘ra individual daromadlarni qanday daromadlarga bo‘lish mumkin?

A) faol (aktiv) va nofaol (passiv)
B) investitsiyaviy va intelellektual
C) yuridik va marketing
D) pul va mulk

4. Olish manbai va mohiyatiga ko‘ra nofaol (passiv) daromad turlarini quyidagi qaysi yo‘nalishlarga ajratish mumkin?

A) B va C javoblar to‘g‘ri
B) investitsiyaviy va intelellektual
C) yuridik va marketing
D) faol (aktiv) va nofaol (passiv)

5. O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun jami daromad qaysi daromadlardan tashkil topadi?

A) O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan
B) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan
C) O‘zbekiston Respublikasining tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan
D) to‘g‘ri javob yo‘q

X-BOB. SOLIQ HISOBOTLARINI QISQARTIRISH VA SODDALASHTIRISH

10.1.Soliq solishni hisobga olish va hisob hujjatlari

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish hamda tizimlashtirish, shuningdek soliqlarni, yig'imlarni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini tuzish maqsadida soliq qonunchiligi talablariga muvofiq soliq to'lovchi yoki soliq agenti tomonidan hisob hujjatlarini yuritish soliq solish maqsadlarida hisobga olish deb e'tirof etiladi.

Hisob hujjatlari soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan boshlang'ich hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Soliq solish maqsadlarida hisobga olish buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asoslanadi. Buxgalteriya hisobi va hisob hujjatlarini yuritish tartibi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq zimmasiga buxgalteriya hisobini yuritish majburiyati yuklatilmagan shaxslar soliq solish maqsadlarida hisobga olishni ushbu bobga muvofiq tashkil etadi va yuritadi.

Soliq solish maqsadlarida hisobga olishga nisbatan soliq organlarining axborot tizimlaridan majburiy foydalanishga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan tartibda belgilanishi mumkin.

Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bunda hisob siyosati ixtiyoriy shaklda tasdiqlanadi va unda quyidagilar aks ettirilishi kerak:

- ❖ soliq to'lovchi yoki soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan soliq registrlarining shakli va ularni tuzish tartibi;
- ❖ unga rioya etilishi ustidan mas'ul mansabdor shaxslar;
- ❖ soliq solish maqsadlarida alohida-alohida hisob yuritish tartibi
- ❖ soliq to'lovchi tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida sarflarni xarajatlar sirasiga kiritish, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishning tanlangan usullari;
- ❖ xedjirlanadigan tavakkalchiliklarni, xedjirlanadigan va ularga nisbatan qo'llaniladigan xedjirlash vositalarini aniqlash siyosati, xedjirlash

operastiyalari, shuningdek boshqa moliyaviy tavakkalchiliklar amalga oshirilgan taqdirda xedjirlash samaradorligi darajasini baholash uslubiyati;

❖ aktivlarning har bir guruhi va kichik guruhi bo‘yicha amortizastiya normalari (hisoblash usullari).

Soliq solish maqsadlarida hisob siyosatini o‘zgartirish va unga qo‘shimchalar kiritish soliq to‘lovchi tomonidan quyidagi usullardan biri yordamida amalga oshiriladi:

✓ buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan yangi hisob siyosatini yoki uning yangi bo‘limini tasdiqlash;

✓ buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan amaldagi hisob siyosatiga yoki amaldagi hisob siyosatining bo‘limiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

Hisob siyosatini shakllantirishda soliq to‘lovchi tomonidan soliq solish maqsadlarida tanlangan hisob yuritish usullari tegishli hisob siyosati tasdiqlangan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan e’tiboran qo‘llaniladi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxs yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi soliq solish maqsadlarida hisob yuritish usullari to‘g‘risidagi qarorni o‘zi tashkil etilgandan keyingi birinchi hisobot davri davomida qabul qiladi.

Soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati kalendar yil davomida o‘zgartirilmaydi. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka yoxud soliq solish shartlariga o‘zgartirish kiritilganda va faqat ushbu o‘zgartirishlar taalluqli bo‘lgan qismida soliq to‘lovchining hisob siyosatida o‘zgartirishlar qilishga yo‘l qo‘yiladi.

10.2. Soliq solish hisobni yuritish

Soliq to‘lovchi yoki soliq agenti soliq solish maqsadlarida hisobni hisoblash usuli bo‘yicha milliy valyutada yuritadi.

Foydali qazilmalarni qazib olish uchun maxsus renta solig‘ini to‘lovchi bo‘lgan chet el investistiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq hisobini soliq solish maqsadida hisoblash usuli bo‘yicha AQSh dollarida yuritishga haqli.

Hisob hujjatlari qog‘ozda va elektron shakllarda tuziladi hamda soliq qonunchiligida belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo muddati tugagunga qadar saqlanadi.

Soliq to‘lovchi qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyati uning huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi.

Soliq qonunchiligida soliq solishning turlicha tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini bir vaqtda amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar soliq solish ob’ektlarining va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq solish ob’ektlarining va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarning alohida-alohida hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida yuritiladi.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Soliq solish ob’ektlarining va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli yordamida yuritilishi mumkin.

Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob’ektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar realizastiya qilishdan olingan tushumning umumiy summasida faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat solig‘i va akstiz solig‘ini hisobga olmagan holda realizastiya qilishdan olingan tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turlariga kiritiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob’ektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turiga kiritiladi. Bunda faoliyatning faqat bitta aniq turiga kiritish mumkin bo‘lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob’ektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning amalga oshirilayotgan barcha turlariga kiritiladi.

Maqsadli mablag‘lar oluvchi soliq to‘lovchilar ushbu maqsadli mablag‘lardan foydalanish doirasida olingan daromadlarning (qilingan xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Soliq to‘lovchilar soliq davri tugaganidan keyin o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organlariga olingan maqsadli mablag‘lardan foydalanganlik to‘g‘risida hisobot taqdim etadi. Olingan maqsadli mablag‘lardan foydalanganlik to‘g‘risidagi hisobotning shakli va uni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

10.3. Soliq hisobotini tuzish

Soliq to‘lovchining har bir soliq turi yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblarni va soliq deklarastiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga hamda soliq deklarastiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan, soliq to‘lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlari soliq hisobotidir.

Soliq hisoboti O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi.

Soliq hisoboti soliq organlariga shaxs faqat soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladigan soliqlar bo‘yicha taqdim etiladi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi.

Soliq to‘lovchining soliq hisoboti uning tanloviga ko‘ra soliq organlari tomonidan tuzilishi mumkin. Bunda soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

10.4. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shaklda qog‘oz yoki elektron shaklda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar bilan birga taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq hisobotiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishga haqli.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobotini o‘zi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shakllar bo‘yicha elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Yirik soliq to‘lovchilar, joylashgan eridan qat’i nazar, soliq hisobotini Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasiga taqdim etadi.

Soliq hisoboti blankalari soliq organlari tomonidan bepul taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi yoki pochta jo‘natmasi tarzida joylanmalar ro‘yxati bilan yuborilishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq hisobotini soliq to‘lovchi nomidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etishga haqli.

Soliq organi soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Soliq hisoboti qog‘ozda olingan taqdirda, soliq organi soliq to‘lovchining iltimosiga ko‘ra, soliq hisobotining ko‘chirma nusxasiga uning qabul qilib olingani to‘g‘risida belgi qo‘yishi va u olingan sanani ko‘rsatishi shart.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchining identifikastiya raqami ko‘rsatilgan holda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchi va uning vakolatli vakili soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlab, unga imzo qo‘yadi.

Agar soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va to‘liqligini soliq to‘lovchining vakolatli vakili tasdiqlasa, soliq hisobotida bu haqda tegishli belgi qo‘yiladi. Bunda soliq hisobotiga ushbu vakilning uni imzolashga bo‘lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Soliq hisoboti elektron shaklda taqdim etilganda vakilning uni imzolashga bo‘lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi telekommunikastiya aloqa kanallari orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Soliq hisoboti soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

O‘zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotida hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni va xatolarni aniqlagan soliq to‘lovchi ushbu soliq hisobotiga zarur tuzatishlarni kiritishi va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasining kamayishiga olib kelmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi o‘zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotiga zarur tuzatishlar kiritishga va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishga haqli. Bunda soliq hisobotini taqdim etishning belgilangan muddati o‘tgandan keyin taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisoboti muddat buzilgan holda taqdim etilgan deb hisoblanmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliq hisobotini taqdim etish muddati o‘tgunga qadar taqdim etilgan bo‘lsa, soliq hisoboti aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kun taqdim etilgan deb hisoblanadi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliqni to‘lash muddati o‘tgandan keyin taqdim etilgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi bir paytning o‘zida quyidagi shartlarga rioya etgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinadi:

❖ aniqlashtirilgan soliq hisoboti u hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan holatlar soliq organi tomonidan aniqlanganligini yoki soliq auditi tayinlanganligini bilgan paytga qadar taqdim etilgan bo‘lsa;

❖ aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgunga qadar u etishmayotgan soliq summasini va unga tegishli penyalarni to‘lagan bo‘lsa.

Aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, soliq hisobotini topshirish uchun belgilangan tartibda taqdim etiladi.

10.5. Soliq hisobotini saqlash muddati

Soliq to‘lovchilar va soliq agentlari soliq organlariga soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni ushbu hisobot taqdim etilgan yildan keyin kamida besh yil saqlashi shart.

Agar soliq to‘g‘risidagi qonunchilik soliq stavkasini qo‘llashni, to‘lanadigan soliq miqdorini, soliq imtiyozini yoki soliq chegirmasini qo‘llashni va soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirishni soliq to‘lovchining muayyan shartlarga rioya etishi bilan bog‘lasa, ushbu soliq to‘lovchi barcha tasdiqlovchi hujjatlarni mazkur shartlarning amal qilishi tugaydigan yildan keyin kamida besh yil saqlashi kerak. Bunday tasdiqlovchi hujjatlar jumlasiga, xususan, ushbu soliq bo‘yicha soliq hisoboti, unga ilova qilinadigan hujjatlar, shuningdek ko‘rsatilgan shartlarga yoki majburiyatlarga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq hisobotlari, hisobot topshirish muddati, elektron hisobot tizimi, soddalashtirilgan hisobot, soliq deklaratsiyasi, soliq nazorati, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, hisobot shakllarining optimallashtirilishi, soliq to‘lovchilarning vaqt xarajatlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Soliq hisobotini tuzish qachon joriy etilgan?
2. Soliq solish hisobni yuritish nimani ifodalaydi?
3. Soliq solishni hisobga olish va hisob hujjatlariga nimalar kiradi?
4. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi qanday?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Jismoniy shaxslar tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya qachongacha taqdim etiladi?

A) hisobot yilidan keyingi yilning 1-aprelidan kechiktirmay

B) hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay

C) hisobot yilidan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay

D) hisobot yilidan keyingi yilning 15-yanvaridan kechiktirmay

2. Rezidentga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiyani qachongacha taqdim etadi?

A) joriy yilning 1-apreliga qadar

B) joriy yilning 1-avgustiga qadar

C) joriy yilning 1-oktabriga qadar

D) joriy yilning 5-sentabriga qadar

3. Deklaratsiyada aniqlangan xatolar to‘g‘risida xabarnomani olgan soliq to‘lovchi necha kun ichida deklaratsiyaga zarur bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritishi shart?

A) 10 kun ichida B) 15 kun ichida C) 5 kun ichida D) 3 kun ichida

4. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya asosida hisoblab chiqarilgan soliqni qaysi sanasidan kechiktirmay to‘lashlari kerak?

A) 1 iyunidan B) 1 mayidan C) 1 iyulidan D) 1 aprelidan

5. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar dastlabki tarzdagi deklaratsiyani qaysi muddatda taqdim etadi?

A) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 5 kun muddatda

B) ijara shartnomasi tuzilgan kundan e’tiboran 14 kun muddatda

C) ijara sharnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e’tiboran 25 kun muddatda

D) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 20 kun muddatda

6. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida qachon to‘laydi?

A) daromad olingan oydan keyingi oyning 15-kunigacha har oyda

B) daromad olingan oydan keyingi oyning 5-kunigacha har oyda

C) daromad olingan oydan keyingi oyning 25-kunigacha har oyda

D) daromad olingan oydan keyingi oyning 10-kunigacha har oyda

XI-BOB. XORIJIY INVESTORLAR VA INVESTITSIYALAR UCHUN QULAY REJIMI, ULARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ISHONCHLI HUQUQIY HIMOYALASH

11.1.To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investistiyalar tushuniladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari hajmiga qarab, er solig‘i, mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi korxona soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.

11.2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari hajmiga qarab, er solig‘i, mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

Ushbu soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo‘llaniladi:

- yuridik shaxslar qonunchilikda belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda;

- chet ellik investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;

- yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, akstiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo‘lganda;

- chet el investistiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

- soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo‘llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestistiyaga yo‘naltirilganda.

Soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat o‘tganidan keyin bir yil o‘tmasidan oldin faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o‘z mamlakatiga o‘tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o‘rni byudjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

Ushbu shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmagan davr uchun soliqlar penyalar qo‘llanilgan holda umumbelgilangan tartibda to‘lanadi.

11.3. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investistiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig‘idan, er solig‘idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari foyda solig‘ini to‘lashdan o‘zi kiritgan investistiyalar hajmiga qarab:

3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investistiyalar uchun 3 yil muddatga;

5 million AQSh dollaridan 15 million AQSh dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investistiyalar uchun 5 yil muddatga;

15 million AQSh dollari va undan yuqori miqdordagi investistiyalar uchun 10 yil muddatga ozod etiladi.

Ushbu soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direkstiyasi o‘rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investistiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan soliq qonunchiligiga muvofiq foydalaniladilar.

11.4. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investistiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig‘idan, er solig‘idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e’tiboran hisoblab chiqariladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari foyda solig‘ini to‘lashdan o‘zi kiritgan investistiyalar hajmiga qarab:

3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investistiyalar uchun 3 yil muddatga;

5 million AQSH dollaridan 15 million AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdordagi investistiyalar uchun 5 yil muddatga;

15 million AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi investistiyalar uchun 10 yil muddatga ozod etish nazarda tutilgan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e’tiboran hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferenstiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e’tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investistiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investistiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investistiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati

tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e’tiboran qo‘llaniladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Xorijiy investor, investitsiya muhiti, investitsiya rejimi, investitsion qonunchilik, investitsiya shartnomalari, investor huquqlari, maxsus iqtisodiy zonalar, investorlar uchun imtiyozlar, iqtisodiy barqarorlik, investorlar bilan shartnoma munosabatlari

Takrorlash uchun savollar:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlariga nimalar kiradi?
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi qanday aniqlanadi?
3. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi qanday ?
4. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Qaysi omil xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratishda muhim hisoblanadi?

A) Barqaror va aniq huquqiy baza
B) Yuqori soliq stavkalari
C) Valyuta cheklovlari
D) Mulkni musodara qilish

2. O‘zbekiston qonunchiligida xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakli nimadan iborat?

A) Soliq imtiyozlari va kafolatlar berish
B) Soliq jarimalarini oshirish
C) Cheklovlarni kuchaytirish
D) Investorlarni davlat nazorati ostiga olish

3. Quyidagilardan qaysi biri xorijiy investorning huquqiy himoyasini ta'minlaydi?

A) Sud orqali investitsiyalarni himoya qilish imkoniyati
B) Mahalliy raqobatchilarni cheklash
C) Soliq yukini oshirish

D) Faoliyatni majburiy davlatlashtirish

4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlariga nimalar kiradi?

A) Faqat soliq stavkasining oshirilishi

B) Davlat tomonidan kafolatlangan imtiyozlar, yengillashtirilgan soliqqa tortish tartibi

C) Soliqdan ozod etishning umumiy asoslari

D) Faqat mahalliy qonunlarga amal qilish

5. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi qanday aniqlanadi?

A) Davlat rahbarining alohida qarori asosida

B) Har bir investor bilan alohida shartnoma tuzish orqali

C) Soliq kodeksida belgilangan tartib asosida

D) Faqat mahalliy hokimiyat qarori bilan

6. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi qanday?

A) Tadbirkorning shaxsiy murojaatiga qarab

B) Soliq organining ruxsati bilan

C) Vazirlar Mahkamasi yoki Prezident qarorlariga asosan belgilangan muddatlarda va mezonlarda

D) Istalgan vaqtda, erkin tartibda

XII-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQLAR VA YIG‘IMLAR TIZIMI. SOLIQ MUNOSABATLARINING SUB’EKTLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

12.1. O‘zbekiston Respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi

Soliq deganda soliq qonunchiligida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Yig‘im deganda byudjet tizimiga soliq qonunchiligida yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov tushuniladi, bu yig‘imning to‘lanishi uni to‘lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo‘ladi.

Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to‘lovlar, shuningdek qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo‘yish soliqlar yoki yig‘imlar jumlasiga kirmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
2) aksiz solig‘i;
3) foyda solig‘i;
4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
5^{1}) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i;
6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
7) mol-mulk solig‘i;
8) yer solig‘i;
9) ijtimoiy soliq.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi soliq qonunchiligida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imni hamda alkogol mahsulotlarini realizastiya qilish huquqi uchun yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

6- jadval

2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari prognozi[75]

mlrd so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari		**242 753,2**
1.	**Bevosita soliqlar**	**65 700,0**
1.1	Foyda solig‘i	49 704,8
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 995,2
2.	**Bilvosita soliqlar**	**98 787,4**
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	71 837,9
2.2	Aksiz solig‘i	15 480,5
2.3	Bojxona boji	11 469,0
3.	**Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i**	**20 308,4**
3.1	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	20 308,4
4.	**Dividendlar**	**34 141,2**
5.	**Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar**	**23 816,3**

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilanadi.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

1.Aylanmadan olinadigan soliq.

2.Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi.

3.Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

4.O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi.

[75] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni 4-ilovasi

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonunchilikda yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

12.2. Soliq munosabatlarining sub’ektlari va hujjatlar almashish tartibi

Soliq to‘lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining sub’ektlaridir.

Soliq organlari hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Yuborilgan hujjatlar soliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo‘natilgan sanadan e’tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo‘natilganidan so‘ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Hujjatlar soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga shaxsan mazkur hujjatlar olingan sana ko‘rsatilgan holda imzo qo‘ydirib topshirilishi mumkin.

Soliq organlari hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Bunda ushbu hujjatlar soliq organlariga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilganda jo‘natilgan kun, pochta orqali yuborilganda besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Hujjatlarning, elektron hujjat aylanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning shakllari, mazkur hujjatlarning shakllarini to‘ldirish tartibi, bunday hujjatlarni qog‘ozda yoki telekommunikastiya kanallari orqali elektron shaklda soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborish hamda olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

12.3. Soliq to‘lovchilarning huquqlari

Soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari mazkur shaxslarning soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini ushbu alohida bo‘linmalar joylashgan eri bo‘yicha bajaradi.

Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to‘lovchilar alohida bo‘linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni to‘laydi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

❖ soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar to‘g‘risida, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to‘ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish.

❖ o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish.

❖ soliq qonunchiligida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish.

❖ soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish.

❖ soliq qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash.

❖ soliq solish ob’ektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

❖ soliq qonunchiligiga muvofiq o‘z hududida o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o‘tkazish chog‘ida hozir bo‘lish.

❖ sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish.

❖ soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish.

❖ soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining soliq qonunchiligiga va soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan talablarini bajarmaslik.

❖ soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo‘lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

❖ soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli etkazilgan zararlarning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

❖ soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etish.

❖ soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o‘z vakillari orqali ifodalash.

❖ soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligida va soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta’minlanadi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.



2025-yil 1-mart holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar soni 527 290 nafar.

Shundan 14 626 tasi 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ro‘yxatdan o‘tgan.

📈 Yuridik shaxslar faoliyat turlari bo‘yicha TOP-5 sohalar:

🛒 savdo – 136,7 mingta;

🚜 qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi – 125,3 mingta;

🏭 sanoat – 57,4 mingta;

🏗️ qurilish – 28,7 mingta;

🍽️ yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 26,7 mingta.

Izoh. 9 oy mobaynida bank operatsiyalarini amalga oshirmagan va soliq hisobotlarini taqdim etmagan tijorat tashkilotlari avtomatik nofaol holatga o‘tadi.

2025-yil 1-mart holatiga faoliyat yuritayotgan YTTlar soni 284 110 nafarga yetdi.

Shundan:

83,1 % – qat’iy miqdorda daromad solig‘i to‘lovchi;

16,1 % – AOS to‘lovchi;

0,8 % – QQS to‘lovchi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida 17 341 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar ro‘yxatdan o‘tgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar qaysi sohalarda faoliyat yuritadi?



12-rasm. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar[76]

[76] Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

- chakana savdo – 136 029
- hunarmandchilik – 23 025
- maishiy xizmat ko‘rsatish – 29 372
- boshqa faoliyat turlari – 95 684

12.4. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari

Soliq to‘lovchilar:

❖ belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi.

❖ hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi.

❖ tovarlarni (xizmatlarni) realizastiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi.

❖ soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi.

❖ soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko‘rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi.

❖ soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to‘lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta’minlashi.

❖ o‘zi soliq bo‘yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to‘g‘risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo‘lsa, xabardor etishi shart.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar o‘zlari hisobga olingan joydagi soliq organlariga o‘zlarining barcha alohida bo‘linmalari to‘g‘risida va alohida bo‘linmalarga oid ilgari xabar qilingan ma’lumotlaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida alohida bo‘linma tashkil etilgan yoki mazkur ma’lumotlar o‘zgartirilgan kundan e’tiboran bir oy ichida xabar qilishi shart.

Zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o‘z vakolatlarini

amalga oshirish chog‘ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikastiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta’minlashi kerak.

Soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish obyekti deb e’tirof etiladigan ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari ko‘chmas mulk obyekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik shaxsining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko‘rsatilgan holatlarda o‘z muassislari, benefistiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma’lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida bir nechta mol-mulk obyekti mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko‘ra, xabar mol-mulk ob’ektlarining biri turgan erdagi soliq organiga taqdim etiladi.

12.5. Soliq agentlari

Zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchilar kabi huquqlarga ega bo‘ladi.

Soliq agentlari:

- soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjet tizimiga o‘tkazishi.
- soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi va soliq to‘lovchining soliq qarzi summasi to‘g‘risida bunday holatlar soliq agentiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi.
- hisoblangan va to‘langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingan va byudjet tizimiga o‘tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida yuritishi.
- soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi.
- soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning da’vo muddati mobaynida but saqlanishini ta’minlashi shart.

Soliq agentlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

12.6. Soliq to‘lovchining vakillari

Soliq to‘lovchi soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli.

Vakilning vakolatlari soliq qonunchiligiga va boshqa qonunchilikka muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta’sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonunchilikka muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini tuzilgan shartnoma yoki fuqarolik qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini fuqarolik qonunchilikka muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘la olmaydi.

Soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma qoidalaridan qat’i nazar, ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi quyidagilar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda mazkur konsolidastiyalashgan guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalashga haqli:

❖ soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek ushbu shartnomaga o‘zgartirish kiritish, shartnomaning amal

qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror va uni tugatish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda.

❖ soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhi ishtirokchi-sidan soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhi uchun foyda solig‘i bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda.

❖ soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar (harakatsizlik) xususiyati bo‘yicha ular soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning huquqlariga bevosita ta’sir qilsa.

Soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan shaxslar mazkur guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalash bo‘yicha soliq qonunchiligi bilan o‘zlariga berilgan vakolatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan shartnoma yoki berilgan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

12.7. Vakolatli organlar va soliq organlarining huquqlari

Quyidagilar vakolatli organlardir:

❖ soliq organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspekstiyalari.

❖ bojxona organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, «Toshkent-AERO» maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari.

❖ yig‘imlarni undirish funkstiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

- soliq to‘lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni (axborotni), shu jumladan elektron tarzda taqdim etishini talab qilish.
- soliq qonunchiligida belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish.
- hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan

yoki soliq solish ob’ektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirish.

- mol-mulkni inventarizastiya qilish va bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning nazorat o‘lchovlarini o‘tkazish.
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo‘lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo‘yicha muhrlash.
- soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish.
- foto- va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma’lumotlarni olish.
- tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash.
- soliq to‘lovchi hisob hujjatlarini yo‘qotgan yoki yo‘q qilgan hollarda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi o‘zida mavjud axborot, shuningdek boshqa shu kabi soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida soliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash.
- o‘zaro kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarni hisoblab chiqarishning to‘g‘riligi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan soliq monitoringini o‘tkazish.
- soliq qarzini majburiy undirish choralarini ko‘rish.
- soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va moliyaviy sankstiyalar qo‘llash.
- soliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga o‘tkazish. Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o‘tkazish sud tartibida amalga oshiriladi.
- soliq to‘lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risida sudlarga da’volar kiritish.
- hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish.
- soliq to‘lovchilarni va soliq agentlarini yozma bildirish asosida soliq organlariga ular tomonidan soliqlarni to‘lash (ushlab qolish va o‘tkazish) yuzasidan yoki soliq tekshiruvi bilan bog‘liq ravishda, shuningdek ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning bajarilishi bilan bog‘liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish.

- soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda soliq to‘lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo‘yish.
- soliq to‘lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish.
- soliq qonunchiligida belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12.8. Soliq organlarining majburiyatlari

Soliq organlari:

- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishi.
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi.
- soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar, hisoblangan va to‘langan soliqlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlashi.
- soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berishi, shuningdek o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari to‘g‘risida xabardor qilishi.
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilishi.
- soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni ijro etishida yordam berishi, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini va soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibini tushuntirishi.
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi.
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi.
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni o‘rganishi.

- davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizastiya qilishdan pul mablagʻlarining toʻliq va oʻz vaqtida tushishini nazorat qilishi.
- masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq toʻgʻrisidagi qonunchilikning buzilishi faktlari boʻyicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi.
- oʻz vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operastiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi.
- soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta'minlashi.
- soliq toʻlovchining talabiga binoan soliqlarni toʻlash boʻyicha soliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi.
- soliq qonunchiligiga muvofiq soliq qarzi summasini soʻzsiz undirishi.
- yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq toʻlovchilarning identifikastiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va roʻyxatdan oʻtkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma'lum qilishi.
- soliq toʻlovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qoʻyilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani berishi.
- soliq toʻgʻrisidagi qonunchilikni qoʻllash masalalari yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

Soliq organlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.

Bojxona organlari tovarlarni va avtotransport vositalarini Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib oʻtish chogʻida bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilikka, soliq qonunchiligiga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq soliqlar va yigʻimlarni undirish boʻyicha huquqlardan foydalanadi hamda vazifalarni bajaradi.

Yigʻimlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlarning huquqlari hamda majburiyatlari soliq qonunchiligiga va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Vakolatli organlar tomonidan olingan soliq toʻlovchi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar soliq sirini tashkil etadi, quyidagilar soliq sirini tashkil etmaydi:

- hamma foydalanishi mumkin boʻlgan, shu jumladan egasining roziligi bilan shunday foydalanish imkoni yaratilgan ma'lumotlar.
- soliq toʻlovchining identifikastiya raqami toʻgʻrisidagi ma'lumotlar.

- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari va bu qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

- soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llaniladigan soliq rejimlari va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yilganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

- to‘langan soliqlarning va soliq qarzining summalari haqidagi ma’lumotlar.

- yuridik shaxsning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

- xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

- moliyaviy hisobot ma’lumotlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Soliq siri davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlar tomonidan oshkor etilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Soliq sirini oshkor etish jumlasiga, xususan, soliq to‘lovchining tijorat sirini (ishlab chiqarish sirini) tashkil etuvchi va davlat organining mansabdor shaxsiga, jalb etilgan mutaxassisga yoki ekspertga ular o‘z majburiyatlarini bajarishi chog‘ida ma’lum bo‘lib qolgan axborotdan foydalanish yoki uni boshqa shaxsga berish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning soliq organlariga yoki boshqa tegishli organlariga soliq to‘lovchi to‘g‘risida so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etish soliq sirini oshkor etish sirasiga kirmaydi.

Davlat organlariga kelib tushgan soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar maxsus saqlash va foydalanish rejimiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan mansabdor shaxslar foydalanish huquqiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlarning yo‘qotilishi yoki bunday ma’lumotlarning oshkor etilishi qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Soliq qonunchiligi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasarrufidagi, soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadigan va ularga ishlov beradigan tashkilotlar tomonidan olingan ma’lumotlarga, shuningdek mazkur tashkilotlarning xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq munosabatlari sub’ektlari, soliq huquqlari va majburiyatlari, soliq to‘lovchining majburiyatlari, byudjetga tushumlar, soliq hisobotlari, soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish, soliq qonunlari va tartib-qoidalari

Takrorlash uchun savollar:

1.Soliq munosabatlarining sub’ektlari va hujjatlar almashish tartibi qanday belgilangan?

2.Soliq to‘lovchining vakillari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

3.Soliq to‘lovchilarning qanday huquqlari mavjud?

4.Soliq to‘lovchilarning qanday majburiyatlari belgilangan?

5.Soliq agentlari bo‘lib kimlar hisoblanadi ?

6.Soliq organlarining majburiyatlari qanday?

7.Vakolatli organlar va soliq organlarining huquqlari nimalardan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliqlar sub’ektiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;

B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;

C) Egri va to‘g‘ri soliq;

D) Mahalliy va umumdavlat soliq.

2. Soliqlar byudjetga tushishiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Egri va to‘g‘ri soliq;

B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;

C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;

D) Mahalliy va umumdavlat soliqlari.

3. Soliqlarni soliqqa tortish ob’ektiga ko‘ra guruhlang.

A) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;

B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliqlar;

C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar;

D) Egri va to‘g‘ri soliqlar.

4. Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab ...larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;

B) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;

C) Egri va to‘g‘ri soliq;

D) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq.

5. To‘g‘ri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating?

A) QQS, aktsiz solig‘i;

B) Foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i;

C) Aylanmadan soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, aktsiz solig‘i;

D) Bojxona bojlari, Aylanmadan soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

6. Qaysi qatorda mahalliy soliqlar keltirilgan?

A) Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i;

B) QQS, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i,;

C) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliq, aktsiz solig‘i, yer solig‘i;

D) foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, YST.

7. Soliq munosabatlarining subyektlari va hujjatlar almashish tartibi qanday belgilanadi?

A) Soliq kodeksi va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan

B) Og‘zaki kelishuv asosida

C) Soliq xodimining qarori asosida

D) Bank nizomlari orqali

8. Soliq to‘lovchilarning qanday huquqlari mavjud?

A) Faqat soliq to‘lashdan bosh tortish

B) Soliqlarni yashirish

C) Soliq imtiyozlaridan foydalanish va qonunchilikka muvofiq e’tiroz bildirish

D) Soliq xodimlarini jazolash

9. Soliq to‘lovchilarning qanday majburiyatlari belgilangan?

A) Faqat soliq organlariga shikoyat qilish

B) Soliq solinadigan ob’ektlarni yashirish

C) Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqlarni vaqtida to‘lash

D) Har yili nomzodlik dissertatsiyasi yozish

XIII-BOB. SOLIQ QONUNCHILIGINI SODDALASHTIRISH VA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI

13.1.Davlat soliq xizmati organlarining huquqlari

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni ta’minlash.

-soliqlarning soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘liq hamda o‘z vaqtida tushishini ta’minlash.

-soliq to‘lovchilarni va soliq solish ob’ektlari o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, ularning to‘liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish.

-soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha tahlil qilish va ta’sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta’sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig‘ilishini oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish.

-pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta’minlash.

-soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga o‘tish yo‘li bilan amalga oshirish.

-soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish.

-soliqlarning ixtiyoriy ravishda to‘lanishini ta’minlashga qaratilgan, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni takomillashtirish.

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag‘batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferenstiyalar berishga doir qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish.

-bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish.

-davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan davlat byudjetini shakllantirish masalalari bo‘yicha hamkorlik qilish.

-yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operastiyalarini amalga oshirish chog‘ida qonunchilikka rioya etilishi ustidan o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish.

-kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirish, korrupstiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta’minlash.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- soliq to‘lovchilarda moliyaviy hujjatlar, shartnomalar (kontraktlar), rejalar, smetalar, daromadlar haqidagi deklarastiyalar hamda soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarning, shu jumladan elektron hujjatlarning, shuningdek eksport-import operastiyalari bilan bog‘liq hujjatlarning tekshiruvlarini o‘tkazish.

- soliq tekshiruvi o‘tkazayotganda:

daromadlar olish uchun soliq to‘lovchilar tomonidan foydalanilayot-gan yoxud soliq solish ob’ektlarini saqlab turish bilan bog‘liq hududni, ishlab chiqarish binolari, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan joylarni ko‘zdan kechirish.

-mol-mulkni inventarizastiya qilish va bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining nazorat o‘lchovlarini o‘tkazish.

-kassalarni hamda tovar-moddiy boyliklar va hujjatlar (shu jumladan elektron tarzidagi) saqlanadigan joylarni muhrlab qo‘yish.

-soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash bilan bog‘liq hujjatlarni talab qilib olish.

hujjatlarni (ko‘chirma nusxalarni, shuningdek asl nusxalarni), shu jumladan elektron hujjatlarni, shuningdek predmetlarni (tovarlar, buyumlar, xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalarini) olib qo‘yish. Soliq to‘lovchining faoliyatini to‘xtatib qo‘yishga sabab bo‘ladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo‘yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

-soliq to‘lovchidan, shuningdek soliq to‘lovchining rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxslardan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirishlar olish.

-tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash.

-soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilish.

-O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligida va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

- savdo, tovarlarni berish va pullik xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga, shuningdek naqd pul tushumining bankka o‘z vaqtida topshirilishiga rioya etilishini tekshirish.

- soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotganda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma’lumotlardan foydalanish.

-soliq to‘lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo‘qotilgan yoki yo‘q qilingan taqdirda, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan soliqlar summasini soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi, shuningdek unga o‘xshash boshqa soliq to‘lovchilar haqidagi o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilish orqali mustaqil ravishda aniqlash.

-soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati mobaynida soliqlarni hisoblash yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko‘rib chiqish.

-soliqlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlarini soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘z vaqtida o‘tkazilishi yuzasidan nazorat qilish.

-soliq tekshiruvini o‘tkazishga soliq to‘lovchi tomonidan to‘sqinlik qilingan yoki soliq to‘lovchi daromadlar olish uchun foydalanayotgan yoki soliq solish obyektini saqlash bilan bog‘liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko‘zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining

mansabdor shaxslarini kiritish rad etilgan hollarda, banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish yuzasidan sud tartibida choralar ko‘rish.

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishni kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bank hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarini besh bank kunigacha bo‘lgan muddatga vaqtincha to‘xtatib turish.

-soliq to‘lovchi qayd etilgan manzilda bo‘lmagan, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisoboti va moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo‘yicha tafovutlarning asoslari yoki aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmagan hollarda banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish. Soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror vujudga kelguniga qadar banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalar to‘xtatilgan shart-sharoitlarni o‘z ichiga olishi kerak.

- qonunchilikda belgilangan tartibda:

soliqlarga oid huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni ko‘rib chiqish hamda yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralarini qo‘llash. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga nisbatan moliyaviy jazo choralari sud tartibida qo‘llaniladi.

-ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazo choralarini qo‘llash.

-soliqlarga oid huquqbuzarliklarning aniqlangan faktlari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda davlat daromadiga o‘tkazish. Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o‘tkazish sud tartibida amalga oshiriladi.

-soliq to‘lovchilarning g‘ayriqonuniy ravishda olgan mablag‘larini davlat daromadiga undirish haqida ularga nisbatan sudda da’volar qo‘zg‘atish.

-soliq to‘lovchiga majburiyatini bajarishi zarurligi haqida hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko‘riladigan choralar to‘g‘risida talabnoma yuborish.

-soliq to‘lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e’tiboran o‘n kun ichida yozma ariza, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuboriladigan ariza bermagan taqdirda, soliqlarning ortiqcha to‘langan summalarini boshqa turdagi soliqlar bo‘yicha soliq qarzini, penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olishni amalga oshirish to‘g‘risida tegishli moliya organlariga mustaqil ravishda xulosa taqdim etish.

-O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligida belgilangan hollarda, agar hujjatlar chet tilida tuzilgan bo‘lsa, ularning notarial tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasini talab qilish.

-taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, joriy to‘lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qayta hisoblash.

-bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig‘imlar, ijara haqi to‘liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to‘lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar o‘tkazish.

-bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqbuzarliklar sodir etilganligi faktlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruvlar o‘tkazish, ular bo‘yicha jinoyat ishlari qo‘zg‘atish, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish.

Davlat soliq xizmati organlari ushbu Qonunda va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan o‘zga huquqlarga ham egadirlar.

Davlat soliq xizmati organlari davlat statistika, axborot, arxiv, ma’lumot va boshqa tashkilotlarining soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlarni berish yuzasidan ko‘rsatadigan xizmatlari (bajaradigan ishlari) uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi.

13.2. Davlat soliq xizmati organlarining majburiyatlari

Davlat soliq xizmati organlari:

-soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi, shuningdek fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi hamda o‘z vaqtida kiritilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishi.

- soliq to‘lovchilarning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishi.

- soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar, hisoblab chiqarilgan va to‘langan soliqlarning to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini, shuningdek jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibiga rioya etishlari yuzasidan nazoratni ta’minlashi.

- soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotganda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlarini ma’lum qilishi, shuningdek tekshirishlarni tartibga solishga doir qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi.

- soliq to‘lovchilarga o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risida ma’lum qilishi.

- soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini o‘z vaqtida etkazishi.

- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi faktlarini yig‘ishi, tahlil etishi va baholashi hamda soliqlarga oid huquqbuzarliklarga yo‘l ochib berayotgan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida tegishli organlarga takliflar kiritishi.

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqlarga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi.

- soliqlar to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlar va boshqa axborotni tekshirishi.

- davlatga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga meros huquqi bo‘yicha o‘tgan xazinalar va mol-mulkning hisobini yuritishi, ularni baholashi hamda ularning o‘tkazilishini nazorat etishi.

- davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkning realizastiya qilinishidan olingan pul mablag‘larining davlat daromadiga to‘liq va o‘z vaqtida tushishi yuzasidan nazorat olib borishi, shuningdek davlat organlariga tekin o‘tkazilgan mol-mulk hisobini olib borishi.

- masalani hal etish davlat soliq xizmati organlarining vakolat doirasidan chiqqan hollarda, qonunchilik buzilganligi faktlariga doir materiallarni prokuratura, ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati organlariga va sudlarga topshirishi.

- valyuta hamda eksport-import operastiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga soliq to‘lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirishi.

- soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonunchilikka muvofiq sir tutilishiga rioya etishi.

- o‘z bo‘ysunuvidagi bo‘linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi.

- soliq to‘lovchining talabiga binoan soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatlarining ijro etilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishi.

- soliq to‘lovchining debitoriga uning kreditorlik qarzi borligi haqida imzolash uchun soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini va kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma bildirish, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali bildirish yuborishi.

- ortiqcha to‘langan soliq summasini mazkur soliq turi bo‘yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga soliq to‘lovchining arizasisiz mustaqil ravishda hisobga olishi hamda bu haqda hisobga olish amalga oshirilgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida soliq to‘lovchini yozma shaklda, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor etishi.

- qonunchilikka muvofiq soliq qarzi summasini so‘zsiz undirishi.

- undiruvni soliq to‘lovchiga uning debitorlaridan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan summaga qaratishi.

- yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlarini, yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga qo‘yishi, shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalariga ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lovchilari sifatida tegishli davlat maqsadli jamg‘armalari to‘lovchilari bo‘lgan sub’ektlar uchun hisobga olishi, ularga soliq to‘lovchining identifikastiya raqamini berishi hamda bu raqamni statistika va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarga rasman ma’lum qilishi.

- davlat soliq xizmati organlarida hisobda turmagan soliq to‘lovchilar aniqlangan taqdirda, ularga belgilangan tartibda hisobga turish to‘g‘risida talabnoma taqdim etishi.

- jismoniy shaxsning doimiy yashash joyi o‘zgargan taqdirda, mazkur soliq to‘lovchiga taalluqli barcha materiallarni uning yangi yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga topshirishi.

- soliq to‘lovchining talabi bo‘yicha mazkur soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani, shu jumladan o‘zgarishlar kiritilgan hisob ma’lumotlari ham ko‘rsatilgan holdagi ma’lumotnomani berishi.

- shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilishda soliq to‘lovchining talabiga binoan soliq hisobotining

ko‘chirma nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to‘g‘risida belgi qo‘yishi, soliq hisoboti telekommunikastiya tarmoqlari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda esa, soliq to‘lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnoma yuborishi.

- soliq to‘lovchilarni hisobga olish ma’lumotlari, shuningdek ularning moliyaviy hisobotlari to‘g‘risidagi axborotni kredit byurolarining so‘roviga ko‘ra taqdim etishi.

- soliq qarzi bo‘lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo‘yilgan va uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo‘rlari to‘g‘risida axborot olingan paytdan e’tiboran o‘ttiz kun ichida merosxo‘rlarga soliq qarzi borligini ma’lum qilishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘ladi.



13-rasm. Soliq organlarining 2025 yil I chorakda byudjetga tushumlari[77]

Soliq organlari tomonidan 2025-yilning I-choragida respublika bo‘yicha budjetga 48,2 trln so‘m tushumlar ta’minlandi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,6%ga ko‘p.

Soliq turlari kesimida tushum (2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish):

- foyda solig‘i — 11,8 trln so‘m (📈 22%);

[77]Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

- QQS — 9,8 trln so‘m — (📈 17,1%);
- JShODS — 9,3 trln so‘m — (📈 20,3%);
- aksiz solig‘i — 4,5 trln so‘m — (📈 31,2%);
- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq — 4,3 trln so‘m (📈 25,2%);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va soliqsiz tushumlar* — 3,6 trln so‘m (📈 35%);
- yer solig‘i — 2,1 trln so‘m (📈 11,1%);
- mol-mulk solig‘i — 2,1 trln so‘m (📈 21,1%);
- AOS — 0,7 trln so‘m (📈 18,4%).

*Soliqsiz tushumlar bu davlat boji, jarimalar, yig‘imlar.

13.3. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

Davlat soliq xizmati organlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko‘maklashishlari shart.

Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar, o‘tkazilayotgan tekshiruvlar to‘g‘risida o‘zaro kelishuv bo‘yicha aniqlanadigan tartibda bir-birini xabardor qiladi, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda xabardor qiladi, shuningdek o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Soliq to‘lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlash maqsadida banklar:

❖ xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar.

❖ xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, bunday sub’ektlarning hisob-kitob raqamlari va boshqa hisobvaraqlarini sudning qaroriga binoan yopadilar.

❖ davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchi mijozlardan belgilangan muddatda to‘lanmagan soliqlar va jarimalarni so‘zsiz undirish to‘g‘risidagi farmoyishlarini, inkasso topshiriqlarini mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lashga doir, shuningdek hayot va sog‘liqqa etkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag‘lari o‘tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo‘yicha mutanosib ravishda bajaradilar.

❖ soliq to‘lovchi mijozning mablag‘lari bo‘lsa, uning hisob-kitob yoki boshqa hisobvarag‘idan mablag‘larni hisobdan chiqarish operastiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini byudjet daromadiga o‘tkazadilar.

❖ soliq to‘lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag‘lari berish, o‘tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir operastiyalarni davlat soliq xizmati organlarining yozma talabi bo‘yicha to‘xtatib qo‘yadi. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib qo‘yish sud tartibida amalga oshiriladi.

❖ davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga:

-yuridik shaxslarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlari.

-jismoniy shaxslarning depozit va boshqa hisobvaraqlari bo‘yicha amalga oshirilgan operastiyalarni tekshirish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadilar.

❖ davlat soliq xizmati organlarining so‘rovnomasiga ko‘ra ularga so‘ralayotgan davr mobaynida soliq to‘lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operastiyalar va ana shu hisobvaraqlarda pul mablag‘larining bor-yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadilar.

❖ davlat soliq xizmati organlarining so‘rovnomasiga ko‘ra eksport-import kontraktlarining ijrosiga doir ma’lumotlarni va qonunchilikda belgilangan boshqa axborotni taqdim etadilar.

❖ olti oy mobaynida, savdo va savdo-vositachilik korxonalari esa uch oy mobaynida bank hisobvaraqlari bo‘yicha pul operastiyalari o‘tkazish bilan bog‘liq moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi munosabati bilan korxonalarning hisobvaraqlari yopilgan sanadan e’tiboran ularning faoliyatni davom ettirishi maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish uchun axborotni ularni hisobga olgan joydagi davlat soliq xizmati organiga uch ish kuni mobaynida taqdim etadilar.

❖ qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat soliq xizmati organlariga boshqa axborotni ham taqdim etadilar.

Banklar soliq to‘lovchi mijozlarning soliqlar, shuningdek jarima summalarini o‘tkazish haqidagi topshiriqlarini bajarishni kechiktirishi taqiqlanadi.

Bank aybi bilan soliq to‘lovchi mijozning yoki davlat soliq xizmati organining soliqlarni o‘tkazish haqidagi topshirig‘i bajarilmagan, bajarish kechiktirilgan taqdirda bank va boshqa moliya-kredit tashkilotidan har bir kechiktirilgan kun uchun o‘tkazilmagan soliqlar summasining 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida davlat hokimiyati vakili hisoblanadilar. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining soliq haqidagi qonunchilikka rioya qilish xususidagi talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.

Hech kim davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishlariga to‘sqinlik qilinish, ularning o‘z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha’ni va qadr-qimmatini haqoratlash, ularga qarshilik ko‘rsatish, tahdid qilish, zo‘ravonlik qilish yoki ularning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga tajovuz qilish qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

13.4. Uchastka soliq inspektori

Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob’ektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash maqsadida davlat soliq xizmati organlarida uchastka soliq inspektorlari lavozimi tashkil etiladi. Uchastkalarning chegaralari, shuningdek uchastka soliq inspektorlarining soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan normativlar bo‘yicha belgilanadi.

Uchastka soliq inspektorlari o‘zlariga biriktirilgan uchastkada mol-mulk solig‘i va er solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajaradilar hamda ular tegishli soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashlarini nazorat qiladilar.

13.5. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining raisi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bo‘limlarining boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalaridagi ichki audit, shuningdek shaxsiy xavfsizlik bo‘limlarining mansabdor shaxslari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi boshlig‘i va boshliq o‘rinbosarlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi bo‘limlarining boshliqlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasining shaxsiy xavfsizlik bo‘limi mansabdor shaxslari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspekstiyalarining boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining buyrug‘i bilan tayinlanadi.

13.6. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining maxsus unvonlari

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga egallab turgan lavozimi va ish stajiga muvofiq quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

- soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi.
- soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi.

- soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi.
- soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi.
- soliq xizmatining I darajali maslahatchisi.
- soliq xizmatining II darajali maslahatchisi.
- soliq xizmatining III darajali maslahatchisi.
- soliq xizmatining I darajali inspektori.
- soliq xizmatining II darajali inspektori.
- soliq xizmatining III darajali inspektori.
- soliq xizmatining inspektori.

Maxsus unvonlarni berish va ulardan mahrum qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq qonunchiligi, qonunchilikni soddalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar, soliq ma'murchiligi, soliq nazorati, soliq to‘lovchilarning huquqlari, shaffoflik va ochiqlik, fiskal siyosat, soliq hujjatlarining elektron shakli, profilaktika va tushuntirish ishlari

Takrorlash uchun savollar:

1.Davlat soliq xizmati organlarining huquqlari nimalardan iborat?

2.Davlat soliq xizmati organlarining majburiyatlarini tushuntirib bering?

3.Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi nimalardan iborat?

4.Uchastka soliq inspektori bo‘lib kimlar hisoblanadi?

5.Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash qanday amalga oshiriladi?

6.Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining maxsus unvonlarini tushuntirib bering?

XIV-BOB. SOLIQ SIYOSATIDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH MASALALARI

14.1. Soliqlarni prognozlashtirish jarayoni va uni amalga oshirish

Tabiat va jamiyatda yuz beradigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayon(hodisa, voqeylik)larning rivojlanish xususiyatlari va ularning kelgusidagi holatini aniqlashning shakllari sifatida ilmiy jamoatchilik o‘rtasida gipoteza, prognoz va reja kabi shakllari tan olinadi. Jarayonlarni oldindan ko‘ra (ayta) olishning ushbu shakllari ilmiy-tadqiqot metodologiyasida ham muhim o‘rin tutadi.

Gipoteza qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib "ὑπόθεσις"-"taxmin" degan ma’noni bildirib, tabiat va jamiyatdagi jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda muhim metodologik vazifani o‘taydi. Faylasuflar va ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug‘ullanuvchi olimlarning umumiy fikriga ko‘ra, gipoteza haqiqat va yolg‘onning o‘rtasida mavjud bo‘lib, unga asoslangan yoki uni qo‘llash natijasida olingan natijalarga qarab u haqiqatga yoki yolg‘onga aylanadi. Shu bilan birgalikda, gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonlarida boshqaruvchi rolni ham o‘ynaydi va u ilmiylik xususiyatlari bilan qorishib ketadi. Gipoteza shu tufayli ham tabiat va jamiyatdagi ro‘y beradigan hodisa va voqelik hamda munosabatlarning kelgusidagi holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Gipotezaning qo‘yilishi esa ilmiylikka undaydi va shu orqali u prognoz tushunchasi bilan bog‘lanib ketadi. Prognoz esa ta’kidlab o‘tganimizdek, gipotezalarga tayangan holda ilmiy-qonuniyatlarga asoslanadi. O‘rganilayotgan jarayonning kelgusidagi holatini aniqlashda ularni birga qo‘llash muhim uslubiy yo‘llanmalarni beradi va ular birgalikda rejalarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Prognozlashtirish boshqaruv tizimining muhim va zaruriy elementi hisoblanadi. Prognozalashtirish natijasida boshqaruv jarayonida boshqaruv obyektining kelgusidagi holati va unga ta’sir etuvchi omillarning yo‘nalishlari aniqlanadi. Boshqaruvni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadning erishishning taktik yo‘nalishlari va unga o‘zgartirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Rossiyalik iqtisodchi olim N.N. Moisevning ta’kidlashicha,[78] har qanday iqtisodiy obyektni prognozlashtirish uchta xususiyatga: tizimlilik, ob’ektivlilik va bilish mumkinlik kabilarga ega bo‘ladi, shu jihatdan, har qaysi obyektni prognozlashtirish jarayoniga

[78] Моисеев Н.Н. Избранные труды (в 2-х томах). Т.2. Междисциплинарные исследования глобальных проблем. – М.: Тайдекс Ко, 2003. – 64 с.

fundamental nuqtai nazardan qarashga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiyotda obyektiv ravishda yuz beradigan jarayon va hodisalar mohiyati va o‘rniga qarab murakkabliligi bilan farqlanadi. Ushbu jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlash o‘z-o‘zidan ham shunday maqomda bo‘ladi. Iqtisodiy nazariyalarda bunday jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlashga doir yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi, provardida esa murakkablik va xaos (tartibsizlik) nazariyalari vujudga keldi.[79]

Murakkablik nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy jarayonlarni prognozlash-tirish murakkabligiga qarab rivojlanadi va prognoz natijalarining obyektivligi ham past bo‘ladi. Ushbu nazariyaga muqobil ravishda "Xaos nazariyasi" tarafdorlari esa, murakkab hodisalarni prognoz qilish natijalarida variantlarning eng ishonchlisini tanlash munosabatlariga katta e’tibor beradi. Ushbu nazariyada murakkab hodisalarni prognoz qilishda obrazlar ssenariyasi va trendlar ssenariyalarga asoslanish lozimligi ta’kidlanadi. Ba’zi bir nazariy qarashlarda, masalan, V.Kolpakovning fikricha, har qanday obyekt doirasidagi prognoz jarayonida eng muhim narsa aniqlik darajasini belgilovchi-risklarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Risklar va tashqi omillarni baholash iqtisodiy noaniqlik darajasini belgilab beradi, risklar omillarning teskari ta’sirini kuchaytiradi.[80] Qayd etilgan nazariyalarga ko‘ra, har qanday iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish variantlarning muqobilligini to‘g‘ri tanlashga, iqtisodiy obyektning ichki xususiyatida va to‘satdan yuz beradigan hodisalarni to‘g‘ri baholashga, qolaversa, har qanday iqtisodiy obyektni prognozlashda murakkab jihatlarni oddiylikdan farqlashni, o‘z navbatida, qo‘llaniladigan yondoshuvlarni ajrata olishdan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur.

Har qanday iqtisodiy faoliyat qilingan xarajatlar va uning natijalarini baholashga, boshqacha so‘z bilan aytganda faoliyatni tahlil qilish va prognozlashtirishga asoslanadi. Biroq, iqtisodiy faoliyat murakkab iqtisodiy makonda kechadi, iqtisodiy fanlar, jumladan, iqtisodiy prognoz qilishning asosiy vazifalaridan biri ham oldindan aniqlash qiyin bo‘lgan vaziyatlarning salbiy ta’sirini yumshatuvchi tadbirlarni aniqlashdan iborat bo‘ladi. Jamiyat sivilizatsiyasi darajasi prognoz jarayoni darajasini ham belgilab bergan. Olamni ilmiy bilishda falsafiy qarashlarning birlamchiligi prognozning vujudga kelish ildizlari ham falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Shu jihatdan olganda, prognozdan ko‘ra bashoratlar ko‘proq rol o‘ynagan.

---

[79] Қаранг:.Пригожин И., Стенгерс И. Прядок из хаоса. Новый диалог человека с природой. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. – 132 с.; Ласло Э. Макросдвиг (К устойчивости мира курсом перемен) / Пер. с англ. Ю.А. Данилова. – М.: Тайдекс Ко, 2004. – 207 с.

[80] Колпаков В.М. Теория и практика принятия управленческих решений. – К.: МАУП, 2004. – 504 с.

Bu farqlanish ularning mohiyati bilangina emas, shuningdek, ularda qo‘llaniladigan usullar va natijalarning ishonchliligi bilan ham farqlanadi. Natijalarning farqlanishi esa, har doim ham bir xil bo‘lmagan. Dastlabki vaqtlarda diniy bashoratlarda boshqalarga nisbatan ustunlik yuqori bo‘lgan. Falsafiy qarashlardagi bashoratlarda esa, aksariyat hollarda bashoratlar g‘ayritabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan. Shu boisdan, iqtisodiy adabiyotlarda[81] bashoratlar teologik va intuitiv turlar bo‘linadi. Teologik bashoratlar zamirida diniy qarashlar yotadi. (Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy talimotlar majmui.) Teologik bashoratlarning aksariyati ilohiylikka asoslangan bo‘lib, ularda iqtisodiy masalalar deyarli o‘rin olmagan.

Tarixiy evolyutsion rivojlanish natijasida turli xil qarashlarning vujudga kelishi bashorat borasida haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyatiga, shaxsiy qobiliyati yoki bilib olinmagan aloqalar, qonuniyatlarni jonli shaklda umumlashtirishga asoslangan intuitiv bashoratlar vujudga kela boshladi. Intuitsiya — lotincha "intuitiv — sinchiklab qarayman" degan ma’nonini anglatib, bashorat qilishning mazkur turi mutaxasssislarning fikricha, hissiy, aqliy va mistik turlarga bo‘linadi. Bashorat qilish ham insonning aqliy mushohada va boshqa sezgi obrazlariga bog‘liq bo‘lmagan holda intuitiv sezishga oqibatida, hodisalarning mohiyatini birdaniga aql bilan ilg‘ab olish natijasida oldindan aytishga asoslanadi.

Ammo olamni bilishga, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan bilimlarning chuqurlashib borishi bashoratni ilmiy asoslangan va ideologiyaga asoslangan turlariga bo‘linishga olib keldi. Fanning rivojlanib borishi esa, bashoratning ilmiy asoslanishga o‘tishini tezlashtirdi, jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlar kashf etila boshlandi, provardida esa, bashorat bilan birgalikda prognozlash jarayonlari kuchayib bordi. Bundan ko‘rinadiki, prognoz tushunchasi bashoratdan ilmiy asoslanganligi, qonuniyatlarga, tahlillarga va mushohadalashning tartibli amalga oshirilishiga asoslanishi bilan farqli xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Prognoz qilish jarayonining ijtimoiy ildizi albatta insoniyatning olamni bilishi va unda uning o‘rni kelajakda qanday bo‘lishi mumkinligini bilishga intilishiga borib taqalsa, uning iqtisodiy ildizini kishilik jamiyatida

[81] Qarang: В.С.Панфилов. Финансовое и экономическое прогнозирование: методология и практика.М.:Макс Пресс, 2009 — 472 с.; Вишнев С.М. Основы комплексного прогнозирования. М.: Наука ка, 1977. 57-62 с.; Анчишкин А.И. Методология прогнозирования развития народного хозяйства // Вопросы экономики. 1980. №1.46-47с.; Модели и методы налогового прогнозирования на макроуровне Васильева М.В. Управленческий учет, (2011), 12 (декабрь). 55-63 с.; Налоговое прогнозирование Лавренчук Е.Н. Экономические науки, (2011), 74 (январь), 257-260 с.

taqsimot munosabatlarining murakkablashib borishi, jamiyat sivilizatsiyasi natijasida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari ajralishi natijasida ular o‘rtasidagi nisbat (proporsiyani)ni o‘rnatishga ehtiyojning mavjudligi tashkil etadi.

Boshqacha qilib aytganda, sohalar o‘rtasidagi nisbat munosabatlarini o‘rnatish esa, davlatning jamiyatda sinfiy siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishini taqozo etadi. O‘z navbatida esa, davlat bunday proporsiyalarni ta’minlashda taqsimot munosabatlarini tartiblashdan foydalanadi, ya’ni ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash maqsadida turli xil markazlashga pul fondlarini tashkil etish bilan hal etadi. Albatta, bunday pul fondlari sifatida davlat byudjeti (xazinasi)ining manbalarini aniqlash, uni chamalash (prognozlash) davlat moliya xo‘jaligining muhim qirrralari sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinadi, davlat jamiyatda taqsimot munosabatlarida faol ishtirok etib, o‘zining faoliyatining moliyaviy asoslarini ta’minlashga harakat qiladi, bunday moliyaviy manbalarni joriy etish, uni undirish bilan birgalikda uning darajasini (kelajakdagi hajmini) doim aniqlab turish uning manfaatlariga mos keladi.

Manbalarga[82] ko‘ra, prognoz qilishning shakllanishi ma’lum bir bosqichlarga ega. Yuqorida ta’kidlangandek, dastlabki prognozlash va rejalashtirish asosan bashorat tusida bo‘lgan. Bu jarayon asosan falsafiy-tarixiy shakllanish deb atalib, unda diniy, hissiy va filosofik yondoshuvlar ustun bo‘lgan va eramizdan avvalgi IV-V asrlargacha ushbu yo‘nalishdagi bashoratlar hukmron bo‘lib, falsafiy bashoratlarning asosini Platon va Konfutsiylar ta’limoti tashkil etadi. Keyingi bosqich XV-XVI asrlarga tegishli bo‘lib, bu bosqichda nazariy va amaliy ishlanmalar chuqurlashtirildi, bashoratlar insonning aqliy faoliyati natijalariga tayanildi va bashoratda tashqi muhitning ta’sirlari baholandi va mantiqiy xulosalarga asoslandi. XIX-XX asrlarda prognoz va rejalashtirishda muhim bosqich bo‘lib, bu davrlarda prognozlashtirish va rejalashtirish jarayonlarida turli xil modellar va usullar qo‘llanila boshlandi, prognoz ko‘rsatkichlari rejalashtirishda, qolaversa, davlat boshqaruvida e’tiborga olina boshlandi. Prognozlashtirish va rejalashtirishning hozirgi bosqichi asosan XX asrdan to hozirgi kunlargacha davrni qamrab olib, bu davrlarda prognozlash jarayonini algoritmlash, uning informatsion bazasini oshirish, axborot texnologiyalardan keng foydalanila boshlandi, prognozlash natijalarining

[82] Qarang: Едронова В.М. Прогнозирование налоговых поступлений в субъекте Российской Федерации/ В.М. Едронова, Н.Н. Акимов // Финансы и кредит. – 2008. — №17 – 51-54 с.; Винокурова, Г.П. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: учебное пособие / Г.П. Винокурова. – Йошкар-Ола.: МарГТУ, 2003. – 46 с.; Васильева, М.В. Методы налогового прогнозирования на макроуровне / М.В.Васильева // Управленческий учет. – 2011. — №6 – 63-73 с.

ishonchligini oshishi, prognoz jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni baholashning chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Prognoz-grekcha (prognosis) so‘z bo‘lib-“oldindan ko‘ra bilish, oldindan aytish” degan ma’noni bildirib, iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati bu-ko‘zlangan maqsadga erishishning ilmiy asoslangan turli xil variantlarini baholash va ishlab chiqishdan iboratdir.

Iqtisodiy prognozlarni to‘g‘ri amalga oshirish faqat ularning ichki xususiyatlarini emas, balki boshqa omillarning xususiyatlarini ham birdek baholashni taqozo qiladi, bu iqtisodiy prognozning boshqa prognozlardan muhim farqini ifodalaydi. Masalan, agrar tarmoqning rivojlanish ko‘rsatkichlarida tabiiy-jug‘rofiy omillarning ta’siri ustun ahamiyatga ega, qayta ishlab tarmog‘ining iqtisodiy ko‘rsatkichlari esa kon rudalarining joylashuv va ularning tarkibining xususiyatlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy prognozlar funksional belgisiga qarab turkumlash ularni tadqiq etishning yo‘llarini aniqlashga xizmat qiladi, shu jihatdan ular normativli, izlanuvli, miqdoriy, sifatiy va kombinatsiyalashgan turlarga ajratiladi.

Byudjet-soliq munosabatlarining samaradorlik darajasida soliq munosabatlari muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bizga ma’lumki, jamiyatda ehtiyojlar cheksizligi qonuniyati mavjud, bu holat davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojiga ham tegishlidir. Moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning cheksizligi va uning hajmining qanchalik ko‘pligi davlat faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri bo‘ladi. Albatta, bu borada davlat soliq siyosatida progressiv soliqqa tortish tamoyillarini kuchaytirish orqali masalani hal etish mumkin, ammo, ushbu tamoyil ma’lum bir vaqtlar va davrlardagina o‘z samarasini berish mumkin.[83] Milliy iqtisodiyotdan uzluksiz ravishda yaratilgan yangi qiymatni (milliy daromadni) byudjetga safarbar etish iqtisodiyotda tanazzulga olib kelishi byudjet-soliq munosabatlariga oid ilmiy nazariyalarda juda ko‘plab isbotlab berilgan.[84]

Shunday ekan, milliy iqtisodiyotdan qancha miqdorda soliq sifatida daromadlarni byudjetga safarbar etish mumkin va uning ham iqtisodiyotga ham byudjet orqali davlatning faoliyatiga ta’sirini muntazam baholab turish doimiy muammolardan biri bo‘lib yuzaga chiqadi. Bu esa soliqlarni byudjetga kelib tushish darajasini, soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash imkoniyati (salohiyati)ni aniqlashni zaruriyat qilib qo‘yadi. Albatta, soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash imkoniyati maksimal darajada ularning ixtiyoridagi moliyaviy resurslar hajmida bo‘lishi mumkin. Biroq, yuqorida

[83] Ingliz iqtisodchisi J.Keynsning progressiv soliqqa tortish nazariyasining AQSh iqtisodiyotiga ta’sirini eslash mumkin.
[84] Masalan, A.Laffer egri chizig‘ining mohiyati.

ta’kidlaganidek, ularning moliyaviy resurslarini ham ularning o‘zlari ham davlat manfaatlari[85] yo‘lida oqilona taqsimlash iqtisodiy jihatdan samaralidir. Bu jarayon aslida milliy iqtisodiyotni sotsial-iqtisodiy prog-nozlashtirish va unga asoslangan holda kompleks rivojlantirish dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotdagi sotsial-iqtisodiy nisbatlarni o‘rnatish maqsadida markazlashgan pul fondlarining to‘laqonli amal qilishini ta’minlash o‘z navbatida davlatning moliyaviy boshqaruv funksiyasini keltirib chiqaradi. Moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismini moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida esa, soliqlarni prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining zarurligi shundaki, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari doirasida stixiyali tarzda kechadi, soliq to‘lash majburiyati yuklatilgan iqtisodiy individlarning faoliyati raqobat muhitiga bog‘liq, ular turlicha darajada daromadlarga ega bo‘lib, ularning moliyaviy imkoniyatlari ham o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘ladi, bundan tashqari ularning faoliyatiga ta’sir etuvchi juda ko‘plab omillar ta’sirida milliy daromadni o‘zlashtirish darajasi tabaqalashadi va notekislikni keltirib chiqaradi provardida, jamiyatning soliq imkoniyatlarining keskin farqlanishi obyektiv ravishda mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari, boshqaruv jarayonida qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan axborotlarga tayanish eng muhim shartlardan biri sanaladi.

Ilmiy asoslangan axborotlarni olish usullaridan biri sifatida ham prognoz qilish jarayoni yuzaga chiqadiki, byudjet-soliq jarayonida qarorlar qabul qilishda soliqlarni prognoz qilishga zarurligi mavjud bo‘ladi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni sotsial-iqtisodiy prognozlashtirishning tarkibiy qismi sifatida uning zarurligi, amalga oshirish tartiblari va uning natijalarining qarorlar qabul qilish (rejalashtirishga asos qilib olinishi)da milliy iqtisodiyotning qaysi tizimga asoslanganligiga ham bog‘liqdir.

Ma’lumki, tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni zarurligini keltiruvchi chiqaruvchi omillar mavjud bo‘ladi. Aynan ushbu qonuniyat soliqlarni prognoz qilish jarayoniga ham tegishli bo‘lib, uning zarurligini ifodalovchi bir qator omillar mavjud.

[85] Davlat manfaatlari deganda uni ikki tomonlama tushunish kerak. Aslida davlat jamiyat a’zolari, jumladan, ishlab chiqarish sohasi vakillarining ham manfaatlarini ko‘zlaydi.

14.2. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, belgilari va tamoyillari

Soliq prognozining mohiyatini aniqlashda yana muhim bosqichlardan biri bu, uning maqsadi va vazifalarining belgilanishidir. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi — byudjet-soliq siyosatida belgilangan vazifalarga erishish borasida byudjetga soliq tushumlari prognozining umumiy va xususiy qonuniyatlarini aniqlash, milliy, hudud va soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatiga baho berish hamda byudjetni rejalashtirishga oid muhim natijaviy axborotlarni taqdim qilishdan iborat bo‘lsa, uning vazifalari quyidagilardan tashkil topadi:

- turli darajadagi byudjetlarni optimal rejalashtirish uchun uning daromad manbalarining kelib tushishining turli variantlardagi prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognozlarini aniqlashda muhim axborot manbalari bilan ta’minlash;
- milliy iqtisodiyot, hududlar, tarmoqlar va soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini muntazam aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarning ta’sirini baholash;
- barcha bosqichdagi soliqlarni prognoz qilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning ta’sirini baholash;
- iqtisodiyotdagi turli darajadagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zaruriy axborotlarni shakllantirish;
- turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim moliyaviy instrument sifatida ishtirok etish;
- davlatning YaIMni qayta taqsimlash borasidagi va soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga oid muhim uslubiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib berish va shu kabilar.

Har qaysi iqtisodiy jarayonning o‘ziga xos belgilari bo‘ladi. Ushbu belgilar uning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli jihatlarini ko‘rsatishi bilan birga uning ichki xususiyatlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, soliqlarni prognoz qilish tushunchasi (jarayoni)ning ham o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lib, bizningcha ular quyidagilarda ifodalanadi. Soliq prognozining eng muhim belgilaridan biri bu uning mavhumligidir, ya’ni prognoz aslida mavhum bo‘lgan jarayon va hodisalarni qamrab oladi, ushbu mavhumlikni aniqlash esa, prognoz jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, unda qo‘llaniladigan usullar va modellarni to‘g‘ri qo‘llash hamda axborot bazasini to‘g‘ri shakllantirgan holda ularni to‘g‘ri qayta ishlash kabi tadbirlar (jarayonlar)ga bog‘liq bo‘ladi. Soliqlarni prognoz qilishning keyingi belgisi ehtimollikka asoslanish belgisi o‘z navbatida tahlillar va ilmiy asoslangan holda ish yuritishni talab etadi.

Prognozni tashkil qilishdan maqsad ham iqtisodiy jarayon, hodisa va voqeyliklarning kelgusidagi holati va rivojlanish tendensiyalarini oldindan aytish hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning real amal qilishi, ularning samaradorligiga erishish ko‘p jihatdan uning amal qilish tamoyillarini aniqlashga bog‘liq. Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida majburiy to‘lovlarni ifodalasa, iqtisodiy munosabatlar sifatida soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasida majburiy to‘lovlarni to‘lash bilan bog‘liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni ham ifodalaydiki, bunday munosabatlarning samarasi nafaqat soliqqa tortish tamoyillariga, shuningdek, soliqni prognoz qilish tamoyillariga ham bog‘liqdir.



14-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, belgilari va tamoyillari [86].

Prognozning yana muhim belgisi u oldindan ko‘ra bilish va aytishlik tamoyili asosida mavjud bo‘lishligi, juda ko‘p omillar ta’siriga egaligi

[86] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hamda natijalarning muqobil variantlarda olinishligi kabi muhim belgilari yuzaga chiqadi. Albatta, bu jarayonda prognoz koʻrsatkichlariga juda koʻplab omillar ta’sir qiladi va bu uning muhim belgisi sifatida yuzaga chiqadi (14-rasm).

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonida eng muhim narsa bu uni tashkil etish va amalga oshirish tamoyillaridir. Tamoyillar bu jarayonni tashkil etish va uning yoʻnalishining muhim vositasi hisoblanadi. Shu boisdan, soliqlarni prognoz qilishda uning tamoyillarini toʻgʻri belgilab olish prognoz natijalarining haqqoniyligini ta’minlaydi. Soliqlarni prognoz qilish tamoyillari avvalo jarayonlar va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishning umumiy tamoyillariga asoslansada, shu bilan birgalikda uning ichki xususiyatidan kelib chiqqan holda oʻz xususiy tamoyillariga ham ega. Soliqlarni prognoz qilish tamoyillarining belgilanishiga qarab, uni tashkil etish va amalga oshirish tartiblari belgilanadi. Amaliy nuqtai nazaridan soliqlarni prognoz qilishning tamoyillari xususida koʻplab ilmiy yondoshuvlar mavjud boʻlib ularni umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirib oʻtish mumkin: tizimlilik tamoyil (barcha jarayonlar va elementlarni oʻzaro bogʻliklikda qarash) muvofiqlik tamoyili (prognoz jarayonida model, usul va axborotlar toʻplamining bir-biriga muvofiqligi), variantlilik tamoyili (prognoz natijalari bir necha variantlarda ishlab chiqilishi), moslashuvchanlik tamoyili (prognoz koʻrsatkichlari va axborotlarining prognoz belgilariga moslashuvi), ishonchlilik tamoyili (prognoz natijalarining ishonchliligi), rentabellilik tamoyili (prognoz natijalari samarasi prognoz jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish bilan bogʻliq xarajatlardan yuqori boʻlishi).

Soliqlarni prognoz qilish tamoyillarini aniq belgilash va ularga asoslanish soliq tizimini samaradorligini ta’minlashga olib keladi, prognoz jarayonini amalga oshirishning umumiy yoʻnalishlarini tavsiflaydi, uning qonuniyatlarini koʻrsatib beradi, binobarin, soliqlarni prognoz qilishning umumiy tendensiyalarini aniqlash prognoz jarayonining aniqligini ta’minlaydi. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni mavhumlikka va ehtimollikka asoslanishi hamda juda koʻp omillar ta’sirida mavjud boʻlishi uning amal qilishining oʻziga xos tamoyillarini taqozo qiladi. Bizning fikrimizcha, umumiy va xususiy tartibda soliqlarni prognoz qilish quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

Toʻlovga qobiliyatlilik tamoyili. Soliqlarni prognoz qilishda asosiy tamoyillardan biri toʻlovga qobiliyatlilik tamoyili boʻlib, uning asosiy mohiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar miqdorini, ya’ni, byudjet daromadlar soʻmmasini faqat oʻtgan yilgi koʻrsatkichlarni

inflyatsiyani hisobga olgan koʻrsatkichlar asosida emas, balki, soliq toʻlovchilarning toʻlovga qobiliyatini va soliqlarning adolatlilik tamoyilini hisobga olgan holatdan kelib chiqib aniqlashni taqozo etadi. Soliq toʻlovchilarning soliqlarni toʻlash imkoniyatini ularning moliyaviy koʻrsatkichlarini chuqur tahlil etgan holda, ularning foyda olish darajasi dinamikasiga alohida e'tibor qaratish zarur boʻladi.

Soliqlarni prognoz qilishda miqdoriylik tamoyilini ham qoʻllash oʻz mohiyatiga ega. Prognoz jarayonida soliq toʻlovchilar soni va miqdorini e'tiborga olish soliq tushumlari hajmi aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, soliq tushumlarini prognoz qilishda soliq toʻlovchilarining sonining dinamik oʻzgarishi, ya'ni yangi tashkil etilayotgan yoki tashkil etilishi kutilayotgan soliq toʻlovchilar miqdori, ularda yaratilgan ish oʻrinlari soni, oʻz faoliyatini tugatgan (bankrot boʻlgan) soliq toʻlovchilar soni, zarar koʻrib ishlayotgan va uzluksiz daromad olib kelayotgan soliq toʻlovchilar soni, yangi tashkil etilayotgan korxonalarning sohalar boʻyicha tarkibi doimiy soliq imtiyozlariga ega boʻlganlarning qanchasi oʻz faoliyatini davom ettirganlar soni va shu kabi koʻrsatkichlarga asoslanish lozim.

Soliqlarni prognoz qilishda hisobga olish tamoyiliga amal qilish soliqlarni prognoz qilishda va soliqlar miqdorini belgilashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bu tamoyilda soliqlar boʻyicha byudjetga boqimanda soʻmmalariga ega boʻlgan soliq toʻlovchilar, boqimanda qarzlarining vujudga kelish sabablarini tahlil etish, davlat tomonidan faoliyatni ragʻbatlantirish maqsadida berilgan soliq imtiyozlarining samarasi, soliq toʻlashdan qochayotgan, soliq qonunchiligini muntazam soliq toʻlovchilarning faoliyati natijasida byudjetga kelib tushishi lozim boʻlgan soliq tushumlari boʻyicha yoʻqotishlarni alohida hisobga olish asosiy e'tiborda boʻladi.

Tizimlilik tamoyili. Ma'lumki, soliqlarni prognoz qilish jarayonida juda koʻplab iqtisodiy koʻrsatkichlardan foydalanishga toʻgʻri kelib, ularni bir-biri bilan bogʻliq holda oʻrganishni taqozo etadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar va oʻrganiladigan jaryonlarni oʻzaro bogʻliqda qarab, ularga ta'sir etuvchi omillarning ham ta'sirini e'tiborga olishni talab qiladi. Prognoz jarayonida unchalik muhim boʻlmagan koʻrsatkichlarni e'tibordan chetda qoldirish yoki koʻrsatkichlarning prognoz jarayonidagi rolini yetarlicha baholamaslik, prognoz natijalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan, foyda soligʻi boʻyicha soliq tushumlari prognoz qilinayotganda foyda soligʻi toʻlovchilari soni, ya'ni miqdor koʻrsatkichlari asos qilib olinib, sifat koʻrsatkichlar

bo‘lgan-soliq to‘lovchilarning moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar) prognoz jarayonidan chetda qolib, miqdor va sifat ko‘rsatkichlar yaxlit (bog‘liq) holda o‘rganmaslik prognoz natijalarining haqqoniyligi pasayishiga (ehtimollikni oshishiga) olib kelishi shubhasiz.

Ta’kidlanganidek, soliq prognozi mavhumlik va ehtimolikka asoslanadi. Biroq, prognoz jarayoni yakunida esa aniqlikka asoslangan holda ko‘rsatkichlarga erishish bosh maqsadlardan biri sanaladi. Bu esa soliq prognozining ehtimollikdan aniqlikka intilish tamoyili asosida ta’minlanadi. Prognoz jarayonining dastlabki va oraliq bosqichida ehtimollik ko‘rsatkichlari asosiy rol o‘ynaydi. Ammo, bosh maqsad-yuqori aniqlikka asoslangan prognoz ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishga erishish ehtimollik ko‘rsatkichlarining aniqlik ko‘rsatkichlariga transformatsiyala-shuvini taqoz etadi. Ushbu tamoyilning o‘ziga xos yana bir xususiyati bu, prognoz jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlashni, prognoz jarayonining qaysi davrida yoki shaklida qo‘llaniladigan usullarning qaysi biri ehtimollik ko‘rsatkichlarini aniqlikka aylantirishini tavsiflaydi. Prognoz jarayonida ehtimolli ko‘rsatkichlarining aniqligini ta’minlashga erishish prognoz jarayonining samaradorligini bildiradi. Agar, ehtimollik ko‘rsat-kichlarining ta’siri kamayib borsa, prognoz natijalarining aniqligi oshib borishi, provardida esa natijalar asosida rejalar tuzilishiga erishiladi.

Ta’kidlanidek, soliqni prognoz qilish jarayonida byudjet daromadlari qismiga kelib tushadigan moliyaviy resurslarning hajmini maksimal darajada aniqlikda hisoblash ham asosiy e’tibordan biri sifatida barcha jarayonlar prognozning maqsadiga qaratilishi lozimligini taqozo etadi. Biroq, prognoz jarayonida umumiy maqsad byudjetning daromadlar qismiga soliq tushumlarining kelib tushishini baholash bo‘lsa, ayrim hollarda maqsad boshqacharoq, masalan, prognozga ta’sir etuvchi omillarni baholash maqsad qilib belgilanishi, o‘z navbatida oraliq maqsad ham bo‘lishi mumkin. Maqsadga qarab esa, qo‘llaniladigan usullar ham farqlanadi. Demak, soliqni prognoz qilishning ham tashkiliy bosqichida, ham yakuniy bosqichida ham yakuniy maqsadga qaratilganlikdan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Bu esa prognoz jarayonining yo‘nalishi maqsadning mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanishini tavsiflovchi- prognozning tashkil etilishi va amalga oshirilishi prognozning maqsadiga qaratilganligi tamoyilining mohiyatini ifodalaydi.

Dogmalikdan uzoqlashish va o‘zgaruvchanlikka moyillik tamoyili. Mazkur tamoyil soliqni prognoz qilish jarayonida jarayon (ko‘rsatkich, omil, holat, hodisa)larni o‘zgaruvchanlikda olib qarashni tavsiflaydi. Ya’ni, dastlabki bosqichda olingan natijalarga dogmatik sifatda emas, balki, ular

o‘zgaruvchanlikka moyilligini e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Natijalarga o‘zgarmas deb qarash prognoz jarayoninig yo‘nalishlarida xatolikka olib kelishi mumkin. Shu jihatdan olganda, prognozda dogmalikdan uzoqlashgan holda o‘zgaruvchanlikka moyillik asosida ishlash prognozning oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida amal qiladigan yana bir tamoyil bu sintez va tahlilning yagonaligi tamoyilidir. Ma’lumki, sintez bu tahlildan farqli ravishda o‘rganilayotgan obyektni ularni belgilariga qarab birlashtirish, ilgari mavjud bo‘lmagan qismlarini to‘ldirish va joylashtirishni ifodalaydi. Sintezlash jarayonida prognoz ob’ektiga tegishli ko‘rsatkichlar tartiblanadi va ular bir-biri bilan to‘ldiriladi. Sintez vositasida birlashtirilgan (tartiblangan) ko‘rsatkichlar va ob’ektlar esa tahlil qilinadi, natijada esa, prognoz jarayonini amalga oshirish soddalashib, olinadigan xulosalarga zamin yaratiladi. Demak, soliqni prognoz qilish jarayonida ob’ektlar va ko‘rsatkichlar sintezlash asosida tahlil qilishga asoslangan mazkur tamoyil katta ahamiyatga ega. Jarayonni tashkil qilishda mantiqiylik, amalga oshirishda tahlil, yakuniy ko‘rsatkichni qabul qilishda baholashning ustunligi tamoyili ham soliqni prognoz qilish jarayonini ma’lum tizimga solish asosida uni to‘g‘ri amalga oshirishda munosib rol o‘ynaydi.

Prognoz jarayonini tashkiliy bosqichida albatta mantiqqa asoslanish, uni amalga oshirishda tahlillar munosib o‘rin tutishi, jarayon so‘ngida olingan natijalar esa albatta baholanishi, ya’ni, bir necha variantlarni eng ishonchlisini tanlash prognoz jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Soliqlarni prognoz qilish tamoyillari soliqqa tortishning umumiy tamoyillari bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Soliqqa tortishning umumiy tamoyillaridan bo‘lgan adolatlilik tamoyilida shu narsa nazarda tutiladiki, soliqlar shunday miqdorda undirilishi kerakki, ham davlat, ham soliq to‘lovchi manfaatlariga mos kelish kerak. Bu esa, soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillaridan bo‘lgan yetarlilik tamoyiliga ham tegishlidir. Ushbu tamoyillarda nazarda tutilgan byudjetga zarur bo‘ladigan moliyaviy mablag‘larning holatini esa soliq prognozi tamoyillari aniqlab beradi.

14.3. Makro va mikrodarajada soliqlarni rejalashtirish masalalari

Iqtisodiyotga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlar hamda boshqa manbalar o‘rganilganda soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning mazmunini ochib beruvchi yagona tushunchani uchratish qiyin. Bir tomondan, prognoz va rejalashtirish jarayonining o‘ta murakkabligi bo‘lsa, boshqa tomondan bu jarayonlarni mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilinishidir.

Soliqlarni rejalashtirish bo‘yicha yirik ilmiy tadqiqotlar olib borgan Rossiyalik olimlar M.Romanovskiy va O.Vrublevskayaning fikrlaricha, soliqlarni rejalashtirish byudjet jarayonini muvofiqlashtirishda qatnashuvchi davlat hokimliklari va soliq munosabatlarida qatnashuvchilarning o‘zaro faoliyati bo‘lib, o‘zida aniq hududlar doirasida byudjetga soliqlar va to‘lovlarning hajmini aniqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarnidan iborat[87]. Shunga o‘xshash yondashuv V.Barilenko tomonidan keltiriladi. Soliqlarni rejalashtirish — davlat ehtiyojlari uchun zarur bo‘ladigan va davlat byudjetida jamlanadigan moliyaviy resurslarning yuzaga kelish jarayonidir[88].

L.Drobozinaning fikricha, soliqlarni rejalashtirish bu byudjetni rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, resurslarni jalb qilish va taqsimlashning tashkiliy mexanizmi sanaladi.[89] Ushbulardan farqli ravishda I.Gorkiy va N.Malislar soliqlarni rejalashtirish bilan prognozlashtirish tushunchalarini aynan o‘xshash kategoriyalar sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, soliqlarni rejalashtirish soliqlarni prognoz qilish natijalari asosida soliq salohiyatiga baho berishdir. Soliqlarni rejalashtirish bu soliq salohiyatning soliq tushumlariga nisbatidir[90]. O‘z navbatida A.Paskachev, F.Sadigov, V.Mishinlar yuqoridagilardan farqli ravishda soliqlarni prognoz qilish va reajalashtirishni alohida kategoriyalar va tushunchalar deb hisoblaydilar.

Har qaysi o‘zaro yaqin iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini o‘rganishda ularning o‘zaro farqli va o‘xshash xususiyatlarini solishtirish ahamiyatlidir. Ba’zi bir iqtisodiy adabiyotlarda[91] ushbu tushunchalarni bitta tushuncha sifatida qaralsada, ammo ular bir-biridan farq qiladi.

Quyida keltirilgan 15-rasmdan ko‘rinadiki, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining o‘xshash xususiyatlari quyidagilarda aks etadi: ya’ni, ular soliq siyosatining tarkibiy elementi hisoblanadi, ikkalasi ham moliyaviy instrumentlar sifatida yuzaga chiqadi, byudjetni rejalashtirishning asos bo‘lib xizmat qilishi bilan birga ularda asosan bir xil turdagi modellar va usullar qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda, ular o‘zaro farqli xususiyatlarga ham ega. (15-rasm).

---

[87] Финансы. Под ред. Романовского М.В., Врублевской А.В., Сабанти В.М. М.: 2004. — 504 с.

[88] Анализ финансовой отчетности : учебное пособие / В.И. Бариленко, С.И. Кузнецов, Л.К. Плотникова, О.В. Кайро ; под общ.ред. В.И. Бариленко. — 2-е изд., перераб. — М. : КНОРУС, 2006. — 416 с.

[89] Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник для вузов / Л.А. Дробозина, Л.П. Окунева, Л.Д. Андросова и др.; Под ред. проф. Л.А.Дробозиной. — М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997.-479 с.

[90] Теория и практика налогообложения: Учебник / Н.И. Малис, И.В. Горский, С.А. Анисимов; Под ред. Н.И. Малис. — 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфра-М, 2013. – 432 с.

[91] Qarang: Перов А.В. Налоги и налогообложение: учеб. пособие / А.В.Перов, А.В.Толкушкин. – 2 изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт-Издат, 2003. – 76с.; Чигракова Н.М. РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция, (2011), 3 (2 квартал), 274 с.

Ularning bu farqli xususiyati koʻlami jihatidan farqlanishi (soliqlarni rejalashtirish mikrodarajada asosan mahalliy hokimliklar tomonidan oʻz vakolatlari doirasidagi soliq siyosatining mazmuni va korxonalarda soliq toʻlovlarini toʻlashni rejalashtirish shaklida kechadi), byudjet-soliq siyosatidagi ishtiroki turlichaligi (soliqni rejalashtirish soliq siyosatining yoʻnalishlarini belgilashga qaratilgan boʻlsa, soliq prognozi byudjetning soliqni daromadlarini qamrab oladi), jarayonda foydalaniladigan koʻrsatkichlarning turlichaligi, turli xildagi axborot bazalaridan foydalanishi, turlicha umumiy belgiga egaligi va vazifalarining farqlanishi, jarayon natijalarini aks ettirishi jihatdan farqlanishi hamda amal qilish muddatlarining turlichaligi va shu kabi xususiyatlari bilan farqlanadi.

Soliqlarni rejalashtirishning farqli xususiyati shundaki, qabul qilingan variant ijro uchun majburiy hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish soliq tizimi va soliq siyosatining samaradorligini ifodalaydi. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishga oid yondoshuvlarni 4 guruhga boʻlish mumkin: birinchi yondoshuvga koʻra, soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish sinonim tushunchalar hisoblanadi. Ikkalasi ham davlat va mahalliy byudjetlarga soliqlar va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni maksimal darajada kam xarajatlar evaziga jalb qilishning vosita va elementlaridir. Ikkinchi yondoshuvga asosan soliqlarni prognozlash va rejalashtirish bir-birini toʻldiruvchi kategoriyalar sanaladi va soliq tizimi hamda soliq siyosatining elementidir. Bu yerda soliqlarni prognoz qilish soliq siyosatida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan soliq salohiyatini aniqlashga va tahlil qilish bilan bogʻliq tizimli faoliyat boʻlsa, soliqlarni rejalashtirish aniq davrda soliq tushumlarini aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Uchinchi yondoshuvga koʻra, soliqlarni rejalashtirish oʻz ichiga soliqlarni prognozlashtirishni qamrab oladi va prognozning xarakterli xususiyatlarini belgilab beradi.



15-rasm. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish(tushuncha) jarayonlarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari[92].

Ya’ni, soliqlarni rejalashtirish mamlakatni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishini ta’minlash borasida byudjetning turli darajalariga soliqlarning kelib tushish hajmini, tarkibini va dinamik holatinini aniqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar sanalsa, soliqlarni prognozlashtirish rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida soliqlarni undirish jaryonida ishtirok etuvchi organlarning byudjetga soliqlarni jalb qilishga qaratilgan muvofiqlashtiruvchi faoliyatdir. To‘rtinchi yo‘nalish uchinchi yo‘nalishga teskari ravishda soliqlarni rejalashtirish soliqlarni prognozlashtirishning tarkibida bo‘lib, soliqlarni prognoz qilish jarayonini soliq tushumlarini aniqlash, soliq bazasi va salohiyatni baholash jarayoni,

[92] Muallif ishlanmasi.

belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari va soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni tahlil qilishga qaratilgan faoliyat, soliqlarni rejalashtirish esa, soliq siyosatida maqsad qilib qo‘yilgan vazifalarni soliq elementlari orqali amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv jarayonidir deb hisoblaydilar.

Avvalo, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari davlatning moliyaviy siyosatining eng muhim ajralmas qismi bo‘lib, bu ikki tushuncha keng qamrovli munosabatlarni izohlaydi. Soliqlarni prognoz qilish ham rejalashtirish ham davlat byudjeti jarayoniga xizmat qilib ular bir-birini to‘ldiruvchi iqtisodiy kategoriyalar sifatida byudjet-soliq siyosatining yadrosini tashkil etadi. Ammo, soliqlarni rejalashtirish iqtisodiy munosabatlardagi o‘rni yuzasidan prognoz jarayoniga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, soliqlarni rejalashtirish davlatning byudjet-soliq siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida davlatning soliq va fiskal siyosatining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi hamda u tarkibiy jihatdan soliqlarni joriy etish, soliq stavkalarini belgilash, ularning darajalarini o‘zgartirish, soliq imtiyozlarini berish (bekor qilish), soliqlarni undirish, soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari bilan huquqiy-me’yoriy normalarni ishlab chiqish hamda ushbu jaryonlarni tartibga solish) muvofiqlashtirish bilan bog‘liq munosabatlar yig‘indisidan iborat (16-rasm).



16-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan o‘zaro ta’siri yo‘nalishlari[93].

[93] Muallif ishlanmasi.

Soliqlarni prognoz qilish moliyaviy prognozning muhim tarkibiy qismi sifatida moliyaviy prognozning boshqa turlari bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Bu esa, moliyaviy prognoz va soliq prognozining ildizi bitta narsaga, ya’ni, moliyaviy siyosatning o‘zagini tashkil qilishligini bildiradi. O‘z navbatida, soliqlarni prognoz qilish jarayoni moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlashtirish, byudjetni rejalashtirish, byudjetni prognozlashtirish hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.



17-rasm. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning makro va mikro daraja amal qilishi va ularning o‘zaro ta’siri.[94]

[94] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Albatta, bu tushunchalar bir biridan farq qiladi. Moliyaviy rejalashtirish tarkibi jihatdan davlatning barcha markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini rejalashtirish, barcha darajadagi moliyaviy resurslarni rejalashtirish jarayonlarini qamrab oladi, moliyaviy prognozlashtirish esa, uning tarkibiy qismi hisoblanadi va barcha turdagi pul fondlarining mablag‘lari va ularni sarflashning prognoz ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari makro va mikro darajada amal qilib, ular nafaqat bir-biriga shuningdek, qayd etilgan ko‘rsatkich (jarayonlar)larga ta’sir qiladi.

Byudjetni rejalashtirish esa, byudjet jarayonining muhim tashkiliy bosqichlarini qamrab olsa, byudjetni prognozlashtirish byudjetning barcha daromad manbalari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlab beradi. Byudjetni prognozlashtirish va soliqlarni prognoz qilish jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, soliqlarni prognoz qilish esa, byudjetning daromad manbalarining soliqlik daromadlari qismini qamrab oladi, boshqa daromad manbalarining prognozi jarayoni, o‘z navbatida soliqni prognoz qilish ob’ektiga kirmaydi. Soliqlarni prognoz qilish esa, shu jihatdan byudjetni rejalashtirish va prognozlashtirish jarayoniga muhim axborot manbalarini tadqim etishi bilan ahamiyatlidir.

17-rasmdan ko‘rinadiki, soliqlarni prognoz qilish makro darajada jamlanma byudjetning daromadlar qismiga soliq tushumlarini prognoz qilishni qamrab olib, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy prognoz qilish va byudjet hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonining asosi bo‘ladi, ularning yo‘nalishlarini belgilashga ta’sir qilsa, mikron darajada esa tarmoqlar, hududlar, soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini baholashni, soliq turlari bo‘yicha soliq prognozini qamrab oladi, hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari hamda mahalliy byudjetlarning ko‘rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi va uning yo‘nalishlarini belgilashga ta’sir qiladi.

Soliqlarni rejalashtirish jarayoni esa, makrodarajada soliq siyosatining o‘zagi sifatida soliqlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid jarayonlarni qamrab oladi, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi, byudjet jarayoni va o‘z navbatida, soliqlarning hamda soliqlarni prognoz qilish (soliq salohiyati) jarayoniga aks ta’sir qiladi. Shuningdek, mikron darajada ham mavjud bo‘lib, mahalliy hokimliklarning o‘z vakolatlari doirasidagi majburiy to‘lovlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid va korxonalarda soliqlarni rejalashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab

oladi, hudud iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi, hududning soliq salohiyatini aniqlashga ta’sir qiladi.

Soliqlarni prognoz qilish esa, soliq to‘lovchilarning yuzaga kelish jarayonlari va davlat byudjetining daromadlar qismi sifatida soliqlarning turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishini prognoz qilish (ehtimolligini hisoblash), soliqlarning byudjetga jalb etilish darajasi va soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini aniqlash, shuningdek, ushbu jarayonlarni va ularning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni dinamik tahlil etishga qaratilgan munosabatlar hamda davlatning vakolatli organlarining kompleks faoliyati tushuniladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yondoshuvlarda qayd etilganidek, bu tushuncha va munosabatlar bir-birini to‘ldirish va ketma-ketlikka ega bo‘ladi. Soliqlarni rejalashtirish soliq tushumlari, soliq bazasi, soliqlarning yig‘iluvchanlik darajalari va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning haqiqiy holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Soliqlarni rejalashtirishdan maqsad, davlat byudjetiga soliq tushumlarini maksimal darajada jalb qilishdan iborat. Soliqlarni rejalashtirish davlat darajasida sotsial-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilishning muhim ko‘rinishi bo‘lib yuzaga chiqadi va bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi.

Davlat byudjetiga soliqlarni jalb etish bilan bog‘liq rejalashtirishning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi: turli darajadagi byudjetlarning daromad qismlariga tushumlarning kelib tushishini ta’minlash, soliq stavkalarini oshirmagan holda byudjetga soliq tushumlarini hajmini oshirishning qulay vositalaridan foydalanish va ta’minlash, moliya yili davomida soliqlarning byudjetga kelib tushishining uzluksizligi va barqarorligini ta’minlash, boshqaruv amaliyotida soliqlarni maksimal darajada jalb qilishning usullaridan keng va samarali foydalanish va shu kabilar.

Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi soliq-byudjet jarayonlarining chegarasini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, soliqlarni prognoz qilish o‘zida direktiv xususiyatlarni aks ettirgan taxminlarga asoslansa, soliqlarni rejalashtirish esa o‘zida bajarishga qabul qilingan miqdoriy ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish mexanizmlari faqat makroiqtisodiy darajada farqlanadi, ular bir-birini to‘ldirsada, soliqlarni prognoz qilish jarayoni rejalashtirish jarayonidan oldin sodir bo‘ladi. Soliqlarni prognoz qilishni muvofiqlashtirish asosini byudjet jarayoni normalari hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, soliqlarni prognoz qilish masalasi davlatning moliya siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organlarning bosh vazifalaridan biri bo‘lib yuzaga chiqadi. Soliqlarni prognoz qilish har bir soliq va unga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha soliq bazasini aniqlashni qamrab oladi,

bu jarayon o‘ta murakkab bo‘lib, bu masalaning to‘g‘ri hal qilinishi boshqa keyingi jarayonlarga ya’ni soliq qarzdorligi, soliqlarning yig‘iluvchanligi kabilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Soliqlarning byudjetga kelib tushishi boshqa omillar singari soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish bosqichlariga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim iqtisodchilarning fikricha[95], soliqlarni rejalashtirish bosqichlari uch bosqichdan: soliqlar sifatida byudjetga jalb qilish maqsadida iqtisodiy sub’ektlarning resurs imkoniyatlari aniqlash; davlatning sotsial-iqtisodiy hamda byudjet-soliq siyosatining yo‘nalishlarini aniqlash; soliqlarning turli darajadagi byudjetlarga kelib tushishini va uning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan aniq harakatlarni amalga oshirish kabi bosqichlardan iborat. S.Barulin boshchiligidagi "Soliq menejmenti" o‘quv qo‘llanmasi mualliflarining fikricha esa, soliqlarni rejalashtirish joriy va kelgusi davrlar bo‘yicha soliq majburiyatlarini takomillashtirishga va ularni kamaytirishga qaratilgan turli xil variantlarni tizimli tahlil qilishni o‘zi ichiga olgan tadbirlardan iborat va u o‘z ichiga soliq salohiyatini aniqlash, jamlanma byudjetga soliqlarning kelib tushish hajmini aniqlash, turli darajadagi byudjetlarning daromad qismi bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish hamda prognozlashtirilayotgan hajmdagi moliyaviy mablag‘larni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlashdan iborat bo‘ladi.

Soliqlarni rejalashtirishning asosiy vazifasi esa, maksimal moliyaviy natijaga erishish va soliqlarni minimal darajada kamaytirishga qaratilgan soliqqa tortish tizimini tashkil etishdan iborat. Soliqlarni rejalashtirish bosqichlari esa tashkiliy-tayyorgarlik, tadqiqotchilik, rejani ishlab chiqish, rejani amalga oshirish kabilardan iborat.[96] Ba’zi iqtisodchi olimlar soliqlarni rejalashtirishni asosan korxona doirasida amal qiladi deb hisoblaydi, chunonchi, O‘zbekistonlik olimlardan S.Elmirzaevning fikriga ko‘ra, soliqlarni rejalashtirish-qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliqlar va va bajburiy ajratmalarni kamaytirish hada soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajariy bo‘yicha belgilangan moliyaviy rejalashtirish turidir[97], deb ta’kidlasa, yana bir o‘zbek iqtisodchisi M.Adilov soliqlarni rejalashtirish- qonunda belgilangan imtiyozlar va soliq majburiyatlarini qisqartirish usullarini qo‘llagan holda soliq yukini

---

[95] Ефимов С.С. Формирование системы налогового прогнозирования и планирования на макроуровне. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- Орёл, 2014. 22 с.

[96] Панасенкова Т.В. Модернизация системы налогового планирования и прогнозирования в современной экономике России: диссертация на соискание ученой степени к.э.н., Ростов-на-Дону, 2004.

[97] С.Элмирзаев. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини самарали ташкил этиш масалалари. Монография.Т.: Иқтисод ва молия. 2017.-59 б.

kamaytirishning qonuniy usulidir deb hisoblaydi[98]. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish elementlari ularning o‘zaro bog‘liqligi byudjet-soliq siyosatida maqsad qilib qo‘yilgan natijalarga erishishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilsada, ammo ularning elementlarini ularning ichki xususiyatlari va amalga oshirilish jarayonining mazmuni hamda ularga eng ko‘p ta’sir etuvchi omillarning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqdir.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonida elementlarni qo‘llashga tizimli yondashuv tadqiqotning natijalarining aniqligi va ishonchligini ta’minlaydi. Elementlarni qo‘llashda tizimiy yondoshuvlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning qonuniyatlarini mantiqiy asosda aniqlashga imkon beradi. Har qanday iqtisodiy jarayon yoki obyektning o‘zi o‘ziga xos tizimga ega bo‘lib, avvalo ushbu obyektning ichki tizimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish obyektning mohiyati va xususiyatini ochib bersa, boshqa tomondan uning amal qilishi jihatidan o‘ziga yaqin bo‘lgan kategoriyalar va munosabatlarga bog‘liqlik darajasini ham ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Ob’ektlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda ham tizimiy yondashuvning tamoyillariga asoslanish zarur bo‘ladi. Soliqlarni prognoz va rejalashtirishda ularning elementlarining o‘zaro bog‘liqligini tizimlashgan holda o‘rganish va qo‘llash bir tomondan ularning o‘z ichki xususiyatlarini ochib bersa, boshqa tomondan ularning yuzaga chiqish va amal qilishini belgilab beruvchi omillarni ham ko‘rsatib beradi. O‘z navbatida mazkur omillarni ularning o‘zlari bilan bog‘liq holda o‘rganish esa prognoz va rejalashtirish jarayonining qonuniyatlarini yanada ochilishiga yordamlashadi.

Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishda ularning elementlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda tizimli yondoshuvda asosiy e’tibor elementlarning o‘zaro yaqinligi, iqtisodiy munosabatlar makonida joylashgan o‘rni, shuningdek, byudjet jarayonidagi ahamiyati va ta’siri nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Masalan, soliq stavkasining o‘zgarishini soliq tushumiga ta’sirining o‘rniga soliq nazorati samaradorligiga ta’sirini o‘rganish prognoz nuqtai nazaridan to‘g‘ri bo‘lmaydi, bu yerda tizimiy yondashuv bo‘lsada, ammo maqsadga erishish nuqtai nazaridan noto‘g‘ri uslub hisoblanadi. Shuningdek, soliq imtiyozlarini soliq to‘lovchining moliyaviy faoliyatiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga bog‘liqligi o‘rniga soliq qarzdorligiga ta’sirini o‘rganish soliq tushumlari prognozini aniqlashga yetarlicha yordam

[98] М.Адилов. Тадбиркорлик фаолиятида солиқларни режалаштириш. Т.: “NORMA”, 2012.- 48 б.

bermaydi, boshqacha qilib aytganda, tizimiy uslub maqbul emas. Demak, tizimiy yondoshuvda ham albatta mantiq va tahlil usullariga tayanilish lozim bo‘ladi. Albatta, tizimli yondashuv ham o‘z navbatida ma’lum bir tamoyillarga asoslanadi.

Soliqlarni rejalashtirishdan farqli o‘laroq soliqlarni prognoz qilish murakkab hisob-kitoblarga, tahlillarga, qo‘llaniladigan usullarning xil-xilligi, ularni kombinatsiyalashgan holda qo‘llanilishi, axborotlar bazasining turli tumanligi va uni qayta ishlash darajasining yuqoriligi, nafaqat statistik, matematik, ekonometrik hisoblar, shuningdek, mantiqiy yondoshuvlarga ham tayaniladi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish tashkiliy bosqichda o‘zaro o‘xshash bo‘ladi. Ya’ni, ularni shakllantirishda qatnashuvchi sub’ektlarning ko‘pligidir. Soliqlarni rejalashtirishda axborotlar bilan ta’minlovchi organlar bilan birgalikda soliq siyosatining mazmuniga xos takliflarni ilgari suruvchi organlar ham ishtirok etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida esa, aksariyat qatnashuvchi organlar asosan axborotlar bilan ta’minlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan cheklanadi.

Albatta, soliqlarni prognoz qilishning eng muhim belgilaridan biri ham uning omillar ta’sirida bo‘lishligidir. Ya’ni, omillar tizimi bu jarayonda asosiy rol o‘ynovchi bo‘lib yuzaga chiqadi va ularning ko‘pligi va ta’sirchanligining nobarqarorligi soliqlarni prognoz qilish jarayonida prognoz natijalariga ta’sir etuvchi omillarni doim va turli xil usullarni mos holda qo‘llab borishni taqozo etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonida omillar ta’sirini baholashda ko‘pincha ular ma’lum guruhlarga bo‘linadi. Bundaylar qatoriga obyektiv va natijali omillarni keltirish mumkin. Obyektiv omillar jumlasiga prognozni amalga oshiruvchi soliq xizmati va boshqa organlar faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy omillar (yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, investitsiya, jamg‘arilish, iste’mol va narx indekslari, import-eksport hajmi va sh.k.) kiritilsa, natijali (ichki) omillarga bevosita soliq xizmati va boshqa moliyaviy organlarning faoliyati natijalari kiritiladi. Natijali omillarning ta’sirini esa soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan turli xil tekshiruv natijalari, soliqlarni undirish borasidagi ishlar, soliq to‘lovchilarni o‘z vaqtida ro‘yxatga olish, informatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, soliq to‘lovchilarning madaniyatini oshirish borasidagi amalga oshirilgan ishlar va shu kabilar bilan o‘lchanadi.[99] Ammo, qayd etilganlarni e’tirof etish bilan bir qatorda bizning

[99] Маслова И.А. Планирование и прогнозирование налоговых рисков для целей эффективного налогового менеджмента /И.А. Маслова// Управленческий учет. — 2012. — №6.– С. 75-80.; Рогачев А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа / А.Ю. Рогачев // Налоговая политика и

fikrimizcha, soliq prognoziga ta’sir etuvchi omillarni bunday tartibda guruhlash uslubiy jihatdan unchalik to‘g‘ri emas. Qayd etganimizdek, prognoz jarayoni o‘ta qaltis va ma’suliyatli jarayon bo‘lib, uning natijasi iqtisodiy siyosatning mazmuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Omillar to‘plamini to‘g‘ri baholamaslik prognoz natijasiga salbiy ta’sir etishi, provardida esa, iqtisodiy siyosat qolaversa, soliq siyosatining taktik yo‘nalishlarini noto‘g‘ri belgilanishiga olib keladi. Shu boisdan prognoz natijalariga ta’sir etuvchi omillarni avvalo uslubiy jihatdan to‘g‘ri guruhlab olish lozim bo‘ladi.



18-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning zaruriy omillari[100]

Keltirilgan rasmdan ko‘rinadiki, soliqlarni prognoz qilishning obyektiv zarurligining negizi avvalo markazlashtirilgan pul fondlarining tashkil etilishga bog‘liq bo‘ladi va fiskal siyosatning asosiy o‘zagini tashkil etadi. Chunki, fiskal siyosat asosan pul fondlarining moliyaviy manbalarini aniqlash va ularni jalb etilishga qaratilgan bo‘ladi. O‘z navbatida, soliqlarni prognoz qilishning zarurligini tavsiflovchi holatlar uning o‘ziga xos belgilari bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Rejali iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiy tizimda soliqlarga munosabat va ularning byudjetni shakllantirishdagi roliga muvofiq ravishda prognoz jarayonining zarurligi

практика. — 2006. — №1. — с. 44-48.; Смирнов, А.Н. Модель оптимизации системы налогов. Диссертация кандидата технических наук. — М., 1999.

[100] Muallif ishlanmasi.

belgilangan va amalga oshirilgan, ya’ni, passiv holatda bo‘lgan. Bozor iqtisodiyotga asoslangan milliy xo‘jalik yuritish sharoitida esa soliqlarni prognoz qilishning zarurligi, uning moliyaviy boshqaruvdagi roli hamda amalga oshirish tartiblari o‘zgacha, ya’ni faol ahamiyatga ega bo‘ladi.

Soliq tushumlarini prognoz qilish jarayoni boshqa iqtisodiy jarayonlardan alohida muhim farqi va murakkabligi shundaki, soliqni prognozlash jarayoni bir tomondan yuqori ehtimollikka asoslansa, boshqa tomondan ushbu jarayonni to‘g‘ri amalga oshirish juda ko‘plab omillarning ta’sirini to‘g‘ri baholash va chuqur ilmiy tahlillarga asoslangan holda oqilona qaror qabul qilishni talab etadi. Albatta, soliqlarni prognoz qilish jarayoni ma’lum tarkibga ega bo‘ladi. Bizningcha u quyidagi tarkibga ega (19-rasm).



19-rasm. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining tarkibiy tuzilishi[101].

Soliqlarni prognoz qilish jarayoni avvalo soliq to‘lovchilarning yuzaga kelish jarayonlarini prognoz qilish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni byudjetga kelib tushishini prognoz qilish, milliy iqtisodiyot, hudud, tarmoqlar va alohida olingan soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini aniqlash hamda byudjetni rejalashtirish va soliqlarni prognozlash natijalarini bog‘liqligini ta’minlashdek, o‘zaro bog‘liq va ketma-ketlikka asoslangan jarayonlardan iborat bo‘ladi.

Iqtisodiy prognoz umumiy prognozda qanday rol o‘ynasa, ob’ektlarni qamrab olishi nuqtai nazardan moliyaviy prognozlar ham iqtisodiy prognoz guruhida shunday ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy prognozlar tarkibiy jihatdan moliyaviy resurslarning prognozi, byudjetni prognozlashtirish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini prognozlashtirish hamda soliqlarni prognozlashtirishdan iborat bo‘ladi. Moliyaviy prognozlar

[101] Muallif tomonidan tuzilgan.

iqtisodiy prognozlarning boshqa turlarining amal qilishining muhim sharti va asosi hisoblanadi.

Soliqlarni prognozlashtirish bu — mamlakat va hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishga asoslangan holda soliqlarni byudjetga jalb qilish jarayoni maqsadida, soliqlar bazasini aniqlash, soliqlar va to‘lovlarni tahlil qilish, soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasi, soliq qarzdorlikni baholash hamda soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarni monitoring qilish munosabatlaridir.[102] A.Paskachevning ta’kidlashicha, soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq siyosatini amalga oshirishda katta rol o‘ynaydi, ya’ni soliqlar bo‘yicha tushumlar hajmi oshirib ko‘rsatilsa, soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida, soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlari kamaytirib ko‘rsatilsa, byudjet daromadlarining xarajatlardan oshishiga olib keladi, byudjetda daromadlarning xarajatlardan oshishi ijobiy holat deb baholansada, ammo, prognoz ta’siridagi bunday holat salbiy va bu esa, byudjetni rejalashtirishda xatoliklar yuzaga kelganligini ifodalaydi[103]. Iqtisodchi mutaxassislardan R.Sakayan va G.Ananevalarning fikricha, soliqlar prognoz qilish o‘zida soliq salohiyatini aniqlash asosida jamlanma byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishini prognoz qilish va shu bilan birgalikda mamlakatning sotsial-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlashning muhim bazasidir.[104] S.Barulin, Ye.Ermakova, V.Stepanenkolar soliqlarni prognoz qilish bu-haqiqatni aniqlashga asoslangan oldindan ko‘ra bilish jarayonidir, prognozning asosiy maqsadi esa, obyektning u yoki bu holati haqida aniq va ishonchli ma’lumot berishdan iborat bo‘lishi lozim deb hisoblaydi[105].

Ko‘p yillardan buyon soliqlarning prognozlashtirish muammolari bilan shug‘ullanadigan V.Krasniskiy soliq prognozi tushunchasiga yondashuvi R.Sakayan va G.Ananevalar bilan o‘xshash bo‘lib, uning mohiyati soliq salohiyatiga asoslangan holda turli darajadagi byudjetlarning soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat deb hisoblaydi.[106] "Soliqqa tortish tizimida prognozlash va rejalashtirish" o‘quv qo‘llanmasining mualliflari Ye.Raznik va I.Samsonovalar esa, soliqlarni prognoz qilishni soliqlarni undirish jarayonining bosqichi deb ta’riflab,

[102]Анализ и планирование налоговых поступлений: теория и практика / А.Б. Паскачев, Ф.К. Садыгов, В.И. Мишин, Р.А. Саакян, О.А. Бессчетная, В.Н. Засько, А.И. Новикова; под ред. Ф.К. Садыгова. М.: Издательство экономико-правовой литературы, 2004. 39 с.

[103] O‘sha yerda.

[104] Р.А. Саакян, Г.И. Ананьева. О некоторых аспектах налогового прогнозирования и планирования. http://www.nalvest.com/nv-articles/detail.phpID=24593.

[105] Барулин С.В, Е.А.Ермакова, В. В. Степаненко. Налоговой менеджмент.М.: -Омега. 2007. 57 с.

[106]Красницкий В. А. Эффективная реализация аспектов налогового прогнозирования и планированияврамках развития налогового администрирования. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (2011), 10-1 (октябрь), 59 с.

uning ilmiy asoslangan va ishonchli hamda qo‘yilgan vazifani bajarishning unsurlari (detallari)ni ko‘rsatib beruvchi muhim jarayoni sifatida tavsiflaydi.[107] Ye.Lavrenchukning fikricha, soliqlarni prognoz qilish asosida tadbirkorlik sub’ektlarining soliq to‘lash imkoniyati yotadi. O‘z navbatida, muallif soliq prognozini mikron darajada talqin qilib soliq prognozini amalga oshirishdan maqsad soliq to‘lovchi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini baholash asosida ularning soliq to‘lovlarini amalga oshirish shart-sharoitlarni baholash, korxonaning strategik boshqaruvi uchun asosli xulosalarni olish, amaldagi soliq qonunchiligiga tayangan holda qo‘llaniladigan usullarni aniqlash soliq to‘lovlarini optimallashtirish asosida xarajatlarni samarali sarflashning yo‘llarini aniqlab olishdan iborat deb hisoblaydi.[108] Soliqqa tortish nazariyasi bo‘yicha yirik olimlardan biri I.Aleksandrov soliqlarni prognoz qilish bu- byudjet-soliq siyosati tizimida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda soliq daromadlarning salohiyat hajmlarini aniqlashga asoslangan jarayondir deb ta’riflaydi.[109] Soliqlarni prognoz qilishag oid ilmiy yondoshuvlarning umumiy yo‘nalishiga qaraydigan bo‘lsak, ularning umumiy xususiyatlari shundaki, soliq prognozi bu davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirish va soliq salohiyati masalasi muhim o‘rin tutadi. Bizning fikrimizcha, mazkur yondoshuvlar iqtisodiy jihatdan o‘z mohiyatiga ega bo‘lsada, soliqlarni prognoz qilish jarayonining mohiyatini to‘liq ifoda eta olmaydi.

Bizning ushbu mualliflik yon-oshuvimizning asoslari sifatida quyidagi keltirilayotgan soliqlarni prognoz qilishning tarkibini guruhlash borasidagi mulohazalarimiz orqali ham ifodalaymiz (20-rasm).

[107]Разник Е.Д., Самсонова И.А. Прогнозирование и планирование в налогообложении: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 14с.

[108]Лавренчук Е.Н. Налоговое прогнозирование. Экономические науки 2011, 1(74).

[109]Александров И. М. Налоги и налогообложение. Учебник. 2009, Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°» Москва, 138 с.



20-rasm. Soliqlarni prognoz qilishning guruhlanishi[110].

Keltirilgan rasmdan ko‘rinadiki, soliqlarni prognoz qilish jarayoni ham ma’lum mezonlarga asosan guruhlanadi. Bunday guruhlanish ularning mohiyatini va ular o‘rtasidagi farq va o‘zaro bog‘liqni ko‘rsatib beradi. Soliqlarni prognoz qilish ko‘lamiga ko‘ra, soliq to‘lovchilarning yuzaga

[110] Muallif tomonidan tuzilgan.

kelish jarayonlarini prognoz qilish, soliq tushumlarini byudjetga kelib tushish jarayonini prognoz qilish milliy iqtisodiyot, tarmoq, hududlar, soliq to‘lovchilarning soliq salohiyatini baholash (aniqlash) kabi jarayonlarni qamrab olib o‘z navbatida uning makro va mikron darajadagi jarayonlarni qamrab olinishini ifodalaydi. Prognoz ob’ektlarini qamrab olishi jihatdan esa, byudjetning soliq daromadlar qismini prognoz qilish, byudjetga undiriladigan majburiy to‘lovlarni prognoz qilish hamda soliq prognoziga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq, byudjet, pul-kredit demografik, tashqi iqtisodiy jarayonlarning ta’siriga oid munosabatlarning yo‘nalishlarini prognoz qilishga ajraladi.

Funksional belgisiga qarab intiutivli, formatsiyalashgan, sifatiy, miqdoriy hamda kombinatsialashgan guruhlarga ajratilishida ularni tadqiq qilish nuqtai nazardan yondoshiladi. Soliqlarni prognoz qilishning muddatliligi bo‘yicha guruhlanishi iqtisodiy va moliyaviy prognozlarda farqli ravishda, ularning muddatliligi oralig‘i qisqaroq. Sababi, soliqlarni prognoz qilish jarayonining ko‘pi bilan 5-7 yildan ortiq muddatga ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubiy jihatdan mumkin bo‘lsada, ammo, soliq tizimi tez o‘zgaruvchan va moslashuvchan bo‘lganligi sababli ularning juda uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari haqiqatdan uzoqlashib qoladi.

Soliqlarni prognoz qilish (tax forecfsting) muammolari ko‘pgina dunyo olimlarining ilmiy tadqiqotlarining asosini tashkil etgan. Jumladan, Liu Li-xea, Zhuang Ui-qi, Liu Xue-yong[111]lar o‘z ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilishda an’anaviy usullaridan farqli ravishda qo‘llab quvvatlovchi vektorli mashinaning kombinatsiyasiga asoslangan usullar (CVM) va zarracha optimallashtirish (PSO) usullarini yaxlit holda qo‘llashning afzalliklarini yoritgan.

Agustin Kintanar Jr., Tito Mijares[112]lar tomonidan 1960 yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi jahon amaliyotidagi dastlabki yaxlit ilmiy tadqiqot ishlaridan biri deb hisoblash mumkin. Ushbu olimlar Filippin yaxlit ilmiy tadqiqot ishlarida davlatida soliq tushumlari (tax revenue)ni davlat darajasida hamda korxonalar (korporatsiyalar) doirasida 1960-1962 yillar oralig‘i davrdagi ma’lumotlarga asoslanib, soliq siyosatidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlagan hamda ularning metodologik yo‘nalishlarini ko‘rsatib bergan.

[111] Liu Li-xea, Zhuang Ui-qi, Liu Xue-yong.Tax forecasting theory and model hased on SVM optimized by PSO Expert Systems with Applications 38 (2011), pp. 16-20.

[112] Agustin Kintanar Jr., Tito Mijares. Estimation and forecasting of tax revenue. institute of economic development and research. University of the Philippines IV. lurch 19,1965.

Amerikalik olim Rudolph G.Kenner[113] ham o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoniga keng e’tibor bergan olimlardan sanaladi. Rudolph G.Kenner o‘tgan asrning 70 yillardan keyingi davrlarga xos AQShdagi iqtisodiy, jumladan, soliqlarni prognoz qilishning xususiyatlarini tahlil qilish bir qatorda federal byudjet daromadlarini prognoz qilish masalalarini ham tadqiq qiladi. U federal byudjetning soliqni daromadlari prognoz qilishda joriy, navbatdagi va besh yillik xatoliklarni tahlil qilib, uning korrelayatsion xususiyatlari va sabablarini ko‘rsatib bergan. Shu bilan birgalikda, 1984-2005 yillar oralig‘ida yalpi ichki mahsulotning o‘zgarish foizlari va uning tahlilini amalga oshirib, har besh yillikdagi tendensiyalarni aniqlaydi hamda soliq prognozining aniqligini oshirish yuzasidan metodologik tavsiyalar ishlab chiqadi.

Jaremsri L.Mitrpanont, Pattama Tounprasert[114]larning ilmiy ishlarida Tailandda byudjet daromadlarini prognoz qilishda bir qator modellarning xususiyatlari va ularning samaradorligi masalalari o‘rin olgan. Mualliflar Tailandda soliq tushumlarini daromadlar bo‘yicha prognoz qilishda moliyaviy instrumentlar modeli (MBS-Model Based System Tool for the Tax Revenue Forecasting)ning qo‘llanilishi samaradorligini ko‘rsatib bergan. Ular ushbu modelni asosan 5 ta: ETTRF, NITTRF, STTRF, TTRFA va TTRFAC kichik modellardan iborat bo‘lib, uning soliq prognozi jarayonining aniqligini oshirishdagi ahamiyati va ularning qo‘llashda vaqt omillarini qisqartirishga erishishning yo‘llari ko‘rsatib bergan.

Portugaliyalik iqtisodchi – olimlardan Paulo Soares Esteves, Claudia Rodrigues Braz[115]lar ham byudjet – soliq siyosatining samaradorligini oshirishda qisqa muddatli soliq prognozlarini amalga oshirishning metodik yo‘llarini ko‘rsatib bergan. Ular egri soliqlar jumlasiga kiruvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i (value-added tax), neft mahsulotlari sotuvidan olinadigan soliq (tax on oil products) hamda avtomobillarni sotish soliqlari (tax on vehicle sales) bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashning mexanizmlarini aniqlab bergan. AQShning Michigan shtati universiteti olimlari Nicole Bradshaw, Linn Harvey, Christina Plerhoples[116] o‘zlarining “Berri shahri bo‘yicha moliyaviy tahlil va prognoz” (Barry Country Financial Analysis and Forecast Report) nomli ilmiy hisoboti doirasidagi

[113] Rudolph G.Penner. Federal revenue forecasting. Chapter reproduced with permission from Handbook of Government Budget Forecasting (New York :Taylor, Francis), forthcoming in July 2008.
[114] Jaremsri L.Mitrpanont, Pattama Tounprasert. Model-based system tool for the tax revenue forecasting (mbs-ttrf) 2011 Eighth International Joint Conference on Computer Science and Software Engineering (JCSSE) pp.132-137.
[115] Paulo Soares Esteves, Claudia Rodrigues Braz. Short-term forecasting of indirect tax revenues: an application for portugal. banco de portugal/economic bulletin .Summer. 2013. 2. pp.49-67.
[116] Nicole Bradshaw, Lynn Harvey, Christina Plerhoples. Barry Country Financial Analysis and Forecast Report 2011.

ilmiy tadqiqot ishlarida soliqlarni prognoz qilishga oid muammolarni ilmiy –nazariy jihatdan tadqiq etadi. Unda uy–joydan olinadigan soliq (Residential Property Tax) bo‘yicha 2010-2015 yillar oralig‘iga doir prognoz ko‘rsatkichlari aniqlangan, soliqqa tortiladigan mol-mulkni (Property Taxable) baholash usullari ko‘rsatib berilgan va mol-mulk solig‘ining bazasi (Property Tax Base)ni aniqlash mexanizmlari hamda prognoz qilishning metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mualliflar tushumlar umumiy fondi (General Funt Revenue) va daromadlar maxsus fondlar (Special Revenue Funds)ning 2004-2009 yillarga tegishli davrdagi ko‘rsatkichlarini prognoz qilgan hamda ularning daromadlari bo‘yicha peccimistik (Pessimistic (Lozer–bound) Scenario) va optimistik proeksiyalar va ularning bog‘liqlik darajalari (Optimistik Property Vaule Projection Caluculated at Parcel Lepel) ning prognoz variantlarini ishlab chiqqan.

Kalifornaya universiteti professori Robert Krol[117] AQShning soliqli daromadlarini prognoz qilishda vaqt qatorlari muqobil modellarini (alternative timas –seri-es model to forecast state tax revenues) qiyosiy tahlil qiladi. Muallifning fikriga ko‘ra, Kaliforniyada umumiy soliqni daromadlar bo‘yicha prognoz asosan 3 ta komponentlar: cavdo, daromad va yuridik shaxslardan olinadigan soliq tushumlar (sales, income and corporate tax revenue) asosida amalga oshiriladi. Muallif soliqlarni prognoz qilish jarayonida vektorli avtoregressiya (Vektor autoregressions (VARs)) va baysik-vektorli avtogregressiyalar (Bayesian-vektor autoregressions (BVARs))ning qo‘llanishi va uning samaradorligini tahlil qilgan holda ularni qo‘llashning metodologik asoslarini ko‘rsatib beradi.

Xuddi shuningdek, AQSh olimlaridan yana biri H.Baghestani[118] tomonidan federal byudjetning soliq daromadlarini vaqt qatorlari modellari (time–seri-es model) asosida prognoz qilishga oid, M.Banbura, D. Gionnone, L.Reichlin[119]lar tomonidan esa, katta baysik-vektorli avtoregressiyalarni (large bayesian vektor auto regressions) prognoz jarayonida qo‘llashning metodologik muommolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, Mark Berdik, Don Malchose[120]lar tomonidan Shimoliy Dakota shtati byudjetining soliq daromadlaridan

[117] Robert Krol. Forecasting State Tax Revenue: A Bayesian Vector Autoregression Approach.2010.

[118] Baghestani H. 1992. Forecasting the Federal Budget with Times –series Models. Journal of Forecasting 11: pp.127 - 139.

[119] M.Banbura, D.Giannone and L.Reichlin. 2010. Large Bayesian Vector Auto Regressions. Journal of Applied Econometrics 25:pp.71-92.

[120] Mark Berwik, Don Malchose. Forecasting North Dakota fuel tax revenue and license and registration fee revenue.Upper Great Plains Transportation Institute North State University Fargo, North Dakota 2012.

bo‘lgan yoqilg‘i solig‘i (for duel tax revenue) hamda litsenziya va ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun to‘lovlar (collections and license and registration fees) bo‘yicha tushumlarni statistik va ekonometrik modellarni qo‘llash asosida prognoz qilish masalalari tadqiq qilingan. Flippinlik olim Rosario G.Manasan[121] mamlakatda undiriladigan ichki soliqlar bo‘yicha soliq tushumlari prognoz qilish modellarini tadqiq etgan bo‘lib, unda barcha soliqlarni to‘rt guruhga bo‘ladi: birinchi guruhga foydadan olinadigan soliqlar (income taxes) litsenziyalar va biznesga soliqlar (licese and business taxes) maxsus soliqlar (specific taxes) va boshqa soliqlar (ot-er taxes)larga bo‘lgan holda tahlil qilib, ularning prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlagan. Prognoz jarayonida esa, 1961-1978 yillar oralig‘idagi miqdor ko‘rsatkichlariga asoslangan holda 1979-1982 yillarga tegishli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Prognoz sohasida yirik ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashhur AQShlik olim M.Jr.Fullerton Thomas[122] soliqlarni prognoz qilishning aniqligini oshirish maqsadida turli xildagi tarkibli modellashtirishdan foydalanadi va ushbu modellar asosida Aydaxo shtati byudjetga soliq tushumlarini prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Birinchi xil modellar sifatida ekonometrik modellardan, ikkinchi xili sifatida bir o‘lchamli vaqt qatorlari ARIMA (autoregressive integrated moving average) modelidan foydalanadi. Litvalik iqtisodchi olim E.Maciulaityte[123] esa, byudjetga foyda solig‘i (income tax) bo‘yicha tushumlarini prognoz qilishda modellashtirishning turli xil yo‘llaridan foydalanadi. Muallif soliq tushumlarini prognozlashtirish (forecasting tax revenue) jarayonini ikki bosqichga bo‘lishni taklif qiladi. Ya’ni, birinchi bosqichda foyda ko‘rsatkichlari turli xil iqtisodiy parametrlar bo‘yicha lineyli regressiya (Linear regress-ion) ko‘rinishda ifodalaydi, keyingi bosqichda esa, foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar foyda va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lgan funksiya tariqasida ifodalanadi.

Bu funksiya soliq stavkasi (TR), soliq to‘lovlari muddati (TER), foyda solig‘i avanslarini hisoblash usullari (IST) va foyda solig‘i bo‘yicha boqimanda so‘mmalarini keyingi muddatlarga o‘tkazish tartibi (N) kabi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi.

---

[121] ROSARIO G.MANASAN. An econometric model for forecasting internal taxes: a national level approach. September 1981, Philippine Institute for Development Studies.

[122] M. Jr.Fullerton Thomas. A composite approach to forecasting state government revenues: Case study of the Idaho sales tax International Journal of Forecasting 5. (1989) 373-380.

[123] E. Maciulaityte. “Ways of modeling and forecasting profit tax revenue in Lithuania” //Economics, Vol.73 (2006), pp.57-67.

Filipinllik olim Gramboa Ana Sophia[124] soliqlarni prognoz qilishning eng ko‘p tarqalgan usullaridan bo‘lgan elastik (elasticity) va suzib yuruvchi (buoyancy) kabi usullarini qo‘llash katta ahamiyatga ega deb hisoblagan. Muallifning fikricha, soliq tizimining o‘zgarishi va o‘zgarmasligi holatida soliq bazasiga asosan soliq tushumlarini prognoz qilishda qayd etilgan modellar samara beradi. Glenn P.Jenkins, Chun-Yan Kuo Gangadhar P.Shukla[125]lar ham o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida soliq tushumlarini prognoz qilish modellashtirish masalalariga atroflicha qaraydi. Ular soliqlarni prognoz qilishda avvalo, umumiy qonuniyatlarni makro darajada modellashtirib, undan so‘ng har bir soliq turi bo‘yicha alohida modellarni qo‘llash asosida yondoshadilar. Shuningdek, ular soliqlarni prognoz qilish modellarini dinamik va statistik turlarga bo‘lib, dinamik modellar soliq tushumlari va soliq bazalarining o‘zaro bog‘liqlarini ifodalashligini, statistik modellar esa soliq bazasining tashqi o‘zgarishlarini izohlashligini ko‘rsatib beradi.

Ularning fikricha, statistik modellarni qo‘llash uchun soliq tushumlari hajmidan soliq qonunchiligi asosidagi o‘zgarishlarning ta’siri qismini olib tashlash lozim bo‘ladi. Ushbu korriktirovka qilingan soliq tushumlari va soliq bazalariga asoslanib regressiyalar tuzib, har bir soliq turi bo‘yicha soliqlarning egiluvchanligini aniqlash mumkin va bu yondashuvdan soliqlarni prognoz qilishning keyingi jarayonlarida qo‘llash samara berishligi isbotlangan. Rossiyalik iqtisodchi olimlar R.Entov, V.Noski, A.Yudin, P.Kadochnikov, S.Ponomarenko[126] byudjetga soliq tushumlarini prognozini aniqlashda soliqlarni prognoz qilishning integrallashgan avtoregressiyaning o‘rtacha sirpanish modeli (autoregressive integrated moving average (ARIMA) va soliq tushumlarini baholash modeli (Revenue Estimating Model (REM)ni qo‘llaganlar. Ushbu modellarni qo‘llashda bir necha vaqt, ya’ni, umumiy soliq tushumlari, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad solig‘i bo‘yicha tushumlari kabilardan foydalanadi. Har bir vaqt qatorlari bo‘yicha ikki turdagi ekonometrik modellar: determinallashgan trend jarayonlari uchun (TS) modeli, stoxastik jarayonlar uchun (DS) modellar ishlab chiqilib, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar baholangan.

---

[124] Gamboa Ana Ma. J.Sophia. Development of Tax Forecasting Models: Corporate and Individual Income Taxes //Philippine Institute for Development Studies Discussion Paper Series no.2002- 06.April 2002.

[125] Glenn P. Jenkins Chun – Yan Kuo, Gangadhar P.Shukla- Tax Analysis and Revenue Forecasting: Issues and Techniques // Harvard Institute for International Development Harvard University (June 2000).

[126] Энтов Р.М, Носко В.П, Юдин А.Д, Кадочников П.А, Пономаренко С.С. Проблемы прогнозирования некоторых Макроэкономических показателей // Научные труды ИЭПП №46. Москва, 2002г. (http://www.iep.ru/ru/problemy-prognozirovaniya-nekotory-makroekonomicheski-pokazatelei-nauchnye-trudy-6.html).

14.4. Soliqlarni prognoz qilishda modellarni qo‘llash

Soliqlarni prognoz qilish jarayonida eng muhim bosqichlardan biri bu, uni amalga oshirishda qo‘llaniladigan modellar va usullarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish hisoblanadi. Tadqiqotlar metodologiyasida model va usullar ilmiy bilishning muhim quroli sifatida qayd etiladi. O‘rganilayotgan obyektning yashiringan ichki va tashqi xususiyatlarini bilishda mantiqiy, tarixiy yondoshuvlar uning tashqi xususiyatlarini ochib beradi xolos. Obyektni chuqurroq o‘rganish esa, ma’lum bir yondoshuvlar tizimidan foydalanishni taqozo etadi, bu esa model va usullarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Avvalo "model", "modellashtirish" "usul" kabi tushunchalarning mazmunini bilish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida "Model" lotin tilidan oligan bo‘lib "modulus" — "o‘lchov, me’yor" me’yor degan ma’noni beradi. modellashtirish esa, jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish degan ma’noni beradi" deb ta’riflangan, ammo ushbu tushunchalarning iqtisodiyot bilan bog‘liq tushunchalari keltirilmagan.[127] Boshqa bir manbalarda "Model fransuzcha "modèle", latincha "modulus" — «o‘lchov, o‘xshash, namuna degan ma’noni berib, bu boshqa tizim xususida ma’lumot olish tizimi va real holatni tasavvur va uning ko‘rinishlarini anglash vositasidir" deb, ta’rif berilgan[128].

Modellar haqiqatni aks darajasiga qarab evristika, natural va matematik turlariga bo‘linadi. Evristika model inson ko‘rinishi va xususiyatlarini namoyon etishda qo‘llanilsa, natural modellarning mohiyati shundaki, ular mavjud holatni aniq ifodalaydi, faqat hajm va miqdor jihatdan farqlanadi. Matematik modellar ham keyingi vaqtlarda jamiyat ijtimoiy hayotining turli jabhalarini, jumladan sotsial-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda keng foylanilib kelinmoqda. Bunday modellarning asosini matematik-mantiqiy yondashuv asosida ob’ektlarni miqdoriy jihatdan o‘rganish hisoblanadi. Matematik modellarning eng ko‘p tarqalgan turlari jumlasiga analitik, miqdoriy, formal-mantiqiy axborot modellarni kiritish mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, matematik modellar qo‘llash va iqtisodiy jihatdan ancha qulay sanaladi. Modellar tuzilishi va jarayonlarni qamrab olishi jihatdan bir-biridan farqlanadi, ya’ni ularning funksional vazifalari darajalanadi. Shu jihatdan olganda, funksional, prinsipial, strukturali va parametrli modellarga ajratiladi.

Funksional model (ba’zi hollarda abstraktli model ham deb ataladi) bu o‘rganilayotgan obyektning ichki va tashqi elementlarining o‘zaro

[127] Qarang: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "M" harfi. Toshkent. 671 b.

[128] Уемов А. И. Логические основы метода моделирования. М.: Мысль, 1971. — 48 с.

bog‘liqligini ochib berishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotdagi har qanday jarayon o‘z ichki va tashqi elementlari va omillarga bog‘liq bo‘lib, birining o‘zgarishi boshqasining o‘zgarishi ta’sir qiladi va uni o‘ziga bog‘liq (tobe) qilib qo‘yadi, shu bilan birgalikda o‘zi ham tobe bo‘ladi. Bunday holat soliqlarni prognoz qilish jarayonida doim sodir bo‘ladi, qolaversa, tashqi va ichki elementlarning o‘zaro bog‘liqligi juda kuchli bo‘ladi. Masalan, soliq stavkasining o‘zgarishining soliq tushumlariga ta’sirida ichki va tashqi omillar va elementlarning o‘zaro bog‘liqligi juda kuchli bo‘ladi, ular o‘rtasidagi funksional aloqalarni o‘rganish esa, soliq tushumlari hajmini aniqroq darajada aniqlashda katta rol o‘ynaydi. Bu yerda asosiy masalalardan biri ham o‘zaro funksional bog‘liq elementlarni to‘g‘ri aniqlash kerak bo‘ladi.

Prinsipial (konseptual model) model o‘rganilayotgan obyektning real holati va uning aloqalariga asoslanadi. Deyarli barcha jarayonlarda prinsipial aloqalar va harakatlar mavjud bo‘ladi, modellashtirishda ularning ana shu jihatlariga e’tibor qaratiladi. Masalan, soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq tushumlarining oshishi va kamayishini tushumning prinsipial xususiyatlari (dinamik tarzda bo‘lishi, omillarga bog‘liqligi, soliq xizmati organlarining faoliyati va sh.k)ga tayanilish lozim bo‘ladi. Strukturali modelning asosida har qanday obyekt ma’lum bir tarkibga ega bo‘ladi, ularning rivojlanish jarayonlarini o‘rganish esa, tarkibiy ketma-ketlikning ierarxiyasining mavjudligi yotadi. Tarkibiy zvenoga ega bo‘lib, ularning bog‘liqligini kuchaytiradi va ular o‘rtasida prinsipial va funksional aloqalarni aniqlash imkoni tug‘iladi, shu jihatdan olganda mazkur modellar yuqorida qayd etilgan pritsipial va funksional modellarni to‘ldiradi va ularga xizmat qiladi. Parametrli modellar odatda matematik modellar ham deb ataladi. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, modellashtirilayotgan tizimning funksional va yordamchi (asosiy va asosiy bo‘lmagan) parametrlari o‘rtasida miqdoriy bog‘liqliklarni ochib beradi.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari modellar tizimi xususiyatlari, darajalari va maqomiga qarab oddiy va murakkab, bir xil turdagi va xilma-xilli, ochiq va yopiq, statistik va dinamik, barqaror va ehtimolli modellarga ham guruhlanadi[129]. Modellarning shakli va turiga qarab modellashtirish yuzaga chiqadi. Modellashtirish tegishli modelni qo‘llagan holda jarayonni amalga oshirishning amaliy jarayonidir. Modellar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qanday tartibda o‘rganishning samarali vositalarini ifodalab bersa, modellashtirish ana shu jarayonlarning mexanizmlarini ko‘rsatadi.

[129] Юдин А. Д. Экстремальные модели в экономике. М., 1979, 79 с.

Modellashtirish ham modelning xususiyati, modellashtirilayotgan obyektning xarakteri va uning qo‘llanish sohasiga qarab ma’lum bir guruhlarga bo‘linadi. Hozirgi kunda adabiyotlarda modellashtirishning quyidagi: axborotli, kompyuterli, matematik, matematik-kartografik, molekulyarli, raqamli, mantiqiy, pedagogik, psixologik, statistik, tarkibli, fizik, imitatsion, evolyutsion, grafikli-geometrik, naturali va iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi turlari mavjud.[130]

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni modellardan foydalangan holda prognoz qilish modelni ishlab chiqish, uni eksperimental tahlil qilish, model asosidagi prognoz hisob-kitoblari natijalarini obyekt yoki jarayonning amaldagi holati ma’lumotlari bilan taqqoslash, modelni aniqlashtirish va tuzatishlar kiritishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish darajasiga qarab, makroiqtisodiy, tarmoqlararo, hududlararo, tarmoq, hududiy modellar va mikrodarajadagi modellar (firmaning rivojlanish modellari) farqlanadi. Iqtisodiyotning rivojlanish jihatlari bo‘yicha narx, mehnat resurslari, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish modellari ajratib ko‘rsatiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda[131] ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan soliqlarni prognoz qilishning modellarini ularning mohiyati, qo‘llanilish darajasi va ulardan olinadigan natijalarning darajasiga qarab makroiqtisodiy, mikroimatatsiyali va ekstropolatsiya modellarga bo‘lishsa, ba’zilarida makroiqtisodiy modellarni ekonometrik (tarkibsiz) va gibridi (tarkibli) guruhlarga ajratishadi.[132] Qayd etilgan mualliflarning fikricha, ekonometrik modellar davlatning iqtisodiy siyosatini qiyosiy tahlil qilishga mo‘ljallanmagan. Gibridi modellar esa, o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy muvozanatni modellashtirishga xizmat qilib iqtisodiy islohotlarning oqibatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ushbu ikkala modellarning o‘xshashligi shundaki, iqtisodiy nazariyalarga asoslanadi davlatning iqtisodiy siyosatining ssenariyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Gibridi makroiqtisodiy modellar makroiqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda iqtisodiy jarayonlarning afzallik jihatlari alohida olingan statistik usullar

[130] Глинский Б.А. Моделирование как метод научного исследования. М., 1965. 56 с.

[131] Qarang: Рогачев А.Ю. Моделирование налоговых поступлений на примере Сибирского федерального округа / А.Ю. Рогачев // Налоговая политика и практика.- 2006.- №1. -44-48 с..; Попова Л.В. Моделирование планирования налоговых поступлений в федеральный бюджет Орловской области / Л.В. Попова // Экономические и гуманитарные науки.-2012.- № 3. –76-80 с.; Сидорова Н.И. Налоги в государственном регулировании экономики. Финансы. — 1996. — № 11. — 26-27 с.

[132] Diebold, Francis X., "Thepast, present, and future of macroeconomic forecasting",National Bureau of Economic Research, 1997, NBER workingpaper, number 6290, month November.; Алексеев Александр, "Межстрановая и многоотраслевая вычислимая модель общего равновесия", ЦЭМИ РАН, 2005, Препринт-36-47с.

orqali aralashtirilib, ular ma’lum bir o‘lchamlarga keltiriladi, bunda esa, eng muhim iqtisodiy indikatorlar (masalan, yalpi ichki mahsulot, investitsiya, iste’mol darajasi v sh.k.) asosiy mezon sifatida olinadi.

Biroq, alohida olingan parametrlar makroiqtisodiy tahlillarga asoslangan holda ularning dinamik jarayonini o‘rganish qiyin, shu sababli ekonometrik usullardan foydalaniladi. Bu esa makroiqtisodiy modellarni ikki turga bo‘linishiga olib keldi. Ushbu modellarda asosan statistik qonuniyatlarga asoslanib, o‘zaro bog‘liqlikdagi parametrlarning qaysi biri ko‘proq ta’sirchan xususiyatga ega bo‘lishiga alohida urg‘u beriladi.

Byudjet-soliq sohasidagi makroiqtisodiy prognozlashtirish modellari byudjetni samarali rejalashtirish va uni boshqarishga mo‘ljallangan. Bunda soliqlarning byudjetga tushishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rta va uzoq muddatli dinamikasini chuqur va sifatli prognoz qilishni talab qiladi. Soliq tushumlari esa davlatning iqtisodiy, jumladan byudjet-soliq siyosati, iqtisodiy islohotlarning mazmuni va yo‘nalishlari hamda tashqi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bular makroiqtisodiy omillar hisoblanadi. Bunday omillarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks o‘rganish ma’lum bir makroiqtisodiy modellarni qo‘llashni taqozo qiladi.

Soliqli daromadlarni prognoz qilish muammosi iqtisodiy prognoz qilish umumiy muammolari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni tadqiq qilish uchun ma’lum bo‘lgan iqtisodiy-matematik modellar va usullardan foydalanilishi mumkin. Iqtisodiyotda dastlabki yirik makroiqtisodiy modellardan biri Keysnchilar nazariyaga asoslagan IS-LM modelidir. Ma’lumki, ushbu modelning asosini iste’mol funksiyasi, investitsiya funksiyasi, talab funksiyasi va shu kabilar tashkil etadi. Keyns nazariyasida makroiqtisodiy muvozanat masalasi qayd etilgan funksiyalar bilan birgalikda soliqlar funksiyasini ham qamrab oladi, ya’ni ushbu nazariyada birinchi bor "soliq multiplikatori" tushunchasi kiritiladi va soliqlarning qayd etib o‘tilgan jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va ularning aks ta’siri kabi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Soliq multiplikatori (*Tax* multiplier) ($_{mt}$) – bu soliqlarning o‘zgarishining investitsiya va milliy daromadning o‘zgarishining bog‘liqligini ifodalaydi. Soliq stakalari qancha kam bo‘lsa, multiplikatorlik samarasi shuncha yuqori bo‘ladi va aksincha. Soliqlarning kamayishi xususiy talab va ishlab chiqarish hajmini oshiradi, soliqlarning oshishi esa, o‘z navbatida talabga va shu orqali milliy daromad hajmining kamayishiga ta’sir qiladi. Xuddi shunday jarayon davlat byudjeti xarajatlari doirasida ham sodir bo‘lib, bu yerda soliqlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar sifatida asosiy

funksiyalarni bajaradi. Keynschilar nazariyasiga koʻra, progressiv soliqqa tortish davlat byudjetidan yalpi talabni oshirishga qaratilgan investitsiya xarajatlari hisobiga yuzaga keladigan taqchillikni kamaytirishda katta rol oʻynaydi. Makroiqtisodiy modelning ushbu turida soliqlarning byudjetga kelib tushishini ta'minlashda soliq stavkalarining ta'siri asosiy diqqat markazda boʻladi. Ekonometrik makroiqtisodiy modellarning yanada rivoj topishi mashhur iqtisodchi va matematik olimlar Boks va Djenkinslarning ARIMA (autoregressive integrated moving average)-oʻrtacha ogʻishning avtoregressiyali modelining yaratilish va uning keng qoʻllanilishi bilan bogʻliq. ARIMA modelida prognoz qilinayotgan koʻrsatkich umumlashtirilgan barqaror tasodifiy jarayon deb qaraladi, ya'ni uning oʻzi, yoki uning ma'lum bir tartibdagi oʻsishi barqaror sanaladi. Mazmunan bu shuni anglatadiki, iqtisodiy jarayonning rivojlanishi, masalan, uning oʻzgarishi yoki sur'atining oʻsishi barqaror boʻladi, yuzaga keladigan chetlashishlar esa tasodifiy xarakterga ega boʻladi va rivojlanish asosiy tendensiyasini oʻzgartirmaydi. Bu holatda model strukturasidagi noma'lum koʻrsatkichlarni Boks-Djenkins usuli yordamida baholanadi.[133]

Jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan boʻlsak, iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishda va uning holatini prognoz qilishda bir qator makroiqtisodiy modellar ishlab chiqildi va ular iqtisodiyotning turli jabhalarida qoʻllanildi. Ushbulardan biri bu, vektorli avtorregressiya modelidir. Ushbu modelda jarayonlarni prognoz qilishda asosan endogen (ichki) omillarning ta'siri baholanadi. Ushbu model asosida yalpi ichki mahsulot va pul massasining ichki bogʻliqlari baholangan hamda yalpi ichki mahsulotning hajmiga pul massasining ta'siri, oʻz navbatida, yalpi ichki mahsulot hajmining oʻzgarishiga qarab pul massasiga boʻlgan talab oʻrtasidagi bogʻliqliklar va uning prognozlari ishlab chiqilgan. Mazkur modeldagi xatoliklar korreksiya xatoligining vektori modeli deb atalgan modelni qoʻllash orqali bartaraf etiladi, ya'ni, ushbu modelni qoʻllash orqali nobarqaror vaqt qatorlari oʻrtasidagi oʻzgarishlarning uzilishi oqibatida e'tiborga olinmay qolgan elementlarning ta'sirini baholash imkoniyati paydo boʻladi.

Pul massasining oʻzgarishiga sabab boʻlgan omillar har doim ham barqaror pozitsiyada boʻlmaydi, ularning oʻzgarish vaqtlarida ham stoxastik holatlar mavjud boʻladi, chunki, pulga boʻlgan talab har vaqtda oʻzgaradi. Shunday ekan, bunday oʻzgarishlarning ta'sirida yalpi ichki mahsulot darajasiga va aks ta'sirni prognoz qilishda korreksiya xatoligining vektori modeli samara beradi. Shu bilan birgalikda, ayrim makroiqtisodiy modellar

[133] Qarang: Бокс Дж., Дженкинс Т. Анализ временных рядов. Прогноз и управление. Выпуск.1,2. М., "Мир", 1974.

alohida olingan mamlakatlar iqtisodiyotini qamrab olgan bo‘lsa, ba’zilari mamlakatlararo iqtisodiyotga bag‘ishlangan. Soliqlarni prognoz qilishning keyingi modellaridan biri bu, mikroimitatsiyali modellar hisoblanadi. Mikroimitatsiyali modellar jahon amaliyotida qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishda, jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiyalash asosida to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Buning mohiyati shundan iboratki, deklaratsiya topshiruvchi jismoniy shaxslar soni ko‘p bo‘lgan sharoitda, ma’lum davrlarga tegishli soliq tushumlarini aniqlashda mikroimitatsiyali model aniqroq natijalarni berishi isbotlangan. Bu yerda soliq to‘lovchilar tomonidan kelib tushgan soliq hisobotlari asosiy axborot bazasi bo‘lib xizmat qilsa, modellashtirishda statistik usullar qo‘llangan holda umumiy tendensiyalar aniqlanadi va ular ma’lum bir vaqtlar bo‘yicha dinamik holati o‘rganiladi.

Ushbu model ko‘proq AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va shu kabi davlatlarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ushbu modellardan Xitoy, Gvatemala, Yamayka va Rossiya davlatlarida ham asta-sekin qo‘llanilib boshlandi. Dastlabki vaqtlarda ushbu modeldan asosan jismoniy shaxslar to‘laydigan (asosan daromad solig‘i) soliqlar bo‘yicha soliq tushumlari prognozi aniqlashda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda soliq tizimiga axborot texnologiya yangiliklarining tez kirib borishi yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha soliq tushumlarining keyingi davrlarga tegishli qonuniyatlarini o‘rganishda foydalanilmoqda. Bu yerda asosiy e’tibor va mexanizm soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari va uning ma’lumotlariga tayaniladi. Shu jihatdan olganda, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarning byudjet daromadlariga ta’sirini o‘rganishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Mikroimitatsiyali modellar byudjet daromadlaridagi miqdoriy o‘zgarishlarni aniqlashda katta ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda turli tarmoqlar va turli hududlar kesimida soliq to‘lovchilar zimmasiga soliq yukining taqsimlanishida qanday tendensiyalar yuzaga kelayotganligini ham ko‘rsatib beradi.

Mazkur modelda soliq to‘lovchilar kesimida soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini aniqlash imkoniyati paydo bo‘lishi bilan birga alohida olingan soliq to‘lovchilarning soliqlarni to‘lashga oid ma’lumotlarini tahlil etish orqali ular bo‘yicha soliq tushumlarining keyingi dinamikasi aniqlanilishi mumkin, shuningdek, ularning faoliyati bo‘yicha soliq nazoratini tashkil etishning yo‘llarini rejalashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Soliq to‘lovchilarning ular taqdim etgan hisobotlar ma’lumotlari asosida soliq tushumlarini prognoz qilishda salbiy ta’sir etuvchi omillar ham

mavjudki, u ham bo‘lsa, hisobot ma’lumotlarining ishonchlilik darajasidir. Agar, hisobot ma’lumotlarida miqdoriy ko‘rsatkichlar haqiqatdan uzoq bo‘lsa, soliq tegishli soliq turlari va tegishli soliq to‘lovchilar kesimidagi soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlari ham haqiqiylikdan uzoqlashadi, ushbular esa mazkur modellarning kamchilliklarni izohlaydi. Hozirgi kunda mikroimitatsiyali modellarni soliqlarni prognoz qilish jarayonida qo‘llashning yagona yondashuvi mavjud emas.

Shu boisdan mazkur modellarni ikki guruhga: statistik va dinamik modellarga bo‘linadi. Statistik modelning mohiyati shundaki, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar qisqa muddatda soliq to‘lovchilarning faoliyatiga ta’sirini, ya’ni ularning faoliyat turini yoki mahsulot turini o‘zgartirishga undaganligini (ta’sir qilganligini) izohlasa, dinamik modellarda esa uning aks bo‘ladi. Demak, statistik va dinamik mikroimitatsiyali modellar mahsulot turini mikroimitatsiyali modellarni tashkil etish mexanizmi uchta komponentlardan tashkil topadi. Birinchisi bu ma’lumotlar bazasi hisoblansa, ikkinchisi soliq to‘lovchilar ma’lumotlarini qayta ishlash jarayoni, ya’ni dasturiy mahsullarning samaradorligi va uchinchisi sifatida natijalarni umumlashtirish va ular yuzasidan prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash sanaladi. Mikroimitatsiyali modellarni to‘g‘ri qo‘llashda eng muhim jarayon bu soliq to‘lovchilarni turli parametrlar bo‘yicha guruhlash va ularning ma’lumotlarini o‘zaro taqqoslash tahlilini to‘g‘ri tashkil etish hisoblanadi. Agar, ushbu modellar soliq to‘lovchilar guruhlari bo‘yicha soliq tushumlarining holatini va uning o‘zgarish sabablarini noto‘g‘ri aniqlasa, o‘z navbatida prognoz ko‘rsatkichlariga ham ta’sir qiladi, provardida alohida olingan soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yuki yoki faoliyat turlariga belgilangan soliq stavkalarini o‘zgartirish (yoki o‘zgartirmaslik) xususidagi soliq siyosatining taktikasining qanday belgilanishiga olib keladi. O‘z navbatida mikroimitatsiyali modellarning ma’lumotlari makroiqtisodiy va ekstropolatsiyali prognoz qilish modellari uchun axborot sifatida ham foydalanish mumkin.

Soliqlarni prognoz qilishning yana bir modellaridan biri ekstrapolyatsiya modelidir. Ma’lumki, ekstropolatsiya bu-hodisalar va jarayonlarning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga olish yoki yoyish jarayoni bo‘lib, soliqlarni prognoz qilishning ushbu modelida ham uning umumiy belgilari aks etsada, biroq, prognozlashtirish jarayonida o‘rganilayotgan obyektning o‘tmishidagi endogen va ekzogen hodisa (belgilar)ning uning kelgusidagi ko‘rinishi (natijasi)ga ta’sirini ham e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xususiyatli jarayonlarni ekstropolatsiya modellari amalga oshiradi.

Iqtisodiyotda yuz berayotgan jarayonlar (hodisalar) va iqtisodiy obyekt (kategoriya)larning amal qilish va rivojlanish tendensiyalarida umumiy qonuniyatlar saqlanib qolgan bo‘lib, ushbu ichki xususiyatlar ularning kelgusidagi holatini aniqlashda ma’lum bir ahamiyat kasb etadi.

Demak, ushbu jarayonni ma’lum bir modelga solgan holda tadqiq etish, ya’ni modellashtirishga zarurat tug‘iladi. Ammo, iqtisodiy munosabatlar, jarayon va hodisalar mavqeyi jihatdan farqlanadi, shunday ekan modellar ham shunga ko‘ra farqlanadi. Uslubiy jihatdan har qanday prognozning asosiy vositasi ekstrapolyatsiya sxemasi hisoblanadi. Ekstrapolyatsiyaning mohiyati o‘tmishda va hozirgi kunda yuzaga kelgan prognoz obyekti rivojlanishining barqaror tendensiyalarini o‘rganish va ularni kelajakka o‘tkazishdan iborat.

Rasmiy va prognozli ekstrapolyatsiya farqlanadi. Rasmiy ekstrapolyatsiya prognoz obyektining hozirdagi va o‘tmishdagi rivojlanish tendensiyalarini kelajakda saqlab qolish haqidagi taxminlarga asoslansa, prognozi ekstrapolyatsiyada esa amaldagi rivojlanish istiqbolda turli omillar ta’sirining o‘zgarishigi hisobga olgan holda tadqiq etilayotgan jarayon dinamikasi haqidagi farazlar bilan bog‘lanadi. Ta’kidlash joizki, ekstrapolyatsiya usullarini ko‘rsatkichlarning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash uchun prognozning boshlang‘ich bosqichida qo‘llash zarur.

Ekstrapolyatsiya modelida ko‘pincha trendlash asosiy o‘ringa chiqadi. Trend bu inlizcha "trend" so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi —tendensiya degan ma’noni beradi. Ya’ni, vaqt qatorlari (dinamik qatorlar)ning o‘zgarishining asosiy tendensiyalarini ko‘rsatadi. Trendlar turli xil shaklda: lineyali, logarifli va darajali shaklda bo‘lishi mumkin.[134] Soliqlarni prognoz qilishning ushbu modeli jumlasiga trend modeli, eksponensial tekislanish modeli va avtoregressiyali o‘rtacha og‘ish modeli(ARMA) kabilarni kiritish mumkin. Soliqlarni prognoz qilishning ekstrapolyatsiya modellarining kamchiligi shundaki, ushbu modellar ko‘proq avtonom hisoblanadi, ammo o‘zi boshqa modellarda "oraliq yordamchi" vazifasini o‘tasada, undan ko‘pi bilan 5 yildan ortiq bo‘lgan prognozlarni amalga oshirishda o‘zini oqlamaydi. Ayrim mualliflar[135] soliqlarni prognoz qilishning ushbu modeliga obyektni uning o‘tmishiga qarab o‘rganishga asoslangan (yoki foydalangan) barcha iqtisodiy-matematik modellarni kiritadi.

---

[134] Qarang: Коротаев А.В, Малков А.С, Халтурина Д.А. Законы истории. Математическое моделирование развития Мир-Системы.Демография, экономика, культура. 2-е изд. М.: УРСС, 2007.ISBN 978-5-484-00957-2.

[135]Qarang: Яковлева И.А. О моделях прогнозирования налоговых поступлений // Фундаментальные исследования. – 2008. – № 3 – 123-124 с.

Tayanch so‘z va iboralar:

Prognoz, prognoz turlari, soliqlarni prognozlashtirish, soliqlarni rejalashtirish, gipoteza, bashorat, reja, futurologiya, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlashtirish, byudjetni rejalashtirish, byudjetni prognozlashtirish, soliqlarni prognoz qilish tamoyillari, soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, soliqlarni prognoz qilishning vazifalari, soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirishning farqlari, ierarxiyalik, tizimlilik, tarkiblilik, soliqlarni prognoz qilishning zaruriy omillari, soliqlarni prognoz qilishning belgilari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Prognoz tushunchasining mohiyati va uning yuzaga kelishining shart-sharoitlarini izohlab bering.
2. Prognoz qanaqa turlarga bo‘linadi?
3. Soliqlarni prognoz qilish deganda nima tushuniladi?
4. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni qanaqa belgilarga ega?
5. Soliqlarni prognoz qilish jarayoni qanaqa tamoyillarga asoslanadi?
6. Soliqlarni prognoz qilish va soliqlarni rejalashtirishning qanaqa o‘xshash va farqli tomonlari mavjud?
7. Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi va vazifalarini aytib bering.
8. Soliqlarni prognoz qilishning moliyaviy rejalashtirish, prognozlashtirish hamda byudjetni rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq jihatlarini izohlab bering.
9. Soliqlarni prognoz qilishning tarixiy rivojlanish jarayonlarini izohlang.
10. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishni shakllanishi va rivojlanishining xorijiy davlatlar tajribasini aytib bering.
11. Bashorat va prognoz tushunchalarining nima farqi mavjud?
12. Soliqlarni prognoz qilishning miqdoriylik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Prognoz bu-:

A) obyektning kelajakdagi holatiga miqdoriy va sifat jihatidan baho berish va prognoz qilish

B) obyektning kelajakdagi holatiga faqat sifat jihatidan baho berish va bashorat qilish

C) obyektning o‘tgan davrdagi holatiga miqdoriy va sifat jihatidan baho berish va bashorat qilish

D) obektning bungi holatiga miqdoriy va sifat jihatidan baho berish va bashorat qilish

2. Rejalashtirish prognozlashtirishdan farqli ravishda...:

A) ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiq etish vazifasini oldiga qoymaydi.

B) rejalashtirish va prognozlash o‘rtasida farq mavjud emas

C) oldin rejalashtiriladi keyin prognoz amalga oshiriladi

D) obyektning o‘tgan davrdagi va bugungi holatlariga real, aniq baho beradi

3. Prognoz quyidagi turlarga bo‘linadi:

A) olis uzoq vaqtga prognozlash; o‘uzoq vaqtga prognozlash; o‘rta muddatga prognozlash; qisqa muddatga prognozlash; operativ prognozlash

B) olis uzoq vaqtga prognozlash; o‘rta muddatga prognozlash; qisqa muddatga prognozlash; operativ prognozlash

C) o‘rta muddatga prognozlash; qisqa muddatga prognozlash; operativ prognozlash

D) olis uzoq vaqtga prognozlash; o‘uzoq vaqtga prognozlash; o‘rta muddatga prognozlash; qisqa muddatga prognozlash

4. Jismoniy shaxslar sifatidagi soliq to‘lovchilar soni juda ko‘p bo‘lgan sharoitda maxsus koeffitsentlarni qo‘llashni nazarda tutuvchi model

A) Mikroimitatsion model

B) Makroiqtisodiy model

C) Ekstropolyatsion model

D) Iqtisodiy-matematik model

5. Prognozlash usullarini to‘liq keltirib o‘ting

A) to‘g‘ridan to‘g‘ri hisoblash usuli, indeksatsiya usuli, ekstrapolyatsiya usuli, o‘rtacha hisoblash usuli

B) ko‘p variantli hisob-kitob usuli, ehtiyotkorlik usuli

C) to‘g‘ridan to‘g‘ri hisoblash usuli, o‘rtacha hisoblash usuli, ehtiyotkorlik usuli

D) o‘rtacha hisoblash usuli, ko‘p variantli hisob-kitob usuli, ehtiyotkorlik usuli

6. Gipoteza qanday ma’noni anglatadi.

A) Taxmin

B) Aniqlik

C) Oldindan ko‘ra bilish

D) Oldindan aytish

7. Prognoz qanday ma’noni anglatadi.

A) Oldindan ko‘ra bilish, oldindan aytish
B) Taxmin
C) Aniqlik
D) Bilish

8. Soliqlarni prognoz qilishning o‘ziga xos belgilariga qaysi biri kiradi

A) ehtimol-ilik
B) rentabellik
C) hisobga olish
D) ehtimollikdan aniqlilikka intilish

9. Funktsional belgisiga ko‘ra prognoz turlari qanday guruhlarga bo‘linadi:

A) Normativli, izlanuvli, miqdoriy, sifatiy, kombinalashgan
B) Makroqtisodiy, Mikroiqtisodiy
C) Tezkor(1 oygacha), qisqa(1 oydan 1 yilgacha), o‘rta(1 yildan 5 yilgacha), uzoq(5 yildan 15-25 yilgacha), uzoq istiqbolli(25 yildan yuqori)
D) Iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, demografik, tabiiy-iqlim, sotsial-ijtimoiy

10. Belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi.....

A) soliq to‘lovchilarning majburiyatlari hisoblanadi.
B) soliq idorasining majburiyatlari hisoblanadi.
C) soliq boshqarmasining majburiyatlari hisoblanadi.
D) soliq qo‘mitasining majburiyatlari hisoblanadi.

XV-BOB. SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH VA UNI BAJARILISHINI TA’MINLASH

15.1. Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq agentlarining zimmasiga yuklatilgan, o‘ziga nisbatan ushbu shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladigan munosabatlar doirasida soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati soliq majburiyatiga tenglashtiriladi.

Soliq majburiyati soliq to‘g‘risidagi qonunchilik yoki boshqa soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda yuzaga keladi, o‘zgartiriladi va tugatiladi.



21-rasm. 2024-yil yanvar dekabr oylarida soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarning ixtiyoriy to‘lanishi darajasi[136]

Soliqlarning ixtiyoriy to‘lanish darajasi

2024-yilda respublika miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi 98%ni tashkil etdi.

[136]Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

Bu borada eng yaxshi ko‘rsatkich yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha HSIda, Toshkent shahrida, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida qayd etildi – 98%;

📍 Boshqa viloyatlarda – 97%.

Soliq turlari kesimida:

- aksiz solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq – 99%;
- QQS, AOS, JShODS – 98%;
- foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va yer solig‘i – 97%;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 96%. Har bir soliqqa nisbatan soliq majburiyati soliq to‘lovchiga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan ushbu soliqni to‘lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e’tiboran yuklatiladi.

Soliq to‘lovchi o‘zining soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajaradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchi uning soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi natijasida olgan moddiy naf soliq solish maqsadlarida shu soliq to‘lovchining daromadi deb e’tirof etilmaydi. O‘zga shaxs o‘zi tomonidan soliq to‘lovchi uchun to‘langan soliqning qaytarilishini talab qilishga haqli emas.

Soliq majburiyati soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatda bajarilishi kerak.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati ushbu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelsa, undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqli.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi unga soliq organi tomonidan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risida talabnoma yuborilishi uchun asos bo‘ladi.

Soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘langanda yoki soliq agenti tomonidan o‘tkazib berilganda.

soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq majburiyatini tugatish bilan bog‘liq boshqa holatlar yuzaga kelganda.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- mazkur shaxs vafot etganda.
- uni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

Vafot etgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan jismoniy shaxsning soliq qarzi meros mol-mulkning qiymati doirasida merosxo‘rlardan undiriladi.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- byudjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u tugatilganda.
- byudjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u qayta tashkil etilganda.



22-rasm.Soliq organlarining 2024-yilda byudjetga tushumlari[137]

[137]Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

2024-yilda soliq tushumlari 199 trln so‘mdan oshdi

Soliq organlari tomonidan 2024-yilda respublika bo‘yicha budjetga 199,6 trln so‘m tushumlar ta’minlandi (https://t.me/soliqnews/14870). Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3%ga ko‘p.

Soliq turlari kesimida tushum (2023-yilga nisbatan o‘sish):

- foyda solig‘i — 52,7 trln so‘m (📈 29,1%);
- QQS — 39,6 trln so‘m — (📈 16,4%);
- JShODS — 35,4 trln so‘m — (📈 18,3%);
- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq — 20,2 trln so‘m (📈 31,8%);
- aksiz solig‘i — 17,8 trln so‘m — (📈 17,4%);
- soliqsiz tushumlar* — 15 trln so‘m (o‘sish kuzatilmagan);
- yer solig‘i — 8,2 trln so‘m (📈 19,2%);
- mol-mulk solig‘i — 6,8 trln so‘m (📈 33,5%);
- AOS — 2,8 trln so‘m (📈 17,6%);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — 1,2 trln so‘m (📈 48,3%).

*Soliqsiz tushumlar bu davlat boji, jarimalar, yig‘imlar.

15.2. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari

Soliq organi yoki boshqa vakolatli organ soliq tekshiruvini o‘tkazishga, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuborishga yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar miqdorini qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan muddat soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati hisoblanadi.

Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati, natijalariga ko‘ra soliq majburiyati aniqlanadigan soliq davri tugaganidan keyin besh yilni tashkil etadi. Agar soliq majburiyatining yuzaga kelishi muayyan voqea yoki harakat bilan bog‘liq bo‘lsa soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati shu voqea yoki harakat sodir bo‘lgan paytdan e’tiboran besh yilni tashkil etadi.

Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatining o‘tishi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq to‘xtatib turiladi, uziladi va qayta tiklanadi.

15.3. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash

Soliqni to‘lash milliy valyutada amalga oshiriladi.

Chet el valyutasida hisoblab chiqarilgan soliq summasini milliy valyutada qaytadan hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliqni to‘lash sanasidagi rasmiy kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati hollarda bajarilgan deb e’tirof etiladi:

1) pul mablag‘larini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘idan byudjet tizimiga tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazishga doir topshiriqnoma bankka taqdim etilgan paytdan e’tiboran – soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida to‘lov kunida etarlicha pul qoldig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda.

2) bankda hisobvaraq ochmasdan tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga byudjet tizimiga o‘tkazish uchun bank kassasiga naqd pul mablag‘lari topshirilgan paytdan e’tiboran. Bunday qoida soliqni to‘lash uchun pul mablag‘lari etarlicha bo‘lgan taqdirda, faqat jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lashda qo‘llaniladi.

3) bank yoki aloqa bo‘limiga byudjet tizimiga o‘tkazish uchun naqd pul mablag‘lari kiritilgan kundan e’tiboran. Bunday qoida soliqni to‘lash uchun pul mablag‘lari etarlicha bo‘lgan taqdirda, faqat jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to‘lashda qo‘llaniladi.

4) g‘aznachilikda shaxsiy hisobvarag‘i ochilgan yuridik shaxsning shaxsiy hisobvarag‘ida tegishli pul mablag‘larini byudjet tizimiga o‘tkazishga doir operastiya aks ettirilgan paytdan e’tiboran.

5) ortiqcha to‘langan summalarni yoki ortiqcha undirilgan soliqlar, penyalar, jarimalar summalarini tegishli soliq turi bo‘yicha majburiyatning bajarilishi hisobiga hisobga olish to‘g‘risida soliq organi tomonidan qaror chiqarilgan kundan e’tiboran.

6) soliqni hisoblab chiqarish va soliq to‘lovchining pul mablag‘laridan ushlab qolishga doir majburiyat Soliq Kodeksiga muvofiq soliq agentiga yuklatilgan bo‘lsa, soliq summalari soliq agenti tomonidan ushlab qolingan kundan e’tiboran.

Soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyati quyidagi hollarda bajarilgan deb e’tirof etilmaydi:

1) tegishli pul mablag‘larini byudjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan topshiriqnoma soliq to‘lovchi tomonidan qaytarib olinganda yoki bank tomonidan unga qaytarilganda.

2) g‘aznachilikda shaxsiy hisobvarag‘i ochilgan yuridik shaxs tomonidan tegishli pul mablag‘larini byudjet tizimiga o‘tkazishga doir bajarilmagan topshiriqnoma qaytarib olinganda yoki g‘aznachilik tomonidan unga qaytarilganda.

3) pul mablag‘lari ushbu pul mablag‘larini byudjet tizimiga o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasida bank rekvizitlari noto‘g‘ri ko‘rsatilganligi sababli byudjet tizimining tegishli g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkazilmay qolganda.

4) agar soliq to‘lovchi soliq to‘lovi uchun bankka pul mablag‘larini o‘tkazish uchun topshiriqnoma taqdim etgan kuni uning fuqarolik qonunchiligiga muvofiq birinchi navbatda bajariladigan hisobvarag‘iga taqdim etilgan bajarib bo‘lmaydigan boshqa talablar mavjud bo‘lsa, agar ushbu hisobvaraqda barcha talablarni qanoatlantirish uchun etarlicha qoldiqqa ega bo‘lmasa.

Penyalar va jarimalarga nisbatan ham qo‘llaniladi hamda soliq agentlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Soliq organlari byudjet tizimiga tushumlar hisobini hisoblangan hamda to‘langan soliqlar va yig‘imlar summalarini, shuningdek penyalar va jarimalarni soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ida aks ettirish orqali yuritadi. Soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Bojxona organlari O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish bilan bog‘liq to‘lanishi lozim bo‘lgan, soliqlar va yig‘imlarning, shuningdek penyalar va jarimalarning byudjet tizimiga tushumlari hisobini yuritadi. Hisob yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Undirilishi boshqa davlat organlari va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan davlat bojining hamda boshqa yig‘imlarning byudjet tizimiga tushumlarini hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

15.4. Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi

Banklar soliq to‘lovchining pul mablag‘lari hisobidan soliqni byudjet tizimiga o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasini, shuningdek soliq organining soliqni byudjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasini bajarishi shart.

Soliq to‘lovchining topshiriqnomalari va soliq organining inkasso topshiriqnomalari fuqarolik qonunchiligida belgilangan navbat bo‘yicha bajarilishi lozim.

Soliq to‘lovchining topshiriqnomasi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi bunday topshiriqnoma olingan kundan keyingi bir operastiya kuni ichida bank tomonidan bajariladi.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjud bo‘lgan va to‘lov hujjatida rekvizitlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan taqdirda bank soliq to‘lovchining topshiriqnomasini yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarishni kechiktirishga haqli emas.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘larining yo‘qligi (etarli emasligi) sababli soliq organining inkasso topshiriqnomasini belgilangan muddatda bajarishning imkoni bo‘lmaganda, bank belgilangan muddat tugaganidan keyingi kundan kechiktirmay inkasso topshiriqnomasini yuborgan soliq organiga uning topshiriqnomasi bajarilmaganligi (qisman bajarilganligi) to‘g‘risida xabar qilishi shart.

Soliq to‘lovchining topshiriqnomasi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi bajarilmaganligi (qisman bajarilganligi) to‘g‘risidagi bank xabarnomasining shakli va uni elektron shaklda uzatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Javobgarlik choralarining qo‘llanilishi bankni soliq to‘lovchining topshiriqnomasini yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Banklar soliq to‘lovchilarning topshiriqnomalarini va soliq organlarining inkasso topshiriqnomalarini ko‘rsatilgan operastiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilganligi uchun haq undirmasdan bajaradi. Soliq to‘lovchilarga yoki soliq agentlariga ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliqlar, penyalar va jarimalar summalarini qaytarish bo‘yicha banklar tomonidan topshiriqnomalar bajarilganda ko‘rsatilgan operastiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilganligi uchun ham haq undirilmaydi.

15.5. Yuridik shaxs tugatilganda soliq majburiyatini bajarish

Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliq majburiyati mazkur yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizastiya qilishdan olingan pul mablag‘lari hisobidan tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizastiya qilishdan olingan pul mablag‘lari uning soliq qarzini to‘liq hajmda uzish uchun etarli bo‘lmasa, to‘lanmay qolgan qarz

mazkur yuridik shaxsning ishtirokchilari tomonidan qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda uzilishi mumkin.

Yuridik shaxs tugatilayotganda soliq majburiyatini mazkur yuridik shaxsning boshqa kreditorlari bilan hisob-kitoblari o‘rtasida bajarish navbati fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summalari soliq organi tomonidan soliq qonunchiligida belgilangan tartibda boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olinishi lozim.

Ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarning (penyalarning, jarimalarning) hisobga olinishi lozim bo‘lgan summasi boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarziga mutanosib ravishda yoki tugatuvchining qaroriga binoan taqsimlanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliqlar bo‘yicha qarzi bo‘lmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi shu yuridik shaxsga soliq qonunchiligida belgilangan tartibda u ariza bergan kundan e’tiboran o‘n besh kundan kechiktirmay qaytarilishi lozim. Soliq to‘lovchi tomonidan ariza taqdim etilmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestridan chiqarilgan soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘idan hisobdan chiqariladi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan soliqlar to‘lashda ham qo‘llaniladi.

15.6. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda soliq majburiyatini bajarish

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyati soliq qonunchiligida belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajarilishi lozim.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanguniga qadar huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va (yoki) holatlari ma’lum bo‘lganligi-bo‘lmaganligidan qat’i nazar, uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) zimmasiga yuklatiladi.

Huquqiy voris (huquqiy vorislar) o‘ziga o‘tgan majburiyatlar bo‘yicha jami soliq qarzini, shu jumladan qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga uning

qayta tashkil etilishi tugallanguniga qadar soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun belgilangan jarimalar summalarini ham uzishi shart.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda soliq to‘lovchilar uchun soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda huquqlardan foydalanadi va zimmasida majburiyatlar bo‘ladi.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan uning soliq majburiyatlarini bajarish muddatlarini o‘zgartirmaydi.

Bir necha yuridik shaxslar qo‘shib yuborilganda ularning majburiyatlarini bajarish qismi bo‘yicha bunday qo‘shib yuborish natijasida vujudga kelgan yuridik shaxs ularning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo‘shib olinganda, uni qo‘shib olgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarish qismi bo‘yicha qo‘shib olingan yuridik shaxsning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs bo‘linganda bunday bo‘lish natijasida vujudga kelgan yuridik shaxslar soliq majburiyatini bajarish qismi bo‘yicha uning huquqiy vorislari deb e’tirof etiladi.

Bir necha huquqiy vorislar mavjud bo‘lgan taqdirda, ulardan har birining qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyatini bajarishdagi ishtiroki ulushi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuzilgan taqsimlash balansi bilan aniqlanadi. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning har bir huquqiy vorisining ulushini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan shaxsning soliq majburiyatini sudning qaroriga ko‘ra solidar bajarishi mumkin.

Agar yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslarni ajratib chiqarish natijasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs o‘zining soliq majburiyatini to‘liq hajmda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmasa va bunday qayta tashkil etish soliq majburiyatini bajarmaslikka qaratilgan bo‘lsa, ajratib chiqarilgan yuridik shaxslar ushbu qayta tashkil etilgan shaxsning soliq majburiyatiga sudning qaroriga ko‘ra solidar ega bo‘lishi mumkin.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxs etib o‘zgartirilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxs soliq majburiyatini bajarish qismida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs tomonidan u qayta tashkil etilgunga qadar undan ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to‘langan soliq (penya, jarima) summasi huquqiy voris (huquqiy vorislar) qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning

soliq qarzini uzishi hisobiga soliq organi tomonidan hisobga olinishi lozim. Bunday hisobga olish qayta tashkil etish tugallangan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay soliq qonunchiligida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tomonidan u qayta tashkil etilgunga qadar ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqning (penyaning, jarimaning) hisobga olinishi lozim bo‘lgan summasi hisoblanishi va to‘lanishi ustidan nazorat qilish soliq organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa soliqlar bo‘yicha soliq qarziga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsda soliq qarzi bo‘lmagan taqdirda, ushbu yuridik shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq (penya, jarima) summasi uning vorisiga (huquqiy vorislariga) huquqiy voris (huquqiy vorislar) ariza bergan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay qaytarilishi lozim. Bunda ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq (penya, jarima) summasi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) har bir huquqiy vorisning taqsimlash balansi asosida aniqlanadigan ulushiga mutanosib ravishda qaytariladi.

15.7. Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullari

Soliq majburiyatining bajarilishi mol-mulk garovi, kafillik, bank kafolati, penyalar, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarning to‘xtatilishi va soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash bilan ta’minlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq majburiyatini bajarish bo‘yicha ta’minlash chorasi sifatida mol-mulkni xatlash uning arizasiga ko‘ra:

- qimmatli qog‘ozlar uyushgan bozorida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarning garovi yoki rasmiylashtirilgan boshqa mol-mulk garovi bilan.
- uchinchi shaxsning kafilligi bilan almashtirilishi mumkin.
- bank kafolati bilan.

Amaldagi bank kafolati berilgan taqdirda, soliq organi soliq to‘lovchiga ta’minlash choralarini almashtirishni rad etishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar bo‘yicha bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlashning boshqa choralari ham qo‘llanilishi mumkin.

Soliqlarni to‘lash majburiyati mol-mulk garovi bilan ta’minlanishi mumkin.

Mol-mulk garovi soliq organi va garovga qo‘yuvchi o‘rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Soliq to‘lovchining o‘zi yoki uchinchi shaxs garovga qo‘yuvchi bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchi tegishli soliq summalarini va tegishli penyalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini bajarmagan taqdirda, soliq organi ushbu majburiyatning garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymati hisobidan bajarilishini fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq o‘ziga nisbatan garov belgilanishi mumkin bo‘lgan mol-mulk garov predmeti bo‘lishi mumkin.

Boshqa shartnoma bo‘yicha garov predmeti soliq organi va garovga qo‘yuvchi o‘rtasidagi shartnoma bo‘yicha garov predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Garov chog‘ida mol-mulk garovga qo‘yuvchida qolishi yoki garovga qo‘yuvchining mablag‘lari hisobiga soliq organiga (garovga oluvchiga), garovga qo‘yilgan mol-mulkning but saqlanishini ta’minlash majburiyati unga yuklangan holda, topshirilishi mumkin.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan biron-bir bitimni, shu jumladan soliq qarzi summalarini uzish maqsadida bitimlarni tuzish faqat garovga oluvchi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usuli sifatida garov belgilashda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligining qoidalari qo‘llaniladi.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari o‘zgargan taqdirda soliqlarni to‘lash majburiyati kafillik bilan ta’minlanishi mumkin.

Kafillik tufayli kafil, agar soliq to‘lovchi tegishli soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to‘lamasa, soliq organlari oldida soliq to‘lovchining soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatini to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

Kafillik fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq organi va kafil o‘rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Soliq to‘lovchi kafillik bilan ta’minlangan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatini bajarmagan taqdirda, kafil va soliq to‘lovchi solidar javobgar bo‘ladilar.

To‘lanishi bo‘yicha majburiyat kafillik bilan ta’minlangan soliq belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi soliqni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish muddati tugagan kundan e’tiboran besh kun ichida kafillik shartnomasi bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risida kafilga talabnoma yuboradi.

Agar kafil kafillik shartnomasi bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani belgilangan muddatda bajarmasa, kafildan to‘lash majburiyati uning kafilligi bilan ta’minlangan summalarni majburiy ravishda undirish choralarini qo‘llaydi.

Kafil shartnomaga muvofiq o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajargach, kafil tomonidan to‘langan summalarni, shuningdek shu summalar bo‘yicha foizlarni hamda soliq to‘lovchining majburiyatlari bajarilishi munosabati bilan ko‘rilgan zararlarning o‘rni qoplanishini soliq to‘lovchidan talab qilish huquqi unga o‘tadi.

Yuridik yoki jismoniy shaxs kafil bo‘lishi mumkin.

Soliqni to‘lash bo‘yicha bitta majburiyatga nisbatan bir vaqtning o‘zida bir nechta kafilning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash bo‘yicha chora sifatida kafillik belgilanishida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qoidalari qo‘llaniladi.

Yig‘imlarni to‘lashdagi kafillikka nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari o‘zgargan taqdirda soliqni to‘lash majburiyati bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin.

Agar soliq to‘lovchi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to‘lamasa, bank kafolati tufayli bank (kafolat beruvchi) soliq organlari oldida soliq to‘lovchining soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatini to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Bank kafolati quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- kafolat qaytarib olinmaydigan va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan bo‘lishi kerak.

- kafolatda soliq organi tomonidan kafolat beruvchiga soliq qonunchiligida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishga doir ko‘rsatma bo‘lishi mumkin emas.

- amal qilish muddati soliq to‘lovchi tomonidan bank kafolati bilan ta’minlangan soliq to‘lash majburiyatini bajarishning belgilangan muddati o‘tadigan kundan e’tiboran kamida olti oydan keyin tugashi kerak.

- qaysi summaga berilgan bo‘lsa, o‘sha summa kafolat beruvchi tomonidan soliq to‘lovchining soliqni va tegishli penyalarni to‘lash bo‘yicha majburiyati to‘liq hajmda bajarilishini ta’minlashi kerak.

- kafolat beruvchi tomonidan ushbu bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnoma belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, soliq organi tomonidan to‘lash majburiyati bank

kafolati bilan ta’minlangan summalarni kafolat beruvchidan undirish choralari qo‘llanilishini nazarda tutishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishi bank kafolati bilan ta’minlangan soliq belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi soliqni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani bajarish muddati tugagan kundan e’tiboran besh kun ichida kafolat beruvchiga bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash haqida talabnoma yuboradi.

Bank kafolati bo‘yicha majburiyat kafolat beruvchi tomonidan u bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risida talabnoma olgan kundan e’tiboran besh kun ichida bajarilishi lozim.

Kafolat beruvchi soliq organiga bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risidagi talabnomani qanoatlantirishni rad etishga haqli emas.

Soliq qonunchiligidagi qoidalar penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlovchi bank kafolatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki chet el yuridik shaxsi tomonidan soliqni to‘lash majburiyati xalqaro reyting agentliklarining yuqori reytingiga ega bo‘lgan chet el bankining bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi penyadir.

Tegishli penyalarning summasi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summalaridan tashqari va soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatning bajarilishini ta’minlashga doir boshqa choralar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari qo‘llanilishidan qat’i nazar to‘lanadi.

Penyalar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi.

Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyatini berish to‘g‘risida ariza berilganligi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga penyalar hisoblanishini to‘xtatib turmaydi.

Soliq to‘lovchi, uning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarning to‘xtatilishi yoki pul mablag‘lariga taqiq qo‘yilishi shaklidagi soliq organining undirish to‘g‘risida ta’minot choralari haqidagi qarori qabul qilinganligi sababli to‘lay olmagan soliq qarziga penya

hisoblanmaydi. Bunday holda penyalar ko‘rsatib o‘tilgan holatlarning butun amal qilish davri uchun hisoblanmaydi.

Soliqni hisoblash va to‘lash tartibi haqida yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashga doir boshqa masalalar bo‘yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga penya hisoblanmaydi.

Penyalar soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida soliq organining soliq to‘lovchiga yuborilgan asosli fikrini bajarishi natijasida soliq to‘lovchida hosil bo‘lgan soliq bo‘yicha qarz summasiga ham hisoblanmaydi.

Har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.

Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Penyalar tegishli soliq to‘lanadigan byudjetga (davlat maqsadli jamg‘armasiga) to‘lanadi.

Penyalar soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan, shuningdek soliq to‘lovchining boshqa mol-mulki hisobidan majburiy ravishda undirilishi mumkin.

15.8. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to‘xtatib turiladi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o‘zida soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi

hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalar to‘xtatib turilishi to‘g‘risida xabarnoma buning sabablarini ko‘rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) soliq majburiyatlari bajarilishini ta’minlash uchun quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

- ushbu soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o‘n kun ichida taqdim etilmaganda.

- soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomasiga tushuntirishlar va tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda.

- soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko‘rsatilgan hududga yoki binoga kirishiga to‘sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to‘sqinlik qilinishi uning o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turadi.

- soliq to‘lovchining (soliq agentining) o‘zi ko‘rsatgan manzilda yo‘qligida.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operastiyalarning to‘xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo‘yicha barcha chiqim operastiyalari to‘xtatib turilishini anglatadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati o‘tgach o‘n kun ichida taqdim etilmagan taqdirda, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror mas’ul ishtirokchining yoki ushbu konsolidastiyalashgan guruh barcha ishtirokchilarining operastiyalariga nisbatan soliq organi rahbari (uning o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operastiyalarning to‘xtatib turilishi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq birinchi navbatda ko‘rsatilgan to‘lovlarga, shuningdek qonunchilikka muvofiq undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan banklardagi hisobvaraqlarga tatbiq etilmaydi.

15.9.Soliq to‘lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish tartibi

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror quyidagilar asosida qaror qabul qilingan taqdirda bekor qilinadi:

❖ ushbu soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organiga moliyaviy va soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o‘n kun ichida taqdim etilmaganda soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan moliyaviy va soliq hisoboti taqdim etilgan kundan keyin bir kundan kechirtirmasdan.

❖ soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomasiga tushuntirishlar va tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda soliq organining talabiga javoban hujjatlar, tushuntirishlar va tuzatishlar taqdim etilgan kuni.

❖ soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko‘rsatilgan hududga yoki binoga kirishiga to‘sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to‘sqinlik qilinishi uning o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turadi soliq organining tekshiruv o‘tkazayotgan mansabdor shaxslariga kirish huquqi berilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmay.

❖ soliq to‘lovchining (soliq agentining) o‘zi ko‘rsatgan manzilda yo‘qligida soliq to‘lovchining (soliq agentining) u ma’lum qilgan manzilida yo‘qligining asosliligi soliq organi tomonidan e’tirof etilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmay. Bunday e’tirof uchun soliq to‘lovchining vakili soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organiga zarur tushuntirishlarni shaxsan taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchi (soliq agenti) boshqa soliq organida hisobga qo‘yilganda, agar hisobda turish joyi o‘zgarganligi haqidagi ma’lumotlar oldingi hisobda turish joyidagi soliq organiga ma’lum bo‘lmasa, shuningdek texnik xatolar yuz berganda va boshqa shu kabi hollarda soliq to‘lovchining hisobga olingan joyda yo‘qligi asosli deb e’tirof etilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) uning filiali yoki alohida bo‘linmasi hisobda turgan joyda yoxud soliq solish obyekti hisoblangan mulki joylashgan erda yo‘qligi, xususan filial yoki alohida bo‘linma

tugatilgan yoki ko‘rsatilgan mulk realizastiya qilingan taqdirda asosli deb e’tirof etilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror bankka elektron shaklda bunday qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay yuboriladi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish va to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi soliq organining qarorlarini bankka elektron shaklda yuborish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish muddati yoki bunday qarorni bankka yuborish muddati buzilgan taqdirda to‘xtatib turish rejimi amal qilgan pul mablag‘lari summasiga foizlar hisoblanadi, bu foizlar soliq organi tomonidan soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) muddat buzilgan har bir kalendar kun uchun to‘lanishi lozim.

Agar soliq organi soliq to‘lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida noqonuniy qaror chiqargan bo‘lsa, to‘xtatib turish rejimi amal qilgan pul mablag‘lari summasiga nisbatan bank soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni olgan kundan e’tiboran to uni bekor qilish to‘g‘risidagi qarorni olgunga qadar har bir kalendar kun uchun ushbu soliq to‘lovchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan foizlar hisoblanadi.

Foiz stavkasi soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalar noqonuniy to‘xtatib turilgan, soliq organi soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish yoki soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qarorni bankka yuborish muddatini buzgan kunlarda amal qilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

15.10. Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorlarning banklar tomonidan bajarilishi tartibi

Soliq organining soliq to‘lovchining va soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarori bank tomonidan so‘zsiz bajarilishi lozim.

Soliq organining qaroriga ko‘ra hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalar to‘xtatib turilishi oqibatida soliq to‘lovchi (soliq agenti) ko‘rgan zarar uchun bank javobgar bo‘lmaydi.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish bank soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organining qarorini olgan kundan e’tiboran, to soliq organining ushbu to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori olinadigan kunga qadar amal qiladi.

Soliq to‘lovchining va soliq agentining hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror bankka elektron shaklda yuborilganda bank ushbu qarorni olgan sana va vaqt O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda belgilanadi.

Agar soliq to‘lovchining va soliq agentining hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan so‘ng soliq to‘lovchining (soliq agentining) nomi va uning soliq organining ushbu qaroriga muvofiq operastiyalar to‘xtatib turilgan bankdagi hisobvarag‘i rekvizitlari o‘zgarsa, mazkur qaror bank tomonidan o‘z nomini o‘zgartirgan soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) va rekvizitlari o‘zgartirilgan hisobvaraqqa nisbatan ijro etilishi shart.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organi yoki sudning qarorini olganidan keyin banklar ushbu soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) yangi hisobvaraqlar, omonatlar va depozitlar ochishga haqli emas.

Soliq organining soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mol-mulkiga nisbatan mulk huquqini cheklashga doir harakati soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning bajarilishini ta’minlash usuli sifatida mol-mulkni xatlashdir.

Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash sud qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzi tan olingan taqdirda, soliq organi qarori asosida soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha mol-mulkiga taqiq qo‘yishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha uning mol-mulkini xatlash soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Mol-mulkni xatlash to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin.

Mol-mulkni to‘liq xatlash soliq to‘lovchining o‘z mol-mulkiga nisbatan huquqlarini shunday cheklashki, bunda u xatlangan mol-mulkni tasarruf etishga haqli emas, ushbu mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish esa soliq organining ruxsati bilan hamda uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mol-mulkni qisman xatlash soliq to‘lovchining o‘z mol-mulkiga nisbatan huquqlarini shunday cheklashki, bunda ushbu mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish soliq organining ruxsati bilan va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.

Mol-mulkni xatlash soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlarida pul mablag‘lari etarli bo‘lmagan yoki yo‘q bo‘lgan taqdirda faqat soliqni (penyani, jarimani) to‘lash majburiyati uning ana shu mol-mulki hisobidan bajarilishini ta’minlash uchun qo‘llanilishi mumkin.

Mol-mulkni xatlash soliq organi tomonidan soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi talabnoma soliq to‘lovchiga yuborilgandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin.

Soliq to‘lovchining barcha mol-mulki xatlab qo‘yilishi mumkin.

Faqat soliq qarzini uzish uchun zarur va etarli bo‘lgan mol-mulk xatlab qo‘yilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirmaydigan chet el yuridik shaxsining ko‘chmas mulki obyekti, mazkur ko‘chmas mulki obyektining qiymati undiriladigan soliq qarzi summasidan ortiq bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu chet el shaxsining undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan boshqa mol-mulki bo‘lmagan taqdirda xatlab qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan tegishli qaror shaklida qabul qilinadi.

Soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash videotasvirga olingan holda, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Mol-mulkni xatlashni amalga oshiruvchi organ mol-mulkni xatlash chog‘ida soliq to‘lovchining ishtirok etishini rad qilishga haqli emas.

Xatlashni amalga oshirishda xolislar, mutaxassislar sifatida ishtirok etuvchi shaxslarga, shuningdek soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi.

Mol-mulkni xatlash oldidan xatlashni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) xatlab qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni va o‘zlarining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishi shart.

Xatlashni amalga oshirishda mol-mulkni xatlash to‘g‘risida bayonnoma tuziladi.

Mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi bayonnomada yoki unga ilova qilinadigan ro‘yxatda xatlanishi lozim bo‘lgan mol-mulk sanab o‘tiladi va tavsiflanadi, ashyolarning nomi, miqdori va xususiy alomatlari, imkoni bo‘lganda ularning qiymati ko‘rsatiladi.

Xatlanishi lozim bo‘lgan barcha ashyolar xolislarga va soliq to‘lovchiga (uning vakiliga) ko‘rsatiladi.

Mol-mulkni xatlab qo‘yish to‘g‘risida qaror chiqargan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) xatlab qo‘yilgan mol-mulk turishi lozim bo‘lgan joyni belgilaydi.

Xatlab qo‘yilgan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga, rastrata qilishga yoki yashirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mol-mulkni xatlab qo‘yish to‘g‘risida o‘ziga nisbatan qaror qabul qilingan soliq to‘lovchining iltimosiga ko‘ra, soliq organi mol-mulkni xatlashni mol-mulk garoviga almashtirishga haqli.

Soliq qarzi uzilgan va mol-mulk garovi to‘g‘risida shartnoma tuzilgan taqdirda, mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan bekor qilinadi.

Soliq organi mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror bekor qilingani to‘g‘risida soliq to‘lovchini ushbu qaror qabul qilingan kundan keyin besh kun ichida xabardor qiladi.

Mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi qaror mol-mulk xatlab qo‘yilgan paytdan to ushbu qaror uni chiqargan soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan bekor qilingunga qadar yoki ushbu qaror yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan bekor qilingunga qadar amal qiladi.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq agentining mol-mulkini xatlashga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘iga doir soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash maqsadida quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi:

-birinchi navbatda ushbu soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining mol-mulki xatlanadi.

-soliq to‘lovchilarning konsolidastiyalashgan guruhi mas’ul ishtirokchisining mol-mulki ushbu soliq majburiyatini bajarish uchun etarli bo‘lmagan taqdirda, soliq organi etishmagan summa qismida ushbu konsolidastiyalashgan guruhning boshqa ishtirokchilariga tegishli mol-mulkni xatlashga haqli. Bunda soliq organining rahbari (uning o‘rinbosari) soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi mavjud axborot asosida soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhining boshqa ishtirokchilari mol-mulkini qaysi ketma-ketlikda xatlashni mustaqil ravishda belgilaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq majburiyati, soliq agenti, soliq to‘lovchining majburiyatlari, soliq ma’murchiligi, huquqiy javobgarlik, soliq to‘lovchining huquqlari, elektron deklaratsiya

Takrorlash uchun savollar:

1.Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati qanday?

2.Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishiga nimalar kiradi?

3.Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari nimani anglatadi?

4.Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash qanday amalga oshiriladi?

5.Yuridik shaxs tugatilganda soliq majburiyatini bajarish qanday belgilangan?

6.Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda soliq majburiyatini bajarish nimalardan iborat?

7.Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullariga nimalar kiradi?

8.Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish qanday?

9.Soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

10.Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorlarning banklar tomonidan bajarilishi tartibi nimani ifodalaydi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq majburiyati deb nimaga aytiladi?

A) Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e’tirof etiladi.

B) Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e’tirof etiladi.

C) Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e’tirof etiladi.

D) Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e’tirof etiladi.

2. Soliq majburiyatlarini bajarish muddati nima asosida belgilanadi?

A) Amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan sanalar asosida

B) Soliq to‘lovchining istagiga ko‘ra

C) Davlat byudjeti ehtiyojiga ko‘ra

D) Soliq organi xodimining qaroriga ko‘ra

3. Agar soliq o‘z vaqtida to‘lanmasa, nima yuz beradi?

A) Jarima va penya qo‘llaniladi

B) Soliq bekor qilinadi

C) Imtiyozlar beriladi

D) Qayta hisob-kitob qilinadi

4. Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:.....

A) Byudjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u tugatilganda.

B) Soliq qarzdorligi mavjud bo‘lganda.

C) Soliq majburiyati yuzaga kelganda.

D) Soliq qarzdorligi keskin oshganda.

5. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror necha kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi

A) 10 kun

B) 15 kun

C) 5 kun

D) 20 kun

6. Soliq to‘lovchi soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi .....

A) penyadir.

B) chegirmadir.

C) kredit foizidir.

D) lizing to‘lovidir.

7. Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining ..... teng etib qabul qilinadi.

A) uch yuzdan biriga

B) uch yuzdan o‘niga

C) uch yuzdan o‘n biriga

D) uch yuzdan o‘n ikkisiga

8. Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi qanday amalga oshiriladi?

A) Faqat naqd pul shaklida

B) Soliq to‘lovchisining yozma arizasiga asosan

C) Elektron to‘lov tizimi orqali va belgilangan bank kunida ijro etiladi

D) Soliq organi bilan bank kelishganidan keyin

9. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati nimani anglatadi?

A) Soliq to‘lovchi istagan vaqtda da’vo qilishi mumkinligini

B) Soliqni ko‘paytirish muddatini

C) Soliq organi yoki to‘lovchi tomonidan soliq majburiyatlari ustidan da’vo qilish mumkin bo‘lgan qonuniy muddatni

D) Sudda faqat davlat nomidan da’vo qilish muddatini

10. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash qanday amalga oshiriladi?

A) Pul o‘tkazmasi, bank kartasi, yoki naqd shaklda

B) Faqat naqd shaklda

C) Yiliga bir marta, soliqlar summasidan qat’i nazar

D) Faqat soliq inspektori orqali

XVI-BOB. SOLIQ NAZORATINING SHAKL VA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

16.1. Soliq nazoratining shakllari

Vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir.

Soliq nazorati maqsadida soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan davlat organlari, muassasalari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar soliq to‘lovchilarni soliq bo‘yicha hisobga olish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etishi shart.

Soliq nazorati maqsadida banklar soliq qonunchiligida o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajaradi.

Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, o‘zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari haqidagi o‘zida mavjud materiallar to‘g‘risida bir-birini xabardor qiladi. Shuningdek mazkur organlar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa zarur axborot bilan almashishni amalga oshiradi. Bunday xabardor qilish tartibi mazkur organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi.

Soliq to‘lovchi va soliq agenti to‘g‘risida qonunchilik talablarini buzgan holda olingan hujjatlar yoki boshqa axborot ushbu shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq nazorati materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak.

Soliq organlari soliq nazoratini:

- soliq tekshiruvlari.
- soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Bojxona organlari tovarlarning O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarga nisbatan o‘z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligida va bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq soliq nazoratini amalga oshiradi.

16.2. Soliq tekshiruvlarining turlari

Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

Soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

- kameral soliq tekshiruvi.
- sayyor soliq tekshiruvi.
- soliq auditi.



23-rasm. 2024-yilda o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari natijalari

2024-yil davomida 31,9 mingta soliq to‘lovchiga nisbatan kameral soliq tekshiruvlari o‘tkazilgan. Bu respublika bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining (520,6 ming) 6,1 %ni tashkil etadi.

Ushbu tekshiruvlar natijasida 15 407,3 mrld so‘m tafovutlar aniqlangan hamda soliq to‘lovchilarga tafovutlar to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan.

Asosan quyidagi soliq turlari bo‘yicha tafovutlar aniqlangan:

- QQS – 7 590,8 mrld so‘m;
- foyda solig‘i – 6 369,1 mrld so‘m;
- JShODS – 473,5 mlrd so‘m;

- AOS – 174 mlrd so‘m.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:

- umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish – 8 254,5 mrld so‘m;
- ishlab chiqarish – 2 578,4 mrld so‘m;
- qurilish – 2 447,9 mrld so‘m;
- qishloq xo‘jaligi — 760,9 mlrd so‘m;
- transport — 653,7 mlrd so‘m.



24-rasm. 2024-yilda o‘tkazilgan soliq auditlari natijalari[138]

2024-yilda soliq auditi jami soliq to‘lovchilarning faqat 0,4 %ida o‘tkazilgan.

Soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to‘lamaslik xavfi yuqori bo‘lgan 2 146 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o‘tkazildi. Bu ushbu davrda faoliyat ko‘rsatgan jami soliq to‘lovchilarning (520,6 ming) 0,4 foizini tashkil etadi.

- Aniqlangan soliq xavfi summasi – 6 185,4 mlrd so‘m;
- Soliq auditida aniqlanlangan summa – 6 217,2 mlrd so‘m.

Soliq auditida aniqlangan summa sohalar kesimida:

- savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – 3 874,7 mlrd so‘m (62,3%);
- qurilish sohasida – 978,2 mlrd so‘m (15,7%);

[138]Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

▪ishlab chiqarish sohasida – 496,7 mlrd so‘m (8%);
▪xizmat ko‘rsatish sohasida – 365 mlrd so‘m (5,9%);
▪transport sohasida – 231,8 mlrd so‘m (3,7%);
▪qishloq xo‘jaligi sohasida – 133 mlrd so‘m (2,2%);
▪boshqa sohalarda – 137,8 mlrd so‘m (2,2%).

O‘tkazilgan soliq auditlarida 783 ta soliq to‘lovchida 12 420,3 mlrd so‘mlik soliq bazasi yashirilgan:

- 458 ta subyektda 6 073,2 mlrd so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasi ko‘rsatilmagan;
- 181 ta subyektda 3 033,7 mlrd so‘mlik tovarlar inventarizatsiya paytida ombor yoki realizatsiya joyida mavjud bo‘lmagan;
- 144 ta subyektda 3 313,4 mlrd so‘mlik kirim qilinmagan tovarlar saqlangan va (yoki) realizatsiya qilingan.

Bugungi kunga, aniqlangan soliq summalaridan to‘lov muddati kelgan 5 271,9 mlrd so‘mning 1 282,4 mlrd so‘mi (24,3%) to‘lab berildi.

16.3. Kameral soliq tekshiruvi

Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladi.

Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish taqiqlanadi, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining o‘rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to‘lovchining hududiga kirish;
2) soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;
3) soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;
4) soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin.

Tekshiruvdan oldingi tahlil — taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.



25-rasm. 2025-yil yanvar-fevral oylari davomida o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari[139]

Ikki oyda kameral tekshiruvi soliq to‘lovchilarning 1,9%ida o‘tkazilgan

2025-yil yanvar-fevral oylarida10,2 mingta soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvlari o‘tkazilgan. Bu respublika bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining (527,3 mingta) 1,9 foizini tashkil etadi.

Ushbu tekshiruvlarda 4447,5 mrld so‘m tafovutlar aniqlangan hamda soliq to‘lovchilarga tafovutlar to‘g‘risidagi talabnomalar yuborilgan.

Asosan quyidagi soliq turlari bo‘yicha tafovutlar aniqlangan:

- foyda solig‘i – 1,5 trln so‘m;
- QQS – 1,5 trln so‘m;
- aksiz solig‘i – 995 mrld so‘m;
- yer solig‘i – 129,1 mlrd so‘m.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:

- umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish – 1 839,7 mrld so‘m;

[139] Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

- ishlab chiqarish – 1 551,5 mrld so‘m;
- qurilish – 520,4 mrld so‘m;
- transport — 233,3 mrld so‘m;
- qishloq xo‘jaligi — 145,9 mrld so‘m.



26-rasm. 2025 yil yanvar-fevral oylarida oyi davomida “Avtokameral” tizimi orqali amalga oshirilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijalari[140]

Tekshiruvdan oldingi tahlillar natijalari

2025-yil yanvar-fevral oylarida o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 18 960 ta korxonalar tomonidan ko‘paytirishga qayta hisobotlar taqdim etilib, 180,3 mlrd so‘m soliqlar hisoblangan.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:

- umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish – 98,7 mrld so‘m;
- ishlab chiqarish – 31,3 mrld so‘m;
- qurilish — 24,6 mrld so‘m;
- qishloq xo‘jaligi — 16,2 mrld so‘m.
- transport – 4,7 mrld so‘m.

Tekshiruvdan oldingi tahlillar – xato va kamchiliklarini mustaqil ravishda — soliq organining tekshiruvisiz bartaraf etish imkonini beradi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz amalga oshiriladi.

[140]Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e’tiboran yakunlangan hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi. Buyruqda soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, tekshiruvni o‘tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr, tekshirilayotgan soliqlar va yig‘imlarning turlari ko‘rsatiladi.

Kameral soliq tekshiruvi SKning 88-moddasida belgilangan da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga nisbatan o‘tkazilishi mumkin.

Agar soliq to‘lovchi kameral soliq tekshiruvi tugaguniga qadar SKning 83-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasi o‘zgartirilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, kameral soliq tekshiruvi taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

Agar o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchiga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini yuboradi.

Soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo‘lsa ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan

holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini SKda belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchi soliq organining tegishli talabnomasida ko‘rsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli. Soliq to‘lovchining nomidan bunday asosnomani soliq maslahatchilari tashkiloti soliq to‘lovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida mustaqil ravishda taqdim etishi mumkin.

Soliq to‘lovchining taqdim etgan asosnomasi tegishli hujjatlar (asosnomalar) olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Aniqlangan tafovutlar bo‘yicha taqdim etilgan asosnomalariga to‘liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani soliq to‘lovchiga yuboradi.

Agar soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa, soliq organi soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlashga haqli.

Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi. Mazkur qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo‘llanilmaydi.

SKning 138-moddasida nazarda tutilgan qoidalar, agar SKda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, zimmasiga soliq hisobotini taqdim etish bo‘yicha majburiyat yuklatilgan soliq agentlarining va boshqa shaxslarning kameral soliq tekshiruvlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etish chog‘ida soliq organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliq organining buyrug‘isiz, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi talabnoma yozib berilmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari ushbu summani qoplash

to‘g‘risidagi qaror yoxud ularni qoplashni rad etish (to‘liq yoki qisman) to‘g‘risidagi asoslantirilgan qaror qabul qiladi.

Kameral soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

16.4. Sayyor soliq tekshiruvi

Soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish sayyor soliq tekshiruvidir.

Sayyor soliq tekshiruvi chog‘ida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning tahlili o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida soliq organlari profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to‘lov terminallari qo‘llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini o‘tkazishga haqli.

Sayyor soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi. Buyruqda soliq to‘lovchining nomi, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, tekshiruvlarni o‘tkazish muddatlari va maqsadi ko‘rsatiladi.

Sayyor soliq tekshiruvi o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sana ushbu tekshiruvni o‘tkazish muddatining boshlanishi deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun sayyor soliq tekshiruvi muddatining tugashi deb hisoblanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

16.5. Soliq auditi

Muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish soliq auditidir.

Soliq auditi soliq to‘lovchilarning va soliq agentlarining yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchiga va soliq agentiga nisbatan o‘tkaziladi.

Soliq organlari soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Xabarnomada soliq auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo‘lgan masalalarning ro‘yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro‘yxati, shuningdek soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir.



27-rasm. 2025-yil yanvar-mart oylarida o‘tkazilgan soliq auditlari natijalari[141]

2025-yilning yanvar-mart oylarida soliq auditi jami soliq to‘lovchilarning faqat 0,2%ida o‘tkazilgan.

Soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to‘lamaslik xavfi yuqori bo‘lgan 967 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o‘tkazildi. Bu ushbu davrda faoliyat ko‘rsatgan jami soliq to‘lovchilarning (529,5 ming) 0,2 foizini tashkil etadi.

▫Aniqlangan soliq xavfi summasi – 3,3 trln so‘m;

[141]Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

▫Soliq auditida aniqlanlangan summa – 3,2 trln so‘m.

Soliq auditida aniqlangan summa sohalar kesimida:

▪savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – 1 319,9 mlrd so‘m (40,8%);

▪ishlab chiqarish sohasida – 653,3 mlrd so‘m (20,2%);

▪qurilish sohasida – 510,6 mlrd so‘m (15,8%);

▪qishloq xo‘jaligi sohasida – 363,7 mlrd so‘m (11,2%);

▪xizmat ko‘rsatish sohasida – 159,5 mlrd so‘m (4,9%);

▪transport sohasida – 144,5 mlrd so‘m (4,5%);

▪boshqa sohalarda – 86,5 mlrd so‘m (2,6%).

O‘tkazilgan soliq auditlarida 388 ta soliq to‘lovchida 4,9 trln so‘mdan ortiq soliq bazasi yashirilgan:

- 111 ta subyektda 838,4 mlrd so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasi ko‘rsatilmagan;
- 125 ta subyektda 1,8 trln so‘mlik tovarlar inventarizatsiya paytida ombor yoki realizatsiya joyida mavjud bo‘lmagan;
- 152 ta subyektda 2,3 trln so‘mlik kirim qilinmagan tovarlar saqlangan va (yoki) realizatsiya qilingan.

Bugungi kunda aniqlangan soliq summalaridan to‘lov muddati kelgan 2,2 trln so‘mning 492,2 mlrd so‘mi (22,2%) to‘lab berildi.

Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq auditi Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspekstiyasi tomonidan inspekstiya boshlig‘ining (inspekstiya boshlig‘i o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Soliq auditida ishtirok etish uchun boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘ida tekshiriladigan soliq to‘lovchining nomi va identifikastiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi, soliq auditini o‘tkazish muddatlari va maqsadi ko‘rsatiladi.

Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan uni o‘tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Soliq auditi faqat da’vo qilish muddati o‘tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq to‘lovchi ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda soliq auditi, soliq to‘lovchining bevosita soliq auditi o‘tkazilayotgan yildan oldingi uch yildan ko‘p bo‘lmagan faoliyatini qamrab olishi mumkin.

Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq auditi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

16.6. Soliq auditini o‘tkazish muddati va uni uzaytirish

Soliq auditi o‘ttiz kundan ortiq davom etishi mumkin emas.

Soliq auditini o‘tkazish muddati soliq to‘lovchiga va soliq agentiga soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish asoslari va tartibini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq auditi o‘tkazilishini quyidagilar uchun ham uzaytirishga haqli:

-hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish.

- chet el davlat organlaridan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olish.

- ekspertizalar o‘tkazish.

- chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilish.

Soliq auditi muddatini soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan asos bo‘yicha uzaytirishga hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo‘yicha ko‘pi bilan bir marta yo‘l qo‘yiladi.

Soliq auditi muddatini uzaytirish soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) tegishli buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Soliq auditining umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

Soliq organlari soliq to‘lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli emas. Yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlashga haqli.

Bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi ushbu mansabdor shaxslar tomonidan xizmat guvohnomalari va soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) ushbu shaxsning soliq tekshiruvini

o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i (qarori) taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining bevosita soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari ko‘rsatilgan ob’ektlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hududlarini yoki binosini va soliq solish ob’ektlarini ko‘zdan kechirishni o‘tkazishi mumkin.

Soliq organlarining soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslariga mazkur hududlarga yoki binolarga kirishiga to‘sqinlik qilingan taqdirda soliq organining mansabdor shaxsi o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnomani tuzadi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi tekshirilayotgan shaxs to‘g‘risida o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar yoki xuddi shunday soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini mustaqil tarzda aniqlashga haqli. Tekshirilayotgan shaxs ko‘rsatilgan dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda mazkur dalolatnomaga tegishli qayd kiritiladi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining turar-joy binolariga ularda yashovchi jismoniy shaxslarning xoxishiga qaramay yoki xoxishiga qarshi qonunda yoki sudning qarori asosida belgilangan hollardan boshqacha tarzda kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslari tekshiruvning to‘liqligi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlashtirish maqsadida tekshirilayotgan shaxsning hududlari va binolarini, shuningdek hujjatlar va buyumlarni ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga haqli.

Ko‘zdan kechirish videotasvirga olingan holda amalga oshiriladi, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Ko‘zdan kechirish o‘tkazilayotganda tekshirilayotgan shaxs yoki uning vakili, shuningdek mutaxassislar ishtirok etishga haqlidir.

Zarur bo‘lgan hollarda, ko‘zdan kechirish chog‘ida fotosuratga olish va videoyozuvga tushirish amalga oshiriladi, hujjatlardan ko‘chirma nusxalar olinadi yoki ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq boshqa harakatlar bajariladi.

Ko‘zdan kechirish o‘tkazilganligi to‘g‘risida bayonnoma tuziladi.

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsdan tekshiruv uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

Hujjatlar taqdim etish to‘g‘risidagi talabnoma tekshirilayotgan shaxsga shaxsan imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi. Agar hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani mazkur usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi

Talab qilib olinadigan hujjatlar soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi, pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilishi yoki telekommunikastiya aloqa tarmoqlari yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda topshirilishi mumkin.

Hujjatlarni qog‘ozda taqdim etish tekshirilayotgan shaxs tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida amalga oshiriladi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organiga (mansabdor shaxsga) taqdim etiladigan hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini notarial tarzda tasdiqlashni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hisobga olish hujjatlari elektron shaklda tuzilgan taqdirda soliq to‘lovchi (soliq agenti) soliq tekshiruvi chog‘ida soliq organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko‘ra bunday hujjatlarning qog‘ozdagi ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart, bundan elektron hisobvaraq-fakturalarning axborot tizimida ro‘yxatga olingan hisobvaraq-fakturalar mustasno.

Zarur bo‘lgan taqdirda soliq organi hujjatlarning asl nusxalari bilan tanishishga haqli.

Soliq tekshiruvi davomida talab qilib olingan hujjatlar tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etiladi. Agar tekshirilayotgan shaxs talab qilinayotgan hujjatlarni belgilangan muddat ichida taqdim etish imkoniga ega bo‘lmasa, u tekshiruvchi mansabdor shaxslarni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.

Soliq to‘lovchi talab qilinadigan hujjatlarni ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi, talab qilib olinayotgan hujjatlarni taqdim etish imkoni bo‘lmagan sabablar ko‘rsatilgan yozma shakldagi xabarnomani hujjatlar taqdim etish haqidagi talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida yuborishi kerak. Xabarnomada soliq to‘lovchi talab qilingan hujjatlarni taqdim eta olishi mumkin bo‘lgan muddatlar ko‘rsatilishi lozim.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘lovchidan xabarnomani olgan kundan e’tiboran ikki kun ichida ushbu xabarnoma

asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqaradi.

Tekshirilayotgan shaxsning talab qilinayotgan hujjatlarni taqdim etishni rad etganligi soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tuziladigan bayonnomada qayd etiladi. Bayonnoma soliq organining mansabdor shaxsi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs bayonnomani imzolashni rad etgan taqdirda bu haqda tegishli qayd kiritiladi. Ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etish soliq to‘lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi ushbu hujjatlarni soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari jarayonida soliq organlari tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas. Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo‘lsa, shuningdek soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo‘qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin.

Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga, axborotga ega bo‘lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni, axborotni talab qilib olishga haqli.

Tekshirilayotgan soliq to‘lovchining va soliq agentining faoliyatiga taalluqli hujjatlarni va axborotni talab qilib olish soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarori asosida soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish chog‘ida ham amalga oshirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvlarini yoki soliq nazoratining boshqa tadbirlarini amalga oshiruvchi soliq organi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomani mazkur hujjatlar (axborot) talab qilib olinishi kerak bo‘lgan shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organiga yuboradi. Bunda

topshiriqnomada soliq nazoratining qaysi tadbirini o‘tkazish chog‘ida hujjatlar (axborot) taqdim etish zarurati yuzaga kelganligi ko‘rsatiladi, muayyan bitimga taalluqli axborot talab qilib olinayotganda esa ushbu bitimni identifikastiyalash imkonini beruvchi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Topshiriqnoma olingan kundan e’tiboran uch kun ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilib olinayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi ushbu shaxsga hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

Talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani olgan shaxs talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligini o‘sha muddatda xabar qiladi. Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo‘lmasa, soliq organi hujjatlar qaysi shaxsdan talab qilib olingan bo‘lsa o‘sha shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli.

Hujjatlar va buyumlarni tungi paytda olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish xolislar hamda hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o‘tkaziladi. Zarur bo‘lgan hollarda, olib qo‘yishni amalga oshirishda ishtirok etish uchun mutaxassis taklif etiladi.

Olib qo‘yish boshlanguniga qadar soliq organining mansabdor shaxsi olib qo‘yishni amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorni taqdim etadi hamda hozir bo‘lgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlar va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxsga ularni o‘z ixtiyori bilan topshirishni taklif etadi, taklif rad etilgan taqdirda esa olib qo‘yishni majburiy tarzda amalga oshiradi.

O‘ziga nisbatan olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxs olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan hujjatlar va buyumlar saqlanishi mumkin bo‘lgan binolarni yoki boshqa joylarni ochishdan bosh tortganda, soliq organining mansabdor shaxsi tambalarga, eshiklarga va boshqa buyumlarga zarurat sababli yuzaga kelmagan shikast etkazishdan qochib olib qo‘yishni mustaqil tarzda bajarishga haqli.

Soliq tekshiruvi predmetiga aloqasi bo‘lmagan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yishni amalga oshirish to‘g‘risida hamda soliq qonunchiligidagi talablarga rioya etgan holda bayonnoma tuziladi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yish bayonnomasida yoki unga ilova qilinadigan ro‘yxatlarda aniq nomi, soni, o‘ziga xos xususiyatlari va imkon qadar buyumlarning qiymati ko‘rsatilgan holda sanab o‘tiladi hamda ro‘yxatga olinadi.

Agar soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish uchun tekshirilayotgan shaxs hujjatlarining ko‘chirma nusxalari etarli bo‘lmasa hamda soliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo‘q qilinishi, yashirilishi, o‘zgartirilishi yoki almashtirib qo‘yilishi mumkinligi to‘g‘risida taxmin qilish uchun etarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlarning aslini soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yishga haqli. Bunday hujjatlar olib qo‘yilayotganda ulardan soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadigan ko‘chirma nusxalar olinadi va hujjatlar olib qo‘yilayotgan shaxsga topshiriladi.

Hujjatlarni olib qo‘yish bilan bir vaqtning o‘zida ko‘chirma nusxalarni tayyorlash yoki topshirish imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq organi ko‘chirma nusxalarni hujjatlari olib qo‘yilgan shaxsga hujjatlar olib qo‘yilganidan keyin besh kun ichida topshiradi.

Barcha olib qo‘yiladigan hujjatlar va buyumlar xolislarga hamda olib qo‘yishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ko‘rsatiladi va zarur bo‘lgan taqdirda olib qo‘yilgan joyda o‘raladi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar raqamlanishi, tikilishi va olib qo‘yilayotgan shaxsning muhri yoki imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Ushbu shaxs olib qo‘yilayotgan hujjatlarni muhr yoki imzo bilan tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaga bu haqda maxsus belgi qo‘yiladi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaning ko‘chirma nusxasi ular qaysi shaxsdan olib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki yuboriladi.

Soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega biror-bir holatlar o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday voyaga etgan jismoniy shaxs ko‘rsatmalar berish uchun guvoh sifatida chaqirilishi mumkin.

Guvohning ko‘rsatmalari bayonnomaga kiritiladi.

Guvoh sifatida quyidagi shaxslar jalb etilishi mumkin emas:

-o‘zining jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘g‘ri idrok etishga qodir bo‘lmagan shaxslar.

-oʻz kasbiy majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan soliq nazoratini oʻtkazish uchun zarur boʻlgan va ushbu shaxslarning kasbiy siriga taalluqli boʻlgan axborotni olgan shaxslar. Chunonchi, bunday shaxslar jumlasiga advokat, auditor, soliq maslahatchisi kiradi.

Guvohning koʻrsatmalari, agar u kasalligi, keksaligi, nogironligi tufayli soliq organiga kela olmasa, u turgan joyda olinishi mumkin.

Koʻrsatmalar olishdan avval soliq organining mansabdor shaxsi guvohni koʻrsatmalar berishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolgʻon koʻrsatmalar berganlik uchun javobgarlik toʻgʻrisida ogohlantiradi, bu haqda bayonnomaga guvohning imzosi bilan tasdiqlanadigan belgi kiritiladi.

Soliq organiga guvoh sifatida chaqirilgan xodimlar uchun soliq organiga kelganligi sababli ishda boʻlmagan vaqt uchun asosiy ish joyidagi oylik ish haqi saqlanib qoladi.

Zarur boʻlgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir aniq harakatlarni oʻtkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi mumkin.

Shaxsni ekspert sifatida jalb etish soliq organi va ekspert oʻrtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun ilm-fan, san’at, texnika yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar talab etilsa, ekspertiza tayinlanadi. Soliq organining soliq nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsida bunday bilimlarga egaligi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

Ekspert oldida qoʻyilgan masalalar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chiqishi mumkin emas.

Ekspertiza tayinlash toʻgʻrisidagi qarorni soliq tekshiruvini oʻtkazayotgan mansabdor shaxsning iltimosnomasi asosida soliq organining rahbari (rahbar oʻrinbosari) qabul qiladi.

Qarorda ekspertizani tayinlash uchun asoslar, ekspertiza oʻtkazishi kerak boʻlgan tashkilotning nomi yoki ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ekspertning oldiga qoʻyiladigan masalalar va uning ixtiyoriga beriladigan materiallar koʻrsatiladi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli tekshiruv materiallari bilan tanishishga, oʻziga qoʻshimcha materiallar taqdim etilishi toʻgʻrisida iltimosnomalar berishga haqli.

Ekspert xulosani oʻz nomidan yozma shaklda beradi. Ekspert xulosasida oʻzi oʻtkazgan tekshirishlar, ular asosida qilingan xulosalar hamda qoʻyilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi.

Agar ekspertga berilgan materiallar etarli bo‘lmasa yoki u ekspertiza o‘tkazish uchun zarur bilimlarga ega bo‘lmasa, ekspert xulosa berishni rad etishi mumkin.

Soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organining mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsni ekspertiza tayinlanganligi to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtirishi va uning huquqlarini tushuntirishi shart bo‘lib, bu haqda bayonnoma tuziladi.

Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish jarayonida tekshirilayotgan shaxs:

-ekspertni rad etish.

-ekspertni o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to‘g‘risida iltimos qilish.

-qo‘shimcha savollarni taqdim etib, ular yuzasidan ekspert xulosasini olish.

-soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o‘tkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish.

-ekspertning xulosasi bilan tanishish.

-ekspertning xulosasi yuzasidan asoslantirilgan fikr taqdim etish huquqiga ega.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun soliq organi tomonidan maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan hamda ishning natijasidan manfaatdor bo‘lmagan mutaxassis jalb etilishi mumkin.

Shaxsning mutaxassis sifatida jalb qilinishi soliq organi va mutaxassis o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida ishtirok etishi uning guvoh sifatida aynan shu holatlar yuzasidan so‘roq qilinishi imkoniyatini istisno etmaydi.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun tarjimon jalb etilishi mumkin.

Ishning natijasidan manfaatdor bo‘lmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoki kar va soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs tarjimonlik qilishi mumkin.

Shaxsning tarjimon sifatida jalb qilinishi soliq organi va tarjimon o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarjimon soliq organi mansabdor shaxsining chaqiruviga binoan kelishi va o‘ziga topshirilgan tarjimani aniq bajarishi shart.

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligi videotasvirga olish qurilmalaridan foydalanish vositasida amalga oshiriladi, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Videotasvirni yozib olish to‘xtovsiz va izchil ravishda olib boriladi. Videotasvir materiallarining ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga soliq nazoratiga oid tadbir tugagach taqdim etiladi.

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda videotasvirga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Qonunchilikda videoyozuv taqiqlangan hollarda yoki videoyozuvga olish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda xolislar soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarga majburiy tartibda jalb etiladi.

Soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish chog‘ida bayonnoma tuziladi. Bayonnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

-tekshirish o‘tkazishning asoslari, turi va davri.

-amalga oshiriladigan aniq harakatning joyi va sanasi.

-harakatning boshlanish va tugash vaqti.

-bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi.

-harakatda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, zarur bo‘lgan hollarda esa uning manzili.

-harakatning mazmuni, uni amalga oshirish ketma-ketligi.

-harakatni bajarish chog‘ida aniqlangan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va holatlar.

Bayonnoma harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan o‘qib chiqiladi. Mazkur shaxslar bayonnomaga kiritilishi yoki materiallarga qo‘shib qo‘yilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalarini bildirishga haqli.

Bayonnoma soliq organining uni tuzgan mansabdor shaxsi, shuningdek harakatni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga fotosuratlar, videoyozuvlar va harakatni amalga oshirish chog‘ida bajarilgan boshqa materiallar ilova qilinadi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning egaligida, foydalanishida va tasarrufida bo‘lgan mol-mulkka g‘ayriqonuniy harakatlar orqali zarar etkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari orqali etkazilgan zararning o‘rni to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga etkazilgan zarar uchun ularning mansabdor shaxslari qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining qonuniy harakatlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning vakillariga etkazilgan zararning o‘rni qoplanmaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq nazorati, nazorat shakllari, soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi, soliq to‘lovchilarning ochiqligi, kameral nazorat, nazorat samadorligini oshirish

Takrorlash uchun savollar:

1.Soliq tekshiruvlari qanday ma’noni anglatadi?

2.Soliq nazoratini o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3.Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish qanday amalga oshiriladi?

4.Sayyor soliq tekshiruvi qachon joriy etilgan?

5.Soliq auditini o‘tkazish muddatini tushuntiring?

6.Kameral soliq tekshiruviga nimalar kiradi?

7.Soliq tekshiruvlarining qanday turlari mavjud?

8.Soliq nazoratining shakllari qanday?

9.Soliq auditi qanday amalga oshiriladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq nazorati qaysi shakllarda amalga oshiriladi aniq va to‘g‘ri javobni belgilang?

A) Soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi

B) Soliq tekshiruvlari, xronometraj ko‘zdan kechirish

C) Soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi

D) Kameral soliq tekshiruv, soliq monitoringi

2. Soliq tekshiruvlari nechta turdan iborat aniq va to‘g‘ri javobni belgilang?

A) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, soliq audit

B) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, soliq monitoring

C) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, xronometraj ko‘zdan kechirish

D) Kameral nazorat, sayyor soliq tekshiruv, soliq monitoringi

3. Nazorat xaridini amalga oshirgan shaxslar sotib olingan tovarlarni kimga topshiradi?

A) Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazgan shaxsga

B) Xolislarga topshiradi

C) Tadbirkorning o‘ziga topshiradi

D) Xarid qilingan tovarlar sotib olingan shaxsning o‘zi olib ketadi

4. Soliq auditi kimlarga nisbatan o‘tkaziladi?

A) Yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to‘lovchilarning nisbatan

B) Tavakkalchilik toifasi past, ammo 5 yildan ko‘p faoliyat ko‘rsatgan korxonalarga nisbatan

C) Tavakkalchilik toifasi past, ammo 10 yildan ko‘p faoliyat ko‘rsatgan korxonalarga nisbatan

D) Tavakkalchilik toifasi past, ammo byudjet oldida qarzi o‘sib borayotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan

5. Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirish kim tamondan belgilanadi?

A) Soliq qo‘mitasi

B) Ichki ishlar vazirligi

C) Prezident huzuridagi biznes onbustman

D) Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirishga yo‘l qo‘yimaydi

6. Soliq auditini o‘tkazish muddati necha kunni tashkil etadi?

A) O‘ttiz ish kuni

B) Oltmish kun

C) Qirq ish kuni

D) Qirq kun

7. Soliq auditini o‘tkazish muddatini uzaytirilishi mumkinmi?

A) Ikki oydan olti oygacha uzaytirilishi mumkin

B) Ikki oydan yetti oygacha uzaytirilishi mumkin

C) Ikki oydan sakkiz oygacha uzaytirilishi mumkin

D) Soliq auditini o‘tkazish muddati uzaytirilmaydi

XVII-BOB. SOLIQ TEKSHIRUVLARINING VA SOLIQ NAZORATI BOSHQA CHORALARINING HUQUQIY OQIBATLARI

17.1. Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirish

Soliq auditi natijalariga koʻra soliq organlarining ushbu tekshiruvni oʻtkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan soliq auditi dalolatnomasi tuzilishi kerak.

Soliq auditi dalolatnomasida quyidagilar koʻrsatiladi:

-soliq auditi dalolatnomasini tuzish sanasi ushbu tekshiruvni oʻtkazgan shaxslar tomonidan dalolatnoma imzolangan sana.

-tekshirilayotgan shaxsning toʻliq va qisqartirilgan nomi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi. Yuridik shaxs uning alohida boʻlinmasi joylashgan erda tekshirilgan taqdirda yuridik shaxsning nomidan tashqari tekshirilayotgan alohida boʻlinmaning toʻliq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan eri koʻrsatiladi.

-oʻzlari vakili boʻlgan soliq organining nomi koʻrsatilgan holda soliq auditini oʻtkazgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning lavozimlari.

-soliq organi rahbarining (rahbari oʻrinbosarining) soliq auditi oʻtkazish toʻgʻrisidagi buyrugʻi sanasi va raqami.

-soliq auditi davomida tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar roʻyxati.

-soliq auditi oʻtkazilgan davr.

-soliq auditi qaysi soliqqa nisbatan oʻtkazilgan boʻlsa, oʻsha soliqning nomi.

-soliq auditi boshlangan va tugagan sana.

-yuridik shaxs joylashgan erning yoki jismoniy shaxs yashash joyining manzili.

-soliq auditini amalga oshirish chogʻida oʻtkazilgan soliq nazorati tadbirlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar.

-soliq toʻgʻrisidagi qonunchilikning tegishli normasiga havola qilgan holda soliqqa oid huquqbuzarlikning batafsil tavsifi.

-soliq auditi natijalari boʻyicha xulosalar va takliflar.

Agar oʻtkazilgan soliq auditi natijalariga koʻra soliq toʻgʻrisidagi qonunchilikning buzilishlari aniqlanmagan boʻlsa, bu haqda soliq auditi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq auditi dalolatnomasiga tekshiruv davomida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari faktlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Soliq auditi dalolatnomasi shaklini va uni tuzishga doir talablarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Soliq auditi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi.

Soliq auditi dalolatnomasining barcha nusxalari soliq organining soliq auditini o‘tkazgan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. Soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga tekshiruv tugaganidan keyin uch kun ichida topshiriladi. Soliq to‘lovchi dalolatnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko‘rsatgan holda soliq auditi dalolatnomasini olganligiga imzo qo‘yishi shart. Soliq auditi dalolatnomasining soliq organida qolgan nusxalari soliq auditi materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

Soliq to‘lovchining soliq auditi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq auditi natijalariga roziligini bildirmaydi.

Soliq to‘lovchi soliq auditi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda, soliq organining mansabdor shaxsi bu haqda soliq auditi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi. Bunday holda soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga yuridik shaxs joylashgan er bo‘yicha yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq auditi dalolatnomasi pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilgan taqdirda buyurtma xat yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda beshinchi kun ushbu dalolatnoma topshirilgan sana deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan chet el yuridik shaxsiga soliq auditi dalolatnomasi pochta orqali O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestridagi manzil bo‘yicha buyurtma xat bilan yuboriladi. Buyurtma xat yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda yigirmanchi kun ushbu dalolatnoma topshirilgan sana deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

Soliq to‘lovchi o‘z e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni yozma e’tirozlarga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

17.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi

Soliq auditi natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi, soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi. Mazkur ko‘rib chiqish tartibi soliq bazasini yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, soliqni, yig‘imni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik soliqqa oid huquqbuzarliklarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish va soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish tartibida ko‘rib chiqiladi.

Soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan talablarga rioya etmaslik yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining muhim shartlarini buzish yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish va soliq summalarini qo‘shib hisoblash to‘g‘risidagi qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Bunday muhim shartlar jumlasiga o‘ziga nisbatan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxsning soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va o‘z vakili orqali ishtirok etish imkoniyatini ta’minlash hamda soliq to‘lovchining tushuntirishlar berish imkonini ta’minlash kiradi.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining boshqacha buzilishlari ham, agar bunday qoidabuzarliklar soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

17.3. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari qaysi soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi davomida aniqlangan bo‘lsa, o‘sha soliq auditi

dalolatnomasi va sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan ushbu soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, lekin o‘n besh kundan kechirtirmay ko‘rib chiqilishi kerak. Ularga doir qaror soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin besh kundan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

O‘ziga nisbatan soliq auditi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

Agar tekshirilayotgan shaxs soliq auditining dalolatnomasiga va sayyor soliq tekshiruvining materiallariga doir yozma e’tirozlarini soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida taqdim etgan bo‘lsa, ushbu e’tirozlar ham ko‘rib chiqilishi lozim.

Soliq organi tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqilishiga kela olmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq tekshiruvi materiallarining ko‘rib chiqishni kamida besh kun muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va o‘z vakili orqali ishtirok etishga haqli.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan, tekshiruv materiallari ko‘rib chiqiladigan vaqt va joy haqida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning kelmaganligi soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Soliq tekshiruvi materiallarini mohiyatiga ko‘ra ko‘rib chiqishdan oldin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

-ishni kim ko‘rib chiqayotganligini va qaysi soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilishi lozimligini e’lon qilishi.

-ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi faktini aniqlashi shart.

Koʻrib chiqishda ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslar kelmagan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar oʻrinbosari) ish yuritish ishtirokchilari belgilangan tartibda xabardor qilingan-qilinmaganligini aniqlashtiradi va soliq tekshiruvi materiallarini mazkur shaxslarning yoʻqligida koʻrib chiqish yoki ushbu koʻrib chiqishni keyinga qoldirish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

-oʻziga nisbatan soliq tekshiruvi oʻtkazilgan shaxsning vakili ishtirok etgan taqdirda ushbu vakilning vakolatlarini tekshirishi.

-koʻrib chiqish tartib-taomilida ishtirok etayotgan shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishi.

-koʻrib chiqish uchun ishtirok etishi zarur boʻlgan shaxs kelmagan taqdirda, soliq tekshiruvi materiallarining koʻrib chiqilishini keyinga qoldirish toʻgʻrisida qaror chiqarishi kerak.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini koʻrib chiqish chogʻida tekshiruv dalolatnomasi, zarur boʻlgan taqdirda esa soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek oʻziga nisbatan tekshiruv oʻtkazilgan shaxsning yozma e'tirozlari ham oʻqib eshittirilishi mumkin.

Yozma e'tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni tekshiruv materiallarini koʻrib chiqish bosqichida oʻz tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini koʻrib chiqish vaqtida taqdim etilgan dalillar, shu jumladan oʻziga nisbatan tekshiruv oʻtkazilgan shaxsdan ilgari talab qilib olingan hujjatlar, ushbu shaxs soliq tekshiruvlaridan oʻtkazilganda soliq organlariga taqdim etilgan hujjatlar hamda soliq organida mavjud boʻlgan boshqa hujjatlar oʻrganiladi.

Soliq qonunchiligi talablari buzilgan holda olingan dalillardan foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Soliq toʻlovchining faoliyati toʻgʻrisidagi qoʻshimcha ma'lumotlar (axborot), agar ular soliq qonunchiligida belgilangan muddatlar buzilgan holda soliq organiga taqdim etilgan boʻlsa ham koʻrib chiqilishi mumkin.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini koʻrib chiqish davomida zarur boʻlgan taqdirda ushbu koʻrib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish toʻgʻrisida qaror qabul qilinishi mumkin.

Soliq tekshiruvi materiallari koʻrib chiqilayotganda bayonnoma yuritiladi.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini koʻrib chiqish jarayonida soliq organining rahbari (rahbar oʻrinbosari):

-o‘ziga nisbatan tekshiruv dalolatnomasi tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishini sodir etgan-etmaganligini.

-aniqlangan qoidabuzarliklar soliqqa oid huquqbuzarlik alomatini tashkil etish-etmasligini.

-shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asoslar mavjud-mavjud emasligini.

-soliq to‘lovchining e’tirozlari asoslanganligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoki soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoxud og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari sodir etilganligi faktini tasdiqlash uchun qo‘shimcha dalillar olish zarur bo‘lgan taqdirda yoki ular bo‘lmaganda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini bir oydan oshiq bo‘lmagan muddatda o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir.

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda bunday qo‘shimcha tadbirlarni o‘tkazish zaruratini keltirib chiqargan holatlar bayon etiladi, ularni o‘tkazish muddati va aniq shakli ko‘rsatiladi.

Soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari sifatida soliq tekshiruvini o‘tkazishda hujjatlarni talab qilib olish, uchinchi shaxslardan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish, guvohni so‘roq qilish, ekspertiza amalga oshirilishi mumkin.

Soliq nazorati qo‘shimcha tadbirlarining boshlanishi va tugashi, soliq nazoratining o‘tkazilgan qo‘shimcha tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari sodir etilganligi yoki ularning mavjud emasligi faktini tasdiqlash uchun olingan qo‘shimcha dalillar, tekshiruvchilarning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga doir xulosalari va takliflari hamda ushbu soliq qonunchiligiga oid havolalar, agar soliq qonunchiligida soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ushbu buzilishlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimchada qayd etiladi.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini o‘tkazgan soliq organining mansabdor shaxslari tomonidan bunday tadbirlar tugagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tuzilishi va imzolanishi kerak.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlari natijasida olingan materiallar ilova qilingan holda ushbu qo‘shimcha tuzilgan sanadan e’tiboran uch kun ichida o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxsga imzo qo‘ydirib berilishi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirilishi kerak.

Agar o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimchani olishdan bosh tortsa, bunday fakt tekshiruv dalolatnomasiga doir qo‘shimchada aks ettiriladi. Bunday holda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha tashkilotning joylashgan eri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran beshinchi kunda qabul qilingan deb hisoblanadi.

O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi dalolatnomasiga doir qo‘shimcha olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tekshiruv dalolatnomasiga doir bunday qo‘shimcha bo‘yicha umuman yoki uning alohida qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

17.4. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibida ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni qabul qiladi:

-soliq auditi materiallari bo‘yicha soliqlar va penyalar qo‘shib hisoblash yoki buni rad etish.

-soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish yoki buni rad etish.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari mazkur holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlarga, o‘ziga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun keltiriladigan vajlarga hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalariga havola qilgan holda, o‘tkazilgan soliq tekshiruvida qanday belgilangan bo‘lsa, shunday bayon etiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda soliq qonunchiligining shu huquqbuzarliklarni qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Soliqlarni qo‘shib hisoblashni nazarda tutuvchi qarorda, agar soliqlarga oid qarzdorlik tekshiruv jarayonida aniqlangan bo‘lsa, soliqlarga oid aniqlangan ushbu qarzdorlik miqdori va tegishli penyalar summasi ko‘rsatiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni rad etishni nazarda tutuvchi qarorda bunday rad etish uchun asos bo‘lgan holatlar bayon etiladi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs ushbu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

Agar soliq auditi jarayonida soliq organining qarori asosida ortiqcha qaytarilgan soliq summasi aniqlangan bo‘lsa, soliqlar summalarini qo‘shib hisoblash to‘g‘risidagi qarorda mazkur summa ushbu soliq bo‘yicha soliq qarzi deb e’tirof etiladi. Ushbu soliq summasi soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, u mablag‘larni haqiqatda olgan kundan e’tiboran, soliq summasi hisobga o‘tkazishga qabul qilingan taqdirda esa ushbu soliq summasi hisobga olishga qabul qilingan kundan e’tiboran ushbu summa soliq qarzi deb e’tirof etiladi.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinganidan keyin soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) soliq qonunchiligida ta’minlash choralari nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ushbu qarorning ijrosi uchun ta’minlash choralarini ko‘rishga haqli.

17.5. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga berilgan kundan e’tiboran bir oy o‘tgach kuchga kiradi.

Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror u qabul qilingan kundan e’tiboran ikki kun ichida o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga imzo qo‘ydirib berilishi yoki olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usul orqali topshirilishi kerak.

Agar qarorni berish yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, u yuridik shaxsning joylashgan eri yoki jismoniy shaxsning yashash joyi bo‘yicha pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Qaror pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda buyurtma xat yuborilgan kundan e’tiboran beshinchi kun u berilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq organining qarori ustidan shikoyat berilgan taqdirda, mazkur qaror shikoyat qilinganda soliq organlari qarorlarini ijro etish nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradi.

O‘ziga nisbatan tegishli qaror chiqarilgan shaxs qaror kuchga kirguniga qadar uni to‘liq yoki qisman ijro etishga haqli. Bunda shikoyatning berilishi shaxsni kuchga kirmagan qarorni to‘liq yoki qisman ijro etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinganidan so‘ng soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) mazkur qarorni ijro etish imkonini ta’minlashga qaratilgan choralarni (ta’minlash choralarini) ko‘rishga haqli.

Agar ushbu choralarni ko‘rmaslik keyinchalik ushbu qarorning ijrosini va soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan soliq qarzini undirishni qiyinlashtirishi mumkin yoxud undirishni imkonsiz qilib qo‘yadi deb taxmin qilish uchun etarlicha asoslar bo‘lsa, ta’minlash choralari ko‘riladi.

Ta’minlash choralarini ko‘rish uchun soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tegishli qaror qabul qiladi. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi va soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror ijro etiladigan va soliqlar qo‘shib hisoblanadigan kunga qadar yoki yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan qabul qilingan qaror bekor qilingan kunga qadar amal qiladi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) ta’minlash choralarini bekor qilish yoki ularni almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Ta’minlash choralarini bekor qilish (almashtirish) to‘g‘risidagi qaror u chiqarilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Soliq organining roziligisiz mol-mulkni boshqa shaxsning ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq va bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operastiyalarni to‘xtatib turish ta’minlash choralari bo‘lishi mumkin.

Boshqa shaxsning ixtiyoriga o‘tkazishga (garovga qo‘yishga) doir taqiq izchillik bilan quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

-koʻchmas mol-mulkka, shu jumladan mahsulotlarni ishlab chiqarishda (xizmatlarni koʻrsatishda) ishtirok etmaydigan mol-mulkka.

-transport vositalariga, qimmatli qogʻozlarga, xizmat xonalarining dizayn buyumlariga.

-tayyor mahsulot, xom ashyo va materiallardan tashqari boshqa mol-mulkka.

-tayyor mahsulotga, xom ashyo va materiallarga.

Oldingi guruhlardagi mol-mulkning qiymati soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari boʻyicha qaror asosida toʻlanishi lozim boʻlgan soliq qarzining umumiy summasidan kam boʻlgan taqdirda, har bir navbatdagi guruhning mol-mulkini boshqa shaxs ixtiyoriga oʻtkazishga (garovga qoʻyishga) doir taqiq qoʻllaniladi. Bunda mol-mulkning qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari boʻyicha belgilanadi.

Bankdagi hisobvaraqlar boʻyicha operastiyalarni toʻxtatib turish boʻyicha ta'minlash choralari tartibida faqat mol-mulkni boshqa shaxs ixtiyoriga oʻtkazishga (garovga qoʻyishga) doir taqiq qoʻyilganidan keyin va faqat agar bunday mol-mulkning jami qiymati soliq qarzining umumiy summasidan kam boʻlsa, qoʻllanilishi mumkin.

Bankdagi hisobvaraqlar boʻyicha operastiyalarni toʻxtatib turish soliq tekshiruvi natijalari boʻyicha qarorda koʻrsatilgan soliq qarzining umumiy summasi bilan boshqa shaxs ixtiyoriga oʻtkazish (garovga qoʻyish) mumkin boʻlmagan mol-mulk qiymati oʻrtasidagi farqqa nisbatan yoʻl qoʻyiladi.

Oʻziga nisbatan ta'minlash choralarini koʻrish toʻgʻrisida qaror chiqarilgan shaxsning iltimosiga koʻra soliq organi ta'minlash choralarini:

-bankning javobgarlikka tortish va soliqlarni qoʻshib hisoblash toʻgʻrisidagi qarorda koʻrsatilgan soliq qarzi summasini oʻziga nisbatan shunday qaror chiqarilgan shaxs ushbu summalarni toʻlamagan taqdirda soliq organi tomonidan belgilangan muddatda toʻlashga roziligini tasdiqlovchi bank kafolatiga.

-qimmatli qogʻozlarning uyushgan bozorida muomalada boʻlgan qimmatli qogʻozlarni garovga qoʻyishga yoki boshqa mol-mulkni garovga qoʻyishga.

-uchinchi shaxsning kafilligiga almashtirishga haqlidir.

Soliq toʻlovchi tomonidan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi natijalari boʻyicha qaror asosida byudjetga toʻlanishi lozim boʻlgan summaga doir amaldagi bank kafolati taqdim etilgan taqdirda, soliq organi bu soliq toʻlovchiga ta'minlash choralarini almashtirishni rad etishga haqli emas.

Ta’minlash choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi qarorning va ularni bekor qilish haqidagi qarorning ko‘chirma nusxalari ular chiqarilgan kundan e’tiboran besh kun ichida o‘ziga nisbatan mazkur qarorlar chiqarilgan shaxsga imzo qo‘ydirib beriladi yoki olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi. Qarorning ko‘chirma nusxasi pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilganda ushbu nusxa buyurtma xat yuborilgan sanadan e’tiboran besh kun o‘tgach olingan deb hisoblanadi.

Qaysi qoidabuzarliklar uchun jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, soliq organi tomonidan aniqlangan shunday qoidabuzarliklar yuzasidan soliq organining sayyor soliq tekshiruvini yoki soliq auditini o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxsi o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi.

Ushbu huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish hamda ularni sodir etganlikda aybdor bo‘lgan jismoniy shaxslarga va yuridik shaxslarning mansabdor shaxslariga nisbatan ma’muriy jazo choralarini qo‘llash ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Agar soliq organi jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan keyin materiallarni prokuratura organlariga yuborgan bo‘lsa, ushbu soliq organi shu jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorning ijrosini to‘xtatib turishi shart.

Materiallarni prokuratura organlariga yuborish bilan bir vaqtning o‘zida ushbu jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi to‘xtatib turiladi. Bunday to‘xtatib turish soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) qarori bilan materiallar prokuratura organlariga yuborilgan kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Bunda soliq qarzini undirish muddatlarining o‘tishi ushbu soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi qarorning ijrosini to‘xtatib turish davriga to‘xtatib turiladi.

Agar prokuratura organlariga yuborilgan materiallar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qaror yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror chiqariladigan bo‘lsa, soliq organining to‘xtatib turilgan qarorlarining amal qilishi qayta tiklanadi. Qarorning amal qilishini qayta tiklash soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) qarori bilan prokuratura organlaridan ushbu faktlar to‘g‘risida bildirishnoma olingan kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Agar tegishli

jinoyat ishi bo‘yicha oqlov hukmi chiqariladigan bo‘lsa, xuddi shunday qoida qo‘llaniladi.

Agar jismoniy shaxsning uni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu jismoniy shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarish uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, soliq organi qabul qilingan qarorni ushbu jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish qismi bo‘yicha bekor qiladi.

Soliq organlaridan materiallar olgan prokuratura organlari soliq organlariga tegishli qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay ularni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnomalarni yuborishi shart.

Soliq organi qarorlarining ko‘chirma nusxalari tegishli qaror chiqarilgan kundan e’tiboran besh kun ichida soliq organi tomonidan o‘ziga nisbatan tegishli qaror chiqarilgan shaxsga topshiriladi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilingan soliq organining qarori ustidan shikoyat qilinganda, bunday qaror yuqori turuvchi soliq organi tomonidan bekor qilinmagan va ustidan shikoyat qilinmagan qismi bo‘yicha shikoyat yuzasidan yuqori turuvchi soliq organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Agar shikoyatni ko‘rib chiqadigan yuqori turuvchi soliq organi quyi soliq organining qarorini bekor qilsa va yangi qaror qabul qilsa, yuqori turuvchi soliq organining bunday qarori u qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Agar yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqmasdan qoldirsa, quyi soliq organining qarori yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ushbu shikoyatni ko‘rib chiqmasdan qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran, lekin mazkur shikoyatni berish muddati tugamasdan kuchga kiradi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qaror u kuchga kirgan kundan e’tiboran ijro etilishi lozim.

Tegishli qarorni ijroga qaratish ushbu qarorni qabul qilgan soliq organining zimmasiga yuklatiladi.

Shikoyat yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko‘rib chiqilgan taqdirda, ushbu yuqori turuvchi soliq organining kuchga kirgan qarori yuqori turuvchi soliq organining qarori kuchga kirgan kundan e’tiboran uch kun ichida dastlabki qaror qabul qilgan soliq organiga yuboriladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari natijasida aniqlangan soliqqa oid

huquqbuzarliklar to‘g‘risida dalolat beruvchi faktlar aniqlangan taqdirda, soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik faktini aniqlagan mansabdor shaxsi ushbu mansabdor shaxs va huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanishi lozim bo‘lgan dalolatnomani tuzadi.

Dalolatnoma belgilangan shaklda soliqqa oid huquqbuzarlik aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun davomida tuziladi.

Dalolatnomada soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarining hujjatlar bilan tasdiqlangan faktlari, shuningdek ushbu faktlarni aniqlagan mansabdor shaxsning aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etishga doir xulosa va takliflari ko‘rsatilishi kerak.

Dalolatnomaning shaklini va uni tuzishga doir talablarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilaydi.

Dalolatnoma soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga imzo qo‘ydirib beriladi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi. Agar mazkur shaxs dalolatnomani olishdan bosh tortsa, soliq organining mansabdor shaxsi dalolatnomaga tegishli belgi qo‘yadi. Bunday holda dalolatnoma ushbu shaxsga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Mazkur dalolatnoma buyurtma xat bilan yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda beshinchi kun u topshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs dalolatnomada bayon etilgan holatlarga va soliqqa oid huquqbuzarlikni aniqlagan mansabdor shaxsning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, dalolatnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini tegishli soliq organiga taqdim etishga haqlidir. Bunda mazkur shaxs e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni yozma e’tirozlariga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

Soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari faktlari qayd etilgan dalolatnomani, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqadi.

Dalolatnoma javobgarlikka tortilayotgan shaxs yoki uning vakili ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Soliq organi tekshiruv dalolatnomasi ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqish boshlanadigan kunga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra dalolatnomaning ko‘rib chiqilishiga kelolmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan

bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomaning ko‘rib chiqilishini ko‘pi bilan uch kun muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilib, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning yoki uning vakilining kelmaganligi soliq organi rahbarini (rahbar o‘rinbosarini) dalolatnomani ushbu shaxsning yo‘qligida ko‘rib chiqish imkonidan mahrum etmaydi.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida tuzilgan dalolatnoma, soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yozma e’tirozlari o‘qib eshittirilishi mumkin. Yozma e’tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni dalolatnomani ko‘rib chiqish bosqichida o‘z tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Dalolatnoma ko‘rib chiqilayotganda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari eshitiladi, boshqa dalillar o‘rganib chiqiladi.

Soliq qonunchiligi talablarini buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (axborot), hatto ular soliq organiga soliq qonunchiligida belgilangan muddatlarni buzgan holda taqdim etilgan bo‘lsa ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida bayonnoma yuritiladi.

Dalolatnomani va soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida, zarur bo‘lgan taqdirda, ushbu ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Dalolatnomani va boshqa materiallarni ko‘rib chiqish davomida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

-o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini sodir etgan-etmaganligini.

-aniqlangan qoidabuzarliklar soliq qonunchiligidagi soliqqa oid huquqbuzarliklar tarkibini tashkil etish-etmasligini.

-o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud-mavjud emasligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoki soliqqa oid

huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

17.6. Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomani hamda unga ilova qilingan hujjatlar va materiallarni soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish natijalariga ko‘ra quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni qabul qiladi:

-soliqlar va penyalarni qo‘shib hisoblashni yoki buni rad etishni.

-soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni yoki buni rad etishni.

Ushbu qaror dalolatnoma ko‘rib chiqilganidan keyin besh kun ichida qabul qilinadi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari bayon etiladi, mazkur holatlarni, javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun keltirilayotgan vajlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlar hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalari ko‘rsatiladi. Shuningdek qarorda soliq qonunchiligining shu qoidabuzarliklarni qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs shu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning qaysi aniqlangan buzilishlari uchun shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, o‘sha qoidabuzarliklar bo‘yicha soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi. Ushbu huquq-buzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ularni sodir etganlikda aybdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazoni qo‘llash soliq organlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilganidan keyin tegishli soliq organi mazkur shaxsga nisbatan soliq qonunchiligida belgilangan moliyaviy sankstiya qo‘llash haqidagi ariza

bilan sudga murojaat qiladi. Moliyaviy sankstiyalarni undirishning suddan tashqari tartibiga yo‘l qo‘yilmaydigan hollarda moliyaviy sankstiya qo‘llashning xuddi shunday tartibidan foydalaniladi.



28-rasm. 2024 yil davimida soliq qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar[142]

Soliq qo‘mitasiga 2024-yilda 54 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan

Soliq qo‘mitasi markaziy apparatida 2024-yilda elektron hujjat aylanish tizimi orqali ro‘yxatga olingan murojaatlar soni 54 197 tani tashkil etdi.

Shundan:

- elektron – 46 165 ta (85,2%);
- og‘zaki – 5 171 ta (9,5%);
- yozma – 2 861 ta (5,3%).

Kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha yetakchi hududlar:

- Toshkent shahri – 17 753 ta (32,8%);
- Toshkent viloyati – 4 514 ta (8,3%);
- Samarqand viloyati – 4 463 ta (8,2%).

[142]Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

Sudga murojaat qilingunga qadar soliq organi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsga moliyaviy sankstiyaning tegishli summasini o‘z ixtiyori bilan to‘lashni yozma shaklda taklif qilishi shart.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsdan moliyaviy sankstiya undirish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtda soliq organi qonunchilikda belgilangan tartibda talabnomani ta’minlash haqidagi iltimosnomani sudga yuborishi mumkin.

17.7. Moliyaviy sankstiyalarni undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etish

Soliq organlarining yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy sankstiyalar qo‘llanilishini nazarda tutuvchi qarorlari bo‘yicha moliyaviy sankstiyalar summalarini undirish soliq organlari tomonidan soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish, soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhi ishtirokchilarining bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan soliq qarzini undirish, soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish va soliq qarzini soliq to‘lovchilar konsolidastiyalashgan guruhi ishtirokchilarining boshqa mol-mulki hisobidan undirish tartibida mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Soliq organlarining arizasiga ko‘ra yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sankstiyalar undirish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Sudlarning moliyaviy sankstiyalarni undirish to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan qarorlarini ijro etish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliq tekshiruvlari, nazorat choralari, huquqiy oqibatlar, ma’muriy javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, tekshiruv dalolatnomasi, soliq to‘lovchining huquqlari, shikoyat qilish tartibi, iqtisodiy sanksiyalar

Takrorlash uchun savollar:

1.Moliyaviy sankstiyalarni undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etish qanday ma’noni anglatadi?

2.Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirishni o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3.Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish qanday amalga oshiriladi?

4.Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish qachon joriy etilgan?

5.Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilishni tushuntiring?

6.Kameral soliq tekshiruviga nimalar kiradi?

7.Soliq tekshiruvlarining qanday turlari mavjud?

8.Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi qanday?

9.Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi qanday amalga oshiriladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Nazorat-kassa texnikasi yoki hisob-kitob terminallari ko‘llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, bo‘yicha qanday javobgarlik choralari mavjud?

A) Besh million so‘m miqdorida jarima solinadi

B) O‘n besh million so‘m mikdorida jarima solinadi

C) Yetti million so‘m mikdorida jarima solinadi

D) Yigirma million so‘m mikdorida jarima solinadi

2. Soliq organlarida ro‘yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini ko‘llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar berganlik bo‘yicha qanday javobgarlik choralari mavjud?

A) Yetti million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

B) To‘qqiz million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

C) Yigirma million so‘m miqdorida jarima solinadi

D) Sakkkiz million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

3. Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan foydalanganlik qancha miqdorda jarimaga tortiladi?

A) Yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

B) Yigirma besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

C) O‘n million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

D) Yetti million so‘m mikdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

4. Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan NKMdan foydalanganlik qancha miqdorda jarimaga tortiladi?

A) Yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

B) Yigirma besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

C) O‘n million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

D) Yetti million so‘m mikdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

5. Soliq nazorati qaysi shakllarda amalga oshiriladi aniq va to‘g‘ri javobni belgilang?

A) Soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi

B) Soliq tekshiruvlari, xronometraj ko‘zdan kechirish

C) Soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi

D) Kameral soliq tekshiruv, soliq monitoringi

6. Nazorat xaridi davomida xarid qilingan tovarlar tadbirkorkorga qaytariladimi?

A) Qaytarib beriladi

B) Qaytarib berilmaydi

C) Xaridorga berib yuboriladi

D) Soliq inspeksiyasi omborida saqlanadi

7. Kameral soliq tekshiruviga nimalar kiradi?

A) Soliq to‘lovchini ofisiga borib tekshirish

B) Soliq to‘lovchi bilan intervyu o‘tkazish

C) Soliq organida mavjud hujjatlar asosida masofadan turib nazorat qilish

D) Hisob-kitoblarni bevosita joyida tahlil qilish

XVIII-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

18.1. Soliq imtiyozlarining iqtisodiy mazmuni va uni belgilash mezonlari

Bugungi kunda soliq tizimida soliqqa totishning eng dolzarb muammolaridan biri bu — davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? degan muammoli masala turadi. Quyidagi keltirilgan fikrlar esa ushbu masalaning asl mohiyatini to‘g‘ri idrok etishga va to‘g‘ri javobni tanlashga o‘zining hissasini qo‘shadi deb o‘ylaymiz:

- Soliq yukini real pasaytirish hukmdorning xohish istagiga emas, balki mustahkam iqtisodiy asosga tayanadi. Aks holda bu narsa butunlay teskari natijalarga olib kelishi mumkin.
- Ikkinchi jahon urishidan keyingi Germaniyaning davlat arbobi professor L. Erxardning fikricha, barcha fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi toifalarning soliq yukini pasaytirishga yo‘naltirilgan istaklarini adolatli[143] tan olmoq lozim. Bir vaqtning o‘zida u, maqsadga erishishning vositalarini ham ko‘rsatib beradi: xarajatlarning talab qilingan barqarorligiga va unumdorlikning rivojlanishini belgilangan sur’atlarda amalga oshirilishiga erishilsa, soliqlarni qanday pasaytirish imkoniyatini hisoblab topish va tasavvur qilish mumkin. Faqat shu yo‘l bilangina bizning hammamizni ezib kelayotgan soliq muammosini haqqoniy va realistik tarzda yechishga erishishimiz mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiyotni jamiyat rivojlanishining ma’lum davri uchun zaruriy yo‘nalishlarida boshqarib turishning asosiy ko‘rinishlaridan biri soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishdir. Jahon soliq amaliyotida soliq imtiyozlarining keng tarkibdagi turli shakllari vausullari mavjud bo‘lib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibda ko‘llaniladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan maqsad, ba’zi soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliqlarni kamaytirish yoki butunlay ozod etish emas, balki moliyaviy mablag‘lar oqimini ishlab chiqarishning zarur tarmoqlariga yo‘naltirishdir. Agar yo‘naltiriladigan moliyaviy resurslarning o‘zi taqchil bo‘lsa, u holda avvalo soliq imtiyozlari mazkur tarmoqlar moliyaviy barqarorligiga erishishiga imkoniyat yaratishi lozim. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari, albatta, ijtimoiy adolatni va

[143] Эрхард Л. Благосостояние для всех. М., Начала-Пресс, 2004. 18 с.

ijtimoiy himoyani ta’minlashi lozim. Soliq imtiyozlarining to‘g‘ri yo‘nalishlarda berilishi ishlab chiqarishning tegishli tuzilmaviy tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirishning muhim omili bo‘lib, ular bozor munosabatlariga o‘tish davri uchun xos bo‘lgan eng muhim iqtisodiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Lekin shu asosiy vazifani belgilashga noto‘g‘ri yondashish soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech qanday samara bermasligiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, hozirgi paytda soliq imtiyozlari avvalo har tomonlama milliy ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ishlab chiqarishga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan yutqazilgan byudjet daromadlari yoki, boshqacha aytganda, soliq xarajatlari yaqin davr ichida ishlab chiqarish rivojlanishi, iqtisodiyotda yuzaga keladigan nomutanosiblikni oldini olish va yo‘qotishga xizmat qilishi va shu orqali albatta qoplanishi lozim. Aks holda soliq imtiyozlarini berishdan hech qanday ma’no bo‘lmaydi. Respublikamizda ko‘p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, imtiyozlarni taqdim etishdan ko‘zlangan maqsadlarning ruyobga chiqmasligi, ya’ni imtiyozlarning ishlamasligi kuzatilmoqda. Buning bir necha sabablari bor. Xususan, bular soliq imtiyozlarining ma’lum davr uchun xos bo‘lmagan tarkibda joriy etilishi, mukammal bo‘lmagan imtiyozlarning belgilanishi, aks ta’sir etuvchi omillarning e’tiborga olinmasligi, xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nochorligi tufayli soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjud emasligi va boshqa sabablardir.

Soliq imtiyozlari tarkibini rag‘batlantirishga bo‘lgan munosabati, iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etishiga karab ikki guruhga bo‘lib olamiz.

Birinchi guruh imtiyozlarni ijtimoiy imtiyozlar deyish mumkin. Ular asosan ijtimoiy sohaga, byudjet tashkilotlari, diniy tashkilotlar, sport sohasi, har xil jamg‘armalar, kam ta’minlanganlar, nogironlarni ishga joylashtirish, ekologiya va atrof muhitni ifloslanishini oldini olishga javobgar va mas’ul bo‘lgan iqtisodiyotning sohalariga beriladi. Bu guruh imtiyozlar barcha mamlakatlarda bir-biriga yaqin tarkibda bo‘ladi va bu tarkib ancha barqarordir. Ammo bu imtiyozlar miqdori va tarkibi byudjet imkoniyatlariga, ijtimoiy sohaning moddiy soha xo‘jaliklari tomonidan moliyalashtirilishi holatiga ham bog‘liq holda qisman turlicha bo‘lishi mumkin. Shu Bilan birgalikda ushbu imtiyozlarni ishlab chiqarishning rivojlanishini rag‘batlantirishga bevosita ta’siri yo‘q va ular asosan jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu guruh imtiyozlarga xo‘jalik sub’ektlarining ijtimoiy sohalarga qilgan ajratmalari

hamda xarajatlarining korxonalar, korporatsiyalar foyda solig‘i bazasidan chegirilishi ham kiritiladi. Respublikamiz soliq qonunchiligiga ko‘ra, korxonalarning ijtimoiy sohaga qilgan xarajatlari uchun qisman ancha kam foizda xarajatga nisbatan imtiyozlar berilgan. Rivojlangan davlatlarda bunday ajratmalar soliq bazasidan deyarli to‘liq chiqariladi.

Ikkinchi guruh imtiyozlar esa bevosita tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga va iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Ular iqtisodiyotda yuzaga kelgan qaysidir muammoni yechishga, ko‘p hollarda ular rivojlanayotgan davlatlarda umumiy tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga, rivojlangan davlatlarda esa xalq xo‘jaligi sohalari va ishlab chiqarish tarmoqlari strukturasini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Mavjud muammoning yechilishi bilan imtiyozlar turlari bekor qilinib, boshqalari joriy etiladi. Iqtisodiy muammolarning kamayishi va iqtisodiy rivojlanish darajasining o‘sishi bilan ikkinchi guruh — iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar kamayib, ijtimoiy imtiyozlar tarkibining kengayishiga imkoniyat yaraladi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining o‘ziga xosligi va talablaridan biri bu davlatning iqtisodiyotga to‘g‘ridan- to‘g‘ri aralashaolmasligi, ya’ni davlat faqatgina iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirishda bosh islohatchi bo‘lgan holda, iqtisodiyotni boshqarishda soliqlar va soliq mexanizmlaridan foydalanib turadi.

O‘z navbatida davlat bugungi kunda soliqlardan iqtisodiyotni boshqarishda rag‘batlantiruvchi vosita sifatida foydalanishi muhim axamiyat kasb etmoqda. Buning uchun esa davlat biz yuqorida ko‘rib o‘tgan va tanishib chikqan, soliq imtiyozlarining faqat ikkinchi guruhidan, jumladan, bevosita tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan imtiyozlarni ko‘proq berishi lozim. Chunki bugungi kunda ushbu imtiyozlardan samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, ikkinchi guruh imtiyozlari uchun qilingan xarajatlar qaytish xarakteriga ham egadir. Chunki bu imtiyozlarni berishdan pirovard maqsad xo‘jalik sub’ektlarida va butun iqtisodiyotda daromadlilikni ko‘tarishdir.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi ob’ektiv majburiy to‘lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali harakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy harakterga ega bo‘lib, milliy daromadning bir qismi bo‘lgan pul mablag‘larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda soliq tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Soliqlar davlat va jamiyatning kuch mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan holda va o‘rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko‘rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo‘lib ertaga yo‘q bo‘lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo‘la olmaydi. Demak, kategoriya funksiyasi doimiy, qat’iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko‘pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag‘batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta’rif berishadi.

Soliqlarning birinchisi funksiya yordamida davlat byudjetining daromadi tashkil etilsa, ikkinchisini ham amalga oshira borib, davlat ishlab chiqarishga uning o‘sishini rag‘batlantirishi yoki vaqtinchalik sekinlashtirishi, sarmoya jamg‘arish jarayonini kuchaytirishi yoki qisqartirishi kabi tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Keyingi yillarda resurs soliqlarning salmog‘i xam ancha oshmoqda. Bu soliq yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Milliy daromadni davlat tasarrufiga o‘tkazishda bevosita soliqlardan tashqari, bilvosita soliqlar ham muhim rol uynaydi, ular tegishli tovar yoki xizmatlar narxiga ustamalar sifatida belgilanadi.

Hozirgi vaktda sanoat jixatidan rivojlangan mamlakatlar davlat byudjetlari kirim qismining 80-90 foizi soliqlar xisobidan vujudga kelmokda. Bozor iktisodietiga utish davrida, O‘zbekistonda soliqlar yordamida davlat daromadlari va davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi tashkil kilinadi. Soliqlarning byudjet daromadlari tarkibidagi salmog‘i ham yildan yilga ortib bormoqda. Buni quyidagi jadval yordamida ko‘rishimiz mumkin:

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirishning muhim omili bo‘lib, ular bozor munosabatlariga o‘tish davri uchun xos bo‘lgan eng muhim iqtisodiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Lekin shu asosiy

vazifani belgilashga noto‘g‘ri yondashish soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech qanday samara bermasligiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, hozirgi paytda soliq imtiyozlari avvalo har tomonlama milliy ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ishlab chiqarishga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan yutqazilgan byudjet daromadlari yoki, boshqacha aytganda, soliq xarajatlari yaqin davr ichida ishlab chiqarish rivojlanishi, iqtisodiyotda yuzaga keladigan nomutanosiblikni oldini olish va yo‘qotishga xizmat qilishi va shu orqali albatta qoplanishi lozim. Aks holda soliq imtiyozlarini berishdan hech qanday ma’no bo‘lmaydi. Respublikamizda ko‘p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, imtiyozlarni taqdim etishdan ko‘zlangan maqsadlarning ruyobga chiqmasligi, ya’ni imtiyozlarning ishlamasligi kuzatilmoqda. Buning bir necha sabablari bor. Xususan, bular soliq imtiyozlarining ma’lum davr uchun xos bo‘lmagan tarkibda joriy etilishi, mukammal bo‘lmagan imtiyozlarning belgilanishi, aks ta’sir etuvchi omillarning e’tiborga olinmasligi, xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nochorligi tufayli soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjud emasligi va boshqa sabablardir.

Soliq imtiyozlari tarkibini rag‘batlantirishga bo‘lgan munosabati, iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etishiga karab ikki guruhga bo‘lib olamiz.

Birinchi guruh imtiyozlarni ijtimoiy imtiyozlar deyish mumkin. Ular asosan ijtimoiy sohaga, byudjet tashkilotlari, diniy tashkilotlar, sport sohasi, har xil jamg‘armalar, kam ta’minlanganlar, nogironlarni ishga joylashtirish, ekologiya va atrof muhitni ifloslanishini oldini olishga javobgar va mas’ul bo‘lgan iqtisodiyotning sohalariga beriladi. Bu guruh imtiyozlar barcha mamlakatlarda bir-biriga yaqin tarkibda bo‘ladi va bu tarkib ancha barqarordir. Ammo bu imtiyozlar miqdori va tarkibi byudjet imkoniyatlariga, ijtimoiy sohaning moddiy soha xo‘jaliklari tomonidan moliyalashtirilishi holatiga ham bog‘liq holda qisman turlicha bo‘lishi mumkin. Shu Bilan birgalikda ushbu imtiyozlarni ishlab chiqarishning rivojlanishini rag‘batlantirishga bevosita ta’siri yo‘q va ular asosan jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu guruh imtiyozlarga xo‘jalik sub’ektlarining ijtimoiy sohalarga qilgan ajratmalari hamda xarajatlarining korxonalar, korporatsiyalar foyda solig‘i bazasidan chegirilishi ham kiritiladi. Respublikamiz soliq qonunchiligiga ko‘ra, korxonalarning ijtimoiy sohaga qilgan xarajatlari uchun qisman ancha kam foizda xarajatga nisbatan imtiyozlar berilgan. Rivojlangan davlatlarda bunday ajratmalar soliq bazasidan deyarli to‘liq chiqariladi.

Ikkinchi guruh imtiyozlar esa bevosita tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga va iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Ular iqtisodiyotda yuzaga kelgan qaysidir muammoni yechishga, ko‘p hollarda ular rivojlanayotgan davlatlarda umumiy tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga, rivojlangan davlatlarda esa xalq xo‘jaligi sohalari va ishlab chiqarish tarmoqlari strukturasini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Mavjud muammoning yechilishi bilan imtiyozlar turlari bekor qilinib, boshqalari joriy etiladi. Iqtisodiy muammolarning kamayishi va iqtisodiy rivojlanish darajasining o‘sishi bilan ikkinchi guruh — iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar kamayib, ijtimoiy imtiyozlar tarkibining kengayishiga imkoniyat yaraladi.

Soliq imtiyozlari qo‘llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli tarzda belgilash xisoblanadi. Ammo qayd etish joizki ,soliq imtiyozlarini belgilash jaxon amaliyotida har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatdan u turli davlatlarda turlicha bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida malga oshirilgan, respublikada qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to‘lovchilarning importning o‘rnini bosadigan maxsulotlarni ishlab chiqarish va maxsuloni eksport qilish darajasiga hamda davlatlar o‘rtasidagi halqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir.Soliq imtiyozlarining mezonlarini to‘g‘ri, obyektiv aniqlash soliqlarning adolatlilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari.

- Soliq to‘lovchilarning ijtimoiy holatiga qarab:
- Korxonada ishlovchilar tarkibidagi nogironlar, urush va mexnat faxriylari, ko‘pchilikni (50% ni) tashkil yetsa imtiyoz shunchalik ko‘proq beriladi.
- Soxani rivojlantirish ustivorligiga qarab:
- Respublikada kichik biznesni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi uchun ularga ixtiyoriy shaklda soliq tizimi qo‘llaniladi.
- Maxsulotlari eksporti hamda import-bop maxsulotlarni ishlab chiqarish darajasiga qarab.
- Agar korxonalar importining o‘rnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chiqarish yoki maxsulotni eksport qilsa, muayyan darajada soliq imtiyozlari beriladi.

- Xalqaro iqtisodiy aloqalar darajasidan kelib chiqib:
- Davlatlararo bitimlarga koʻra ikki tomonlama soliqqa tortilmaydi.

Soliqlarning ragʻbatlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining oʻzgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda oʻz ifodasini topadi.

Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq toʻlovchilarning ayrim toifalarini soliq toʻlashdan ozod qilish, soliqqa tortish obʼektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining koʻrinishlaridir (turlaridir).

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud boʻlib, bizningcha, ular quyidagilardir:

Birinchidan,soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq toʻlovchi (yuridik va jismoniy shaxe) larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish maʼnoga ega boʻlmaydi.

Ikkinchidan**,**davlat iqtisodiyotga taʼsir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi baʼzi muhim sohalarni yoki soliq toʻlovchilarning faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Yaʼni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega boʻladi, bundan koʻrinadiki, soliq imtiyozlari davlatni oʻz funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi.

Uchinchidan,soliq imtiyozlari qoʻllanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Yaʼni, bundan soliqlar sifatida byudjetga jalb etilishi lozim boʻlgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalb etilmasdan soliq toʻlovchilarning oʻzlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq toʻlovlarini byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini ragʻbatlantirishga erishiladi.

Soliq imtiyozi – soliq toʻlovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq toʻlashdan toʻliq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Soliq yuki – mablag‘larni boshqa foydalanish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardan olib, soliqlarni to‘lash uchun yo‘naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo‘lib, odatda soliq to‘lovchining muayyan davrda byudjetga to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i orqali ifodalanadi.

Soliq yukini yengillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

18.2. Soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni rag‘batlantirish va tartiblashning nazariy talqini

Soliq imtiyozlari soliqqa tortishning muhim elementlari xisoblanadi va ayni vaqtda iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish elementining muhim instrumenti xisoblanadi.

Iqtisodiyotni jamiyat rivojlanishining ma’lum davri uchun zaruriy yo‘nalishlarida boshqarib turishning asosiy ko‘rinishlaridan biri soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishdir. Jahon soliq amaliyotida soliq imtiyozlarining keng tarkibdagi turli shakllari va usullari mavjud bo‘lib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibda qo‘llaniladi. Soliq imtiyozlari tarkibini rag‘batlantirishga bo‘lgan munosabati, iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etishiga qarab ikki guruhga bo‘lib olamiz.

Birinchi guruh imtiyoelarni ijtimoiy imtiyozlar deyish mumkin. Ular asosan ijtimoiy sohaga, byudjet tashkilotlari, diniy tashkilotlar, sport sohasi, har xil jamg‘armalar, kam ta’minlanganlar, nogironlarni ishga joylashtirish, ekologiya sohalariga beriladi. Bu guruh imtiyozlar barcha mamlakatlarda bir-biriga yaqin tarkibda bo‘ladi va bu tarkib ancha barqarordir. Ammo bu imtiyozlar miqdori va tarkibi byudjet imkoniyatlariga, ijtimoiy sohaning moddiy soha xo‘jaliklari tomonidan moliyalashtirilishi holatiga ham bog‘liq holda qisman turlicha bo‘lishi mumkin.

Bu imtiyozlarning ishlab chiqarishning rivojlanishini rag‘batlantirishga bevosita ta’siri yo‘q va ular asosan jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bu guruh imtiyozlarga xo‘jalik sub’ektlarining ijtimoiy sohalarga qilgan ajratmalari xarajatlarining korxonalar (korporatsiyalar) foyda solig‘i bazasidan chegirilishi ham kiritiladi. Respublikamiz soliq qonunchiligiga ko‘ra korxonalarning ijtimoiy sohaga qilgan xarajatlari

uchun qisman ancha kam foizda (xarajatga nisbatan) imtiyozlar berilgan. Rivojlangan davlatlarda bunday ajratmalar soliq bazasidan deyarli to‘liq chiqariladi.

Ikkinchi guruh imtiyozlar esa bevosita tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga va iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Ular iqtisodiyotda yuzaga kelgan qaysidir muammoni yechishga, ko‘p hollarda ular rivojlanayotgan davlatlarda umumiy tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga, rivojlangan davlatlarda esa xalq xo‘jaligi sohalari va ishlab chiqarish tarmoqlari strukturasini (tuzilmasini) o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Mavjud muammoning yechilishi bilan imtiyozlar turlari bekor qilinib, boshqalari joriy etiladi. Iqtisodiy muammolarning kamayishi va iqtisodiy rivojlanish darajasining o‘sishi bilan ikkinchi guruh iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar kamayib, ijtimoiy imtiyozlar tarkibining kengayishiga imkoniyat yaraladi.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarishda rag‘batlantiruvchi vosita sifatida soliq imtiyozlarining fakat ikkinchi guruhidan foydalanish mumkin. Ikkinchi guruh imtiyozlari uchun qilingan xarajatlar kaytish xarakteriga ham egadir. Chunki bu imtiyozlarni berishdan pirovard maqsad xo‘jalik subektlarida va butun iqtisodiyotda daromadlilikni ko‘tarishdir. Daromadlilikning oshishi davlat byudjetiga qo‘shimcha daromadlar kelishi uchun manbadir. Imtiyozlarni bunday guruhlarga bo‘lib o‘rganishimizdan maqsad imtiyozlardan iqtisodiyotni boshqaruvchi vosita sifatida foydalanishning amaldagi holatini o‘rganishdir.

Rivojlanayotgan davlatlarda soliqqa tortish darajasi ancha yuqori bo‘lishiga qaramay, rag‘batlantiruvchi imtiyozlar tarkibi, shuningdek soliqqa tortilmaydigan minimumlar ancha keng bo‘ladi. Rivojlangan davlatlarda esa aksincha — umumiy soliq yuki ancha past bo‘ladi va bu guruh imtiyozlari ancha kam, ijtimoiy soha imtiyozlari esa salmoqli darajada ko‘pdir. Bu albatta mamlakatning iqtisodiy rivojlanish holatiga va iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq.

Jahon soliq amaliyotida soliq imtiyozlaridan foydalanish bilan bog‘liq ikki muqobil yo‘nalishni kuzatishimiz mumkin.

Birinchisi umumiy, yuqori soliq stavkalarini qo‘llagan holda, ba’zi sohalarda soliq stavkalarini turkumlash, ko‘p sonli soliq imtiyozlarini va soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalarni joriy etish;

Ikkinchisi, asta-sekin soliq imtiyozlari, chegirmalaridan voz kechish; bu esa soliq bazasini kengaytirishga va soliqqa tortishning umumiy stavkasini pasaytirishga imkon beradi.

Birinchi yo‘nalish takror ishlab chiqarish jarayoniga va ilmiy-texnika tarakqiyotiga ta’sir o‘tkazish maqsadidan, ikkinchisi esa iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin iqtisodiy faoliyat uchun eng qulay sharoitlarni, yaratish maqsadidan kelib chikadi»[144]

Birinchi yo‘nalishda davlatning iqtisodga aralashuv xarajatlari ko‘payadi. Shuningdek, ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismini o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘ladi. Yuqori darajada soliqqa tortish bunga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayrim korxonalarning jamiyat ijtimoiy ehtiyojini qondirish va hayriya faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan daromadlarini qonun asosida soliqdan to‘la ozod etish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining himoyaga muhtoj tabaqasi hisoblangan nogirionlar hamda oliy, o‘rta maxsus va hunar-texnika bilim yurtlari talabalarining manfaatlari ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda, umumiy xodimlari sonining kamida 50%i nogironlar va 75% o‘rta maktab hamda hunar-texnika bilim yurtlarining o‘quvchilari bo‘lgan korxonalar foydasi soliqdan ozod etilgan.

Soliq to‘lashdan ozod ztishdagi ikkinchi yo‘nalish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda tibbiy asbob va uskunalar ishlab chiqarishni yaxshilashga qaratilgan. Masalan, protez-ortopediya mahsulotlari ishlab chiqarish, nogironlarga protezlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar hamda davolash muassasalari qoshidagi davlat ishlab chiqarish ustaxonalari va boshqalar soliq to‘lashdan ozod etilgan.

Soliq to‘lashdan ozod etishdagi navbatdagi yo‘nalish bozor infrastrukturasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasining ayrim tarmoqlarini soliq to‘lashdan ozod qilish bilan bog‘liq. Ya’ni, shahar yo‘lovchi taransporti foydasi, aholiga, obunachilarga va savdoga vaqtli matbuotni tarqatish xizmatidan olinadigan foydasi va boshqalar.

Bundan tashqari, soliq qonunchiligida Qizil Yarim Oy jamiyatiga qarashli korxonalar va boshqa har xil uyushma hamda fondlarning hayriya faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan foydasi soliqdan ozod etilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy hayriya yo‘nalishiga ega bo‘lgan tashkilotlar,

[144] Гатаулин Ш. Солиęларвасолиęęатортиш. Т.: ДС¡, 1996 й. 19 бет.

muassasalar hamda ularning korxonalari foydasi va boshqa yo‘nalishdagi soliqdan ozod etish tartibi o‘z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sarmoyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri bo‘lib, shubhasiz yangi tuzilgan korxonalar uchun soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qonunchiligiga muvofiq yangi tuzilgan korxonalar foyda (daromad) solig‘ini, tuzilgan (ro‘yxatga olingan) paytdan boshlab birinchi yili 25 % miqdorda va ikkinchi yili belgilangan stavkadan 50% miqdorda soliq to‘laydilar. Bu imtiyoz asosan endigina shakllanib rivojlana boshlagan kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan biri bo‘lib foyda (daromad) solig‘i to‘lashdan vaqtincha ozod etish hisoblanadi. Hozirgi paytda respublikamizda patent egasi bo‘lgan va litsenziat korxona, o‘z ishlab chiqarishida ixtirochilikdan oladigan foyda va valyuta tushumlaridan patentning amal qilish doirasida ixtirodan foydalana boshlagan sanadan boshlab ikki yildan besh yilgacha foyda solig‘i to‘lashdan ozod etiladi.

Shuningdek qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, xalq iste’moli tovarlari, qurilish – materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha, dehqon (fermer) xo‘jaliklari va xususiy korxonalar (huquqiy shaxs sifatida ro‘yxatga olinganlar) ham tuzilgan (ro‘yxatga olingan) paytdan boshlab dastlabki ikki yil davomida daromad solig‘i to‘lashdan ozod etiladi.

Xorijiy sarmoyalarga taqdim etilgan imtiyozlarga kelsaq O‘zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan, ustav fondida chet el sarmoyasi bo‘lgan qo‘shma korxonalar, xalqaro shartnomaga muvofiq, daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga ega.

Albatta, byudjet taqchilligi davrida bunday imtiyozlarni kengaytirish, byudjet daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan sohalar va qolaversa, boshqa sohalarni rivojlantirish va kengaytirishda hamda mutaxassislar tayyorlash uchun davlat harajatlarining bir qismini shu investorlar hisobiga qoplash imkoniyati tug‘iladi. Chunki xorijiy investorlar faoliyatining dastlabki davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotni jahon standartiga olib chiqish maqsadida, sarmoyalarni asosan ishlab chiqarish moddiy texnika bazasini yaratish hamda yetuk mutaxassis xodimlar tayyorlashga harajat qiladi. Misol uchun, hozirgi kunda respublika hududida xorijiy sheriklar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalarda, ishlab chiqarish moddiy texnika bazasini yaratish yoki unga ilg‘or texnologiyani joriy qilish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarning bir qismi, xorijiy sarmoyadorlar hisobiga qoplanmoqda. Bundan tashqari,

xorijiy sarmoyadorlar yetuk mutaxassis xodimlar tayyorlash maqsadida, mahalliy ishchi va muhandis xodimlarni malakasini oshirish uchun sarflanadigan harajatlarning bir qismini ham, o‘zlari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa, davlat byudjetining ushbu yo‘nalishdagi harajatlarini ma’lum darajada qisqartirmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan maqsad, ba’zi soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliqlarni kamaytirish yoki butunlay ozod etish emas, balki moliyaviy mablag‘lar oqimini ishlab chiqarishning zarur tarmoqlariga yo‘naltirishdir. Agar yo‘naltiriladigan moliyaviy resurslarning o‘zi taqchil bo‘lsa, u holda avvalo soliq imtiyozlari mazkur tarmoqlar moliyaviy barqarorligiga erishishiga imkoniyat yaratishi lozim. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari, albatta, ijtimoiy adolatni va ijtimoiy himoyani ta’minlashi lozim. Soliq imtiyozlarining to‘g‘ri yo‘nalishlarda berilishi ishlab chiqarishning tegishli tuzilmaviy tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirishning muhim omili bo‘lib, ular bozor munosabatlariga o‘tish davri uchun xos bo‘lgan eng muhim iqtisodiy vazifalarni xal etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Lekin shu asosiy vazifani belgilashga noto‘g‘ri yondashish soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech qanday samara bermasligiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, hozirgi paytda soliq imtiyozlari avvalo har tomonlama milliy ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ishlab chiqarishga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan yutqazilgan byudjet daromadlari yoki, boshqacha aytganda, soliq xarajatlari yaqin davr ichida ishlab chiqarish rivojlanishi, iqtisodiyotda yuzaga keladigan nomutanosiblikni oldini olish va yo‘qotishga xizmat qilishi va shu orqali albatta qoplanishi lozim. Aks holda soliq imtiyozlarini berishdan hech qanday ma’no bo‘lmaydi. Respublikamizda ko‘p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, imtiyozlarni taqdim etishdan ko‘zlangan maqsadlarning ruyobga chiqmasligi, ya’ni imtiyozlarning ishlamasligi kuzatilmoqda. Buning bir necha sabablari bor. Xususan, bular soliq imtiyozlarining ma’lum davr uchun xos bo‘lmagan tarkibda joriy etilishi, mukammal bo‘lmagan imtiyozlarning belgilanishi, aks ta’sir etuvchi omillarning e’tiborga olinmasligi, xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nochorligi tufayli soliq imtiyozlaridan foydalanish iikoniyatlarining mavjud emasligi va boshqa sabablardir.

Davlatning iqtisodiyotni tartiblashdagi eng muhim moliyaviy vositalaridan biri soliqlardir. Turli davlatlarning iqtisodiy tuzumi, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlari

holatining turlicha bo‘lishi, o‘z navbatida har bir davlatda soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rnini, soliqlarning tarkibiy tuzilishini, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatini, soliqlar bajaradigan funksiyalardan foydalanish sharoitlarini, soliqqa tortish tamoyillarini, soliq imtiyozlari tarkibi va ulardan foydalanish darajasining, soliq yuki darajasining ham turlicha bo‘lishini taqozo qiladi. Binobarin, bunday sharoitda soliqlar orqali iqtisodiyotni tartiblash jarayoni ham turlicha bo‘lishi tabiiy albatta, ammo barcha davlatlarda bu boshqarishda soliqlardan fiskal, rag‘batlantiruvchi va jazolovchi (chegaralovchi) vosita sifatida foydalaniladi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarish yo‘nalishlarini belgilashda mamlakatda soliq munosabatlarining shakllanish holati ham muhim rol o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish boskichida bo‘lgan respublikamiz uchun soliq munosabatlari o‘ziga xos tartibda, aytish mumkinki, ancha murakkab sharoitda shakllanib bormokda. Bunday sharoitda soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish yo‘nalishlarini belgilashda respub-likamiz iqtisodiyotiga xos bo‘lgan quyidagi iqtisodiy holatlarni e’tiborga olish lozim, ya’ni:

1) soliqqa tortish tajribasining nisbatan kamligi va aynan bozorni boshqarish tajribasining yo‘qligi;

2) iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonining sustligi;

3) mamlakatda ishlab chiqarishning va moliyaviy barqaror bo‘lgan korxonalarning kamligi;

4) mulkchilikka bo‘lgan eskicha munosabatlarning qisman saqlanib qolinganligi va mulkchilik turlarining, ayniqsa, xususiy sektorning yaxshi shakllanmaganligi; bozor iqtisodiyoti qonunlarining amalda to‘liq ishlamayotganligi (talab va taklif, raqobat, moddiy manfaatdorlik);

5) iqtisodiyotni boshqarishda eski usul unsurlarining saqlanib kelinayotganligi va moddiy manfaatdorlikning ta’minlanmasligi;

6) mikroiqtisodiy darajada (soliq imtiyozlari berilgan takdirda ham) moliyaviy mablag‘larning nihoyatda kamligi va investitsiya qilish imkonini chegaralashi va boshqalar.

Demak, soliqlar orqali iqtisodiyotni tartiblash orqali soliq imtiyozlarini optimallashtirish yo‘nalishlari respublikamizdagi mavjud murakkab iqtisodiy holatni, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarni to‘g‘ri aks ettirgani holda, avvalo tadbirkorlarning iqtisodiy erkinligini ta’minlashga, milliy ishlab chiqarishni kengaytirishga, korxonalarning moliyaviy barqarorlikka erishishiga, bozor mexanizmining ishlashiga, xususiy mulkchilikning rivojlanishiga, tashqi savdo balansini (eksport va

importni) muvofiklashtirishga imkoniyat yaratishi lozim. Chunki bular respublikamiz iqtisodiyotida mavjud bo‘lgan asosiy muammolar hisoblanadi.

Davlat tomonidan boshqarishning shakli sifatida soliqlar orqali iqtisodiyotga ta’sir etishning iqtisodiyot rivojlanishi boskichlari uchun xos bo‘lgan yo‘nalishlarini ishlab chiqish juda murakkab jarayondir. Bunda soliqlarning ta’sir doiralarini to‘g‘ri tanlash lozim. Ular esa quyidagilar bo‘lishi mumkin, yani soliqlar ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga, uning tarkibiy tuzilishiga, dinamikasiga, joylashishiga, ITTga ta’sir etishi mumkin. Soliqlar ishlab chiqarish faolligini rag‘batlantirishi yoki aksincha cheklab turishi; shu yo‘l bilan u yoki bu tarmoqning rivojlanishini ta’minlashi; mahsulot eksportini rag‘batlantirishi; mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini olib borishi, kapital jamg‘arishi yoki ushlab turishiga; talab va taklifni moslashtirishga ta’sir etishi mumkin. Soliqlar vositasida ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini pasaytirishga imkoniyat yaratish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlar vositasida iqtisodiy siyosatning ma’lum vazifalaridan kelib chiqib iqtisodni turli xil yo‘nalishlarda boshqarishni ifodalovchi atamalar uchraydi. Masalan, “Diskratsiyali fiskalsiyosat” — bu davlat tomonidan soliqqa tortishni ongli ravishda tartibgasolish tushuniladi. Diskratsiyali fiskal siyosat iqtisodiy tushkunlik davrida soliq bosimini kamaytirishga, inflyatsiya davrida esa – soliqlarnioshirishga muljallangan bo‘ladi. Bundan tashqari, davlat restruksiyalisiyosat yurgizishi mumkin. Bu siyosat ortiqcha ishlab chiqarish bilan bog‘liqkrizislar paytida qo‘llaniladi va tovar ishlab chiqarishni chegaralashgaqaratilgan bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda davlat ijtimoiy sohalarnitashqillashtirishni, subsidiyalar va arzon kreditlar berishni, davlatxaridlarini ko‘paytirishni o‘z zimmasiga oladi.

Avtomatik fiskal siyosat yoki avtomatik to‘xtatish siyosati ham mavjud bo‘lib, bunda iqtisodiyotdagi yuz berayotgan o‘zgarishlarga qarab soliq tizimida tegishli o‘zgarishlarni avtomatik amalga oshirish tushuniladi. Mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o‘sish davrida soliq tushumlari ko‘paytiriladi, tushkunlik davrida soliq tushumlari avtomatik ravishda qisqartiriladi; undirilayotgan daromad summasi kamayadi — bu xarid qobiliyatini ko‘paytirib natijada orqaga qaytish ushlab turiladi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining o‘ziga xosligi va talablaridan biri bu davlatning iqtisodiyotga to‘g‘ridan- to‘g‘ri aralashaolmasligi, ya’ni davlat faqatgina iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirishda bosh islohatchi

bo‘lgan holda, iqtisodiyotni boshqarishda soliqlar va soliq mexanizmlaridan foydalanib turadi.

O‘z navbatida davlat bugungi kunda soliqlardan iqtisodiyotni boshqarishda rag‘batlantiruvchi vosita sifatida foydalanishi muhim axamiyat kasb etmoqda. Buning uchun esa davlat biz yuqorida ko‘rib o‘tgan va tanishib chikqan, soliq imtiyozlarining faqat ikkinchi guruhidan, jumladan, bevosita tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan imtiyozlarni ko‘proq berishi lozim. Chunki bugungi kunda ushbu imtiyozlardan samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, ikkinchi guruh imtiyozlari uchun qilingan xarajatlar qaytish xarakteriga ham egadir. Chunki bu imtiyozlarni berishdan pirovard maqsad xo‘jalik sub’ektlarida va butun iqtisodiyotda daromadlilikni ko‘tarishdir. Mamlakatimizda soliq imtiyozlarini belgilash asosida ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini ta’minlash, ijtimoiy himoyalashni tashkil etish, turli sohalarni rivojlanishiga aktiv ta’sir etish muammosi yotadi. Shu o‘rinda mamlakatimizda soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari xalqaro soliq munosabatlariga mos kelishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning faol ishtirok etishida moslashuvchan bo‘lishi lozim.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag‘batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va samarali qo‘llanilishiga qarab quyidagi ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalarga imtiyozlar berish;
- soliq to‘lashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliqlar xar qanday davlat mavjudligining moddiy asosi bo‘lib, xukumat soliqdardan iqtisodiy dastak sifatida xujalik munosabatlarini umummilliy pirovard maksadlarga erishish yulida izga solib turishi mumkin. Ma’lumki, "bozor mexanizimi fakat xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta’minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chikarishni ragbatlantiradi»[145]. Lekin umumjamiyat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi tovar va xizmatlarni ishlab chikarish davlatning zimmasida turadi. Davlat soliqlar vositasida mudofaa, sog‘likni sakdash, ichki tartibni saklash,

145 Фишер С, Дррнбуш Р.. Шмалензи I "Экономика". Пф. с англ.-М: Дело. 1993. стр. 512. В. А.) Х.П.Абулкосимов. «Бозор иктисодиётини давлат томонидан тартибга солиш воситалари» ^ Т.; «Шарк», 2006.

maorif, fan va boshqa tadbirlarni moliyalanishining moddiy asosini yaratadi.

Bozor tizimi atrof-muxit ifloslanishi, axolini zararli okibatlar ta'siridan saklab kolishga qodir emas. Ko'shimcha zararli okibatlar va ekologik tushkunliklarning oldini olishga va bartaraf etishga karatilgan davlat siyosatida xam soliq tizimi muhim urin egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xukumat aralashuvisiz axoli va davlatning real sektorlari korxonalar urtasida daromadlarning notang taksnmlanishi yuz beradi.

Davlat boshqa usullar bilan birgalikda daromadlarni kayta taksimlash siyosatini soliqlar ishtirokida xam amalga oshiradi. Xukumatning kayta taksimlash siyosati, soliqlar buyicha stavkalarni belgilashda, soliqdan imtiyozlarda, soliq chegirmalarida, aksizlarda va boshqalarda ko'zga tashlanadi. Masalan, davlat biror xalk xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishni maksad qilib ko'ysa, shu tarmok ishlab chikarishiga past stavkalar, kuproq imtiyozlarni joriy etadi, shuning bilan bir katorda boshqa keraksiz tarmoklarni yukoridagiga karama-karshi ravishda siqib qo'yish bilan mablag'larning bir tarmokdan ikkinchi tarmokka ko'chib o'tishiga sharoit yaratadi. Bozor mexanizmi faolligi siklik xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy yuksalish tushkunlik bilan almashinib turadi. Tushkunlik davrida kator muammolar kelib chikadi, ya'ni ko'plab korxonalarning inkirozga uchrashi, makrodarajada moliyaviy bekarorlik, ommaviy ishsizlik, yuqori inflyatsiya darajasi shular jumlasiga kiradi. Soliq tizimi ko'rilishining o'zi ushbu siklik o'zgarishlarning oldini olish, hech bo'lmaganda uning okibatlarini yumshatish uchun xizmat qilishi mumkin. Avtomatik stabilizatorlar xar qanday iqtisodiy o'zgarishlar davrida tegishlicha ta'sir etish imkonini beradi. Masalan, proporsional daromad solig'i avtomatik stabilizator xisoblanadi. Yukoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlatning bozor iqtisodini tartibga solish siyosatida va ayniksa yirik va mayda ishlab chikarish sanoatlarini rivojlantirishga karatilgan siyosatida soliq imtiyozlarini taqdim etgan holda korxonalarnisoliqka tortish mexanizmi katta rol o'ynaydi.

Soliqlarning tartiblovchilik funksiyasi boshqarishning ma'muriy uslublaridan voz kechib, iqtisodiy uslubga o'tish sharoitida ayniksa, yakkol namoyon bo'ladi. Xukumatning iqtisodiyotni tartibga soluvchilik siyosati soliq qonunchdligida xamo'z aksini topgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish yulidan borishi O'zbekistonda xam o'ziga xos axamiyat kasb etadi. Bu borada sof rakobat muhitini shaklllantirish, bozor infratuzilmaparini rivojlantirish, moliya va bank tizimlari faoliyatini

takomillashtirish, tashki iqtisodiy faoliyatni yetarli darajada jonlantirish, korxonalar xo‘jalik faoliyatiga davlat va turli vakillik organlari aralashuvini cheklash tadbirlari eng avvalo ularning qonuniy asoslariga tayanadi.

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi soliq qonunchiligi uchun yuridik baza bo‘lib xisoblanib, unda shunday deyilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart»; uning 149 — modsasida esa: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi», deyilgan.

Mamlakatimizdagi hozirgi iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida soliq munosabatlarining barkaror, chuqur poydevorga ega, uzoq amal qilish xususiyatiga ega bo‘lgan me’yor va koidalari O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida aks etadi. Isloxotlarning chukurlashishi va ularni xuquqiy ta’minlash bobida tajriba to‘planishi bilan Oliy Majlis qonunlarga o‘zgartirish va ko‘shimchalar kiritadi. Soliq soxasida isloxotlarning strategik yunalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, karorlari bilan belgilanadi va tasdiklanadi. Prezident farmonlari, qarorlari doirasidagi koidalar Vazirlar Maxkamasi tomonidan anik chora-tadbirlar bilan yorqin ochib beriladi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, karorlar kabul qilish yo‘li bilan soliq munosabatlarini tezkor boshqarishni amalga oshiradi.

Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solishning qonuniy asosi «O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi» bo‘lib xisoblanadi. Soliq kodeksi 21-bo‘lim, 72-bob, 483-moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida soliq munosabatlarini aniklashtiradi. Xukumatning iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga soluvchilik siyosatini quyidagi ustuvorlik alomatlariga ko‘ra turkumlash mumkin: ustuvor faoliyatlarni rivojlantirishga karatilgan soliqni tartibga solish; ijtimoiy axamiyatga molik soliqni tartibga solish.

Birinchi ustuvor faoliyatlarni soliqni tartibga solish siyosatini ko‘rib chikadigan bulsak: bunda ustuvor toifadagi faoliyatlarni rivojlantirishga karatilgan soliqka tortishdagi davlat tartiblovchilik siyosati umumiqtisodiy o‘sish va barkarorlik shartlarini birmuncha kulayrok vositalar bilan rivojlantirishda tayanch iqtisodiy faoliyatlar tanlashni ko‘zda tutadi. Bu belgi bo‘yicha turkumlash asosan quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: tashki iqtisodiy alokalar olib borish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan, ilmiy-texnik tadkikotlar bilan, ilmiy - tadkikot natijalarini sanoatda ko‘llash faoliyatlari bilan, investitsion faoliyatlar bilan qo‘llanishni rag‘batlantirish, ijtimoiy

zararli maxsulotlarni ishlab chikaruvchilar faoliyatini bilvosita cheklash, yer usti va osti boyliklaridan samarali foydalanishni tartiblashga solish.

Ikkinchi ustuvor tarmoklarni va soxalarni rivojlantirishni soliqlar vositasida tartibga solish siyosatida: qishlok xo‘jaligi maxsulotlarini ishlab chikarishni, xalk badiiy xunarmandchiligi va amaliy san’ati, yengil va maxalliy sanoat soxalarini, bolalarbop maxsulotlar ishlab chikarish soxalarini rivojlantirish, respublikada turizm soxasini rivojlantirish, tennis va futbolnikullab-kuvvatlash fondlari faoliyatini soliqlar vositasida rag‘batlantirish kabi davlat axamiyatiga molik tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi ustuvor siyosatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati barcha jabxalarida o‘zini namoyon etadi. Jumladan, jamiyatda ta’lim-tarbiya, sog‘lomlashtirish tadbirlari, aholining uy-joy bilan ta’minoti, nafakaxo‘rlar, nogironlar, mexnat va urush faxriylari, mexnat kobiliyatini yo‘kotganlar, yosh bolali va boquvchisini yo‘kotgan kishilarni ijtimoiy ximoyalash, axoli ayrim katlamlari daromadlarini kayta taksimlash va tartibga solish choralari soliq qonunchiligida xamo‘z aksini topgan.

Umuman olganda O‘zbekistonda olib borilayotgan isloxotlarning maksad va vazifalari – soliq imtiyozlarini qo‘llash orqali iqtisodiyotni tartibga soluvchilik funksiyasini yetarli xuquqiy-normativ bazasini yaratishdir. Bu yumushlar qanchalik nisbatan kiska muddatlar ichida, ammo puxta uylanib yaratilgan bo‘lsada, ularning real xayotda ishlashi uchun turli to‘siklar vujudga kelmokda. Umuman, bizningcha, davlatning tartibga soluvchilik siyosatini yuritishga yetarli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish uchun ayrim ko‘shimcha tadbirlar va tuzatuvchi soliq pereferensiyalarini ko‘rishni talab etmokda.

Ustuvor faoliyatlar va soxalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat tartiblovchilik siyosati barcha jabxalarda ko‘zga tashlanib turibdi. Ammo, xukumatning belgilayotgan chora-tadbirlari, say-xarakatlari yetarli natijalarni bermayotgani va bu muammolarni xal etish borasida soliqlarning tartibga soluvchilik funksiyasidan unumli foydalanish mumkinligi xususida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi bir kator fikr — muloxazalarni yuritishga asos bo‘ladi. Ya’ni, mustakillik yillari davomida mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish yuzasidan ko‘pgina ishlar olib borilib, burching natijasida etapma-etap, ishlab chikarish korxonalarida va jumladan, real sektorlardasoliq yukini kamaytirishga va shuningdek, soliqka tortishni soddalashtirish tizimini takomillashtirishga erishildi. Buning natijasida mamlakatimizda makroiktisodiy rivojlanish vujudga keldi.

18.3. Soliq imtiyozlarining turlari va prinsiplari

Byudjet-soliq siyosatining tarkibiy, bir vaqtning o‘zida, uning nisbiy jihatdan mustaqil qismi sifatida qaralayotgan soliq siyosatining muvaffaqiyati, ta’sirchanligi, ilg‘orligi va samaradorligi ko‘p jixatdan soliq imtiyozlarini taqdim etish masalasiga borib taqaladi. Boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda soliq imtiyozlari qanchalik oqilona taqdim etilsa, bu siyosatning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar imtiyozlar deb e’tirof etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo‘lib, bizningcha ular quyidagilardir:

Birinchidan, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to‘lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma’noga ega bo‘lmaydi;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta’sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba’zi muhim sohalarni yoki soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya’ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bundan ko‘rinadiki, soliq imtiyozlari davlatni o‘z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

Uchinchidan, soliq imtiyozlari qo‘llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya’ni, bundan soliqlar sifatida byudjetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalb etilmasdan soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag‘batlantirishga erishiladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to‘laroq anglab yetish uchun avvalo ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

Professor Q.Yahyoev fikriga ko‘ra «Soliq to‘lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to‘laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki

soliq to‘lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir». Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta’kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o‘rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Amaliyotchi, iqtisodchi olim Sh.Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta’rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to‘liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)».

Professor T.S.Malikovning ta’kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmining to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o‘zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to‘lovchilarning ayrim toifalarini soliq to‘lashdan ozod qilish, soliqqa tortish ob’ektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko‘rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta’minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag‘batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo‘lgan imtiyozlarni berish, odatda, ta’qiqlanadi.

Soliqlarning va ular bo‘yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog‘lanib kelingan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta’kidlanishicha «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo‘lishidir».

Agar, Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to‘lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatini diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun — qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin». Bundan ko‘rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog‘liq bo‘lib, unda soliq

imtiyozlari bilan byudjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o‘rni ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasida alohida o‘rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog‘i soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta’sir etish va byudjetning daromad qismini to‘ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g‘arb davlatlarida neoklassik yo‘nalish, institutsional — ijtimoiy yo‘nalish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e’tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondoshuvlaridagi tub farqlar bo‘lishiga qaramay ularning vaqillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodalar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan xususiyatlanuvchi o‘sish davrini o‘tayotgan bo‘lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya’ni soliqlarni ko‘paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo‘sh mablag‘larini ko‘proq byudjetga jalb qilish lozim deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg‘unlik holatini kechirayotgan bo‘lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo‘shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug‘iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko‘paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa byudjetga qo‘shimcha mablag‘lar va kapital qo‘yilmalar uchun mablag‘lar tug‘ilishiga imkoniyat tug‘diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan. G‘arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo‘ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e’tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy xulq- atvoriga davlat ta’sirini ifodalaydilar. Ammo, bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.

Bozor munosabatlari sharoitida mustaqil respublikamiz iqtisodiy

erkinlashtirishni amalga oshirar ekan, iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo‘lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlari bilan iqtisodiyotni boshqarish, davlatni shunday faoliyati bilan bog‘liqki, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo‘qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba’zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq subyekti, soliq obyekti, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtai nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) bo‘lish mumkin. Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo‘yicha guruhlash mumkin. Biz buni quyidagi tartibda asoslashga harakat qilamiz.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo‘yicha umumiy o‘xshashliklar mavjudligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo‘yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda:

- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

2019 yil 30 dekabrda qabul qilinib, 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bugungi kunda soliq kodeksining bir qator moddalarida doimiy xususiyatga ega bo‘lgan soliq imtiyozlari amal qilayotganligining guvohi bo‘lamiz.

Soliq imtiyozlarini qo‘llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli tarzda belgilash hisoblanadi. Ammo, qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatidan u turli davlatlarda turlicha bo‘ladi.

Agar soliqlar bo‘yicha u yoki bu shaklda imtiyozlarni berib turib, ko‘zlangan maqsadlarga yetarli darajada erishilmayotgan bo‘lsa, uning asosiy sabablaridan biri soliq imtiyozlarini berishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan prinsiplarga yetarli e’tibor qaratilmayotganligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan va o‘zining hayotiyligini xamon saqlab kelayotgan bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

Soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi mulkchilik shakli, faoliyat turi, ayrim manfaatdor guruxlarning subyektiv baholariga bog‘liq xolda tanlanish xarakteriga ega bo‘lmasligi kerak;

Soliq imtiyozlarini berishga noiqtisodiy tarzda majbur qilish va qo‘llanilishning majburiyligi xos emas;

O‘zining ichki tabiatiga ko‘ra, soliq imtiyozlariga qo‘llanilishning ma’muriy-buyruqbozlik xarakteri begonadir;

Investitsion soliq kreditlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan investitsion dasturlarning badarilishini ta’minlaydigan soliq to‘lovchilar guruxiga berilishi kerak;

Soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi byudjet daromadlariga, korporativ va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarga zarar yetkazmasligi lozim;

Imtiyozli soliq portfelini shakllantirish tartibi umumdavlat miqiyosida aniqlanadi va qonuniy tarzda markaziy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadi;

Mahalliy darajada soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi oliy qonunchilik organi tomonidan belgilanadigan ramka doirasida bo‘lishi kerak.

Soliq bo‘yicha imtiyoz berilishi ko‘zda tutilganda soliq to‘lovchilar, birinchi navbatda, soliq stavkasining pasaytirilishini xoxlaydilar. Ularning istaklar inobatga olinib, soliq stavkasi 5 punktga pasaytirildi va uning stavkasi 30% o‘zniga 25%ni tashkil etdi, deylik. U xolda, o‘z-o‘zidan ma’lumki, boshqa sharoitlar o‘zgarmagan taqdirda, soliqning summasi 250,0 ming so‘mni tashkil etib, 1000,0 ming so‘mlik soliqqa tortiladigan obyektning 750,0 ming so‘mi soliq to‘lovchining ixtiyorida qoldiriladi. Buning natijasida soliq to‘lovchi qo‘shimcha ravishda 50,0 ming so‘m qo‘shimcha foydaga ega bo‘lsa, byudjet xuddi shu miqdordagi mablag‘ni yo‘qotadi. Bu ikkinchi variantda vujudga kelgan xolat soliq va imtiyoz o‘rtasidagi dialektik bog‘lanishning buzilganligidan dalolat berib, bunday o‘zgarishni amalga oshirish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bu variantdagi vaziyatning vujudga kelishi soliq bo‘yicha imtiyoz o‘z vazifasini bajarmaganligidan, o‘z maqsadiga erishmaganligidan, maqsadsiz, befoyda imtiyoz berilganligidan dalolat beradi.

Quyida keltirilgan uchinchi variantdagi raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunda ham soliq to‘lovchi birinchi variantdagiga nisbatan 5 punkt kam bo‘lgan soliq stavkasiga ega bo‘lib, u o‘z faoliyatini ma’lum darajada faollashtirdi. Natijada 1200,0 ming so‘mlik daromadga ega bo‘lgan. Uning 300,0 ming so‘mi soliq sifatida byudjetga olinib, 900,0 ming so‘mi esa soliq to‘lovchining ixtiyorida qolgan.

Uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to‘lovchi faoliyatining diqqatga sazovor tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Birinchi va ikkinchi variantdagilardan farqli o‘laroq, uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to‘lovchi 1200,0 ming so‘mlik soliqqa tortish obyektini yaratgan. Bu ko‘rsatkich oldingi har ikki variant ko‘rsatkichidan 200,0 ming so‘mga ko‘pdir.
2. Birinchi variantdagiga nisbatan 5 punkt past soliq stavkasiga ega bo‘lishiga qaramasdan, 30%li stavka bo‘yicha qancha soliq to‘langan bo‘lsa, shuncha summani byudjetga o‘tkazishga erishgan. Bunday xolda albatta, byudjet manfaatlariga zid yo‘l tutilmayotganligi aniq;
3. Ikkinchi variantdagi bilan bir xildagi soliq stavkasiga ega bo‘lsada, unga nisbatan 50,0 ming so‘m ko‘proq byudjetga mabla0 yo‘naltirilgan;
4. Soliq to‘lovchining o‘z ixtiyorida qolgan summa dastlabki xar ikkala variantdagilarga nisbatan ko‘proqdir (mos ravishda 200,0 ming so‘m va 150,0 ming so‘m).

Keltirilgan xulosalardan ko‘ranib turibdiki, uchinchi variantni vujudga keltirgan soliq to‘lovchi soliq bo‘yicha imtiyozning asl mohiyatini imkon qadar to‘g‘ri tushunishga xarakat qilgan va shunga mos ravishda o‘z faoliyatini amalga oshirgan.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, uchinchi variant natijasida vujudga kelgan vaziyat e’tiborga loyiq bo‘lsada, u xanuzgacha soliq va imtiyoz o‘rtasidagi dialektikaning asl moxiyatini to‘la-to‘kis ochib berishga yetarli emas. Chunki uchinchi variantda vujudga kelgan vaziyat bir tomonlamalik xarakterga ega. Ya’ni, qo‘lga kiritilgan natija soliq bo‘yicha imtiyoz olgan tomonninggina manfaatlariga to‘liq mos keladi. Uchinchi variantning natijalari byudjet manfaatlariga zid kelmayotgan bo‘lsada, soliq va imtiyoz o‘rtasidagi dialektika bir vaqtning o‘zida ham imtiyoz bergan tomonning, ham imtiyoz olgan tomonning manfaatlariga mos kelmog‘i lozim.

Xuddi sha tarzdagi muvozanat jadvalimizdagi to‘rtinchi variantda vujudga kelgan bo‘lib, bu variantda imtiyozdan faqat imtiyozga ega bo‘lgan tomon qo‘shimcha manfaat ko‘rmasdan, balki imtiyozni bergan tomon (davlat, davlat byudjeti) ham qo‘shimcha manfaat ko‘rgan. Soliq stavkasi 5 punktga kamaytirilganligidan maksimal ravishda foydalanish evaziga soliq to‘lovchi hech qo‘rqmasdan 1400,0 ming so‘mlik soliqqa tortiladigan obyektni yaratdi. Uning 350,0 ming so‘mi soliq sifatida byudjetga to‘lanib, byudjet 50,0 ming so‘m qo‘shimcha mablag‘ga ega bo‘ldi. Bu variant natijalari manfaatlar mushtarakligiga erishilganligidan dalolat beradi. Soliq va imtiyoz dialektikasining tub mohiyati, asl mazmuni ham ana shundan iborat.

Byudjet-soliq siyosatining tarkibiy, bir vaqtning o‘zida, uning nisbiy jihatdan mustaqil qismi sifatida qaralayotgan soliq siyosatining muvaffaqiyati, ta’sirchanligi, ilg‘orligi va samaradorligi ko‘p jixatdan soliq imtiyozlarini taqdim etish masalasiga borib taqaladi. Boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda soliq imtiyozlari qanchalik oqilona taqdim etilsa, bu siyosatning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar imtiyozlar deb e’tirof etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo‘lib, bizningcha ular quyidagilardir:

Birinchidan, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to‘lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma’noga ega bo‘lmaydi;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta’sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba’zi muhim sohalarni yoki soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya’ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bundan ko‘rinadiki, soliq imtiyozlari davlatni o‘z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

Uchinchidan, soliq imtiyozlari qo‘llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya’ni, bundan soliqlar sifatida byudjetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalb etilmasdan soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag‘batlantirishga erishiladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to‘laroq anglab yetish uchun avvalo ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

Professor Q.Yahyoev fikriga ko‘ra «Soliq to‘lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to‘laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to‘lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir». Shuningdek, ushbu

iqtisodchining ta’kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o‘rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Amaliyotchi, iqtisodchi olim Sh.Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta’rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to‘liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)».

Professor T.S.Malikovning ta’kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmining to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o‘zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to‘lovchilarning ayrim toifalarini soliq to‘lashdan ozod qilish, soliqqa tortish ob’ektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko‘rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta’minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag‘batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo‘lgan imtiyozlarni berish, odatda, ta’qiqlanadi.

Soliqlarning va ular bo‘yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog‘lanib kelingan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta’kidlanishicha «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo‘lishidir».

Agar, Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to‘lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatini diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog‘ ko‘kartirsa yoxud biron harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun — qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin». Bundan ko‘rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog‘liq bo‘lib, unda soliq imtiyozlari bilan byudjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o‘zaro

bog‘liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o‘rni ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasida alohida o‘rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog‘i soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta’sir etish va byudjetning daromad qismini to‘ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g‘arb davlatlarida neoklassik yo‘nalish, institutsional — ijtimoiy yo‘nalish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e’tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondoshuvlaridagi tub farqlar bo‘lishiga qaramay ularning vaqillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodalar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan xususiyatlanuvchi o‘sish davrini o‘tayotgan bo‘lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamaytirish, ya’ni soliqlarni ko‘paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo‘sh mablag‘larini ko‘proq byudjetga jalb qilish lozim deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg‘unlik holatini kechirayotgan bo‘lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo‘shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug‘iladi degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko‘paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa byudjetga qo‘shimcha mablag‘lar va kapital qo‘yilmalar uchun mablag‘lar tug‘ilishiga imkoniyat tug‘diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan. G‘arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo‘ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e’tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy xulq- atvoriga davlat ta’sirini ifodalaydilar. Ammo, bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.

18.4. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida quyidagi **vaqtinchalik soliq imtiyozlari amal qiladi:**

Quyidagilar mol-mulk solig‘ini, yer solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalarini to‘lashdan ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasining har bir shahari va tumani uchun “o‘sish nuqtasi” deb belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxtako‘pir, Bo‘zatov va Shumanay tumanlarida joylashgan, yangidan tashkil etilgan sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Soliq to‘lovchilarning mazkur toifasi foyda solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilangan soliq stavkasidan 50 foiz pasaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan aniqlangan ro‘yxat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan va og‘ir sharoitlardagi 45 ta mahalla va ovullarda joylashgan, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Tadbirkorlik subyektlarining mazkur toifasi foyda solig‘idan ham ozod qilinadi.

“Hunarmand” uyushmasining a’zolariga berilgan soliq imtiyozlari “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasining a’zolari bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan 2023-yil 1-martga qadar bo‘lgan davr uchun tatbiq etiladi.

Orolbo‘yida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan O‘zbekiston Respublikasida o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan ilmiy-laboratoriya asbob-uskunasi, reagentlar va sarflash materiallari 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

Surxondaryo viloyatining Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlarida, tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu tumanlarda (hududlarda) o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini,

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, aylanmadan olinadigan soliqni, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summasini to‘lashdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu hududlarda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) 2021-yil 10-sentabrdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

SKdagi 483-moddaning o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan tog‘li hududlarning hamda yer maydonlari sho‘rlangan hududlarning ro‘yxati xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari:

foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, ijtimoiy soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 1 foiz miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

Bo‘yalgan matoni, bo‘yalgan gazlamani va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari (shu jumladan komissioner (ishonchli vakil) orqali eksport qilgan tadbirkorlik subyektlari) 2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

483-moddaning o‘n yettinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz bo‘yalgan mato, bo‘yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qilishdan olingan tushumi barcha tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining kamida 80 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), avtotransport vositasida yo‘lovchi va yuk tashish, avtotransport vositalarini ta’mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyuter xizmatlarini, maishiy texnikani ta’mirlash, agro va veterinariya xizmatlari ko‘rsatuvchi,

shuningdek ko‘ngilochar markazlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari — 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

483-moddaning yigirmanchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz, agar belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil qilsa, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etiladi. Xodimlar sonini yashirish faktlari aniqlangan taqdirda mazkur imtiyozning amal qilishi bekor qilinadi.

Mahallalararo savdo-xizmat ko‘rsatish ko‘chalari bo‘ylab joylashgan, uy-joy uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektlari 483-moddaning yigirmanchi qismida belgilangan xizmatlar turlarini ko‘rsatish uchun yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk toifasiga o‘tkazilgan taqdirda, 2024-yil 1-yanvarga qadar jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini uy-joyga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

Mahallalararo savdo-xizmat ko‘rsatish ko‘chalarining ro‘yxati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

Tadbirkorlik subyektlari 2022-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda maydoni besh ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari va mehmonxona (joylashtirish vositalari), shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha quyidagilarga haqli:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyentni qo‘llashga. Bunda 2027-yil 1-yanvarga qadar yangidan qurilgan ushbu ko‘chmas mulk obyektlariga va ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan mazkur imtiyoz ular foydalanishga topshirilgan oydan e’tiboran besh yil mobaynida qo‘llaniladi;

foyda solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida ikki yil davomida mazkur binolarning qiymatini amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritishga.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko‘rsatilgan tumanlar va shaharlarning belgilangan turizm zonalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan hamda mazkur hududlarda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turoperatorlik va turagent xizmatlarini

koʻrsatadigan tadbirkorlik subyektlari — 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar boʻlgan davrda:

aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi boʻyicha toʻlaydi;

ushbu hududlarda joylashgan obyektlarga, shuningdek mazkur obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻini ushbu soliqlar boʻyicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida toʻlaydi.

Tumanlar va shaharlar turizm zonalari chegaralari Oʻzbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hududiy bosh boshqarmalarining xulosalariga asosan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanadi.

2022-yil 1-apreldan 2028-yil 31-dekabrga qadar boʻlgan davrda:

Oʻzbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari boʻlgan jismoniy shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalar boʻyicha dividendlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan ozod qilinadi;

Oʻzbekiston Respublikasining norezidentlari boʻlgan yuridik shaxslarning (aksiyadorlarning) aksiyalari boʻyicha dividendlar tarzidagi daromadlariga foyda soligʻi boʻyicha 5 foiz miqdorida soliq stavkasi qoʻllaniladi;

Oʻzbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslarning xoʻjalik jamiyatlari obligatsiyalari boʻyicha foizlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻidan hamda foyda soligʻidan ozod etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining milliy musiqa cholgʻu asboblarini ishlab chiqarishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari boʻyicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar boʻlgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi boʻyicha toʻlanadi.

Xoʻjaliklarda baliq yetishtirishni kooperatsiya asosida yoʻlga qoʻygan soliq toʻlovchilar 2025-yil 1-yanvarga qadar boʻlgan davrda barcha soliqlarni (bundan qoʻshilgan qiymat soligʻi va ijtimoiy soliq mustasno) toʻlashdan ozod etiladi.

483-moddaning yigirma toʻqqizinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz joriy hisobot (soliq) davri yakunlari boʻyicha jami daromadning umumiy hajmida baliq yetishtirish faoliyatidan olingan daromadining ulushi 90 foizdan ortiqni tashkil etgan soliq toʻlovchilarga nisbatan qoʻllaniladi.

Charm, mo‘yna xomashyosini va junni tayyorlash, saqlash hamda qayta ishlash, qoramolni avtomatlashtirilgan tarzda so‘yish, jun, qorako‘l va sun’iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ushbu faoliyati bo‘yicha foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

483-moddaning o‘ttiz birinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari quyidagilarga nisbatan tatbiq etiladi:

Chorva mollarni so‘yishga ixtisoslashtirilgan, zamonaviy avtomat-lashtirilgan komplekslar bilan jihozlangan soliq to‘lovchilarga;

hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmida charm, mo‘yna, qorako‘l xomashyosini va junni yig‘ish hamda tayyorlash, ularni qayta ishlash (foydalanish) uchun keyinchalik sotish faoliyatidan olingan daromadining ulushi 80 foizdan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilarga;

hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmida charm, mo‘yna, qorako‘l xomashyosini va junni qayta ishlash, shuningdek butlovchi buyumlarni, furnitura, aksessuarlar, poyabzal qoliplari, poyabzal tagliklari, ustki qismlari, jelatin, sun’iy charm, poyabzal, charm-attorlik, mo‘ynachilik, qorako‘l mahsulotini va jundan ishlangan buyumlarni ishlab chiqarishdan olingan daromadining ulushi 60 foizdan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilarga.

Chorva mollarni so‘yish bo‘yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan komplekslarga ega bo‘lgan, shuningdek terini qayta ishlovchi va charmdan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod etiladi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining umumiy hajmi quyidagi talablarga javob bersa, soliq to‘lovchilar ijtimoiy soliqni 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi:

bolalar, ayollar va sport poyabzallarini, sun’iy (eko) charm, furnitura, poyabzal qoliplari hamda tagliklarini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlarining ulushi kamida 60 foizni tashkil etsa;

poyabzallarni, charm-attorlik mahsulotlarini va mo‘ynadan tayyor-langan buyumlarni eksport qilishdan olinadigan daromadlarining ulushi kamida 80 foizni tashkil etsa.

Belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha tibbiyot asbob-uskunalari va buyumlarining ehtiyot qismlarini hamda tibbiyot maqsadlari uchun sarflov materiallarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

Mehnat resurslari zich bo‘lgan qishloq joylarning reyestriga kiritilgan hududlarda xodimlarining umumiy soni 10 nafardan kam bo‘lmagan hamda u erda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xotin-qizlar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari o‘zida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xotin-qizlarning mehnatiga haq to‘lash fondidan olinadigan ijtimoiy soliqni 2022-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Chiqindilarni to‘plash, olib chiqish, saralash va qayta ishlash faoliyatidan olgan daromadlari hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan soliq to‘lovchilar 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur faoliyat turi bo‘yicha foyda solig‘ini (bundan foizlar tarzidagi daromadlar mustasno) va ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Byudjet tashkilotlari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha barcha turdagi soliqlarni to‘lashdan 2024-yil 1-yanvarga qadar ozod qilinadi, bundan ijtimoiy soliq mustasno.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlarida joylashgan hamda mazkur hududda faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan yirik soliq to‘lovchilar, doimiy muassasalar, byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar mustasno) 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda:

foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to‘laydi.

Agar soliq to‘lovchi ushbu moddaning o‘ttiz to‘qqizinchi qismida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari bilan bir qatorda bir vaqtning o‘zida boshqa asoslar bo‘yicha soliq imtiyozlariga doir huquqqa ega bo‘lsa, bunday soliq to‘lovchi o‘z ixtiyoriga qo‘ra eng qulay soliq imtiyozini tanlashga haqli.

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo‘linmalari, “O‘zbekiston Professional futbol ligasi” jamoat birlashmasi, O‘zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari:

barcha turdagi soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno);

o‘zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini;

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan sport asbob-uskunalari va inventari, translatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, inventar va texnika, farmakologiya tovarlari, sport oziq-ovqatlari, futbol (futzal) maydonlari uchun sun’iy o‘tlar, shokpad, granulalar, maxsus yelimlar va maxsus professional sport kiyim-boshlari, transport vositalari, shu jumladan maxsus transport vositalari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi”da ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar uchun ajratilgan bank kreditlari bo‘yicha olingan foizlar tarzidagi daromadlari foyda solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadlarida 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda chegiriladigan xarajatlar sifatida e’tirof etiladi.

“Izlanish va rivojlanish” markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni hamda nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan (bundan buyon matnda metallar deb yuritiladi) ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning XVIII[1] bo‘limida nazarda tutilgan qoidalar 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar

bo‘lgan davrda tatbiq etilmaydi. Mazkur qoida qazib olish 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda boshlangan yer qa’ri uchastkasiga nisbatan qo‘llaniladi va metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishning butun davri uchun tatbiq etiladi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, soliq davri, soliq kanikuli, soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlari, soliqlarni to‘lash muddatlari, soliq madaniyati, soliq krediti, soliq yuki, soliq elementlari, soliq obyekti, soliq subyekti, soliq bazasi, soliq stavkalari, progressiv soliq stavkalari, regressiv soliq stavkalari, proporsional soliq stavkalari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq imtiyozlari nima? Ularning soliqqa tortish jarayonidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Soliq preferensiyalari deganda nima tushunasiz?
3. Soliq imtiyozlarining qanaqa turlari mavjud?
4. Soliq imtiyozlarining samaradorligi aniqlanadi?
5. Soliq bazasini aniqlashning qanaqa usullari bor?
6. Soliq stavkasi nima? Uning qanaqa turlari mavjud?
7. Soliqlarni hisoblab chiqarish deganda nima tushuniladi?

O‘zlashtirilgan bilimlarni sinash uchun test savollari

1. Soliq imtiyozlarining turlarini ko‘rsating?

A) To‘liq ozod etish, vaqtincha ozod etish, qisman ozod etish.

B) Butunlay va qisman ozod etish.

C) Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish.

D) Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.....

A) mulkdorning tanloviga binoan faqat bitta mol-mulk ob’ektga taalluqli bo‘ladi

B) mulkdorning barcha mol-mulk ob’ektlariga taalluqli bo‘ladi

C) mulkdorning tadbirkorlik maqsadlarida foydalanayotgan mol-mulk ob’ektlariga taalluqli bo‘ladi

D) mulkdorning ijaraga bergan mol-mulk ob’ektlariga taalluqli bo‘ladi

3. Yuridik shaxslarda yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza qachondan e’tiboran kamaytiriladi?

A) Ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi

B) Soliq solinadigan baza kamaytirilmaydi

C) Ushbu huquq vujudga kelgan chorakdan e'tiboran kamaytiriladi

D) Ushbu huquq vujudga kelgan yildan e'tiboran kamaytiriladi

4. I-II guruh nogironlari uchun jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha qanday imtiyoz ko‘zda tutilgan?

A) soliqqa tortiladigan daromad 30%ga kamaytiriladi

B) soliqqa tortiladigan daromad 50%ga kamaytiriladi

C) soliqqa tortiladigan daromad 30%, agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo‘lsa kamaytiriladi

D) har bir to‘liq oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida kamaytiriladi

5. Quyidagi qaysi jismoniy shaxs soliq solishdan daromad olingan har bir oy uchun mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida ozod qilinadi?

A) Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar.

B) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarigi, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar

C) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo‘lgan xodimlari

D) gastrol-kontsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar

GLOSSARIY

o‘zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida	o‘zbek tilidagi mazmuni
Soliqlar	Taxes	Налоги	Qonunda beliglangan tartibda stavka bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan va fuqarolar (yuridik va jismoniy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to‘lovlar. Soliq, yig‘im, poshlina va boshqa to‘lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida beliglangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to‘lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar, poshlinalar va boshqa to‘lovlarning yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi.
Soliq bazasi	The tax base	Налоговая база	Soliq obyektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo‘llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi.
Asosiy vositalar	fixed assets	Основные срелства	korxonada ko‘p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya’ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar.
Asosiy vositalar bilan ta’minlanish	Provision of fixed assets	Обеспеченость основными средствами	korxonaning biznes-rejasiga yoki o‘tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi.
Aktiv (faol) asosiy fondlar	Active fixed assets	Активные основные средства	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o‘tkazgich jihozlar, o‘lchash va tartibga solish asboblari.
Asosiy fondlarni	The coefficient of	Коэффици-	yangi kelgan asosiy fondlar so‘mmasini asosiy fondlarning yil

yangilash koeffitsienti	fixed assets renewal	ент обновления основных фондов	oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak.
Asosiy (operatsion) faoliyat bo‘yicha pul oqimlari	Cash flows from operating activities	Денежные потоки от основной деятель ности	xo‘jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag‘lariga, foyda miqdoriga tasirini ifodalaydi.
Aylanma mablag‘lar	current assets	Оборотные средства	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag‘lari.
Boshqaruv tamoyillari	principles of management	Принципы управления	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.
Byudjet tizimi	Budget system	Бюджетная система	Turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, shuningdek byudjet jarayonida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.
Byudjet profitsiti	Budgetsurp-lus	Бюджетный избыток	Muayyan davrda byudjet daromad-larining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.
Davlat byudjeti	State budget	Государст-венный бюджет	Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag‘larining) markazlashtirilgan fondi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Daromad solig‘i	Incometax	Подоходный налог	To‘g‘ri soliqlarning asosiy shaklidir. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizda hisoblangan ulushi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya	Income declaration	Декларация о доходах	Dvidentlar – taqsimlashga mo‘ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma’lum davrdan so‘ng (har yili, ayrim hollarda– har chorakda) to‘lanadigan daromad.
Daromad solig‘ining shedulyar shakli	Shedulyar income tax form	Шедулярная форма налога на доход	Daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) bo‘linishini taqozo etadi. Har bir shedul o‘ziga manbai oldida “tutish”ni maqsad qilib qo‘yadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari Yana ichki taqsimlanishga ham egadir.
Jarima	Penaltu	Санкция	Soliqqa oid jinoyatlar uchun javobgarlik o‘lchovidir.
Ikki marta soliqqa tortish	Doubletaxation	Двойное налогообло-жение	1.Turli soliqlarni daromad (kapital) ning yagona manbaidan olinishi; 2.Qo‘shma korxona xorijiy ishti-rokchisining foydasini xorijga o‘tka-zilayotgan paytda soliqqa tortish va xudi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to‘lanadigan dividentlarni ular shax-siy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda oliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin.
Imtiyoz	Privilege	Льгота	Ma’lum bir majburiyatlarni bajari-shdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.
Import solig‘i	Import tax	Налог на импорт	Bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan

			paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste’mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy byudjetlarga borib tushadi.
Yig‘imlar	Tolls	Пошлины	Qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotrasport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar kiradi.
Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	Local taxes and fees	Местные налоги и сборы	Mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuiridk shaxslarning majburiy to‘lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar.
Mahalliy byudjet	The local budget	Местный бюджет	Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ularning

			tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Ma’muriy javobgarlik	Administrati ve responsibility	Администра -тивная ответственн ость	Ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va man-sabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.
Ortiqcha to‘lovlar	Payment	Переоплата	To‘lovning byudjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to‘-lovchining boshqa to‘lovlar bo‘yicha mavjud bo‘lgan boqimondalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to‘g‘rida unga ma’lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko‘chirmasi asosi-da soliq to‘lovchiga qaytariladi.
Penya	Fine/surcharg e	Пеня	Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo‘yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun bitim bo‘yicha qayd etilgan summaning foizdagi ulushi ko‘rinishida qo‘llaniladi.
Boshqaruv tizimi	Control systems	Системы управления	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo‘lib, ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o‘zgaradi.
Balansni likvidligi	balance Liquidity	Ликвидност ь баланса	Balansdagi likvid bo‘lgan mablag‘-larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi.
Brak mahsulot	bar producs	Бракная продукция	tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot.
“Balans”	Balance	Баланс	lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topib, tom ma’noda ikki palla degan ma’noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.
Regressiv soliqqa tortish	Regressiveta xation	Регрессивно е	Soliq asosi (bazasi)ning o‘sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og‘irligi

		налогообло жение	daromadga teskari proportsionaldir: daromad qancha kam bo‘lsa, soliq to‘lovchi uchun soliqning og‘irligi shuncha og‘irdir. Hozirgi paytda qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.
Real soliq	Real tax	Реальный налог	Soliq to‘lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to‘g‘ri soliqlardan iboratdir.
Rezidentlar	Residents	Резиденты	Kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo‘lmagan muddatda yashagan, O‘zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va bo‘lmagan soliq to‘lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.
Respublika byudjeti	Republican budget	Республикан с-кий бюджет	Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirish-da foydalanila-digan qismi bo‘lib, unda adromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, mo-liya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Soliq agenti	Taxagent	Налоговый агент	Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o‘z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natija-sida to‘lanadigan ish haqidan, divi-dendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko‘rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o‘tkazib beradi.Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e’tirof etiladi.

Metod(usul)	The method (method)	Метод (способ)	yunon tilidan olingan bo‘lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o‘rganish usuli.
Metodologiya (uslubiyat)	Metodologya	Методология	muayyan fanning predmetini o‘rganish usuli, unda qo‘llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.
Soliq kontseptsiyasi	The concept of tax	Понятие налога	Bu soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.
Soliq siyosati	Tax policy	Налоговая политика	Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.
Soliq siyosati strategiyasi	Tax policy	Стратегия налоговая политика	Soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.
Soliq siyosati taktikasi	Tax policy and tactics	Тактика налоговой политики	Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi — soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.
Soliq subyekti	The subject of tax	Субъект налогообложения	Soliq to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq subyekti — bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi

			tomonlarning o‘zaro majmuasi bo‘lib, unda bir tomondan soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari — Davlat soliq qo‘mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspektsiyalari qatnashadi.
Soliq obyekti	The object of the tax	Объект налогообло жения	Soliq to‘lovchining soliq hisoblana-digan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.
Soliq organlari	Tax authorities	Налоговые органы	Soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘-g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta’minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘-mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir.
Soliq imtiyozlari	Tax incentives	Налоговые льготы	Soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli xil engilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlar-da berilishi mumkin.

Soliq manbai	A source of tax	Источник налога	Bu soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi. Soliq obyekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo‘yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo‘yicha soliq obyekti ham soliq manbai ham bir xil bo‘ladi, ya’ni nima obyekt bo‘lsa, uning o‘zi manba hisoblanadi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Ставка налога	Soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat’iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o‘rnatiladi.
Soliqqa tortish birligi	Unit of taxation	Единица налогообложения	Bu obyektning o‘lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig‘ida obyektning o‘lchov birligi bo‘lib uning so‘mdagi bahosi ifodalansa, yer solig‘ida o‘lchov birligi bo‘lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.
Soliqqa tortish predmeti	The subject of taxation	Предметом налогообложения	Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo‘lgan huquq emas, balki ularning o‘zidir, ya’ni soliq solish obyekti bo‘lib biror-bir soliq predmetiga bo‘lgan huquq tushunilsa, predmet bo‘lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o‘zi tushuniladi.
Soliq tizimi	The tax system	Налоговая система	Mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.
Soliq qonunchiligi	Tax legislation	Налоговое Законода-тельство	Davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga

			solib turuvchi yuridik me’yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.
Soliq tushumlari	Tax revenues	Налоговые поступления	Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to‘lovlarga mo‘ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolotli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to‘lovlari) va moliyaviy sanktsiyalar.
Soliq nazorati	Financial control	Налоговый контроль	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash ustidan nazorat.
Soliq deklaratsiyasi	Tax Declaration	Налоговая декларация	Soliq to‘lovchining soliq organiga ma’lum bir davr oralig‘idaolgan daromadlari hamda unga qo‘llaniladigan chegirma va imtiyozlarni o‘zida aks ettirgan maxsus shakldagi rasmiy bayonoti. Soliq organi unga va amaldagi soliq stavkalariga asoslanib, to‘lanishi belgilangan soliq summalari undirilishini nazorat qiladi
Soliq majburiyati	Taxliabilities	Налоговые обязательства	Soliqlarni hisoblash va to‘lash yuzasidan talab etiladigan va bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni o‘zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bu jarayonda davlat o‘zining vakolatli organlari orqali soliq to‘lovchidan mazkur majburiyatlar bajarilishini talaba etish huquqiga egadir
Soliq mexanizmi	The tax mechanism	Налоговый механизм	Davlat, jamiyat va alohida sub’ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan

			markazlashtirilgan va markazlash-tirilmagan pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish bilan bog‘liq obyektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig‘indisi.
Soliq yuki	The tax burden	Налоговое бремя	Soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘ida to‘lagan soliqlari yig‘indi-sini ifodalaydi. Bunda soliq to‘lov-chilarning to‘laydigan barcha soliq-lar va soliqsiz majburiy to‘lovlari-ning yig‘indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganli-gini aniqlash ancha murakkab jara-yon hisoblanadi.
Soliq organi	Taxauthority/ taxbodies	Налоговый орган	Amaldagi soliq qonunchiligiga mu-vofiq, soliqlar undirilishini amalga oshiruvchi davlat organlari tizilmasi.
Soliq to‘lovchi	Taxpayer	Налогоплательщик	Qonunchilikka ko‘ra, tegishli soliq-larni to‘lash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.
Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish	International double taxation	Международное двойное налогообло же-ние	Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to‘lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o‘xshash soliq turi bilan bir vaqtning o‘zida soliqqa tortish ifodalanadi.
Induktsiya	Induction	Индукция	tadqiqotni yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o‘tilishi tushuniladi.
Ichki xo‘jalik rezervlar (imkoniyatla ri)	Intra reserves	Внутрихозя йственные резервы	xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar haraka-tini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish tushuniladi.
Iqtisodiy-matematik usullar	Economic-mathematical methods	Экономико-математичес кие методы	integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o‘y-in kabilar.
Investitsiya faoliyati	Investment activities	Инвестицио нная деятельност ь	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to‘langan pullar va

			unga tenglashtirilgan mablag‘lar chiqim ustunida aks ettiriladi.
Ijtimoiy mehnat unumdorligi	Social productivity	Социальная производительность труда	moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miq-dori bilan o‘lchanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining kodekslari va qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2025-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2024-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2024-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2024-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Lex.uz. elektron varianti. 2024-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son, 2024-yil 24-dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-son, 2024-yil 24-dekabr.

8.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida. O‘RQ-886-son, 2023-yil 25-dekabr.

9. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida. O‘RQ-1055-son, 2024-yil 25-dekabr.

10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. O‘RQ-891-son, 2023- yil 28-dekabr.

11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida O‘RQ-600-sonli. 2020 yil 6-yanvar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik sub’ektlarni tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5739-son, 2019-yil 7-iyun.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5755-son, 2019-yil 27-iyun.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish,tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan

takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida. PF-5780-son, 2019-yil 13-avgust.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5813-son, 2019-yil 6-sentabr.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Alohida soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish to‘g‘risida. PF-6011-sonli, 2020-yil 19-iyun.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-6098-son, 2020-yil 30-oktabr.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. PF-6121-son, 2020-yil 3-dekabr.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6243-son, 2021-yil 8-iyun.

20.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-sonli, 2022-yil 28-yanvar.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-91-sonli, 2023-yil 12-iyun.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida. PF-92-sonli, 2023-yil 12-iyun.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-93-sonli, 2023-yil 12-iyun.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-sonli, 2023-yil 11-sentabr.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-193-sonli, 2023-yil 10-noyabr

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida. PF-196-sonli, 2023-yil 17-noyabr.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-209-sonli, 2023-yil 21-dekabr.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida. PQ-2646-son, 2016-yil 28-oktabr.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-2020-yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2660-son, 2016-yil 22-noyabr

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-2018 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2803-son, 2017-yil 28-fevral.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-3301-son, 2017-yil 29-sentabr.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3651-son, 2018-yil 5-aprel.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3856-son, 2018-yil 14-iyul.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4389-son, 2019-yil 10-iyul.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4539-sonli, 2019-yil 28-noyabr.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4742-sonli, 2020-yil 8-iyun.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4819-son, 2020-yil 7-sentabr.

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2021-2023 yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4995-son, 2021-yil 17-fevral.

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-5252-sonli, 2021-yil 4-oktabr.

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-57-sonli, 2021-yil 21-dekabr.

41.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-83-sonli, 2022-yil 13-yanvar.

42.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-90-sonli, 2022-yil 17-yanvar.

43. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida. PQ-311-sonli, 2022-yil 7-iyul.

44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-366-sonli, 2022-yil 30-avgust.

45. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-70-sonli, 2023-yil 23-fevral.

46. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-366-sonli, 2023-yil 15-noyabr.

47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-331-sonli, 2023-yil 11-oktabr.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-402-sonli, 2023- yil 21-dekabr.

49. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-422-sonli, 2023-yil 29-dekabr.

50. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo‘jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-115-sonli, 2024-yil , 5-mart

51. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-146-sonli, 2024-yil 1-aprel.

52. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-193-sonli, 2024-yil 24-may.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

53. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida. 6-son, 2011-yil 7-yanvar.

54. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 66-son, 2017-yil 9-fevral.

55. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 445-son, 2017-yil 29-iyun.

56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 666-son. 2019-yil 13-avgust.

57. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi hamda Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida. 704-son, 2019-yil 21-avgust.

58. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida tajriba tariqasida soliq solish ob’ektlarini hisobga olish va soliq ma’muriyatchiligining alohida tartibini joriy etish to‘g‘risida. 107-son, 2020-yil 20- fevral.

59. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 806-son, 2020-yil 23-dekabr.

60.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 595-son, 2021-yil 22-sentabr.

61.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 707-son, 2021-yil 22-noyabr.

62.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risida. 150-son, 2022-yil 2-aprel.

63. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. 292-son, 2024-yil 18-may.

64. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda “Mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 137-son, 2024-yil 15-mart

Boshqa normativ-huquqiy xujjatlar

65. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2010-yil 24-martdagi 24, 2010-15-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 27-mayda 2107-son bilan ro‘yxatga olingan.

66. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining qarori. Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida. 2020-03-son, 2020-yil 28-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 24-fevralda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3221.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

67. Coleman et al, New Zealand Taxation 2020: Principles, Cases and Questions, Tomson Reuters, Vellington NZ.

68.New Zealand Taxation 2020: Casebook, Tomson Reuters, Vellington, NZ.

69. Налогообложение физических лиц : учебник и практикум для академического бакалавриата / Л. И. Гончаренко и др. ; под редакцией Л. И. Гончаренко. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 363 с.

70. Налоги и налогообложение : учебник и практикум для академического бакалавриата / под ред. Г. Б. Поляка, Е. Е. Смирновой. - 3-е изд., перераб. и доп. -М. : Издательство Юрайт, 2018. - 385 с

71. Налогообложение физических лиц : учебник для вузов / Л. И. Гончаренко [и др.] ; под редакцией Л. И. Гончаренко. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва : Издательство Юрайт, 2024. - 322 с.

72. S.K.Xudoyqulov. Soliq statistikasi va prognozi.(Darslik).-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 364 bet.

73. A.H.Toshqulov, S.K.Xudoyqulov. Soliq nazariyasi. Darslik. T: Iqtisodiyot. 2021.-320 b.

74. Jo‘rayev.A.S. va boshqalar. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. — T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2019 y. — 432 b.

75. Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – T.: “Iqtisod Moliya” 2019. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

76. Н.И.Яшина, М.Ю.Гинзбург, Л.А.Чеснекова, Е.А.Иванова. Налоги и налогообложение практикум. Учебное пособие. М.:ИНФРА-М. 2019.-118с.

77. В.А.Водопьянова. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.:ИНФРА-М. 2018.-175 с.

78. Романов А.Н., Колчин С.П. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Москва, Инфра-М. 2018, 385-стр.

79. Z.Ergashev, A.G‘iyosov, G‘. Ro‘ziyev. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2022 y. — 420 b.

80. Agzamov A.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish-1. Darslik. T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 304 bet..

81. Agzamov A.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish-2. Darslik. T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 232 bet..

82. Tuxliyev B.K., Agzamov A.T. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 468 bet.

83. И.Ахмадхонов. Солиқ солиш асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: «Kafolat print company» нашриёти. 2024. -241 б. ISBN 978-9943-385-37-4 УЎК: 811.512.133'373.231 КБК: 81.2. Узб-3 А 34

Axborot manbalari

84.www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

85.www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

86.www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

87.www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi.

88.www.imv.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

MUNDARIJA

KIRISH…..		**3**
I-BOB.	**SOLIQ SIYOSATI FANINING PREDMETI VA MAQSADI.....**	**5**
1.1. §	“Soliq siyosati” fanining predmeti va maqsadi.....	5
1.2. §	Fanni o‘rganishdagi umumiy va alohida medotlari.....	7
1.3. §	«Soliq siyosati» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi.....	9
1.4. §	Soliq siyosatini amalga oshirishda soliqlarning asosiy prinstiplari.....	10
	Tayanch so‘z va iboralar.....	12
	Takrorlash uchun savollar.....	12
	Testlar……..	12
II-BOB.	**SOLIQ SIYOSATINING YUZAGA KELISH IJTIMOIY-IQTISODIY EVOLYUSIYASI.....**	**14**
2.1. §	Qadimgi davlatchilik davrlarida soliq siyosati.....	14
2.2. §	Islom-Arab davlatlarida soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog‘liq siyosat……..	16
2.3. §	Evropa va Osiyo davlatlari va Rossiyada soliqlar va soliq siyosatining tarixiy rivojlanish jarayonlari.....	22
2.4. §	Mamlakatimizda qadimda va o‘rta asrlarda amal qilgan boshqaruv tizimi hamda xorijiy istilolar davrida soliq siyosati.....	28
2.5. §	Amirlik va xonliklar davridagi soliq siyosati.....	34
2.6. §	Chor Rossiyasi va Sobiq ittifoq davrida soliq tizimi.....	37
	Tayanch so‘z va iboralar.....	42
	Takrorlash uchun savollar.....	42
	Testlar……..	43
III -BOB.	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATI**	**45**
3.1. §	Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy asoslari.....	45
3.2. §	Soliq siyosatini amalga oshirishda davlatning o‘rni va soliq siyosatini takomillashtirish.....	55
3.3. §	O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatida amalga oshirilgan soliq islohatlarini bosqichlari.....	58
3.4. §	Soliq siyosatini amalga oshirishda soliq mexanizmini yo‘nalishlari.....	85
	Tayanch so‘z va iboralar.....	86
	Takrorlash uchun savollar.....	86
	Testlar……..	87
IV-BOB.	**O‘ZBEKISTON SOLIQ SIYOSATINING BOSQICHLARI……**	**89**
4.1. §	Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq tizimi xususiyatlari (birinchi bosqich)……	89

4.2. §	Soliq siyosatning ikkinchi bosqichi yo‘nalishlari……	92
4.3. §	Soliq siyosatining uchinchi bosqichning o‘ziga xos yo‘nalishlari…….	94
4.4. §	O‘zbekiston soliq siyosatining to‘rtinchi bosqichi asosiy yo‘nalishlari…….	97
4.5. §	2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida soliq siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlari.....	105
	Tayanch so‘z va iboralar.....	111
	Takrorlash uchun savollar.....	111
	Testlar……..	112
V-BOB.	**SOLIQ SIYOSATINING MAZMUNI VA SHAKLLARI**	**113**
5.1. §	Soliq siyosati yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari……...	113
5.2. §	Soliq siyosatining iqtisodiy mohiyati……..	114
5.3. §	Soliq siyosati-soliq tizimining tarkibiy bo‘g‘ini…….	116
5.4. §	Soliq siyosatining shakllari……..	123
5.5. §	Diskritsiyali va nodiskresiyali soliq siyosati……...	126
5.6. §	Rag‘batlantiruvchi soliq siyosati……	128
	Tayanch so‘z va iboralar.....	130
	Takrorlash uchun savollar.....	130
	Testlar……..	130
VI-BOB.	**SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASI VA TAKTIKASI…...**	132
6.1. §	Soliq siyosati strategiyasi mazmuni……	132
6.2. §	Soliq siyosati taktikalari mohiyati……...	134
6.3. §	Soliq siyosatining samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar…	138
	Tayanch so‘z va iboralar.....	141
	Takrorlash uchun savollar.....	141
	Testlar……..	141
VII-BOB.	**BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI TAMOYILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH.....**	**143**
7.1. §	Davlatning byudjet siyosati…….....	143
7.2. §	Soliq-byudjet siyosati usullari…….	147
7.3. §	Soliq-byudjet siyosati tamoyillari……	149
	Tayanch so‘z va iboralar.....	153
	Takrorlash uchun savollar.....	154
	Testlar……..	154
VIII-BOB.	**SOLIQ SIYOSATINING ISHLAB CHIQILISHI VA UNDA HOKIMIYAT ORGANLARINING ISHTIROKI.....**	**156**
8.1. §	Soliq siyosatining ishlab chiqilish jarayonlari.....	156
8.2. §	O‘zbekiston soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasining vakolatlari (ishtiroki).....	159

8.3. §	O‘zbekiston Respublikasida ijro hokimiyatining soliq siyosatidagi roli.....	161
8.4. §	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va soliq qo‘mitasining soliq siyosatidagi roli.....	163
8.5. §	Soliq siyosatida mahalliy davlat hokimiyati, sud-huquq tizimi va jamoatchilikning ishtiroki.....	165
	Tayanch so‘z va iboralar.....	166
	Takrorlash uchun savollar.....	166
	Testlar……..	167
IX-BOB.	**SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI BO‘YICHA SOLIQ TO‘LOVCHILARGA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH.....**	**169**
9.1. §	Maxsus soliq rejimlari.....	169
9.2. §	Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar.....	170
9.3. §	Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	170
9.4. §	Aylanmadan olinadigan soliq solish obyekti.....	173
9.5. §	Aylanmadan olinadigan soliq bazasi.....	175
9.6. §	Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	176
9.7. §	Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari.....	177
9.8. §	Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va to‘lash tartibi……	178
9.9. §	Qat’iy belgilangan summadagi soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	179
9.10. §	Jismoniy shaxslarning qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq stavkalari.....	180
	Tayanch so‘z va iboralar.....	181
	Takrorlash uchun savollar.....	181
	Testlar……..	182
X-BOB.	**SOLIQ HISOBOTLARINI QISQARTIRISH VA SODDALASHTIRISH…….**	**183**
10.1. §	Soliq solishni hisobga olish va hisob hujjatlari.....	183
10.2. §	Soliq solish hisobni yuritish.....	184
10.3. §	Soliq hisobotini tuzish.....	186
10.4. §	Soliq hisobotini taqdim etish tartibi.....	186
10.5. §	Soliq hisobotini saqlash muddati.....	188
	Tayanch so‘z va iboralar.....	188
	Takrorlash uchun savollar.....	189
	Testlar……..	189
XI-BOB.	**XORIJIY INVESTORLAR VA INVESTITSIYALAR UCHUN QULAY REJIMI, ULARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ISHONCHLI HUQUQIY HIMOYALASH…….**	**190**

11.1. §	To’g’ridan-to’g’ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari.....	190
11.2. §	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investistiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi.....	190
11.3. §	Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	191
11.4. §	Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo’llash tartibi.....	192
	Tayanch so‘z va iboralar.....	193
	Takrorlash uchun savollar.....	193
	Testlar……..	193
XII-BOB.	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQLAR VA YIG‘IMLAR TIZIMI. SOLIQ MUNOSABATLARINING SUB’EKTLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI…….**	**195**
12.1. §	O‘zbekiston Respublikasi soliqlar va yig‘imlar tizimi……	195
12.2. §	Soliq munosabatlarining sub’ektlari va hujjatlar almashish tartibi.....	197
12.3. §	Soliq to‘lovchilarning huquqlari.....	197
12.4. §	Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari.....	201
12.5. §	Soliq agentlari.....	202
12.6. §	Soliq to‘lovchining vakillari.....	203
12.7. §	Vakolatli organlar va soliq organlarining huquqlari.....	204
12.8. §	Soliq organlarining majburiyatlari.....	206
	Tayanch so‘z va iboralar.....	209
	Takrorlash uchun savollar.....	209
	Testlar……..	209
XIII - BOB.	**SOLIQ QONUNCHILIGINI SODDALASHTIRISH VA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI……**	211
13.1. §	Davlat soliq xizmati organlarining huquqlari.....	211
13.2. §	Davlat soliq xizmati organlarining majburiyatlari.....	215
13.3. §	Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi.....	219
13.4. §	Uchastka soliq inspektori.	221
13.5. §	Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash.....	222
13.6. §	Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining maxsus unvonlari.....	222
	Tayanch so‘z va iboralar.....	223
	Takrorlash uchun savollar.....	223

XIV-BOB.	**SOLIQ SIYOSATIDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH MASALALARI……**	**224**
14.1. §	Soliqlarni prognozlashtirish jarayoni va uni amalga oshirish….	224
14.2. §	Soliqlarni prognoz qilishning maqsadi, belgilari va tamoyillari.	230
14.3. §	Makro va mikrodarajada soliqlarni rejalashtirish masalalari…..	235
14.4. §	Soliqlarni prognoz qilishda modellarni qo‘llash…….	256
	Tayanch so‘z va iboralar.....	264
	Takrorlash uchun savollar.....	264
	Testlar……..	264
XV-BOB	**SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH VA UNI BAJARILISHINI TA’MINLASH……**	**267**
15.1. §	Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati.....	267
15.2. §	Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari.....	270
15.3. §	Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash.....	271
15.4. §	Soliqlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi.....	272
15.5. §	Yuridik shaxs tugatilganda soliq majburiyatini bajarish.....	273
15.6. §	Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda soliq majburiyatini bajarish.....	274
15.7. §	Soliq majburiyatining bajarilishini ta’minlash usullari……..	276
15.8. §	Banklardagi hisobvaraqlar bo’yicha operastiyalarni to’xtatib turish.....	280
15.9. §	Soliq to’lovchining (soliq agentining) banklardagi hisob-varaqlari bo’yicha operastiyalarni to’xtatib turish to’g’risidagi qarorni bekor qilish tartibi.....	282
15.10. §	Banklardagi hisobvaraqlar bo’yicha operastiyalarni to’xtatib turish to’g’risidagi qarorlarning banklar tomonidan bajarilishi tartibi.....	284
	Tayanch so‘z va iboralar.....	287
	Takrorlash uchun savollar.....	287
	Testlar……..	288
XVI-BOB	**SOLIQ NAZORATINING SHAKL VA MEXANIZM-LARINI TAKOMILLASHTIRISH……**	290
16.1. §	Soliq nazoratining shakllari.....	290
16.2. §	Soliq tekshiruvlarining turlari.....	291
16.3. §	Kameral soliq tekshiruvi.....	293
16.4. §	Sayyor soliq tekshiruvi.....	298
16.5. §	Soliq auditi.....	298
16.6. §	Soliq auditini o‘tkazish muddati va uni uzaytirish.....	301
	Tayanch so‘z va iboralar.....	310
	Takrorlash uchun savollar.....	310

	Testlar……..	310
XVII - BOB	**SOLIQ TEKSHIRUVLARINING VA SOLIQ NAZORATI BOSHQA CHORALARINING HUQUQIY OQIBATLARI**	**312**
17.1. §	Soliq auditi natijalarini rasmiylashtirish.....	312
17.2. §	Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi.....	314
17.3. §	Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi.....	314
17.4. §	Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilish.....	318
17.5. §	Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi.....	319
17.6. §	Soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi materiallar bo‘yicha qaror qabul qilish.....	326
17.7. §	Moliyaviy sankstiyalarni undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlarni ijro etish.....	328
	Tayanch so‘z va iboralar.....	328
	Takrorlash uchun savollar.....	328
	Testlar……..	329
XVIII-BOB.	**SOLIQ IMTIYOZLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....**	**331**
18.1. §	Soliq imtiyozlarining iqtisodiy mazmuni va uni belgilash mezonlari…….	331
18.2. §	Soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni rag‘batlantirish va tartiblashning nazariy talqini……...	338
18.3. §	Soliq imtiyozlarining turlari va prinsiplari……..	349
18.4. §	Vaqtinchalik soliq imtiyozlari…….	358
	Tayanch so‘z va iboralar.....	365
	Takrorlash uchun savollar.....	365
	Testlar……..	365
GLOSSARIY.....		367
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI….....		379

QAYDLAR UCHUN

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna,
Babayev Shavkat Bayramovich.

SOLIQ SIYOSATI

DARSLIK

Тошкент – «NIHOL PRINT» OK – 2025

Muharrir: Q. Matqurbonov
Tex. muharrir: A. Tog‘ayev
Musahhih: G. Tagayeva
Kompyuterda sahifalovchi: O. Maxamadieva

9323

№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.

Bosishga ruxsat etildi 25.06.2025. Bichimi 60x84 1/16.

Shartli bosma tabog‘i 27,0. Nashr bosma tabog‘i 24,75.

Adadi 15. Buyurtma № 40

«Nihol print » OK da chop etildi.

Toshkent shahri, Muxtor Ashrafiy ko‘chasi, 99./101